O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG’LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI

BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

“PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA TILLAR” KAFEDRASI

O’quv bo’limi
tomonidan ro’yxatga
olindi № _____
“____” _____2019 y.

“TASDIQLAYMAN”
O’quv va tarbiyaviy ishlar prorektori
t.f.n., dots._____ G.J.Jarilkasinova
“____” _____2019 y.

O’zbek tili fanidan

I - bosqich rus guruhi talabalari uchun

O`QUV – USLUBIY MAJMUA

2019-2020 o`quv yili

Buxoro - 2019

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT
TIBBIYOT INSTITUTI

"Tillar" fan kafedrasi

Bilim sohasi: 500000 – Sog`liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot

Ta'lim sohasi: 510000 – Sog`liqni saqlash

Ta'lim yo'nalishi: 5510100 - Davolash ishi
5111000 – Kasb ta'limi (5510100 – Davolash ishi)
5510200 – Pediatriya ishi
5510300 – Tibbiy profilaktika
5110700 – Oliy xamshiralik ishi
5510400 – Stomatologiya
5511000 – Bolalar stomatologiyasi
5510900 – Tibbiy biologiya ishi

Fanning nomi: "O`zbek tili"

Tuzuvchi: **D.A.Abdullayeva** – "O`zbek tili" fani o`qituvchisi, f.f.n., dotsent

Taqrizchilar:
Q. B. Shodmonov - "Tillar" fan kafedrasi mudiri, prof.
**D.Yo`ldosheva –**BuxDu o`zbek filologiyasi fakulteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi
O'zbek tili fanidan majmua "Tillar" kafedrasi yig'ilishida muhokama qilindi.
Yig'ilish bayoni: № 1-son, 2019-yil
Kafedra mudiri: G.N.Qurbonova - "Pedagogika, psixologiya va tillar" kafedrasi mudiri, dotsent

Ushbu majmua Buxoro tibbiyot instituti markaziy uslubiy kengashida muhokama qilingan va tasdiqlangan.
Bayonnoma_____"___" 2019-yil

ANNOTATSIYA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish, mamlakatimizning izchil rivojlanib borayotgan iqtisodiyotini yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlash, barcha hududlar va tarmoqlarni strategik jihatdan kompleks rivojlantirish masalalarini hal qilish borasida oily ta’lim tizimi ishtirokini kengaytirish yo‘lidagi yana bir muhim amaliy qadamdir.

O‘zbek tili” fani bo‘yicha tayyorlangan o‘quv uslubiy majmua o‘quv jarayoninig nazariy, amaliy, ijodiy jihatlarini to‘liq aks ettirib, innovatsion texnologiyalar bilan boyitilgan. Bu talabalarning fanni qulay va oson o‘zlashtirishlariga yordam beradi, o‘z ustida ishlashlari uchun sharoit yaratadi.O‘zbek tilini o‘qitish tamoyillari, mazmuni va uslubini o‘zgartirib, o‘zbek tilini

o‘rganish jarayonini tezlashtirish, talabalarning o‘rta maktabda, akademik litsey va kollejlarda olgan bilimlarini chuqurlashtirish, takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan nutqiy ko‘nikmalarni hosil qilish, o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan o‘z mutaxassisligi bo‘yicha foydalanish, fikrni to‘g‘ri, aniq, mantiqli ifoda etishga o‘rganish ko‘zda tutiladi. Shularni nazarda tutib o‘quv uslubiy majmua nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan kommunikativ tamoyilga asoslanib tuzildi. Bu esa “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishningbeshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI”da ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari yuzasidan “Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish” bo‘yicha “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish yo‘lini davom ettirish, sifatli ta’lim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash”ga tola mos keladi. Majmua birinchi o‘ringa asosiy mavzu sifatida nutqiy mavzularning qo‘yilishi bilan farqlanadi. Grammatik bilimlar fikr ifodalash vositasi bo‘lib, asosiy maqsadning amalga oshishiga xizmat qiladi.O‘zbek tili ta’limi turmush va mehnat faoliyatidagi nutq mavzulari doirasini yanada kengaytirilgan hamda ixtisoslikka moslashtirilgan tarzda o‘zbekcha nutqni tinglash, so‘zlash, o‘qish va yozish amallarini uyg‘unlashtirib o‘rgatish bilan ajralib turadi. Bunda talaba oldiga ilmiy-badiiy adabiyotlarni o‘qib tushunish, mutaxassislik sohasida matn yaratish, matnni shakl va mazmun jihatdan yangilash,boshqa nutq uslubiga ko‘chira olish kabi talablar qo‘yildi. Majmuada har bir mashg‘ulotga matnlar, topshiriqlar, mashqlar,mustahkamlash uchun savollar, testlar, mustaqil ta’lim topshiriqlari, namunaviy va ishchi o’quv dasturlari berildi. Shuningdek, davlat tilida ish yuritish, suhbat, bahslashuv orqali mustaqil yozma ishlarni uyushtirish, matn tuzdirish talabalarning ixtisosligiga ko‘ra belgilanadi.

MUNDARIJA:

1. O`QUV MATERIALLARI……..

1.1.Amaliy mashg`ulot mavzulari……..

1.O'zbekiston - yagona vatan. Ozbek tili fanining maqsad va vazifalari. Davlat tili va lotin yozuviga asoslangan o`zbek alifbosini o`rganishning ahamiyati. O`zbek tilining tovush tuzilishi.....

2.Oilam - tayanchim va faxrim. Urg`u va bo'g`in ko'chirishqoidalari…….

3.O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlari.Leksikologiya.So'zlarning to'g`ri va ko'chma ma'nosi (omonim, sinonim, antonim, paronim so'zlar)…….....

4.Ona tili – millat ko'zgusi. So'z va atama. Til va terminologiya…….

5.Dunyo tillari."Har bir xalqning o'z tili" mavzusida esse yozish……

6.Odam anatomiyasi.Morfologiya. So'z turkumlari. Ot haqida umumiy tushuncha. Otlarda son kategoriyasi. Egalik qo'shimchalarining ishlatilishi……..

7.Men shifokor bo'lmo`qchiman.Otlarda kelishikkategoriyasi…….

8.Shifoxonada.Otlarning yasalishi…….

9.Yil fasllari. O'zbek tilida sifatlarning o'ziga xos xususiyatlari. Sifatning ma'no va tuzilishiga ko'ra turlari. Sifat darajalari. Sifatlarning yasalishi……..

10.Abu Ali ibn Sino.Son haqida umumiy tushuncha. Sonning ma'no va tuzilishi jihatdan turlari. O'zbek tilida vaqt hisobi…….

11.Dorishunoslik.Olmosh va uning turlari, gapda qo'llanishi, vazifalari……..

12.Ulug` ajdodlarimiz.Fe'l. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar…….

13.Tez yordam chaqirish.Fe'llarda zamon kategoriyasi. Hozirgi zamon fe'li……...

14.Tish nima o'zi? O'tgan zamon fe'li. Kelasi zamon fe'li……...

15.XXI asrda innovatsiyalar.Ravishdosh va uning qo'llanishi……..

16.Poliklinikada. Anamnez yig`ish. Sifatdosh. Harakat nomi……...

17.Yurak kasalliklari.Ravish haqida tushuncha. Ravishlarning ma'noga ko'ra turlari, yasalishi……

18.Nafas olish a'zolari kasalliklari.Ko'makchi……...

19.Sharq tabobati haqida suhbatlar. Bog`lovchi va yuklamalar haqida ma'lumot……..

20.Kasbiy deontologiya. Modal so'z.Undov so'z. Taqlid so'z……

21.Pediatriya. O'zbek tili sintaksisi. Gap. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari.....

22.Stomatolog qabulida. Gapda so'z tartibi.....

23.Tozalik va orastalik sog`lik garovidir. Gap bo'laklari. Bosh bo'laklar.....

24.Yuqumli kasalliklar. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari.....

25.Tabiatvabiz. Gapning uyushiq bo'laklari……

26.Ichki kasalliklar. Qo'shma gap va uning turlari. Bog`langan qo'shma gap……...

27.Bolalarda uchraydigan kasalliklar.Ergashgan qo'shma gap va uning turlari…….

28.Alisher Navoiy tabiblar to'g`risida.Ko'chirma va o'zlashtirma gap……..

29.Hamkasblar muloqoti: ixtisoslik bo'yicha savodli muloqotga o'rgatish. Nutq madaniyati……..

30.Sog`lom turmush tarzi.Nutқ uslublari. So'zlashuv uslubi……

31.Internet hayotimizda. Publististik uslub va uning xususiyatlari. Xabar, reportaj, maqola……

32.Qon ketganda birinchi yordam ko'rsatish. Musohaba turlari……

33.Men sevgan asar. Badiiy uslub va uning xususiyatlari……..

34.Farzandlarning ota-ona va Vatan oldidagi burch va vazifalari. Badiiy essening o'ziga xos xususiyati. Badiiy esse yozish……

35.Hujjatlar bilan ishlash. Ish yuritish tartibi.Rasmiy-idoraviy uslub va uning xususiyatlari. Tarjimai hol, tavsifnoma……..

36.Organizmda moddalar almashinuvi.Ma'lumotnoma, ishonchnoma va bildirishnoma.

37.Immunitet. Ariza, tushuntirish xati……

38.Bola parvarishi.Majlis bayoni va kasallik tarixi……

39.Xalq tabobati xazinasidan.Ilmiy uslub va uning xususiyatlari. Tezis, annotastiya yozish……..

40.Milliy va umuminsoniy qadriyatlar. Ilmiy referat…….

41.Xafaqon kasalligi. Ilmiy maqola……...

42.Endokrin kasalliklari. Ilmiy maqolalar tahriri……..

43.Farmastevtik terminlarni lotin yozuvidagi o'zbek alifbosida yozish tartibi. Ilmiy taqriz.

44.Dori vositalari yo'riqnomalari ustida ishlash. OAVlari va internetga maqola va ma'lumotlar tayyorlash.....

45.Zahiriddin Muҳammad Bobur asarlarida dorivor o'simliklar.Punktuatsiya.....

1.2. ADABIYOTLAR RO`YXATI……

2. MUSTAQIL TA`LIM MASHG`ULOTLARI…….

3. GLOSSARIY……..

4. ILOVALAR……..

4.1. Fan dasturi……

4.2. Ishchi fan dasturi……..

4.3.Testlar……

4.4. Baholash mezonlari……

4.5. Adabiyotlar……

AMALIY MASHG`ULOT MATERIALLARI

Mavzu:O'zbekiston - yagona vatan. O’zbek tili fanining maqsad va vazifalari. Davlat tili va lotin yozuviga asoslangan o`zbek alifbosini o`rganishning ahamiyati. O`zbek tilining tovush tuzilishi.

Reja:

1.O`zbek tilining maqsad va vazifalari.

2. Davlat tili va lotin yozuviga asoslangan o’zbek alifbosini o’rganishning ahamiyati.

3. O’zbek tilining tovush tuzilishi.

4.Vatan – muqaddas sajdagoh.

5.Fidoying bo`lgaymiz seni O`zbekiston!

✓ **Bilib oling**:

• ***O’zbek tilining maqsadi va vazifasi*** **-** fanning maqsadi ixtisoslik ta’lim yo’nalishidagi bilim va ko’nikmalardan tashqari, kundalik muloqot bilan bog`liq hamda ma’naviy-ma’rifiy bilimlarni o’z ichiga oladigan mavzularga ham e’tibor qaratishdan iborat.

Amaliy mashg`ulotlarda asosiy leksik mavzular, jonli muloqotlar o’z fikrini mustaqil yozma va og`zaki nutq orqali ifodalay olish, so’z va iboralarning tarjimasi, talaffuzi va ixtisoslikka oid so’z boyligi hamda zarur til ko’nikmalarini egallashga, shuningdek, til o’rganish va o’zlashtirishning barcha vositalari, ya’ni og`zaki nutq, o’qish, yozuv, so’z boyligi, grammatikadan unumli va to’g`ri foydalanish, amaliyotda qo’llashni o’rgatish ***fanning asosiy vazifalaridir.***

• 1989- yil 21- oktabr O‘zbekiston Respublikasining Davlat tilito‘g‘risidagi Qonun qabul qilindi. 1993- yil 2- sentabr Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida Qonun qabul qilindi. 1995- yil 6-7- mayda mazkur qonunga o‘zgarish va qo‘shimchalar kiritildi.1995-yil 24 avgustda O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlashto‘g‘risida Vazirlar Mahkamasining Qarori e’lon qilindi.

• FONETIKA VA ORFOEPIYA

Фонетика – наука, изучающая звуковую систему языка. Вней рассматриваются звуки речи фонетические процессы, происходящие в речи, слог, ударение и интонация.Орфоэпия - это наука о произносительных нормах языка.Орфоэпия рассматривает правила произношения слов и форм

слова, постановки ударения в слове. Фонетика и орфоэпия взаимосвязаны. Звук не следует смешивать с буквой. Звук мы произносим и слышим, а букву пишем и видим. Буква - это условный знак, символ для передачи звуков речи в письме.

• ***O`zbek alifbosi***

1. **Aa**2.Bb 3.Dd**4.Ee**5.Ff 6.Gg 7.Hh**8.Ii**9.Jj 10.Kk 11.Ll 12.Mm

13.Nn**14.Oo** 15.Pp 16.Qq 17.Rr18.Ss 19.Tt **20.Uu** 21.Vv 22.Xx 23.Yy

24.Zz **25.O`o`**26.G`g` 27.Shsh 28.Chch 29.Ngng **’ (tutuq belgisi)**

✓ ***Unli:*** O`pkadan chiqayotgan havo og`iz bo`shligi`da to`siqqa uchramaydi. O`zbek tilida 6 ta unli tovush bor.

✓ ***Undosh:*** O`pkadan chiqayotgan havo og`iz bo`shligi`da to`siqqa uchramaydi.O`zbek tilida 23 ta undosh tovush bor.


1-topshiriq. Berilgan she`rni ifodali o`qing va ishtirok etgan unlilar tagiga chizing. Nechta unli harf ishtirok etgan? She`rni yodlang.

VATANIM


Men dunyoni nima qildim,
O`zing yorug` jahonim,
O`zim xoqon,
O`zim sulton,
Sen taxti Sulaymonim,
Yolg`izim,
Yagonam deymi,
Topingan koshonam deymi,
O`zing mening ulug`lardan
Ulug`imsan, Vatanim…

2-topshiriq. Berilgan savollarga guruhlarga bo`lingan holda klaster asosida javoblarni yozing.


1-guruh:



2-guruh:



3-guruh:



3- topshiriq. Gaplarni o‘qing, rus tilida berilgan so‘z va so‘z birikmalarini o‘zbek tiliga tarjima qiling.

MUSTAQIL O‘ZBEKISTON

1991- yili O‘zbekiston tarixida ulkan voqea sodir bo‘ldi – Mustaqillik e’lon qilindi. Juda boy tabiiy resurslarga, katta iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo‘lganO‘zbekiston Respublikasi Mustaqillik e’lon qilinganidan keyin tabiiy boyliklarini o‘zgalarning zug‘umisiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini oshirish yo‘lida xizmat qildirishga haqli bo‘lib qoldi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari VI sessiyasi 1991-yil 31 avgustda qabul qilgan bayonotda deyilgan:Территория Республики Узбекистан вместе с территорией Республики Кракалпак тан,входящей в её состав,..инеприкосновенна. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi uchun navbatdagi ulkan tarixiy voqea: 2 марта 1992 года, когда Организация Объединенных Наций, созданная в 1945 году, приняла решение о принятии Республики Узбекистан в свой состав. BoshqadavlatlarsingariO‘zbekiston ham jahon ning anashu eng mo‘tabar tashkilotining to‘la huquqli a’zosi bo‘ldi.O‘zbekiston Respublikasi O‘rta Osiyo iqtisodiy rayonining markaziy qismida, Amudaryo bilan Sirdaryo singari ulkan daryolar oralig‘ida joylashgan. Respublika hududining uzunligi g‘arbdan sharqqa qadar 1425 kilometr, shimoldan janubga qadar 930 kilometr. O‘zbekiston Yevropadagi Buyuk Britaniya, Belgiya, Daniya, Shvetsariya, Avstriya davlatlarini birga olganda, ulardan kattalik qiladi.Respublika shimoliy - sharqda Qozog‘iston, sharqda va janubiy -sharqda Qirg‘iziston hamda Tojikiston, g‘arbda Turkmaniston va janubda Afg‘oniston bilan chegaradosh. O`zbekistonda 32 milliondan ortiq turli millatga mansub aholi istiqomat qiladi.

4-topsiriq.Berilgan lug`atlar asosida “Ozbekiston davlatchiligining asoslari" mavzusida dialog tuzish.

Lug`at ishi

O`zbek tili	**Rus tili**	**Ingliz tili**
Shakllanmoq	Формироваться	To form
Mahalachilik	Махаллинство	Local goings-on
Begona	Чужой	Strange
Inoq	дружный, дружно	Close, friendly
Bamaslahat	Сообща	Jointly
Kerak bo`lsa	Еслипонадобиться	To be needed
Obodonlashtirish	Благоустраивать	Beautify
Obod	Благоустроенный	Equipped
Keksa	Пожилой	Old
Katta – yukichik	и стар и млад	Old and young alike

5-topshiriq. “O`zbekiston yagona - Vatan" mavzusida bayon yozing.
6- topshiriq. Quyidagi so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qiling. Tarjimasini lug‘atdan topib ayting va yozing.Ushbu juftliklar qaysi jihati bilan farqlanganligini ayting.
Ur - o‘r - or , un - o‘n - on, uz - o‘z - oz, uch - o‘ch -och, uq - o‘q- oq, toq- to‘q, turt - tort - to‘rt, tur – tor - to‘r, os-o‘s.
7-topshiriq.Berilgan raqamlar ostida yashiringan gapni toping va daftraringizga yozing.
21, 1, 19, 1, 13 12, 20, 16, 1, 3, 3, 1, 18.
8-topshiriq. Berilgan “Aqliy hujum” savollariga og`zaki javob bering.
1.O`zbekiston Respublikasi qachon mustaqillikka erishgan?
2.O`zbek tilida nechta undosh harf mavjud?
3.O`zbekiston qaysi davlatlar bilan chegaradosh?
4.O`zbekiston qaysi yozuv asosida ish olib boradi?
5.O`zbek tilida nechta unli harf bor?
6.”Inoq” so`zining ruscha tarjimasi -
7.O`zbek tiliga qachon Davlat tili maqomi berildi?
8.Fonetika nimani o`rganadi?
9. “Формироваться” so`zining o`zbekcha tarjimasi -
10. Vatan haqida maqol ayting.
9- topshiriq. So‘zlarni o‘qing, talaffuziga e’tibor bering.
tana - ta’na, san’at - sanat, qal’a - qala, a’lo - allo.
10- topshiriq. Quyidagi ruscha va o‘zbekcha so‘zlarning talaffuziga (ohangiga) e’tibor berib o‘qing. Shu so‘zlar ishtirokida o‘zbek tilida 5 ta gap tuzib, daftaringizga yozing.

O‘zbekcha	**Ruscha**
Ot	от
Tom	том
Tok	ток (электричество)
soncoн	

Mustaqil topshiriq: “O’zbekiston o’tmishi ham, kelajagi ham buyuk davlat” mavzusida referat tayyorlash.
Foydalanilgan adabiyotlar: AA 1, QA 2, 23

Mavzu:Oilam - tayanchim va faxrim. Urg`u va bo’g`in ko’chirish qoidalari.
Reja:
1.Urg`u va bo’g`in ko’chirish qoidalari.
2. Oila muqaddas dargoh.
3. Meningoilam.
✓ **Bilib oling! URG‘U(Ударение)**Ударение - это выделение одного из слогов в составе слова или целого словосочетания путем усиления голоса, повышения тона.
✓ Различают: so‘z urg‘usi (словесное) и gap urg‘usi логическое (внутри предложения, фразы)
Словесное ударение - силовое или динамическое, прикотором ударный слог по сравнению с неударным выделяетсяглавным образом большей напряженностью артикуляции данногослога.

Ударение в узбекском языке обычно связанное,фиксируемое, падает на последний слог. Но встречаются слова иформы слов, в которых ударение падает на другие слоги.Силовое ударение на последнем слоге встречаются вдвусложных существительных, прилагательных, глаголах, а такжев односложных корневых словах в сочетании с ударнымаффиксом: qishloq, ishlamoq, ishchi, kelgan, shahrim, kitobi и т.д.

В тре- и многосложных словах, состоящих из корня илиосновы в сочетании с ударными аффиксами, наряду с ударениемна последнем слоге - главным, наиболее сильным, возникают ещеболее слабые, второстепенные ударения, например: qaramoq,ehtimol, o‘rikzorит.д.

✓ Сильное ударение не на последнем слоге имеет место в следующих случаях:

1) во всех лицах повелительного наклонения, например: gapir,kelgin, boshla, boray, olgin.

2) когда к слову происоединяется безударный аффикс,например: ishchiman, yoshdir, o‘qituvchi и т.д.

3) в заимствованных словах, например: kassa, vokzal, g‘alaba,g‘olib, Gamlet, Londonит.д.

Ударение может также служить для различения значения: atlas(материя), atlas (географический); akademik (ученое звание),akademik (академический); yigitcha(по-мужски), yigitcha (молодойчеловек – уменьшительно- ласкательное).четырехсложными: o‘qituvchi (учитель); пятисложными: momaqaldiroq (гроза).

✓ **BO`G`IN (Слог)** Один или несколько звуков, произносимых одним потокомвоздуха, называют слогом. Слова могут быть односложными: u (он,она, оно), bor (имеется); двух-сложными: ona (мать), bola (ребёнок);трехсложными: g‘alaba (победа): qarag‘ay (сосна); четырехсложными:o‘qituvchi (учитель); пятисложными: momaqaldiroq (гроза).

В узбекском языке встречаются следующие типы слогов.

1. один гласный: o-na, u-ka;2. согласный + гласный: da-la, bo-la;

3. гласный + согласный: osh, ot;4. согласный + гласный + согласный: kel, yo‘q;

5. гласный + согласный + согласный: ost, ust;6. согласный + гласный + согласный + согласный: to‘rt, qirq.

Помните: Сочетания букв ng, sh, ch переносятся на следующую строку или оставляется в верхней, но не делятся: si -

ngil, to - ngi, tong - gi, ich - ki, bur - chak, ish – ti - rok, sho – shi - linch.

1- topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Oilangiz necha kishidan iborat? 2. Dadangiz qayerda va kim bo‘lib ishlaydilar? Oyingiz-chi? 3. Oilada nechta farzandinsiz? 4. Ko‘p qavatli uyda turasizmi yoki hovlida? 5. Akangiz (opangiz) nima bilan shug‘ulanadi? Ukangizchi?

2- topshiriq. Quyidagi so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratib yozing.

Avval, aloqa, baland, bahor, daraxtzor, ishlamoq, davomat, o‘quvchi, jiddiy, zafar, mehnatsevar, singil, e’lon, oila, ko‘ngil, mustaqillik, qonun,navbatdagi, ulkan, tarixiy, voqea.

3 - topshiriq. Quyidagi so‘zlarni birinchibo‘g‘inida urg‘u bilan o‘qing.Gapir (говори), boshla (начинай), borgin (идиже), keling(приходите), kelsin (пустьпридет), boray(in) (пойду-ка), keldi (онпришел), ketdi (онушел), ikki (два), olti (шесть), to‘qqiz (девять).Один или несколько звуков, произносимых одним потоком воздуха, называютслогом. Словамогутбытьодносложными: u (он,она, оно), bor (имеется); двух-сложными: ona (мать), bola (ребёнок);трехсложными: g‘alaba (победа): qarag‘ay (сосна);

4-topshiriq. Quyidagi so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratib, alifbo tartibida yozing.

Bayonot, jumladan, deyilgan, tarkibidagi, hududiy, bo‘linmas,daxlsizdir, davlatlarga, da’volari, tarjimon, tabiiy, nisbatan, san’atshunos,taxallus, huquq, navbatdagi, istiqlol.

5- topshiriq. Matnni o‘qing va mazmunini aytib bering.

OILA MUQADDAS DARGOH

Dam olish kuni buvam bilan buvimni ko‘rgani bordik. Ular kattagina hovlida amakim bilan yashashadi. Dadamlar oilada beshta farzand bo‘lishgan.Shu kuni hamma yig‘ildi. Keng hovliga ham sig‘may qoldik, chunki buvim va buvamning o‘n yettita nabiralari, oltita evaralari bor. Hamma jam bo‘lib, dasturxon atrofida yig‘ilganda oila muqaddas ekanini xis qiladi kishi. Buvam har birimizning o‘qish va ishlarimizni surishtirdilar, yaxshi o‘qishni tayinlab, duo qildilar. Keyin o‘z qo‘llari bilan palov pishirdilar. Bu o‘ziga xos an’ana. Doim ularnikida yig‘ilganmizda buvam o‘zlari osh qiladilar. Biz bolalar mazza qilib o‘ynadik. Bog‘da mevalar g‘arq pishgan. Olma, uzumga rosa to‘ydik. Kech tushgach hamma uy-yuiga tarqaladi. Endi hayit bayrami kuni yig‘iladigan bo‘ldik. Men shu kuning tezroq kelishini istardim.

6-topshiriq.Berilgan lug`atdagi so`zlardan foydalanib, “Qarindoshlar davrasida” mavzusida ijodiy ish yozing.

Lug‘at ishi

ahilдружный, дружно hisobchi бухгалтер

hamshira медсестра birga в месте

erinmay неленясь tekshirmoq проверить

istamoq хотеть

7-topshiriq.Berilgan so`zlarni ko`chiring va urg`u tushgan bo`g`inni belgilang.

Ona, tinchlik, o‘qish, yaxshi, yoqimli, ilmiy, yumshoq, ellik, kimdir,aslo, ammo, hozir, albatta, yigitcha, bormi, sizchi, lampa, gazeta, leksiya,auditoriya, sanatoriy, konstitutsiya, respublika, ruchka, atom, radio, o‘rtancha (akam) средний (старшей брат) umidlari katta возлагают большие надежжды

Mustaqil topshiriq: Sog`lom muhit– sog`lom avlod.

Foydalanilgan adabiyotlar:AA 2, QA 21, 26

Mavzu: O’zbekiston Respublikasi davlat ramzlari.Leksikologiya. So’zlarning to’g`ri va ko’chma ma’nosi (omonim, sinonim, antonim, paronim so’zlar).

Reja:

1. Leksikologiya bo`limi haqida ma`lumot.
2. So’zlarning to’g`ri va ko’chma ma’nosi (omonim, sinonim, antonim, paronim so’zlar).
3. O’zbekiston Respublikasi davlat ramzlari.

✓ **Bilib oling! LEKSIKA.Лексика (лексикология)** – раздел языкознания, изучающий словарный состав языка.



Словарный состав узбекского языка состоит из древнетюрских: yog‘och (дерево), kun (солнце); узбекских: gulzor (цветник), odobli (воспитанный); и заимствованных слов. Большое количество слов заимствованы с арабского, персидского языков,также и с русского или через русский с европейских языков.

BIR MA’NOLI VA KO‘P MA’NOLI SO‘ZLAR

(Моносемантические и полисемантические слова)Слова могут употреблятся в одном или нескольких

значениях. К однозначным можно отнести: ravish (наречие), chumchuq (воробей).

частях речи и большинство общеупотребительных слов полисемантичны.

Многозначные слова имеют to‘g‘ri ma’no (прямое) и ko‘chma ma’no (косвенное) значения. К примеру,

Sinf keng va yorug‘ - Класс просторный и светлый. Sinf o‘rnidan turdi - Класс встал.

В первом случае слово sinf употреблено в прямом, а во втором в косвенном значениях.

So’zlarning shakl va ma'no munosabatlariga ko’ra turlari



Tildagi ayrim so'zlar shakliy jihatdan, ayrimlari ma'no jihatidan, bir xillari esa talaffuzi jihatidan o'xshash bo'ladi. Ayrim so'zlarning ma'nolari esa bir-biriga qarama-qarshi bo'ladi. Ana shu xususiyatlarga ko'ra so'zlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Omonimlar (shakldosh so'zlar) - grekcha *homos* – "bir xil", *onoma* yoki *onyma* – "nom" degan ma'nolarni ifodalab, talaffuzi va yozilishi bir xil, ammo ma'nosi har xil bo'lgan so'zlardir: *yuz* (ot)– *yuz* (son), *tut* (daraxt)–*tut* (harakat).

2. Sinonimlar (ma'nodosh so'zlar) - grekcha *synonymos* yoki *synonymon* – "bir nomli" degan ma'noni bildirib, shakli har xil bo'lsa ham, ma'nolari bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlardir. Sinonim so'zlar bir xil predmetlarni *(ovqat, osh, taom),* predmetning bir xil belgisini *(ishchan, harakatchan, tirishqoq),* bir xildagi harakatni *(asramoq, saqlamoq)* bildiradi.

Bunday so'zlar ikki yoki undan ortiq so'zdan iborat bo'lgan sinonimik qatorni tashkil etadi. Bu qatordagi ma'nosi betaraf bo'lgan, ko'p qo'llanadigan so'z **asosiy so'z (dominanta, bosh so'z)** deb ataladi: ***chiroyli****, go'zal, ko'hlik.*Sinonimlarning quyidagi turlari mavjud:

3. Antonimlar (zid ma'noli so'zlar) - grekcha *anti* – "zid", "qarama-qarshi", *onoma* yoki *onyma* "nom" degani bo'lib, qarama-qarshi tushunchalarni ifodalaydigan so'zlardir. Antonimik juftlikdagi so'zlar faqat bir xil so'z turkumlariga oid bo'ladi: *yer-osmon* (ot), *uzun-qisqa* (sifat), *ko'p - oz*(ravish), *keldi - ketdi* (fe'l).

4. Paronimlar (talaffuzdosh so'zlar) - ruscha *para*, ya'ni "juft" va grekcha *onoma* yoki *onyma*, ya'ni "nom" degani bo'lib, aytilishi bir-biriga yaqin, ammo yozilishi va ma'nosi har xil bo'lgan so'zlardir. Paronimlarko'pinchabirtovushbilanbir-biridanfarqqiladi: *asr - asir, shox - shoh, amr - amir.*Paronimlarba'zanog'zakinutqda,

badiiyasarlardauchraydi. Ular bir so’z turkumiga ham, turli so’z turkumlariga ham oid bo’lishi mumkin: *zirak*(ot) - *ziyrak* (sifat); *asr* (ot) - *asir* (ot). Paronimlarning quyidagi turlari mavjud.
1-topshiriq.Berilgan matni o`qing.So`zlarning qaysi ma`no turlari ishlatilganini aniqlang.

Davlat bayrog'i



Davlat bayrog‘i O‘zbekiston Respublikasining 1991 yil 18 noyabrdagi 407-XII-sonli «O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida»gi Qonuni bilan tasdiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i — bayroqning butun uzunligi bo‘ylab o‘tgan to‘q moviy rang, oq rang va to‘q yashil rangli uchta endan tarkib topgan to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi matodir.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining uzunligi 250 santimetrga, kengligi 125 santimetrga teng. Moviy rang, oq rang va yashil rangli enlarning kengligi bir xil. Har bir en 40 santimetrga tengdir. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining o‘rtasidagi oq rangli enning chetlaridan kengligi 2,5 santimetrga teng qizil hoshiyalar o‘tkazilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining yuqori qismidagi moviy rangli enning yuz tomoni va orqa tomonida dastaga yaqin joyida oq rangli yangi oy va uning yonida o‘n ikkita oq rangdagi besh qirrali yulduz tasvirlangan.

Oq rangli yangi oy va o‘n ikkita oq rangli besh qirrali yulduzning tasviri moviy rangli yuqori enning o‘rtasidan 70x30 santimetrga teng to‘g‘ri to‘rtburchakka sig‘adigan qilib joylashtirilgan.

Oq rangli yangi oy vertikal holatda do‘ng tomoni dastaga qaratilgan, dastadan 20 santimetr masofada joylashtirilgan bo‘lib, diametri 30 santimetrli doiraga sig‘adi.

O‘n ikkita oq rangli besh qirrali yulduz diametri 6 santimetrli doiraga sig‘adi. Doiralar orasidagi masofa 6 santimetr. Yulduzlar uzunasiga va tikkasiga quyidagi tartibda joylashadi: yuqori qatorda uchta, o‘rta qatorda to‘rtta va quyi qatorda beshta yulduz. Quyi qatordagi yulduzlar yangi oyning pastki uchidan 3,5 santimetr masofada joylashadi.

2-topshiriq. Berilgan matnni o`qing.”BBB” jadvaliga joylashtiring.

Davlat gerbi



Davlat gerbi O‘zbekiston Respublikasining 1992 yil 2 iyuldagi 616-XII-sonli «O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to‘g‘risida»gi Qonuni bilan tasdiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi quyidagi ko‘rinishga ega: tog‘lar, daryolar va so‘l tomoni bug‘doy boshoqlaridan, o‘ng

tomoni esa chanoqlari ochilgan g‘o‘za shoxlaridan iborat chambarga o‘ralgan gullagan vodiy uzra quyosh zarrin nurlarini sochib turadi. Gerbning yuqori qismida Respublika hurligining ramzi sifatida sakkizburchak tasvirlangan bo‘lib, uning ichki qismida yarim oy va yulduz tasvirlangan. Gerbning markazida baxt va erksevarlik ramzi — qanotlarini yozgan Humo qushi tasvirlangan. Gerbning pastki qismida O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ini ifoda etuvchi chambar lentasining bantida «O‘zbekiston» deb yozib qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbining rangli ko‘rinishida: Humo qushi va daryolar — kumush rangida; quyosh, boshoqlar, paxta chanoqlari va «O‘zbekiston» yozuvi — oltin rangida; g‘o‘za shoxlari va barglari, tog‘lar va vodiy — yashil rangda; chanoqlardagi paxta — oq rangda; lenta — O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining ranglarini aks ettiruvchi uch xil rangda; sakkizburchak — oltin zarhal bilan hoshiyalangan holda havo rangda; yarim oy va yulduzlar — oq rangida tasvirlangan.

3-topshiriq. Berilgan matndan sinonim so`zlarni topib, daftaringizga yozing.

Davlat madhiyasi

O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining matni va musiqasi O‘zbekiston Respublikasining 1992 yil 10 dekabrdagi 768-XII-sonli «O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risida»gi Qonuni bilan tasdiqlangan.

Madhiya matni

Serquyosh, hur o‘lkam, elga baxt, najot,
Sen o‘zing do‘stlarga yo‘ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilmu fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

Oltin bu vodiylar — jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo‘r qanot!
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,
Haqsevar, ona yurt, mangu bo‘l obod!

Oltin bu vodiylar — jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Mutal Burxonov musiqasi
Abdulla Oripov she'ri

4-topshiriq."Men nechun sevaman Vatanimni" mavzusid**a** insho yozing.

5- topshiriq. Berilgan so‘zlarning sinonimlarini toping.

do‘st, ozod, ko‘rkam.

6-topshiriq. Berilgan so`larni yozib oling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Lug‘at ishi

qadimgi древний
beqiyosнесравенный
ilmiy-nazariyнаучно – теоретически (й**)**
mavqe статус, положение
jahonhamjamiyati мировое сообщество
kirishmoqбраться (за какое– нибудь дело)
tasdiqlamoq подтверждать
jahonmiqyosiмировойуровень
shuboisпоэтому
qadrtopmoq цениться
ishtiyoq страстное желание

7- topshiriq. Antonimlarni topib, ko‘chiring. Yod oling.
1. Kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo‘l. 2. U goh kulib, goh yig‘lab bo‘lgan voqeani aytib berdi. 3. Yaxshi topib gapiradi, yomon qopib. 4. Ilmsiz bir yashar, ilmli ming yashar.
8- topshiriq. Berilgan so‘zlardan omonimlarni ajrating va ular ishtirokida gap tuzing.
Bosh, oyoq, qo‘l, tok, soch, kul.
9-topshiriq. Paronimga misollar yozing.
Adabiyotlar: AA 1,QA 4, 31

Mavzu: Ona tili – millat ko’zgusi.So’z va atama. Til va terminologiya.
Reja:
1. So’z va atama haqida tushuncha.
2.Til va terminologiya haqida ma`lumot.
3.Til – dil kaliti.

✓ **Bilib oling!**Ma’lum ma’no bilan bog`langan va morfologik shakllangan tovush yoki tovushlar birikmasi **so’z** sanaladi.

✓ **ATAMALAR (terminlar**) - ilm-fan, texnika, san’atga xos so’zlardir. Bular odatda bir ma’noni bildiradi: (tilshunoslikda) urg’u, kesim, undalma, aniqlovchi, to’ldiruvchi, hol va b.

Atamalar ikki guruhga bo’linadi:
1.Ilmiy atamalar 2. Kasbiy atamalar

Ma’lum bir fan doirasida qo’llaniladigan atamalar ilmiy atamalar deyiladi.

Ma’lum kasb-hunar doirasida aniq bir ma’noni ifodalash uchun qo’llaniladigan so’zlarga kasbiy atamalar deyiladi.

Atamalar ilmiy nutqda qo’llanadi. Ular ikki xil usul bilan hosil qilinadi:

a) umumxalq ishlatadigan so’zlar orasidan ayrimlarining ma’nosi torayib, umumxalq tilida bir ma’noni, ilmiy nutqda esa boshqa ma’noni ifodalaydigan bo’lib qoladi: fe’l (umumxalq tilida xarakter, fe’l-atvor ma’nosini, ilmiy tilda so’z turkumi nomini bildiradi);

b) boshqa tillardan so’z olish orqali hosil qilinadi: omonim, paronim va b.

2) shevaga xos so’zlar – ma’lum hududdagina ishlatilib, faqat щu yerda yashovchi kishilarga tushunarli bo’lgan so’zlardir: xorazmcha momo (buvi), gashir (sabzi), moyak (tuxum), o’jak (buzoq), taxya (do’ppi), secha (chumchuq), taka (yostiq), hovva (ha); farg’onacha shatta (shu yerda), valish (ishkom), paqir (chelak); buxorocha kallapo’sh (do’ppi), inak (sigir), nana (ona); toshkentcha ada (ota), dada (bobo);

✓ **TERMIN** VA **TERMINOLOGIYA**

TERMIN *[lot. (terminus – chek, chegara]* Fan, texnika, kasb-hunarning biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo'lgan so'z yoki so'z birikmasi; atama. *Botanika terminlari. Zargarlik terminlari. Paxtachilik terminlari. Yo'ldosh.. Elmurodga notanish terminlarni..tushuntira ketdi.* Shuhrat, Shinelli yillar. *Terminlar ilmiy kommunikasiyadan jonli so'zlashuvga o'tganda, xalq uchun tushunarli so'zlarga aylana boradi.*

✓ **TERMINOLOGIYA***[lot. terminus - chegara + yun. logos – fan, ta'limot]*

1. Fan, texnika, kasb-hunarning biror sohasida qo'llanadigan terminlar majmui. *Texnika terminologiyasi. Harbiy terminologiya. Ilmiy terminologiya. O'zbek tili terminologiyasi, Qori aka fanlar ichida avvalo matematikani sevib o'rganadi va uning o'zbekcha terminologiyasini ishlab chiqadi.* M. O'rozboyev, Mo'jizalar olami.

2.Tilshunoslikning terminlarni o'rganish, tartibga solish bilan shug'ullanuvchi sohasi. *Terminologiya mutaxassisi. Terminologiya bo'limi. Seminar rus va o'zbek tillarining fonetikasini kiyosiy o'rganish, orfoepiya, terminologiya va leksikologiya masalalariga alohida e'tibor beradi.*

O'zbek tilining izohli lug'ati. 2008 yil. 4-tom.73-74-betlar.

✓ **ATAMA** 1 *ayn.* termin.

2 Umuman, nom. *Pekin shamanni har bir xalk o'z tilidagi nom, atama bilan yuritib kelgan.* «Fan va turmush». *Respublikamizning o'zidagina 400 dan ortiq turli-tuman qovun atamalari mavjud ekan.* «Fan va turmush».

ATAMASHUNOS Atamalar bilan shug'ullanuvchi mutaxassis.

ATAMASHUNOSLIK Atamalarga oid ilm; atamalarga oid masalalar bilan shug'ullanuvchi soha. *Shu munosabat bilan mamlakatda Atamashunoslik qo'mitasi tuzildi.* Gazetadan.

O'zbek tilining izohli lug'ati. 2006 yil. 4-tom.113-bet.

1- topshiriq. Jumlalarni davom ettiring.

1. O'zbekistonda yilning to'rt faslida ham ... . 2. Diyorimiz suvi zar, ... 3. Bobo dehqonlarimiz bu yil ...

4. Vatanni sevgan kishi ... . 5. Ona yurtim …

2-topshiriq.Lug`atda berilgan so`zlarni ko`chiring va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Lug'at ishi

kichcinaligimdanсмалыхлет**qiziqaman**увлекаюсь, интересуюсь

qiyin emas нетрудно (нетрудный)**dars** beradilar преподает, ведетуроки

jihozlanganоборудован**foydalanmoq** пользоваться

barchamizвсемы**shogird**ученик

yangilikновость, новизна**urf-odat**обычай

3- topshiriq. Matnni o'qing, mazmunini aytib bering.

O'ZBEK TILI

O'zbek adabiy tili tarixi uch katta davrni o'z ichiga oladi;

1. Qadimgi turkiy adabiy til.
2. Eski o'zbek adabiy tili.
3. Hozirgi o'zbek adabiy tili.

Qadimgi turkiy adabiy til X-XII asrlarni o'z ichiga oladi. O'zbek adabiy tili dastlabki davrlarda umumturk adabiy tili sifatida X-XI asrlarda tashkil topgan. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Ahmad Yugnakiyning

“Hibatul haqoyiq” asarlari bu fikrni tasdiqlaydi. Bu davrda o‘zbek tili faqat o‘zbeklarning adabiy tili bo‘lmay, O‘rta Osiyoda yashovchi barcha turkiy xalqlarning umumiy adabiy tili bo‘lgan.

Eski o‘zbek tili XIII-XV asrlarda shakllangan bo‘lib o‘tgan asrning 20- yillarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davr adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishida Alisher Navoiyning xizmatlari beqiyosdir. Navoiy

o‘zining jahonga mashhur asarlari bilan o‘zbek adabiy tilini jahon miqyosiga olib chiqish bilan birga “Muhokamatul lug‘atayin” kabi noyob ilmiy asarlari bilan eski o‘zbek adabiy tili, uning stilistikasini ilmiy nazariy jihatdan asoslab berdi. Navoiy haqli ravishda o‘zbek adabiy tilining asoschisi hisoblanadi.Hozirda o‘zbek tili respublikamizning davlat tili sanaladi. Shu bois ham, uni o‘rganishga alohida e’tibor berilmoqda. Istiqlolga erishgan O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi mavqei ortib borar ekan, o‘zbek tili ham tobora qadr topmoqda. Chet ellik birodarlarimizning ham uni o‘rganishga zo‘r ishtiyoq bilan kirishayotgani fikrimizning dalilidir.

4- topshiriq. Maqollarni tarjima qiling va yod oling.

1. Ona tilim – jon-u dilim. 2. Til qilichdan o‘tkir. 3. Tilni bilsang, dilga yo‘l topasan. 4. Ko‘z yetmagan joyga so‘z yetadi. 5. Bir tilni bilgan bir marta odam, ikki tilni bilgan ikki marta odam.

Til haqidayana qaysi maqollarni bilasiz?

5-topshiriq."Tilga e’tibor - elga e’tibor" mavzusida esse yozish.

6-topshiriq.Tibbiyotga doir 10 ta terming moil bilan yozing.

7-topshiriq. “Ikki qismli kundalik” usulidan foydalanib, bugungi dars grammatikasiga oid ma`lumotlarni joylashtirirng.

Mustaqil ish topshirig`i:“Til - millatning ko’zgusi.” mavzusida tarqatmar tayyorlash.

Adabiyotlar: AA 4, QA 5, 28

Mavzu:Dunyo tillari.Ibora (frazeologizm)

Reja:

1. Ibora (frazeologizm)lar haqida ma`lumot.
2.Dunyo tillari.
3.Tilni biluv bani odama jondur…

✓ **Biliboling! IBORA (ФРАЗЕОЛОГИЗМ)**IBORA (фразеологизм) – устойчивое сочетание слов, употребляемое чаще в переносном значении. Фразеологизмы по смыслу равны одному слову: boshi osmonda (радостный), tarvuzi qo‘ltig‘idantushgan - (грустный) Они не делятся на члены предложения, выполняют одну функцию, являясь одним членом предложения. Фразеологизмы так же могут быть синонимами: Boshi ko‘kka yetmoq, do‘ppisini osmonga otmoq - (радоваться); hafsalasi pir bo‘lmoq, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushmoq - (обидеться, растроиться).

Антонимами: oq ko‘ngil - (добрый); bag‘ritosh - (злой); yerga ursa ko‘kkasakraydi - (озорной); suvgatushganbo‘lkanonday - (тихий).

Омонимами: boshiga ko‘tarmoq – 1. Уважать2. Шуметь

1-topshiriq. Dunyo tillari haqida keltirilgan ma`lumotni o`qing va mazmunini so`zlab bering.

GeneologiktasnifGeneologik (yun. shajaradegani) tasnifda tillarning kelib chiqishi, ya’ni qarindoshligi asos qilib olinadi. Dunyodagi tillar kelib chiqishi, qarindoshligi, lug‘aviy va Grammatik jihatdan yaqinligiga qarab bir necha til oilalariga bo‘linadi. Yer yuzida 20 dan ortiq til oilasi bor. Til oilalari bobo til nomi bilan ataladi. Til oilalari o‘z navbatida til turkumlariga bo‘linadi. I. Hind-yevropa oilasi. hind turkumi: hind, urdu, bengal, panjob,

gujarat va h.; eron turkumi: fors, afg‘on, osetin, kurd, tojik va h.; slavyan turkumi: rus, ukrain, belorus, chex, slovak, polyak, serb, makedon, bolgar, xorvat, sloven; boltiq turkumi: litva, latish, latgal; german turkumi: dat, shved, norveg, island, ingliz, golland, nemis, yangi yahudiy tili (idish); roman turkumi: fransuz, provansal, italyan, ispan, portugal, rumin, moldovan tillari, o‘lik lotin tili; kelt turkumi: irland, shotland, breton, uels; anatoliy turkumi (o‘lik), tohar turkumi (o‘lik). Grek, alban, arman tillari birorta turkumga mansub bo‘lmasdan, shu til oilasiga kiradi. II. Turkiy tillar oilasiga quyidagi tillar kiradi (ular so‘zlashuvchi aholi miqdori tartibida berildi). Tirik tillar: turk, o‘zbek, ozarbayjon, qozoq, uyg‘ur, qozon-tatar, turkman, chuvash, qirg‘iz, boshqird, qumiq, yoqut, qoraqalpoq, tuva, qorachoy, balqar, xakas, no‘g‘oy, qoraim, qrim-tatar, oltoy, shor, gagauz, truxman, karagas. O‘lik tillar: o‘rxun, pecheneg, qipchoq, xazar, qadimgi uyg‘ur, bulg‘or, chig‘atoy. Mashhur turkolog olim N.A.Baskakov turkiy tillar oilasiga kiruvchi tillarni uchta tarmoqqa ajratadi:4 A. G‘arbiy xun tarmog‘i: I. Bulg‘or guruhi: 1. Tirik til: chuvash tili. 2. O‘lik tillar: bulg‘or, xazar tili. II. Og‘iz guruhi: 1. Og‘iz-turkman guruhchasi: Tirik tillar: turkman tili, truxman tili. O‘lik til: o‘g‘iz tili (X-XI asrlarda qo‘llangan); 2. O‘g‘iz-bulg‘or guruhchasi: tirik til: gagauz tili; o‘lik tillar: pecheneg tili, uz tili. 3. O‘g‘uz saljuq guruhchasi: tirik tillar: usmonli turk tili, ozarbayjon tili. O‘lik tillar: saljuq tili, eski usmonli turk tili. III. Qipchoq guruhi: 1. Qipchoq-bulg‘or guruhchasi: 1) tirik tillar: tatar, boshqird; o‘lik til: g‘arbiy oltin o‘rda tili; 2. Qipchoq-o‘g‘uz guruhchasi: 1) tirik tillar: qoraim, qumiq; o‘lik til: kuman. 3. Qipchoq-no‘goy guruhchasi: no‘g‘oy, oraxoniylardan keyingi davr tili. 2. Qarluq-xorazm guruhchasi: tirik: o‘zbek, uyg‘ur; o‘lik: qorluq-xorazm, eski o‘zbek tili. B. Sharqiy xun tarmog‘i. 1. Uyg‘ur guruhi: 1) uyg‘ur-tukyu guruhchasi: tuva, karagas. 2) yoqut guruhchasi: yoqut tili, dolgan tili. 3) xakas guruhchasi: xakas, qamashi, kyuerin, shor, tuba, sariq uyg‘ur tillari. 2. Qirg‘iz-qipchoq guruhi: qirg‘iz, oltoy tillari. Bu tasnif batafsilligi bilan ajralib turadi. III. Fin-ugor tillar oilasi. fin guruhi: fin, eston, karel, vepss, ijor, komi-ziryan, komi-permyak, udmurt, mariy, mordva tillari; ugor guruhi: venger, mansiy, xantiy tillari) mansubdir. IV. Som-xom tillar oilasi. som guruhi: arab, amxar, xarari, tigre, tigrinnya, gurage, oysor, ivrit tillari; qushit guruhi: galla, agau, somali, saho, beja, sidamo tillari; berber guruhi: tuareg, kobil, shilx, rif, shaviya, tamazist tillari; chad-xom guruhi: xuasa, ngizim, kotoko, angas, karekare, sura, muzgu, mubi, sokoro tillari; arab guruhi: qadimgi arab. V. Kavkaz oilasi. g‘arbiy guruh: abxaz, abazin, adigey, kabardin, ibix tillari; nax guruhi: chechen, ingush, batsbiy tillari; dog‘iston guruhi: avar, darg‘in, lezgin, lak, karatin, gunzib tillari; janubiy guruh (megrel, chan, gruzin, kartaliy, svan, guriy. VI. Xitoy-tibet oilasi. tay-xitoy guruhi: xitoy, dungan, tay, laos, chjuan, vetnam tillari; tibetbirma guruhi: tibet, birma tillari. VII. Samodiy tillar oilasi: nenes, ngasan, selkup, enes. VIII. Mo‘g‘ul tillar oilasi: xalxa-mo‘g‘ul, buryat, qalmiq. IX. Tungus-manjur oilasi. Tungus guruhi: evenk, even, negidal; manjur guruhi: manjur, nanay, udey, ulch, orochon. X.



Dravid tillari: tamil, telugu, malalayali, kannara, tulu, gondi, braxun. XI. Malay-polinez oilasi. 1. Malay yoki indoneziya guruhi: 1) Sumatra guruhchasi: indonez, batak, achex tillari; 2) yavan guruhchasi: yavan, sundan, bali, madur tillari; 3) dayak yoki klemantan guruhchasi: dayak, kayan, kenyax tillari. XII. Avstraliya tillari: aranta tili va juda ko‘p mahalliy aholi tillari. XIII. Papuas tillari: enga, chimbu, xagen, kamano va b. XIV. Afrika tub aholisi tillari. 1. Bantu tillari. 1. Shimoli-g‘arbiy guruh: bube, lundu, fang, benga va b. 2. Shimoliy guruh: konjo, ganda, rundi va b. 3. Kongo daryosi havzasidagi tillar: kongo, ndongo, poto, ngala va b. 4. Markaziy guruh: luba, bemba, subiya va b. 5. Sharqiy guruh: suaxili, sango., shambala va b. 6. Janubi-g‘arbiy guruh: zulu, soto, venda, shona va b. 7. G‘arbiy guruh: ndonga, lunda va b. 2. Bantoid tillari. Sharqiy: tiv, bamileke, bali, efik va b. Markaziy: senufo, kulango, mosi, gurma va b. G‘arbiy: gola, tenda, fomi, volof, ful va b. 3. Mande tillari: mandingo, malinke, bombara, mende, loma va b. 4. Gviney tillari: kru, kva, akai, eve, yoruba, nupe, edo, ibo, tvi va b. 5. Songai tillari: songai, zarma, dendi. 6. Kanuri-teda tillari: kanuri, teda. 7. Markaziy va sharqiy Sudan tillari: zanda, banda, miltu, berta, koma, barea, kunama va b. 8. Kordofan tillari: talodi, lafofa, tageli va b. 9. Nilot tillari: nuer, shilluk, bari, nyangya, pokot, gola va b. XV. Paleoafrika tillari oilasi: bushmen (sani), gottengot (nama). XVI. Paleoosiyo tillari oilasi: A. Chukot guruhi: chukot, koryak, kamchadal. B. Sibir guruhi: odul, nivx. D. Ket tili. XVII. Eskimos tillari oilasi: eskimos, aleut. XVIII. Shimoliy Amerika tillari oilasi: algonkin tillari, irokez tillari, siu tillari, naetchz - muskok tillari, atabask, mossk tillari, penuti , xoka tillari. XIX. Markaziy Amerika tillari oilasi: uto-astek tillari, mayya tillari va b. XX. Janubiy Amerika tillari oilasi: tupi-guarani, kechua, aravak, aruakan, chon, alakaluf, pano, je va b. XXI. Uzoq Sharq tillari oilasi: yapon, ryukyuk, koreys, ayn. XXII. Avstraosiyo tillari oilasi: munda, santali, mundari, xo, bxumadji. XXIII. Bask tili (birorta ham oilaga kirmaydi). XXIV. Burjask tili (birorta ham oilaga kirmaydi).

2-topshiriq. Berilgan rasm asosida o`zbek tili qaysi guruhga kirishini aniqlang.

3- topshiriq. Lug‘atdan foydalanib, berilgan iboralarga sinonim so‘zlarni va antonimlarini, agar bo‘lsa, toping.

Qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan, chumoliga ozor bermaydigan, ilonning yog‘ini yalagan, kapalagi uchgan, boshi qotgan.

4- topshiriq. Iboralarning ruscha muqobilini toping. Ular ishtirokidagaplar tuzing.

Sanamay sakkiz deydigan, chumchuq pir etsa, yuragi shir etadigan,yulduzni benarvon uradigan, yerga ursa ko‘kka sakramoq.

5 - topshiriq. Yangi so‘zlar bilan birikmalar tuzing.

1. Вчера мы с друзьями были в музее Тимуридов. 2. Я люблю бывать в парке имени Бабура. 3. Вахид учится в педагогическом колледже в Ташкенте. 4. Государственная библиотека имени Навои расположена на площади Мустакиллик.

6-topshiriq. "Har bir xalqning o’z tili" mavzusida esse yozish.


7-topshiriq.Til haqidagi quyidagi maqol va hikmatlarning davomini aniqlang va to‘liq holda ko‘chirib oling.

1. Suydiradigan ham til, ... *(Maqol)*4. Kishining go‘zalligi uning ... . *(Hadis)*

8-topshiriq.Jahonning ko`zga ko`ringan yozuvchilari tomonidan ishlatilgan so`zlar miqdorini solishtiring.Tilning

boyligi undagi so`zlarning barcha sohalarda ishlatilishida ekanligini tushuntiring. “Bahs-minozara” yuriting

1.Alisher Navoiy	26035 ta
2.Aleksandr Pushkin	21193 ta
3.Vil’yam Shekspir	20000 dan ortiq
4.Migel de Servantes	18000 dan ortiq
5.Abdurahmon Jomiy	17600 ta
6.Abdulla To’qay	14000 dan ortiq



Mustaqil topshiriq: “ Milliyqadriyatlar” mavzusida internetdan maqollar to`plash.

Adabiyotlar: AA 5, QA 22, 29

Mavzu: Odam anatomiyasi.Morfologiya. So’z turkumlari. Ot haqida umumiy tushuncha. Otlarda son kategoriyasi. Egalik qo’shimchalarining ishlatilishi.

Reja:

1. Morfologiya. So’z turkumlari. Ot haqida umumiy tushuncha.
2. Otlarda son kategoriyasi. Egalik qo’shimchalarining ishlatilishi.
3. Odam anatomiyasi
4. Shifokorhuzurida.

✓ **Bilib oling! MORFOLOGIYA**Морфология изучает части речии их грамматические категории.В узбекском языке шесть самостоятельных частейречи: ot (существительное), sifat (прилагательное), son (числительное),olmosh(местоимение), fe’l (глагол), ravish (наречие); трислужебныхчастейречи: ko‘makchi (послелог), bog‘lovchi (союз), yuklama (частица). Кроме того в узбекском языке три особых групп

слов: undovlar(междометия), modal so‘zlar (модальные слова), taqlidiy so‘zlar (подражательные слова).

✓ **OT(Имена существительные)**Имена существительные называют лицо, предмет, место или время. Они отвечают на вопросы: kim? (кто?), nima? (что?), qayer? (какое место?).

Atoqli otlar - имена собственные: Anvar,Zuhra, Mars.

Turdosh otlar - имена нарицательные: kitob, daftar, qalam.

Mavhum otlar - (абстрактные имена существительные); do‘stlik (дружба), baxt (счастье), omad (удача) и т.д.

Jamlovchi otlar - (собирательные имена существительные): xalq (народ), qo‘shin (войско), to‘da (шайка, стадо) и т.д.

✓ Имена существительные в узбекском языке имеют три грамматические категории, две из них kelishik (падеж) и son (число) является постоянными, egalik (принадлежность) не постоянной, т.е. имена существительные всегда находятся в форме того или иного падежа, в единственном или множественном числах. Принадлежность может указываться, может нет:

Gul - именительней падеж, единст. число

Gulim - именит. падеж. единст. число. принадлежность 1 лицую.

✓ **OTLARDASON(Категория числа)** Имена существительные в единственном числе не имеют специального морфологического показателя. Множественное число имен существительных образуется:

а) с помощью аффикса –lar: kitob-kitoblar, gul-gullar, bog‘-bog‘lar и т.д.

в) с помощью числительных: o‘ntakitob, beshtaviloyat, o‘ttiztatalaba и т.д.

д) с помошью парных слов: qop-qopun (мешки муки), to‘p-to‘pbolalar (группы детей), dasta-dastagul (букеты цветов) и т.д.

Примечание: аффикс -lar является омонимичным. В случае прибавления его к собственным именам, именам существительным употребляемым только в единственном числе, он передает различные модальные значения. В узбекском языке имена существительные имеют следующие функциональные формы:

- уменьшительную, образующуяся с помощью аффиксов – cha, -choq, -chak: uycha (домик), filcha (слоник), baliqcha (рыбка), qo‘zichoq (ягненок), kelinchak (невестка).
- ласкательную, образуюшуюся с аффиксами –xon, -jon, - oy: oyijon (мамочка), Azizaxon (Азизочка), Hakimjon (Хакимчик), Halimaoy (Халимочка) и т.д.
- принадлежности, образующуюся с аффиксом –niki kitob Rustamniki.
- ограничения, образующуюся с аффиксом -gacha (до): markazgacha (до центра), uygacha (до дома).

-уважительную, с аффиксом –lar: dadamlar, oyimlar

✓ **EGALIK QO‘SHIMCHALARI (Аффиксы принадлежности)**

Аффиксы принадлежности указывают на принадлежность предмета одному из трех лиц и прибавляются к существительным следующим образом:

Birlik	Ko‘plik
ota- m (мой отец)	ota- miz (наш отец)
ota- ng (твой отец)	ota- ngiz (ваш отец)
ota- si (его отец)	ota- si (их отец)
kitob - im (моя книга)	kitob - imiz (наши книги)

kitob - ing (твоя книга) kitob - ingiz(ваши книги)
kitob - i (его книга) kitob - i (их книги)
С прибавлением аффиксов принадлежности в корне слов происходят следующие изменения:
В словах: o‘rin (место), qorin (живот), bo‘yin (шея), bo‘g‘iz (гортань), og‘iz (рот), burun (нос), shahar, singil, ko‘ngil (душ Звуки q и k в конце многосложных слов переходят на g‘ и g: kerak – keragi (yo‘q) (нет необходимости, qishloq – qishlog‘i. Исключение составляют такие слова как: ishtirok (участие),
idrok (разум), peshtoq (фасад), ishtiyoq (страсть). Иногда во множественном числе в 1 – 2 лицах аффикс
принадлежности может быть пропущен. В этом случае обьязательно употребляют соответствующие личные местоимения:bizningko‘cha, sizningmartab.
1- topshiriq. Mavhum otlarni ajratib yozing, ular ishtirokida gaplartuzing.
nomus, vijdon, go‘zallik, kalit, bilim, bolta, sog‘inch, gul, bog‘, to‘g‘rilik.
2- topshiriq. Atoqli otlarni bir ustunga, turdosh otlarni ikkinchi ustunga yozing. Istagan beshta gapingizni tarjimasi bilan yozing.
1. Malika hozir kelib to‘xtagan avtobusga chiqish uchun yugurib borardi. 2. Majlis raisi navbatdagi o‘qituvchiga so‘z berdi. 3. Ma‘ruzadan so‘ng hammamiz konsertga boramiz. 4. Metro bizning uyimizga 15 minutda olib boradi. 5. Hamma sayyoralardan Yerga eng yaqini Marsdir. 6. Alisher Navoiy o‘zbek xalqining buyuk mutaffakkiridir. 7. Anvarxon guruhimizning a’lochi talabalaridan. 8. Temurning dadasi fakultetimiz dekani. 9. Sirdaryo vaAmudaryo Orol dengiziga quyiladi. 10. O‘zbek tili o‘qituvchimiz Kuba, Tailand, Hindiston va Arabiston to‘g‘risida ko‘p qiziq narsalar so‘zlab berdi.
3-topshiriq. Berilgan matnni o`qing va “BBB” jadvaliga joylashtiring.
Odam anatomiyasi fanining qisqacha tarixi
Anatomiya fani tarixi million yillarni tashkil qilsada, Yunonistonda (eramizdan oldin) yashab, ijod etgan **Gippokrat, Pifagor**, Aristotel kabi allomalar davrida bu fan ko’proq rivojlandi.
Gippokrat (Buqrot) – odam tuzilishi bilan bog’liq ma'lumotlarni to’plab, o’rganib, ularni yanada boyitdi. Kuzatishlarini 72 ta asarida bayon etar ekan, ayniqsa, yurak-qon tomir sistemasi haqida ko’p ma'lumotlar to’pladi. O’sha paytlarda boshqa fanlar yaxshi taraqqiy etmaganligi sababli, u keng ma'lumotlar to’plash bilan birga, nerv toalalarini paylar bilan almashtirishdek xatolarga ham yo`l qo`ygan.
Tibbiyot ilmi sultoni Abu Ali ibn Sino “Tib qonunlari” asarida to‘g‘ri ovqatlanish va uning ahamiyati to‘g‘risida to‘xtalib, “Kimki sog‘lom turmush tarziga erishmoqchi bo‘lsa, o‘z sog‘lig‘ini saqlamoqchi va mustahkamlamoqchi bo‘lsa, ovqatlanish tartibiga, iste’mol qilinayotgan ovqatning sifatiga, miqdoriga, ovqatni iste’mol qilish vaqti va uning hazm bo‘lish jarayoniga asosiy e’tiborini qaratmog‘i lozim”, deb ta’kidlagan.– Odatda ko‘plab kasalliklar noto‘g‘ri ovqatlanish oqibatida yuzaga keladi, – deydi Toshkent tibbiyot akademiyasi birinchi klinikasi diyetologi Karima Jabborova. – Hozirgi kunda odam organizmi uchun 13 turdagi vitaminlar zarurligi fanda isbotlangan. Bular kalsiy, natriy, magniy, kaliy, fosfor, yod, temir va boshqa moddalar. Ularni biz asosan meva-sabzavotlar, ko‘katlar, poliz hamda sut, go‘sht, parranda, baliq, tuxum, dukkakli mahsulotlardan olamiz. Umuman olganda, yozgi oziq-ovqatlar tarkibini 28 foiz yog‘, 55 foiz oqsil, 17 foiz uglevodlar tashkil etishi kerak. Shu bois yoz mavsumida okroshka, go‘ja kabi parhezli taomlarni iste’mol qilish tavsiya qilinadi. Ular ham to‘yimli, ham mazali.

Yoz faslida ko‘proq suyuqliklar ichish tavsiya etiladi. Mutaxassislar fikricha, bir kecha-kunduzda inson o‘z vaznining har kilogrammiga 30 millilitrdan suv iste’mol qilishi kerak. Masalan, 50 kilogramm vazndagi odam sutkasiga 1,5 litr suv ichishi zarur. Suyuqliklar inson organizmidagi toksinlarni yuvishi bilan ham ahamiyatlidir.

Yozda dasturxonimizda toblab pishirilgan sabzavotlar, yangi uzilgan mevalar, dukkakli o‘simliklar, qaynatilgan taomlar, qatiq, tvorog kabi sut mahsulotlari bo‘lishi tavsiya etiladi. Bu kabi minerallar va oqsillarga boy mahsulotlar organizmda moddalar almashuvini yaxshilaydi, immunitetni mustahkamlaydi.

Mustaqil ish topshiriqlari: “Sharqning buyuk allomalari.” mavzusida muammoli savollar tayyorlang.

Adabiyotlar: AA 4, QA 18, 30

Mavzu: Dorishunoslik.Olmosh va uning turlari, gapda qo'llanishi, vazifalari.

Reja:

1. Olmosh va uning turlari.
2. Olmoshlarning gapda qo'llanishi, vazifalari.
3. Bugungidorishunoslik

➢ **Bilib oling! OLMOSH (Местоимение)**Слова, употребляемые вместо существительныхприлагательных, числительных и иногда наречий, называютместоимениями.

В узбекском языке 7 разрядов местоимений:

1. Kishilik olmoshlari
2. O'zlik olmoshlari
3. Ko'rsatish olmoshlari
4. So'roq olmoshlari
5. Belgilash olmoshlari
6. Bo'lishsizlik olmoshlari
7. Gumonolmoshlari

Местоимения также классифицируют по тому, вместо какихчастей речи они употребляются. Например, личные местоименияупотребляются вместо существительных, указательные вместоприлагательных и соответственно имеют те же грамматическиесвойства, что и слова, вместо которых они употребляются. Личныеместоимения склоняются по падежам, а указательные могутсубстантивироваться и т.д.

✓ **KISHILIK OLMOSHLARI(Личные местоимения)**Личные местоимения указывают на 1, 2, 3 лица. К нимотносятся:

Birlik Ko'plik

1- shaxs Мен (Я) Biz (Мы)

2- shaxs Sen (Ты) Siz (Вы)

3- shaxs U (Он(а)) Ular (Они)

Личное местоимение sen иногда употребляют в формемножественного числа – senlar, в этом случае выражаетсяпренебрежительность. Senlar hali ko'rasan (lar). Вы ещё увидите.Иногда местоимение biz также может иметь аффикс -lar.Личное местоимение siz может означать как множественноечисло, так и уважительное отношение к одному лицу. Иногда вживом общении чтобы различать множественное число к нему также прибавляют -lar.При прибавлении аффиксов -ning, -ni, -niki к местоимениямmen и sen одно n выпадает: meniki, mening, meni.При прибавлении аффиксов –ga, -da, -dan, -gacha кместоимению u (а также к bu, shu, o'sha) прибавляют одно n: unga,bunda, o'shangacha и т.д.

✓ **O'ZLIK OLMOSHI(Возвратное местоимение)**В узбекском языке одно слово o'z называют возвратныммместоимением. Оно может употребляться и вместо личныхместоимений, в этом случае он имеет аффиксы принадлежности:o'zim (я сам), o'zing (ты сам) o'zi (он сам) и т.д.Само слово o'z переводится как свой, и является впредложении определением.

O'z uyim - o'lan to'shagim – Мой дом – моя крупостью

В третьем лице во множественном числе можетупотребляться аффикс -lar. Но он больше выражает уважительнуюформу: Shoiramizningoʻzlarihamtashrifbuyurdilar. К нам пришла исама поэтесса

Эту форму иногда употребляют относительно и третьеголица: Oʻzlaridanhambireshitaylik. Давайте, и вас послушаем.

✓ **KOʻRSATISH OLMOSHLARI(Указательные местоимения)**Указательные местоимения употребляются для указания,подчеркивания лица предмета или признака. Наиболееупотребительны в современном узбекском языке:

u, oʻsha - тот, та, то, те

bu, shu - этот, эта, это, эти

mana - вот

ana - вон

mana bu, mana shu - вотэтот

ana u, ana oʻsha - вонтот

bunday - вот так (такой)

shunday – так (такой)

oʻshanday – также (такой)

Указательные местоимения употребляются вместосуществительных, прилагательных и наречий.

✓ **SOʻROQ OLMOSHLARI (Вопросительные местоимения)**Местоимения, употребляемые для уточнения неизвестного,неопределенного предмета называют вопросительными. К нимотносятся: kim? (кто?)(употребляется исключительно по отношениик человеку); nima? (что?), qayer? (какое место?), qachon? (когда?).necha?, qancha? (сколько?); qanday? qanaqa? (какой?) и др. Они имеютте же свойства, что и слова (части речи), отвечающие на них. Кпримеру, местоимения kim? nima? qayer? склоняются, могутпринимать аффиксы множественного числа и принадлежности:Darsdakimlarqatnashmayapti? (Кого нет на занятии). Kimdaoʻzbektilikitobibor? (У кого есть книга по узбекскому языку). Ukimingboʻladi?(Кем он тебе приходится?) и т.д.

✓ **BELGILASHOLMOSHLARI(Определительныеместоимения)**Определительны е местоимения обозначают группыпредметов и лиц, а также указывают на них в отдельности.Они образуются сочетанием вопросительных местоименийсо словом har : har kim-каждый, har nima-все, всякая вещь, har qanday- всякий, har bir - каждый, har narsa - всякая вещь.К ним так же относятся слова hamma, barcha, bari-все, ba'zi,ayrim - отдельный, некоторое.Местоимения hamma, barcha, bari имеют собирательноезначение. Talabalarning hammasi malakaviy ishlarni muvaffaqiyatli himoyaqildi. – Все студенты успешно защитили квалификационныеработы. Men bu kitoblarning barini oʻqib chiqdim. –Я прочел все этикниги.

✓ **BOʻLISHSIZLIKOLMOSHLARI (Отрицательные местоимения)**Отрицательные местоимения, являясь противополож- ными по значению определительным, означают отрицание по отношению ко всем предметам и признакам. Они образуются от вопросительных местоимений, слов bir, narsa с помошью слова hech: hechkim - никто, hechnima - ничто, hechnarsa - ничто, hechbir - ни один, hechqanday - никакой, hechqachon - никогда, hechqayer- ни одно место и т.д.

✓ **GUMON OLMOSHLARI (Неопределенные местоимения)** Неопределенные местоимения означают неопределенное представление о предмете, признаке, случае.

Они так же образуются от вопросительных местоименный, прибавлением аффикса -dir или префикса -alla: kimdir, allakim – кто-то, nimadir,allanima - что-то, qachondir - когда-то и т.д. Местоимение allaqachon указывеат не на неопределенность времени происхождения действия, а на её давность. Men allaqachon she'rni yod olib bo'ldim. - Я давно уже выучил стихотворение. Аффикс -dir прибавляется к местоимению после всяких других аффиксов: kimningdir - чей то, nimaningdir - что-то.

1 - topshiriq. O'zlik olmoshini kerakli shaklda qo'llab, gaplarni ko'chiring.

1. ... er bilsang, o'zgani she'r bil (maqol). 2. ... uying – o'lan to'shaging (maqol). 3. ... chiqqan baloga, qayga boray da'voga (maqol). 4.Salimaning ... ham shu institutda o'qiydi. 5. ... qadrini bilmagan o'zganing ham qadrini
bilmaydi.

2 - topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.1. Мой друг купил себе новые книги. 2. Он взял с собой наотдых учебник. 3. Я не могу думать только о себе. 4. Этопоручение я беру на себя. 5. Ты доволен своей сегодняшнейработой. 6. Он явно улучшил свои результаты. 7.У нас в столовой само обслуживание.

3-topshiriq.Berilganmatnnio`qing, sarlavha tanlang va matn mazmunini so`zlab bering.

Farmakologiya tibbiyotning asosiy fanlaridan biri,kasalliklarga qarshi kurashishda shifokorlar qo'lidagi eng asosiy qurol hisoblanadi. Farmakologiya lotincha so'z bo'lib, parmacon - dori, logos-fan, dorishunoslik fani degan ma'noni bildiradi. Farmakologiya odam va hayvonlar organizmiga dorilar yuborilgandan keyin unda ro'y beradigan o'zgarishlarni o'rganadi. Farmakologik moddalar organizmning turli a'zolari, to'qimalari, hatto hujayralarini faoliyatini o'zgartirishi mumkin.Farmakologiya bir nechta katta bo'limlardan: umumiy farmakologiya, klinik farmakologiya, biokimyoviy farmakologiya, ximioterapiya, toksikologiya va boshqalardan iborat.Farmakologiya farmastiya fanlari - farmastevtik kimyo, farmakognoziya, farmastevtik texnologiya bilan chambarchas bog'liq, ular orqali kimyo, botanika, texnologiya fanlari bilan bog'lanadi. Tibbiyot olamida farmakologiya alohida o'ringa ega: bir tomonda tibbiyotning asosiy nazariy fanlari - fiziologiya, patologik fiziologiya, biokimyo bo'lsa, ikkinchi tomonda amaliy fanlar - terapiya, pediatriya, xirurgiya va boshqalar turadi. Farmakologiya orqali nazariy bilimlar amaliy tibbiyotdan o'rin oladi. Farmakologiya tarixiga odamzod yaratilgan davrdayoq asos solingan, chunki o'sha davrda ham odamlar kasal bo'lganlar, yirtqich hayvonlarga, yong'inlarga duch kelganlar, ilonlar, chayonlar chaqqan, ular atrofdagi giyohlardan, hayvonot olamidan shifo, dori-darmon izlaganlar. Eramizdan 3600 yil ilgari papirusga yozilgan kitob "Har xil a'zolarga qo'llanadigan dorilar to'grisida" deb nomlangan. Farmakologiya fanining rivojlanishida qadimiy Osiyo mamlakatlarining hissasi katta bo'lgan. Hindiston, Tibet, Xitoy va Arab davlatlarida o'simliklar bilan davolash keng tus olgan.Xitoy tibbiyotining asoschisi Shen-Nung bundan 3 ming yil ilgari o'z asarlarida o'simliklarning sinonim nomlari, botanik ta'rifi, o'simliklardan mahsulotlar tayyorlash davrlari va usullari, dori-darmonlarning ta'sir doirasi, qo'llanilishini keltirgan."Ayur-Veda" dorivor o'simliklar haqida shifokor Sushruta tomonidan yozilgan qadimiy hind kitobida 700 xil dorivor o'simlik tasvirlangan. Mashhur "Jud-Shi" ("Shifobaxsh dori-darmonlarning mohiyati") kitobi Tibet tibbiyotining asosini tashkil qiladi.Eramizdan 1500 yil ilgariyoq anor po'stining gijjalarga qarshi, kanakunjut moyining surgi, dengiz piyozining yurakka foydali ekanini bilishgan. Bu mahsulotlar hozirgi kunda ham ushbu kasalliklarda qo'llanadi.Qadimgi yunon shifokorlari Buqrot (eramizdan oldingi 460- 377 yillar), Dioskorid (1 asr), ayniqsa Rum xakimi Jolinus (Galen, 2 asr) dori-darmonlar ustida katta ishlar olib borishgan. Jolinus birinchi bo'lib xar xil dori shakllarini yaratgan, dori moddalarga retsept yozishni qo'llagan. Farmakologiyani

rivojlantirishda o’zbek allomalari katta hissa qo’shganlar. Sharqning buyuk tabibi Ibn Abbos (997 yilda vafot etgan) o’z asarlarida yillar sayin yangi dori moddalari paydo bo’lishi, ularni avval hayvonlarda sinab ko’rish zarurligini ta’kidlagan. Sharqning qomusiy olimi, tabibi, mutafakkiri Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziyning (865-925 y) tabobatga doir 36 asari bizgacha etib kelgan: o’z asarlarida terapiya, xirurgiya, farmakognoziya, farmakologiya, psixologiya ilmlarini yangi goya va ixtirolar bilan boyitgan. Ushbu olimning tibbiyotga va kimyoga bagishlangan asarlari o’rta asrlarda Sharq va Garbda shu soxalarning rivojlanishiga katta ta’sir ko’rsatgan. Farmakologiya fani rivojida O’rta Osiyoning buyuk xakimi Abu Ali Ibn Sino xissasi juda katta bo’lgan “Tib qonunlari”, “Kitob ush shifo”, “Kitobi al kalbiya” kabi asarlarida o’sha davr tibbiyotida qo’llanilgan dori moddalari keltirilgan. “Tib qonunlari” ning birinchi kitobida 811 xil oddiy dori moddalari keltirilgan, ulardan 612 tasi o’simliklarga mansub. Beshinchi kitobda murakkab dori moddalarni tayyorlash va ularni qo’llash usullari bayon etilgan. Ibn Sino dorilarni bemorlarni mijoziga qarab ishlatish zarurligini uqtirgan, dori moddalarini mijoz bo’yicha isituvchi, sovituvchi, qurituvchi, namlovchi turlarga bo’lgan: Ibn Sino dori moddalariga bag’ishlangan she’riy “Urjuza fi-t-tibb” yozgan. Ibn Sino Ovrupo shifokorlaridan 400 yil oldin zaxm kasalligini simob bilan davolagan. Farmakologiyaning rivojlanishida buyuk qomusiy olim Abu Rayxon Beruniyning xam xissasi katta, “Saydana” asarida XI asrda ma’lum bo’lgan dori moddalari, to’rt yarim mingdan ortiq o’simliklar, xayvonlar, minerallar va ulardan olinadigan oziqalarning nomlari va izohlari keltirilgan. Beruniy insonning ichiga tushadigan har bir narsa yo oziq-ovqat yoki zaxar bo’ladi, dorilar ana shularning o’rtasida turadi, degan. Dastavval oddiy dorilar tavsiya qilinishi zarur, agar ular foyda etkazmasa, shundan so’ng murakkab dorilarni qo’llash mumkin, deb ta’kidlagan. Beruniyning “Saydana” kitobi sharq dorishunosligining buyuk qomusi sifatida qo’llanib kelingan. Sharafutdin Abu Abdulloh Muxammad Yusuf Ilokiy (1068 yilda vafot etgan) Ibn Sinoning shogirdlaridan bo’lib, o’zining “Muolajati Ilokiy”, “Muxtasari Ilokiy” asarlarida turli kasalliklarning kelib chiqishi, ularni aniqlash, belgilari va dori moddalar bilan davolash usullarini bayon etgan. Bu asarlar o’z davrida tabiblar uchun qo’llanma bo’lgan. Xorazmlik olim va tabib Ismoil Jurjoniy (1080 - 1141) tibbiyot sohasida 15 dan ortiq asar yozgan. Farmakologiyaga oid kitobi ikki bo’limdan iborat. Birinchi bo’limda oddiy moddalar, ikkinchi bo’limda murakkab moddalar va ularni tayyorlash usullari tog’risida ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu olim forsiy tilda farmakologik atamalarni yaratgan. Umar Chagminiy (1221 yili vafot etgan) tib ilmiga mansub “Qonuncha” asarini yaratgan. Ushbu asarda faqat olimning vatani Xorazmda emas, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Qo’qon madrasalarida, shuningdek Xindiston, Eron kabi mamlakatlarda XX asrning boshlarigacha qo’llanma sifatida foydalanib kelingan. Najibuddin Samarqandiy Abu Homid Muhammad ibn Ali ibn Umar (1222 yilda vafot etgan) samarqandlik tabib va olimni tabobatga oid 8 ta ilmiy asari ma’lum, ulardan biri “Murakkab dorilarni tayyorlash” usullaridir. Yusufiy Muxammad ibn Yusuf al-Xiraviy (XV asr) Xindistonda Shoh Zahiriddin Bobur, keyinchalik uning o’g’li Humoyunning saroy tabibi bo’lgan, “Tibbi Yusufiy” kitobi , bemorlarni dori moddalar bilan davolashni o’rganishda muhim qo’llanma bo’lgan. XVI asrda G’arb olimi Parastels farmakologiyani kimyoviy moddalar bilan to’ldirib yuborgan, tibbiyotda yatrokimyo (yatros - vrach) yo`nalishining asoschisi bo’lgan. Shu bilan birga Parastels fikricha, tabiatda hamma kasalliklarning davosi bor ularni tashqi ko’rinishidan aniqlash mumkin. Bemorga kasallangan a’zo shakliga o’xshagan meva, o’simliklar tavsiya qilingan. Masalan, yurak kasalliklarida mevalari yurak shakliga o’xshagan anakardius o’simligi, buyrak kasalliklarida esa barglari buyrakka o’xshagan o’simliklar bemorga shifobaxsh ta’sir etgan. XVIII asr oxirlarida Ganeman dorishunoslikda

gomeopatiya yo'nalishiga asos solgan. Bunda davolash monandlik, o'xshashlik qonuniga asoslangan. Ganeman. Gomeopatik dorixonalar hozirgi kunda xam keng tarqalgan. XIX asrga qadar farmakologiya empirik tarzda rivojlandi, xalq tabobatida hamda shifokorlar dori moddalarning ta'sirini bemorlarda kuzatib borganlar. XIX asrda eksperimental farmakologiya rivojlana boshladi. Barcha qo'llaniladigan, qo'llanmoqchi bo'lgan dori moddalari avval hayvonlarda tekshirib ko'rilishi zarur degan xulosaga kelindi, shu vaqtdan boshlab ilmiy farmakologiyaga asos solindi. Ilmiy farmakologiyaning rivojlanishida Rossiyada A.P.Nelyubin, O.V.Zabelin, E.V.Pelikan, Ovrupoda Fransua Majandi, Klod Bernar, Shmideberg kabi olimlar katta xissa qo'shdilar.I.P.Pavlov mashhur fiziolog bo'lishiga qadar farmakologiya sohasida katta tajribalar o'tkazgan, bu sohaga oid 80 ta ilmiy ish chop etilgan. I.P.Pavlov 1891 yildan 1895 yilga qadar Sankt-Peterburgdagi harbiy tibbiy akademiyada farmakologiya kafedrasiga rahbarlik qilgan edi. Ushbu kafedrani I.P.Pavlovdan keyin hozirgi davr farmakologiyasining asoschisi akademik N.P.Kravkov 25 yil boshqardi. N.P.Kravkov farmakologiya sohasida katta maktab yaratgan, uning "Farmakologiya asoslari" kitobi 14 marta nashr etilgan. N.P.Kravkov juda ko'p shogirdlar tayyorlagan. Akademiklar S.V.Anichkov, V.V.Zakusov kabi shogirdlarining ishlari bugungi kun farmakologiyasining poydevori xisoblanadi. Xozirgi kunda farmakologiyaning rivojlanishida akademiklardan M.D.Mashkovskiy va D.A.Xarkevich katta xissa qo'shib kelmoqdalar, ayniqsa M.D.Mashkovskiyning "Dori moddalari, D.A.Xarkevichning talabalar uchun yozgan "Farmakologiya" dasturi shu fanni o'zlashtirishda katta ahamiyatga egadir. O'zbekistonda farmakologiyaning rivojlanishi Toshkent tibbiyot institutining farmakologiya kafedrasi ilmiy ishlaridan boshlangan. Farmakologiya fani ayniqsa 1956 yilda O'zbekison Fanlar Akademiyasining o'simliklar kimyosi institutida farmakologiya laboratoriyasi ochilgandan keyin taraqqiy etdi. Ushbu laboratoriyani mashxur o'zbek farmakologi professor Ishoq Komilov boshqardilar. Domla qirqtaga yaqin fan doktorlari, fan nomzodlarini tayyorladilar. Hozirgi kunda O'zbekistonimizda farmakologiya sohasida 20 dan ortiq fan doktorlari, 100 ga yaqin fan nomzodlari yetishib chiqdi. Olimlarning izlanishlari natijasida bir necha yangi moddalar tibbiyotda qo'llanilmoqda. Tibbiyot oliy bilimgohlaridagi farmakologiya kafedralari, qator ilmiy-tekshirish laboratoriyalarining xodimlari, olimlar, kimyo-farmatsevtika sanoati xodimlarining saxovatli mehnati tufayli O'zbekistonda farmakologiya fani kundan-kunga rivojlana bormoqda. Farmakologiyaning asosiy maqsadlaridan biri yangi dori moddalarini kashf qilish, ularning ta'sirini o'rganib, amaliy tibbiyotga tatbiq etishdan iboratdir.

3 - topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Men bu yigitni yaxshi bilaman. 2. Bu uylar yangi qurilgan. 3. O'shanda bunday bo'lishini sira o'ylamagandim. 4. Shunday odamlar borki, ular bilan hech xayrlashging kelmaydi. 5. Tog' yonbag'irlari shunday go'zalki! 6. Ushbu kitobni menga o'qituvchim sovg'a qildilar. 7. Tohir shunday tez yurib ketdiki, Adham unga yeta olmadi.

5- topshiriq. Savollarga javob bering, javoblaringizni rus tiliga tarjima qiling.

1. Yig'ilishda kimlar qatnashdi? 2. Sizga o'zbek tilidan kim dars o'tadi? 3. Siz qanday musiqani yoqtirasiz? 4. U senga nimalar olib berdi? 5. Qodiriyning qaysi romanini bilasiz? 6. Siz qaysi futbol jamoasining muxlisisiz?

6- topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Где проживает ваша семья? 2. Как вы добираетесь доуниверситета? 3. Сколько в этом семестре у вас предметов? 4. Каквчера прошли семинарские занятия? 5. С кем вы беседовали налестнице? 6. Чем это вы так удивлены?

7- topshiriq. Quyidagi birikmalar ishtirokida gaplar tuzing.

O‘zbek tili darsi, o‘quv xonasi, kitobxon bileti, katta tanaffus,ma’ruzalardan so‘ng.

8-topshiriq. Dori-darmonlardan biriga tasnif yozing.

9- topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Никтонеможеттаккрасивопеть. 2. Нигдебольшеянеелтакихсладкихлепешек. 3. Никогдаещемне не доводилось такприятно провести время. 4. Ничто его так не интересовалораньше.

10-topshiriq.Dorivor o’simliklar haqida ma’lumot yozish.

11- topshiriq. Gaplarni ko‘chiring olmoshlarning turini aniqlab, qaysi so‘z turkumi o‘rnida ishlatilganini ayting.

1. Hech qayerda hech qachon insonni inson urmasin (qo‘shiqdan). 2. Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir (Bobur). 3. O‘zbekiston o‘zining tinchlikdan iborat yo‘lini tanlab oldi. 4. Shu aziz vatan barchamizniki. (I. Karimov) 5. Shushu bo‘ldi-yu, ular hech qachon uchrashmadilar.

12- topshiriq. Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Har kim ekkanini o‘radi (maqol). 2. Biz har yili yozda Chimyonda dam olamiz. 3. Men har bir ishni sinchiklab o‘rganib chiqdim. 4. Har bir biletda uchtadan savol bor. 5. Bayramda hammamiz ishtirok etdik. 6. Har qachon, har yerda o‘z burchingni yodda tut.

13- topshiriq. Kerakli olmoshlarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Men ... bugunoq jo‘nab ketyapman. 2. O‘quvchilarning ... sayohatga yo‘l olishdi. 3. Bugun sinfda ... navbatchi? 4. Siz ... taomni yaxshi ko‘rasiz? 5. Dadamning kutubxonalarida ... kitoblar bor.

So‘zlar: hammasi, shu, har qanaqa, qaysi, kim.

14-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. O‘zbek tilini qachondan beri o‘rganasiz? 2. O‘zbek tilidan birinchi o‘qituvchingiz kim bo‘lgan? 3. O‘zbek shoirlaridan kimlarni bilasiz? Yozuvchilardan-chi? 4. Navoiyning “Hamsa”si qaysi dostonlardan iborat? 5.”Yulduzli tunlar” romanining muallifi kim?

15- topshiriq. Berilgan so`zlarni yangi so`zlarni ko`chiring.

Lug‘at ishi

Gavjum многолюдный	shoshiladi спешит, торопится
bee’tibor невнимательный	qoidabuzarlik правонарушение
ko‘ngilsizlik неприятность	rioya qilish соблюдать
talabqilmaydi нетребуетгоу	bermoq произойти

Mustaqil ish topshiriqlari:“Sharqning buyuk allomalari” mavzusida ma`ruza tayyorlash.

Adabiyotlar: AA 4, QA 12, 24

Mavzu: Ulug` ajdodlarimiz.Fe’l. Bo’lishli va bo’lishsiz fe’llar.

Reja:

1.Fe’l. Bo’lishli va bo’lishsiz fe’llar.

2. O`tmishga bir nazar...

3.Buyuklarvorisimiz.

✓ **Bilib oling! FE’L (Глагол)** Слова, обозначающие действие или состояние, называются глаголом.Начальной формой глагола в узбекском языке являетсяharakat nomi - имя действия с аффиксом -moq . Все глаголы всловарях даются в этой форме. Глагол в узбекском языке не имеет категорию вида и все глаголы отвечают на вопрос nima qilmoq? (что делать? что сделать?).Глаголы бывают o‘timli (переходными) и o‘timsiz (непереходными). Переходные глаголы означают действие непосредственно переходящие на другой предмет и сочетаются со словами в форме tushum kelishigi

(винительный падеж). Непереходные глаголы означают действие, совершаемоеобъективно, состояние. Сравните:
Переходные Непереходные
o‘qimoq (kitobni) uchmoq
tikmoq (kostumni) turmoq
bilmoq (qoidani) yotmoq
sevmoq (Vatanini) o‘tirmoq

Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe`llari: Tildagi har qanday fe’l bo‘lishli yoki bo‘lishsiz shaklda bo‘ladi. Bo‘lishli shakl harakatning tasdig‘ini, bo‘lishsiz shakl esa uning inkorini ifodalaydi: *keldi- kelmadi.* Fe’lning bo‘lishli shakli maxsus grammatik ko‘rsatkichga ega bo‘lmaydi. Chunki uning bosh shakli doimo bo‘lishli bo‘ladi. Bo‘lishsizlik esa quyidagi kabi maxsus vositalar yordamida ifodalanadi: **-ma affiksi** deyarli barcha fe’l shakllarida bo‘lishsizlik ifodalash uchun xizmat qiladi: *kelmadi, kemagan, kelmabdi* kabi. Fe’lning ba’zi vazifadosh shakllarining bo‘lishsizligini hosil qilishda *–ma* affikisining quyidagi morfologik shakllaridan foydalaniladi:

-maslik affiksi harakat nomining bo‘lishsiz shaklini yasaydi: *aytish-aytmaslik, borish-bormaslik* kabi.

-may\-mayin affiksi fe’lning –b(-ib) affiksi bilan yasaluvchi ravishdosh shaklining bo‘lishsiz shaklini yasashda ishlatiladi : *bilib-bilmay, ko‘rib-ko‘rmay*.**-mas affiksi** fe’lning –r//-ar qo‘shimchasi asosida hosil bo‘ladigan shaklining bo‘lishsiz shaklini hosil qilishda ishlatiladi: *yurar- yurmas, borar-bormas.*–**ma affiksi** yetakchi+ko‘makchi fe’lli birikmalarga quyidagicha qo‘shiladi:1) yetakchi fe’lga qo‘shiladi: *bormay tur;* 2) ko‘makchi fe’lga qo‘shiladi: *bora ko‘rma;* 3) har ikkalasiga qo‘shiladi: *bormay qo‘yma.*. Bunday birikuvda yetakchi yoki ko‘makchi fe’l yoki ularning har ikkalasi birgalikda ifodalaydigan ma’no o‘zaro farqlanadi: a) -ma affiksi yetakchi fe’lga qo‘shilganda, ana shu fe’lga xos harakat inkor etiladi. Biroq ko‘makchi felda bo‘lishlilik ma’nosi saqlanadi: *yurmay qoldi, kelmay qo‘ydi* kabi; b) bo‘lishsizlik shakli ko‘makchi fe’lga qo‘shilsa, bu fe’l bildirgan ma’nodagi harakatning inkori ifodalanadi: *kelib qolmadi, aytib qo‘ymadi;* d) bo‘lishsilik shakli yetakchi va ko‘makchi fe’lga qo‘shilganda esa qat’iy bo‘lishlilik ifodalanadi: *aytmay qo‘ymadi, kelmay qo‘ymadi.* **-emas to‘liqsiz fe’li** faqatgina **–gan** qo‘shimchali sifatdosh va **-moqchi** affiksli maqsad maylidagi fe’llarning bo‘lishsiz shaklini yasash uchun qo‘llanadi: *ketgan emas, ketmoqchi emas* kabi. Shuningdek, emas yordamida qiyoslanayotgan ikki harakat-hodisadan sifatdosh, ravishdosh yoki harakat nomi hamda narsa, belgi, miqdor kabilarning inkorini ifodalashda ham foydalaniladi: *o‘qib emas, yozib kelish kerak; qarashi emas, kulishi chiroyli; behi emas, olma; katta emas, kichik; o‘nta emas, to‘qqizta.* **yo‘q so‘zi** faqatgina **–gan// -yotgan** qo‘shimchali sifatdoshning bo‘lishsiz shaklini yasash uchungina qo‘llaniladi: *'yozgani yo‘q., borayotgani yo‘q.* Bu fe’llarning *yuq* so‘zi yordamida yasaluvchi inkor shaklida shaxs-son ko‘rsatkichlari fe’lning o‘ziga qo‘shiladi: *yozganim yo‘q, borganing yo‘q, kabi.* **na yordamchisi** vositasida harakatning inkori alohida ta’kid bilan ifodalanadi. Bunda fe’llar bo‘lishli yoki bo‘lishsiz shaklda qo‘llanishi mumkin. Fe’lning o‘zi bo‘lishsiz shaklda qo‘llanganda, *na* yordamchisi bog‘lovchi vazifasini bajaradi va ma’noni kuchaytirish-ga xizmat qiladi: *Na o‘qidi, na yozdi*.Bo‘lishsizlik ma’nosining ifodalanishida ohangning ham alohida o‘rni bor. Bunday hollarda inkor shakli bo‘lsa, tasdiq ma’nosi, tasdiq shakli bo‘lsa, inkor ma’nosi anglashiladi: *Bu bosh bevafo dunyoda nimalarni ko‘rmadi deysiz.(tasdiq). Ketasiz-a, ketasiz,... sizni bu yerdan ketkizarmidik (inkor).*

1- topshiriq. Lug‘atdan foydalanib fe’llarni tarjima qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

So‘ramoq, kelmoq, olib kelmoq, kutmoq, topmoq.

2- topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Выполнить задание. 2. Выучить правило. 3. Запомнитьновые слова. 4. Перевести статью. 5. Знать употребление слов. 5.Ответить на вопросы.

3-topshiriq.Berilgan matnni o`qing va mazmunini so`zlab bering.



1394 yil 23 martida Sultoniya shahrida bobosi Amir Temur yurishida qatnashish sharafiga muyassar bo'lgan chaqalok tug'ildi. U Shohrux Mirzoning to'ngich o'g'li bo'lib bobosi unga Muhammad Tarag'ay deb ism qo'ydi. Uni keyinchalik Ulug'bek deb atay boshladilar. 1405 yil bobosi Amir Temur vafot etgach, Samarqand taxti 1409 yilda Ulug'bekka nasib etdi. Ulug'bekning bolalik yillari Amir Temurning harbiy yurishlarida o'tdi. 1405 yilning boshida Xitoyga qilinayotgan yurish boshlanishi paytida Temur vafot etadi. Uning o'limidan so'ng to'rt yil davomida farzandlari o'rtasida taxt uchun kurash davom etadi. Otasi Shoxrux Mirzo mamlakatning notinch kismi Xirotni poytaxt etib, ko'chib ketdi. Ulug'bek 17 yoshida hokim bo'lib, bobosidan qat'iy o'laroq toj-taxt uchun kurashmadi. U hokimiyatni boshqarar ekan, ilm-fanni taraqqiy ettirdi, madrasalar qurib, ilm arboblariga homiylik qildi. 40 yil davomida odil shoh, buyuk matematik, astronom degan ulug' nomlarga sazovar bo'ldi. Observatoriya qurib, yulduzlarni tekshirdi, sxemasini tuzdi «Ziji Kuragoniy» nomli yulduzlar xaritasini tuzib, kelajak avlodlarga buyuk me'ros qilib koldirdi. Ulug'bekning ustozi sifatida munajjim Mavlono Ahmad ekanligini tahmin qilish mumkin. U Temur saroyidagi eng yirik olim bo'lib, sayyoralarning kelajak ikki yuz yillik taqvimlari jadvallarini tuzgan. Lekin Ulug'bek o'zining Ziji Kuragoniy asarida ustozi sifatida Qozizoda Rumiyni tilga oladi. Ulug'bek yoshligidanoq Mavlono Ahmad va Qozizoda Rumiy ta'sirida ulg'ayadi. Shuning uchun Ulug'bek yigirma yoshidayoq yirik olim sifatida taniladi. Olim ilmga bo'lgan alohida ehtiromi tufayli yangi usuldagi bilim maskanlari – maktab va madrasalar barpo qildi. Bir vaqtning 111o'zida Buxoro va G'ijduvonda, Samarqandda uchta madrasa ochadi. Samarqanddagi madrasa qurilishi 1417 yili boshlanib, uch yilda qurilish bitiriladi. Tez orada bu madrasa mudarris va olimlarni to'play boshlaydi. Shu tariqa Samarqanddagi maktabi shakllanadi. Samarqandga Movaraunnahrning turli shaharlaridan va Xurosondan kelgan olimlarning soni 1417 yilga kelib 100 nafardan ortib ketadi. Ular orasida adiblar, muarrixlar, xattotlar, rassomlar, me'morlar bor edi. Ular davrasida Qozizoda va Koshiy eng salobatli va nufuzli edilar. Samarqand madrasasining ochilishi marosimi 1420 yilda bo'ladi. Mirzo Ulug'bek madrasasi Sharq ilm-fani va madaniyati tarixida katta voqea bo'ldi. Abdurahmon Jomiy ham dastlabki tahsilni ana shu madrasada oladi. Ushbu ilm maskanida alohida e'tibor beriladigan ilmlar falakkiyotga oid fanlar edi. 1424 yili yulduzlar haqida asralar yozish, umuman yulduzlarni tadqiq etish uchun rasadxona qurilishi boshlanadi va u 1429 yilda qurib bitiriladi. Ulug'bek yirik olim bo'lishiga qaramasdan to'rttagina ilmiy asar yozib qoldiradi. Uning ko'p vaqti davlat ishlari bilan bog'liq masalalarga sarflanar edi. Ulug'bek qalamiga mansub eng mashhur asar “Ziji Jadidi Ko'ragoniy”dir. Riyoziyotga mansub “Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola”, yulduzlarga bag'ishlangan “Risolai Ulug'bek” asari ham mavjud. Bu asarning yagona nushasi Hindistonning Aligarh universiteti kutubxonasida saqlanadi. Uning tarixga oid “Tarixi arba' ulus” asari ham mavjud (bu asarning o'zbekcha tarjimasi 1990 yilda Toshkentda chop etildi). Ulug'bekning “Ziji Ko'ragoniy” asari VIII-IX asrlarda boshlangan falakiyot an'anasini davom ettirsada, ularga nisbatan ilmiy saviyasi ancha yuqori ekanligi bilan ajralib turadi. Toj- taxt,

boylik uchun xirs-xavas so'nmas yulduz atrofini qora bulutlar bilan to'sdi. O'g'li Abdulatifning kaltafahmligi natijasida Ulug'bek 1449 yili 27 oktyabrida fojiali halok bo'ladi. Lekin padarkush Abdullatifni ham olti oyga bormay o'z navkarlari tomonidan o'ldiriladi. Ulug'bekning ishlari so'nmadi. Shogirdlari Ali Qushchi, Chalabiy tomonidan asarlari saqlab kolindi, ishlari poyoniga etkazildi.Istambulda yashab ijod etgan Ali Qushchi xizmatlari natijasida Ulug'bek va uning asarlari Evropaga tarqatildi. Uning ilmiy ishlari butun dunyoga tanildi, yoyildi. «Ziji» va «To'rt ulus tarixi» asarlaridan butun dunyo ilm ahli bahramand bo'lmoqda. Ulug'bek katta hayotiy tajriba bilan «Podsholiklar emiriladi, din tumandek tarqalib ketadi, olimu-fuzalolar ishi abadul- abaddir», degan nodir fikrlarni qoldirdi.

4- topshiriq. Nuqtalar o‘rniga mos fe’llarni qo‘yib ko‘chiring.

1. O‘qimoq - ... . 2. Bilim ... - har bir insonning burchi. 3. Vatanni ... - iymondandir. 4. Malakali mutaxassis bo‘lib ... - orzumiz. 5. Vatanga ... har bir fuqaroning burchi.

Fe’llar: munosib bo‘lish, olish, yuksalmoq, sevmoq, yetishish.

5- topshiriq. Berilgn matnni “BBB” jadvaliga joylashtiring.

IX-XII asrlarda yashab ijod qilgan O’rta Osiyolik buyuk allomalar va ularning jahon tsivilizatsiyasi rivojiga qo’shgan hissalari.

IX-XII asrlar O’rta Osiyo xalqlari tarixida moddiy va ma’naviy hayotning rivojlanishida oldingi davrlarga nisbatan keskin yuksalish yillari bo’ldi.



Ma’mun akademiyasida Movaraunnahrlik olimlar. Xorun ar-Rashid tashabbusi bilan Bag’dodda ilmiy Markaz-Akademiya (**«Bayt ul-Xikma»**)-tashkil etilib, unga barcha musulmon o’lkalari, jumladan O’rta Osiyodan ham olim va fozillar to’plandi. Bu markazda Movaraunnahr va Xurosondan kelgan Muso Xorazmiy, Ahmad Farg’oniy, Marvoziy, Marvarudiy, Javhariy kabi olimlar Bag’dod akademiyasini jahonga mashhur bo’lishida katta hissa qo’shdilar. Movaraunnahrda arab halifaligini hukmronligini o’rnatilishi hamda islom dinining keng yoyilishining ijobiy tomonlaridan biri shuki, Bag’doddagi ilmiy akademiyadan o’rnak olib Xorazmda ham X asrda Ma’mun akademiyasi vujudga keldi va uning a’zolari bo’lmish o’z davrining olimu-donishmandlari o’z ijodlari bilan Movaraunnahrni donishi olamga yoydilar. Shuningdek o’lkamiz hududidan islom dunyosining eng mo’’tabar shaxslari, hadisshunoslari etishib chiqdilarki, ularning nomi Hozirgi kungacha ham dunyoviy, ham tasavvuf ilmining yuqori pog’onalarida turibdi.

Xorazmda Ma’mun akademiyasi. Ma’lumki, uzoq o’tmishga ega bo’lgan O’rta Osiyo xalqlari taraqqiyoti tarixi o’z boshidan turli voqealarni, yuksalish va orqaga ketish davrlarini boshdan kechirdi. Shubhasiz, bu davrlarning barchasi tarixda o’zining ma’lum izini qoldirdi. Xususan ilm-fan madaniyatimiz taraqqiyotida IX—XII asrlar davrining o’rni beqiyosdir. Shuni alohida ta’kidlash joizki, Shax Ma’mun ibn Muhammad X asr oxirlarida janubiy va shimoliy qismlarga bo’lingan Xorazmni yagona bir markazga birlashtirdi. Ma’mun ayniqsa

poytaxt Gurganchni Sharqning eng yirik ilmiy-madaniy markazlaridan biriga aylantirdi. Ma'mun Gurganchda «Baytul xikma» (Donishmandlar uyini) tashkil qildi. U Ma'mun akademiyasi deb ham ataldi. Bu maskanda ulug' mutafakkirlar Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ibn al-Hammar, Abu Saxl Masixiy, Ibn Irok, Ahmad Farg'oniylar ijod qildilar. Shuningdek ular orasida Sharqning ko'pgina mamlakatlaridan kelgan ulug' allomalar ham bor edi.

O'rta Osiyolik mutafakkir olimlar haqida ma'lumotlar.

Abu Abdullo Muhammad Ibn Muso al - Xorazmiy. (783-850yy) Buyuk mutafakkir va olim al-Xorazmiyning arifmetika va algebraga doir «Kitob al-jabr val mukobala» (To'ldirish va qarama-qarshi qo'yish haqida kitob) asari matematika fanida yangi davrni boshlab beribgina qolmay, balki uning keyingi asrlardagi taraqqiyotiga ham katta asos bo'ldi. «Hind arifmetikasi haqida kitob» asari tufayli avval Sharq xalqlari, so'ngra esa Evropa xalqlari ham Qadimiy Hindistonning katta yutug'i-o'nli pozitsiyasi hisoblash sistemasi bilan tanishdilar. (XII asrda lotin tiliga o'girilgan). Al-Xorazmiyning «Kitob surat al-arz» (erning surati) asari geografiyaga, «Astronomik jadvallari» astronomiyaga oid bo'lib, ular muallifning nomini jahonga yoydi. Shuningdek, «Kuyosh soatlari to'g'risida risola», «Tarix risolasi», «Usturlab haqida risola», «Musiqa risolasi» singari ajoyib asarlari olimga katta shuxrat keltirdi, uning nomini abadiylashtirdi. Al-Xorazmiyning «Al-jabr val muqobala» asari keyinchalik Evropada «Algebra» deb yuritila boshlandi. Uning astronomiyaga oid asari esa faqat Sharqda emas, balki G'arbda ham asronomiya fani rivojida katta rol o'ynadi.

Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad Al-Farg'oniy. Al-Farg'oniyning tarjimai holiga doir ma'lumotlar tarixda kam saqlanib qolgan. 861 yilda vafot etgan. Astronomiya, matematika, geodeziya, gidrologiya fanlarining bilimdoni Bag'dod va Damashqdagi rasadxona qurilishlarida faol qatnashdi va u erda Ptolemeyning «Yulduzlar jadvalidagi» ma'lumotlarni tekshirish ishlarini olib bordi. Al-Farg'oniy astronomiyaga oid «Astronomiya negizlari» asarida astronomiyaga oid bilimlarni tartibga soldi, o'zining yangi natijalari bilan boyitdi. O'sha davr an'anasiga muvofiq mamlakatlarni etti iqlimga bo'lib urgandi. Kuyosh soatlarini. bayonini berdi, astronomik asboblari yaratdi. Farg'oniyning bu asari N.Kopernik davriga qadar Evropada astronomiya fanidan asosiy qo'llanma sifatida foydalanildi.

Abu Nasr al-Forobiy (873-950 yy). O'trorda tug'ilgan, boshlangich ma'lumotni Shosh, Buxoro, Samarqandda olgan so'ng Bag'dodda uzoq yashab, zamonasining olimlari bilan ilmiy muloqotda bo'lgan. Ilmning turli sohalariga oid 160 dan ortiq risolalar yozgan. Musiqa nazariyasiga bag'ishlangan «Musiqa xaqida katta kitob» nomli mashhur asari bu soha tarixiga bag'ishlangan eng dastlabki tarixiy manbalardan biridir. U serqirra, qomusiy olimdir.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048 yy). Xorazmda tavallud topgan bu mutafakkir, serqirra olim astronomiya, tarix, tibbiyot, riyoziyot, jug'rofiya, geodeziya, meteorologiya, etnografiya, falsafa, filologiyaga oid 150 ga yaqin asarlar yaratgan. Bu asarlar Beruniy nomini jahonga taratdi. Shuningdek, uning xikoyalar, she'rlar bitganligi xam ma'lum. Beruniy o'rta asrda birinchi bo'lib globus yaratdi. U arab, fors, hind turkiy tillarni mukammal bilgan. Uning «Farmokanaziya», «Geodeziya», «Hindiston», «Minerologiya», «Ma'sud qonuni», «qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarlari o'zbek va rus tillariga tarjima qilingan. Maxmud G'aznaviy saroyda ham xizmatda bo'lgan. U Ibn Sino bilan ham zamondosh edi.

Abu Ali Ibn Sino (980-1037 yil) U falsafa, mantiq ruxshunoslik, adabiyotshunoslik, she'riyat, musiqa, geologiya, minerologiya, fizika, matematika, tibbiyot, astronomiyaga oid yuzlab asarlar yaratdi. Abu Alining ilmiy qiziqishlari doirasi shu qadar keng bo'lganki, uning

40 dan ziyod tibbiyotga, 30 ga yaqin astronomiya va tabiatshunoslik fanlariga, 185 ta falsafa, mantiq va ilohiyotga bag'ishlangan asarlar yaratgani ma'lum.

Mustaqil ish topshiriqlari:" Imom Al-Buxoriy hayoti va ijodi." yuzasidan taqdimot tayyorlash.

Adabiyotlar: AA 5, QA 14, 15, 22

Mavzu: Tez yordam chaqirish. Fe`llarda zamon kategoriyasi. Hozirgi zamon fe`li.

Reja:

1.Fe`llarda zamon kategoriyasi.
2.Hozirgi zamon fe`li.
3. Bemorga birinchi yordam**.**

- **Bilib oling!** Bemorga birinchi yordam. Shikastlangan odamning boshini qaysi holatda uchratgan bo'lsangiz, shu holicha ikki tomonidan qo'llaringiz bilan qimirlamasligini ta'minlang.Nafas yo'llarining o'tkazuvchanligini ta'minlang. Es-hush va nafas darajasini kuzating. Tashqi qon ketishini to'xtating. Shikastlangan odamning me'yoriy tana haroratini ta'minlang.Agar shikastlangan odam boshida himoya qalpog'i bo'lsa, uni yechmang.Uni shikastlangan odam nafas olmayotgan holdagina yeching.

• Zamon kategoriyasi ish- harakat bajarilish vaqtining nutq momentiga (so'zlovchi so'zlab turgan vaqtga) munosabatini ifodalaydi.

Mana shu munosabatga ko'ra fe`lning uch zamoni farqlanadi.

1.Nutq momentidan bir soniya bo'lsa-da oldin bajarilgan yoki bajarilmagan harakat - o'timli zamon.

2. Nutq momentida ham davom etayotgan yoki davom etmayotgan harakat - hozirgi zamon.

3.Nutq momentidan bir soniya bo'lsa-da keyin bajariladigan yoki bajarilmaydigan harakat - kelasi zamon.

Hozirgi zamon shakllari. Xozirgi zamonning bir -biriga umuman olganda sinonim bo'lgan uchta ko'rsatgichi bor.

1)-yap (to'la shakli -yotib)
2)- yotir\\ -ayotir
3)- moqda

Masalan: men boryapman, biz borayotir, ular bormoqda

1-topshiriq. Berilgan topishmoqlarini o'qing va javobini toping.


Qo'shimchasi kattakon "- moqchi",
Kimlar darhol javob topmoqchi.

Uch xil zamon
Uch xildir nomi


Ishla, qal`a ham boshla,
Fe`l yasovchi qaysi "-la" ?

2-topshiriq. Berilgan savollarga guruhlarga bo`lingan holda klaster asosida javoblarni yozing.


1-guruh:



2-guruh:



3-guruh:



3-topsiriq. Berilgan lug`atlarni ishtirokida gaplar tuzing.

Lug`at ishi

O`zbek tili	Rus tili
Kelmoq	приходить
Yugurmoq	бегать
Pishirmoq	варить
Oqimoq	читать
Yozmoq	писат, расстилать
Ajablanarli	удивительный
Harakat	движение
o`smoq	Расти
Kuldirmoq	заставляь смеяться
yig`lamoq	плакать

4-topshiriq. "Oilam - mening faxrim " mavzusida bayon yozing.

5- topshiriq. Berilgan she`rni ifodali o'qing va yod oling!

Vatan-
Yuragimning olampanohi.
O,ota makonim,
Onajon o'lkam,
O'zbekiston,jonim to'shay soyangga.
Senday mehribon yo'q,seningdek ko'rkam,
Rimni alishmasman bedapoyangga!

6-topshiriq. Lug'at diktant. Berilgan fe`llardan o'tgan zamon fe`li hosil qiling.
O'qi, ishla, yoz, ber, tur, kel, o'tir...

7.topshiriq. Berilgan "Aqliy hujum" savollariga og`zaki javob bering.
1.Fe`l deb nimaga aytiladi?
2. Fe`l so'z turkumida nechta zamon bor?
3. Hozirgi zamon fe`lining qo'shimchalari.
4. -moqda qo'shimchasi bilan qaysi zamon shakli hosil bo'ladi?

8-topshiriq. Vatan haqida maqol ayting.

Mustaqil topshiriq: " Buyuk ajdodlarim bilan faxrlanaman" mavzusida referat tayyorlash.

Mavzu: Tish nima o`zi? O`tgan zamon fe`li. Kelasi zamon fe`li.

Reja:

1.Stomatologiya va stomatolog shifokor.
2.Fe`l kategoriyasi.
3.Fe`lning o'tgan zamon shakli.
4.Fe`lning kelasi zamon shakli.

5.Mening kutubxonam.

➢ **Bilib oling:** Dunyoda har bir kasbning o'z o'rni bor. Shu jumladan tibbiyot sohasi va shifokorlik kasbi dunyodagi eng yuksak faoliyatlardan biridir.Chunki odamlarning dardiga malham bo'luvchi inson bu orroq xalatdagi najot elchisi - shifokorlardir. Tibbiyot xodimi bo'lish juda katta mas`uliyat talab etadi. Shuning uchun har bir tibbiyot xodimi bu kasbni tanlaganidan so'ng GIPPOKRAT qasamiyodini qabul qilib, o'z kasbiga sodiq qolib, burchiga xiyonat qilmasdan beminnat yordam berishi kerak.

Mamlakatimizda tibbiyot sohasida katta e`tibor qaratilyapti. Hukumatimiz tomonidan tibbiyot infratuzilmasini yaxshilash borasida bir qancha qarorlar qabul qilingan va ular amalda tadbiq qilinmoqda. Tibbiyot sohasi o'z navbatida keng tarmoqlarga bo'linadi, bulardan hozirda rivojlanish borasida etakchi soha bu stomatologiyadir. Keng ma`noda stomatologiya "stoma" - og'iz bo'shlig'i, "logiya"- ta`limot degani bo'lib, og'iz bushlig'i -kasalliklarini o'rganadi va davolaydi. Stomatolog - tish shifokori bu sohada faoliyat ko'rsatadi.

Ayrim manbalardagi statistik ma`lumotlarga qaralganda respublika aholisining 70%dan ortig'i kares va uning asoratlari bilan, 35%dan ortig'i paradont kasalliklari bilan kasallangan. Bu umumiy kasalliklar oldida juda baland ko'rsatgich.Og'iz bo'shlig'i kasalliklarini sifatli davolash va o'z vaqtida proflaktikasini to'g'ri tashkil qilish uchun malakali kadrlar tayyorlash aktual muammo bo'lib kelgan.

• **O'TGAN ZAMON SHAKLLARINING YASALISHI** -di qo'shimchasi bilan yasalgan o'tgan zamon shakli so'zlovchining bevosita o'zi ko'rgan harakat va holatni bildiradi. Bu qo'shimchadan so'ng shaxs-son qo'shimchasining -m, -k (qoldim, qoldik), -ng, -ngiz (qolding, qoldingiz) shakllari qo'llaniladi. -(i)b qo'shimchasi bilan yasalgan o'tgan zamon shakli ilgari ro'y bergan harakat va holatning so'zlovchi to- monidan eshitib bilinganini ifodalaydi va bu qo'shimchadan so'ng shaxs-son qo'shimchasining -man, -miz, -san, -siz, -di(-lar) shakllari qo'shiladi. -gan qo'shimchasi bilan yasalgan o'tgan zamon shakli harakat va holatning ilgariroq bajarilganini bildiradi va bu qo'shimchadan so'ng shaxs-son qo'shimchasining -man, -miz; -san, -siz shakllari qo'shiladi.

• Kelasi zamon shaklining yasalishi Harakat va holatning gap aytilayotgan vaqtdan so'ng yuz berishini bildiradi. Bu zamon shakllari fe'l asoslariga -a, -y, -(a)r qo'shimchalarini va shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil qilinadi. Bu shakllar ba'zan harakatning doimiy, har unh zamonga oidligini ham ifodalaydi. Masalan: Akam kollej- da o 'qiydi.

• Undosh bilan tugagan fe'l asos- lariga kelasi zamonning -a, -ar, unli bilan tugagan fe'l asoslariga -y, -r, bo'lishsiz fe'l shakllariga esa -s qo'shimchasi qo'shiladi. -(a)r shakli kelasi zamonni gu- mon, taxmin yo'li bilan ifodalaydi.

1-topshiriq. Quyidagi fe'llarni jadvalga joylashtiring. Ular ish- tirokida gaplar tuzing.

Hayqirar edi, kuylamoqchi, yayradi, qo'ndi, qichqirmoqda, to'lib-toshdi, qoplagandi, yig'lamoqchi, ichyapti, adashib qoldi, yozar edi, yurdik, qarayapmiz.

O`tgan zamon fe`li	*Hozirgi zamon fe`li*	*Kelasi zamon fe`li*

2-topshiriq.She`rni ifodali o'qing va yod oling

ONA TILIM

Garchi zug'um qilganlarni yoqtirmadim,
She'r yozdimu bo'lak ishni qotirmadim.
Tilim turib o'z tilimda gapirmadim,
Bir eslasam eziladi bag'ri-dilim,
Ona tilim ,kechir meni,ona tilim.
Onam "erkam" deb quchganda tunlar yarim.
Erkim yoq deb zirqirardi bir joylarim,
Oltinlarim, ma'danlarim, ipaklarim,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim,
Kimlar uchun biz edik bir badaviylar
O'zbekni qon qaqshatganni o'zbek siylar,
Holimizni qon kuzatdi Yassaviylar,
Topganimiz handalakdek tilim-tilim.
Ona tilim,kechir meni,ona tilim.
Kimdir mayda millat bo'ldi,kimdir katta,
Biz piyoda, biz boqqanlar yurdi otda
Zulm otsa faqat sendan o'tdi zulm,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim!
(MUHAMMAD YUSUF)

3 – topshiriq. Berilgan so`zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Lug'at

Dunyo-мир Baxt-счастье

Faxrlanish-гордиться Ajoyib-удивительное

Xislat-способность Mehnatsevarlik-трудолюбивый

Sadoqat-верность Mumkin-можно

Nochor-безвыходный Do’stlar-друзья

Qilish-делать Noto’g’ri-неправильно

Hujjat-документ

4 - topshiriq. "Mening kutubxonam" mavzusida ijodiy matn yarating.



Mavzu: XXI asrda innovatsiyalar. Ravishdosh va uning qo'llanilishi.
Reja:
1.O'zbekitonda innovatsiya.
2.Fe`l mustaqil so'z turkumi sifatida.
3.Ravishdosh va uning qo'llanilishi.
4.Hunar-hunardan rizqing unar.

➢ **BILIB OLING**. Fe'lning ravishga xoslangan shakli ravishdosh deyiladi. Ravishdoshlar harakatning belgisini bildirishi bilan ravishga o'xshaydi. Ravishdosh ham ravish kabi fe'lga bog'lanib, uning belgisini bildiradi. Solishtiring: piyoda (ravish) keldi, shoshilib (ravishdosh) keldi.

• Ravishdoshning -(i)b, -a//-y shakllari ko'proq harakatning holatini, ba'zan payt, sababini, -gancha (-kancha, -qancha) shakli holatini, -gach, (-kach, -qach), -guncha (-kuncha, -quncha) shakllari paytini, -gani (-kani, -qani, -gali) shakli maqsadini anglatadi.

1-topshiriq.Berilgan matnni o`qing va mazmunini so`zlab bering.

XXI ASRDA INNOVATSIYALAR

Bugungi global taraqqiyot sharoitida axborot texnologiyalari ahamiyatini oshirishning yanada zamonaviy, innovatsion usullarini izlab topish, axborotlashtirish jarayoniga har tomonlama ko‘maklashish, ularni hayotga keng joriy etish davlat faoliyatining muhim strategik yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Barcha sohalarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jadal qo‘llash, mazkur tarmoqni zamon talablariga mos ravishda rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, muzeylar sohasida ham hozirgi kunning ilg‘or axborot texnologiyalari yutuqlaridan foydalangan holda yangi yo‘nalishlarda ish olib borish dolzarbahamiyat kasb etadi.Mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining o‘sishsur’atlari dunyo hamjamiyati tomonidan yuksak e’tirof etilmoqda. Bu bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tishning puxta o‘ylangan strategiyasi, ayni paytda ilm-fanni rivojlantirish, ta’lim sohasini isloh etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar samarasidir.O’zbekiston yoshlari - kelajagimiz tayanchi. Shunday ekan, mustaqillik yillari davrida zamon va xalqaro talablarga javob beradigan milliy ta’lim tizimining yaratilgani mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy

shartlaridan biri deb hisoblanadi.Yurtboshimiz I. Karimov ta’kidlaganidek: "Yuqori malakali, zamonaviy bilimlarga ega bo‘lgan, hozirgi kun talablari asosida fikrlay oladigan yetuk kadrlarni tayyorlash ham ijtimoiy-siyosiy, ham iqtisodiy muammolarimizni hal etishning kaliti hisoblanadi".Darhaqiqat, mamlakatimiz kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o‘tish, iqtisodiyotni bozor munosabatlari asosida barpo etishi hamda dunyoning rivojlangan davlatlari qatoridan yuqori o‘rinni egallash borasida izchillik bilan olib borayotgan sa’y-harakatlarining asosiy kuch- qudrati - kadrlarning intellektual salohiyati, qobiliyatlariga har tomonlama bog‘liq. O’zbekiston yoshlarining ilmiy va aqliy salohiyati, chuqur va teran tafakkuri, boy ma’naviyati, keng dunyoqarashi, vatanparvarlik ruhi asosida, erkin shaxs sifatida o‘zining barqaror hayotiy pozitsiyasiga ega bo‘lishi, el- yurt taraqqiyoti va uning yorqin kelajagi uchun o‘z fuqarolik burchi mas’uliyatini his qilib, anglashi-taraqqiyot negizi.Milliy g‘oyamiz - milliy istiqlol g‘oyasi yo‘lida hatto jonini berishga tayyor, o‘z ona Vatanini asrab-avaylab, unda erkin va farovon hayotni ta’minlay oladigan kelajagi porloq, barkamol va axloqiy kamoloti, ma’naviyati yetuk avlodni tarbiyalashga erishishimiz zarur. Prezidentimiz I. Karimov ta’biri bilan aytganda: "Bilimga chanqoq, iste’dodli yoshlarni topib, ularni Vatanga fidoyi insonlar qilib tarbiyalash muqaddas vazifadir".Sog‘lom g‘oyaviy tarbiya – yuksak dunyoqarash va e’tiqod tarbiyasini ham anglatadi. Shu o‘rinda tarbiya hamda ta’lim beruvchining shaxsiy sifati hamda o‘z ishiga fidoyiligi bu masalada g‘oyat muhim ekanligini unitmaslik kerak.Olimlarning ta’kidlashicha, informatsion yoki psixologik xurujlar ikki muhim ob’ektga zarba berishni maqsad qilib qo‘yadi. Bu, birinchidan, kompyuterlar va ma’lumotlar tizimidir, chunkibugun hayotni axborot texnologiyalarisiz, Internetsiz tasavvur qilish qiyin. Ikkinchidan -har birimizning individual ongimiz hamda barchamizga xos bo‘lgan va biz amal qiladigan ijtimoiy xatti-harakat normalariga ta’sir alohida e’tiborga olinadi.Ma’lumotlar asri bo‘lgan XXI asrda psixologik urush va informatsion xurujlar ham ayrim geosiyosiy kuchlar qo‘lida o‘z gegemonligini o‘tkazishning o‘ziga yarasha ta’sir vositasi bo‘lib bormoqda. Ular aksariyat xollarda yoshlar auditoriyasiga qaratilgan, chunki bunday urushning mohiyati raqibni oson yo‘l bilan, qarshiliksiz yengishdir. Ya’ni, ma’lumotlar oqimi shunday yetakziladiki, ma’lumotni qabul qiluvchi shaxs qarshilik ko‘rsatish bema’ni ish ekanligiga ishonib qoladi. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalari orqali ataylab qarama-qarshi xarakterdagi ma’lumotlar poyma-poy beriladiki, bu ham oxir-oqibat odamlarning ma’naviy idroki susayishiga olib keladi. Demak, bu xarakatlarning barchasi tinglovchi, tomoshabin yoki o‘quvchining fikrini o‘zgartirishga qaratilgandir.Dunyoqarashimizga hamoxang tarzda shakllanib borayotgan amaliy hatti-harakatlarimizda yangiliklar shu qadar ko‘pki,ularni oxirgi paytda ijtimoiy innovatsiyalar tushunchasi orqali izohlamoqdamiz.Ijtimoiy innovatsiyalar - bu inson aqli va kuchi, ma’naviy dunyosini mutanosibligi sharoitida uning mohiyatini saqlash, himoya qilish, takomillashtirish, samaradorligiga erishish yo‘llarini ko‘rsatuvchi qarashlar majmui bo‘lib, u bugungi kunda har birimizningturli tashqi va ichki ma’naviy tazyiqlardan himoyalanishimizning kafolatlarini belgilaydi.O’zbekiston ekologiyasini yaxshilash uchun, mamlakatimizdagi iqtisodiy ahvolni yaxshilash, ekologik tanazzulning oldini olish uchun xalqimiz orasida qadimda ma`lum bo’lgan ekologik madaniyatni tiklashimiz, tarixni yaxshilab o’rganishimiz hamda undan hozirgi sharoitda foydalanish imkoniyatlarini qidirib topishimiz kerak.Inson faoliyati ta`sirida biosferaning o’zgarishi juda tezlik bilan bormoqda. Insoniyatning tabiiyjarayonlarga ana shunday ta’sirda yoki munosabatda bo’lishi natijasida XX asr o’rtalarida ekologik muammolar juda avj olib ketdi. Ekologik muammo deganda insonning tabiatga ko’rsatayotgan ta`siri bilan bog’liq.Inson sivilizasiyasining rivojlanishi va uning tabiat

bag`riga tobora chuqurroq kirib borish oqibatida ahvol tubdan o’zgardi. Bugungi kunda ibtidoiy sof tabiat haqida gapirmasa ham bo’ladi. Chunki yer yuzidagi o’rmonlar qirqildi, katta – katta hududlar dehqonchilik qilish maqsadida o’zlashtirildi, dorilar bilano’g’tlandi, har xil chiqindi hamda gazlar bilan toza havo va tabiat ifloslandi. Bundan tashqari tabiatda toshqinlar, o’rmon yoginlari, chang bo’ronlari va boshqa tabiiy jarayonlar yuz beradi. Bularning barchasi tabiatning tabiiy muvozanatiga putur yetkazadi. Dunyo bo’yicha kuzatiladigan tabiiy, antropogen yoki sof antropogen hodisalar umumbashariy muammolardeb qaraladi. Ana shunday ekologik muammolarga ba`zi bir misollarni keltirib o’tamiz:1. "Atmosferaning dimiqishi” hodisasi.2. "Ozon qatlamining siyraklanishi” hodisasi.3. "Chuchuk suv” muammosi .4. "Tirik tabiatdagi o’simlik va hayvon turlari sonining qisqarishi” muammosi.5. "Pestisetlardan foydalanish” muammosi. Mintaqaviy ekologik muammolar. Yer yuzasining muayan mintaqasi o’ziga xos tabiiy iqlim, ijtimoiy – ekologik, etnogirafik xususiyatlari uni tabiat bilan inson o’rtasidagi o’zaro aloqa munosabatlari xarakterini belgilab beradi.

2-topshiriq . Yuqoridagi ravishdoshlarni qanday so'roqqa javob bo'lishiga qarab, quyidagi ma'no guruhlariga joylashtiring:

Holat (qanday, qanday qilib?)	Payt (qachon, qachongacha?)	Maqsad (nima maqsadda?)	Sabab (nima sababli?)

3- topshiriq. Quyida berilgan fe'l asoslariga -gach (-kach, -qach), -guncha (-kuncha, -quncha), -gani (-kani, -qani) qo'shimchalaridan mosini qo'yib, ko'chiring. Talaffuzi va imlosini tushuntiring.

Ko'r, bor, ket, yig', chaq, taq, tik.

N a m u n a : ko'rgach, ko'rguncha, ko'rgani

4-**topshiriq** . Berilgan gaplardagi fe'llarni toping, ravishdosh shaklini hosil qiluvchi qo'shimchalarning yozilishi va talaffuzini tushuntiring.

1. Ona kelar yo'lda yugurib, Ko'ringandan qizini so'rab. (Hamid Olimjon) 2. Orqa tomonda o'tirgan Dilbar o'zini tutolmay qiqirladi. (N. Aminov) 3. Bobur gulni yana bir hidlab, boshidagi sallasining qatiga qistirib qo'ydi. (P. Qodirov) 4. Taxtga chiqqach, adolat bilan ish tutibdi. (Ertakdan) 5. Shamol tinavermagach, tog'ga chiqishni qoldirdi. (Tog'ay Murod)

5 - topshiriq.

1. Ravishdoshlar qaysi qo'shimchalar yordamida yasaladi?
2. Ularning imlosi haqida gapiring.
3. Qanday asoslarga -qach, -quncha, -qani qo'shimchalari qo'shiladi?
4. Payt ma'nosini bildiruvchi ravishdoshlarga misollar ayting.
5. Holat ma'nosini bildiruvchi ravishdoshlarga izoh bering.
6. Maqsad ma'nosini bildiruvchi ravishdoshlarni tavsiflang.
7. Sabab ma'nosini bildiruvchi ravishdoshlar qaysi qo'shimchalar bilan yasaladi?

HUNAR-HUNARDAN UNAR



Ota-bobolarimizdan qolgan shunday so'z bor: "Yigit kishiga qirq hunar ham oz". Ha, haqiqatdan ham bobolarimiz bu so'zni bejiz ishlatishmagan. Insonni hunar bezaydi, dunyoqarashini kengaytirib, sabr-toqat, matonat va eng muhimi irodasini mustahkamlaydi. Har bir inson o'z kasbi hunari bilan el orasida hurmat qozonadi, taniladi, shu orqali kiyinadi, oziqlanadi, bolalarini boqadi. Ya'ni hunarli inson hech qachon xor bo'lmaydi, hunarsiz inson esa hech narsaga yaramaydi. Keyingi yillarda kollejlarni ochilishi, maktab, institutlarda har xil to'garaklarni ochilishi, kasb-hunarga ega bo'lgan e'tiborni kuchaytiradi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin har xil tadbirlar bo'lib,insonlarni kasbini mukammal egallashi uchun yo'l ochib berilgan.Hunar insonni tarbiyalaydi, sabrli bo'lishga chorlaydi, aqlini toblaydi, tafakkur olamini kengaytiradi. Qadimdan bobolarimiz hunari ko'p insonlarni donishmand deb bilishgan. Insonlarni ismiga hunarini qo'shib aytishgan, hunarini mukammal egallagan insonlar dovrug'lari dunyoga doston bo'lgan. Hozirgi yigitlar "duradgorlik", "naqqoshlik", "haykaltaroshlik", "novvoylik", "rassomchilik" va boshqa hunarlarni egallashmoqda. Qizlarimiz esa "tikuvchilik", "kashtado'zlik", "pazandalik" va boshqa ko'pgina hunarlarni egallashmoqda.

6-topshiriq.

1.Hunar haqidagi moqollardan yana qandaylarini bilasiz?

2.Matndagi fe'llarni topib,belgilang.

3.Yana qanday hunar turlarini bilasiz?

4.O'zingiz qaysi hunarlar bilan shug'ullanasiz?

Foydalanilgsn adabiyotlar: AA 4**, QA** 1**,** 19**,** 29

Mavzu: Poliklinikada. Anamnez yig`ish. Sifatdosh. Harakat nomi.

Reja:

1. Poliklinikadahamshirabilansuhbat**.**
2. Anamnez yig`ish.
3. Sifatdosh va harakat nomining grammatik xususiyatlari.

BILIB OLING! Sifaidosh - fe'l shakli bo'Iib, u fe'llk va sifatlik xususiyatiga ega. Sifatdoshning 4 ta shakli bor:

1. O'tgan zamon sifatdoshi; 2. Hozirgi zamon sifatdoshi;
3. Hozirgi-kelasi zamon sifatdoshi; 4. Kelasi zamon sifatdoshi.

O‘tgan zamon sifatdoshi fe’lning bo'lishli yoki bo'lishsiz shakliga **-gan. -kan,** -qan qo'shimchasini qo‘shish bilan yasaladi. Masalan: ishla+gan, chiq+qan: Hozirgi zamon siratdoshi ravishdoshning -a, -y shakliga -yotgan qo`shimchasi qo'shish bilan yasaladi. Masalan: bora+yotgan, o ‘qi+yotgan;
Hozirgi kelasi zamon sifatdoshi ravishdoshning -a, -y shakliga -digan qo‘shimchasini qo'shish bilan yasaladi. Masalan: ishlaydi+gan, bora+digan: Kelasi zamon fe’liga -r, -ar qo'shimchasini qo‘shish bilan yasaladi. Masalan: oqar, borar, aytar;
Harakat nomi. Harakat nomining fe`lining bo`lishli shakliga –sh, -ish, -moq –v (-uv) qo`shimchalari qo`shish bilan yasaladi.

1- topshiriq. Berilgan matnni o`qing va matnga mos sarlavha toping.

Anamnezning asl m a’nosi eslamoq demakdir. Demak , tekshirilayotgan bemor o 'zid a kasallik qanday paydo bo‘lganini, shifokorga uchragunga qadar uning qanday davom etganini eslab, mukammal aytib berishi kerak.
Agarda bemorning ahvoli og‘ir bo`lsa , kasallik anamnezi bemorning kasalini yaqindan biluvchi kishilar yordamida to‘planadi. Bemorga birinchi yordam ko'rsatgan tibbiyot xodimlarining ma’lumotlari va ular bergan hujjatlar kasallik anamneziga material bolib kiradi. Anamnez diagnostik jarayonning birinchi bosqichi bo`lganligi uchun, uni to‘liq to'plash katta ahamiyatga ega. Bemorlar ko‘pincha kasallikning uncha qimmatga ega bo‘lmagan belgilarini, o'zlarining qanday davolash muassasalarida bo`lganliklari to‘g‘risida mukammal gapirib, shifokorga kerak bo‘lgan ma’lumotlami aytmasliklari mumkin, shuning uchun anamnez to ‘playotgan shifokor bemorga muloyimlik bilan qo‘shimcha savollar berib , asosiy m a’lumotiami bilib olishga harakat qilish kerak.

2-topshiriq. Berilgan lug`atdagi so`zlarni ko`chiring va so`zlar yordamida gaplar tuzing.

Lug‘at
eslamoq - вепоминатьpaydo bo`lmoq -появитьсяmukammal - совершенный
bosqich - ступеньmuloyim - вежливыйqo'shimch a –дополнительный
3-topshiriq. Matn bo‘yicha quyidagi konstruksiyalar asosida gaplar tuzing.
“Nima nima m a’noni bildiradi?”
Anamnez so`zi
«Nimadan nima qilish kerak?»
Nimaiarga nima kiradi?»
kasallik anam neziga kiradi
4-topshiriq. Berilgan matnni rollarga bo`lib o`qing.

ANAMNEZ YIG ‘ISH (H ajviya)

Amaliyotni poliklinikada o 'tishdan oldin ustozimiz: - Anamnez yig'ishni bilasizlarmi? - deb so'radilar. Biz boshimizni qimirlatdik. Ular «boshlanglar bo’lmasa», - deb chiqib ketdilar. Eshikdan bir nuroniy chol kirdi.
-Assalom u alaykum! o‘tiring, otaxon, - dedim men.
-Vaalaykum assalom, bolam, - dedi chol.
-Otaxon, - dedim men, - onangiz sizga homilador bo‘lganlarida toksikoz bo‘lganmilar?
-Chol juda hayron qoldi.

-Bilmadim , bolam...
-Siz tug‘ilgandan so‘ng darrov yig`laganmisiz?
-Unisini ham bilmas ekanman.
-Kindigingiz nechanchi kunda tushgan?
-Shu bilan qiziqmagan ekanman.
Shu payt eshikdan ustoz kirib qoldilar va kulib yubordilar.
-Bulardan hayot anamnezini olish shart emas. dedilar va o ‘zIari savol bera boshladilar.
5-topshiriq.Savollarga ham rus tilida ham o`zbek tilida javob bering.

Bemorning mehnat davri anamnez savollari:

1. Qanday yuqumli kasalliklar bilan og‘rigan?

Какими инфекционными болезнями болел?

2. Qaysi kasbda ishlagan?

Кем работал?

3. Oilaviy ahvoli qanday?

Какова семсйная жизнь?

4. Jinsiyhayotinechayoshdanboshlangan?

Когданачаласьполовоаяжизнь?

5. Hozirgivaqtdagiijtimoiy-maishiyahvoli

Соцналыю -быговые условия в настоящее время.

6. Oilada nasliy kasalliklar bo`lganmii?

Были в роду наследственные болезни?

6-topshiriq. Quyidagi so‘z va birikmalardan sifatdosh yasang va ularishtirokida gaplar tuzing.
Qaramoq, bilib olmoq, taqmoq, kelishmoq, olib kelmoq, bukmoq, yozib bormoq, og ‘moq.
7-topshiriq. Maqollardagi sifatdoshlarni aniqlang va birikma holida ko‘chiring. Birikmalarni rus tiliga tarjima qiling.

l.Ekinni erta ekkan, hosilni erta o'rar. 2.To‘g “ri gap tuqqaningga yoqmaydi. 3.Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt. 4.Birlashgan kuch yengilmas.n 5.Q o‘rqqangga qo‘sha ko`rinar.

Foydalanilgan adabiyotlar: AA 2, QA 12, 14

Mavzu: Yurak kasalliklari. Ravish haqida tushuncha. Ravishning ma`noga ko'ra turlari, yasalishi.

Reja:

1.Yurak kasalliklari.

2.Ravish so'z turkumi haqida.

3. Ravishning ma`nosiga ko'ra turlari va yasalishi.

Yurak va klapinlarning organik kasalliklarda ularning normal faoliyati izdan chiqib buning natijasida yurak ichidagi qonning harakatlanishi (gemodinamika) har xil tarzda o'zgaradi, yurak faoliyati sikli boshqacha bo'lib qolib, natijada yurak paroklari kelib chiqadi.

Yurak paroglari tug'ma va turmushda ortirilgan paroklarga bo'linadi.tug'ma yurak paroklar embrion shakllanib boradigan davrda paydo bo'ladi.Biroq ko'pincha turmushda ortirilgan paroklar uchraydi. Yurak klapinlari nuqsonlar, revmatizim, zaxliy, sklerotik jarayon va boshqalar tufayli ensokadda yuzaga keladigan o'zgarishlari shular jumlasidandir.

Mitral klapan yetishmovchiligiMitral etishmovchilikdagi o'zgarishlar birnchi marta Senak(1749-yil) tomonidan o'rganilgan.Mitral klapan etishmovchiligi yurak parogi bor bemorlarning 70% dan ko'prog'ida ham alohida ko'rinishda, ham mitral stenoz (mitral porog) yoki boshqa klapan va teshik proglari bilan birga uchraydi. Paydo bo'lish mexanizmiga ko'ra mitral klapan etishmovchiligi uch turga : fuktsional (mushak), nisbiy va organik turlarga bo'linadi.Mitral klapanning fuktsional etishmovchiligi distrofik o'zgarishlar natijasi sifatida mushak apparati fuktsiyasining buzilishlari (mushak etishmovchiligi) oqibatida rivojlanadi.

Yurak kasalliklari davosi. Yurak qon tomir sistemasi kasalligi eng ko'p tarqalgan kasallik bo'lib, ular ba`zan juda og'ir kechadi. Bu bemorning mehnat faoliyatini yo'qotishga olib keladi, hayotini ta`likaga soladi.Mazkur dard bilan og'rigan bemorlarning shikoyatlari asosan og'riq, sohasida hansirash, yurakning tez va notekis urish, shish, qon tuflash, bosh aylanishi, og'rishi va shu kabilar. Ular noiloj vaziyatda ko'rpa-to'shak qilib yotadilar. Og'riq ko'pincha yurak sohasida, o'ng qovurg'a ostida, oyoqda bo'ladi. To'sh suyagi orqasidagi og'riq yurak ishimiyasi bilan xastalangan kishilarga xos bo'lib, qisqa vaqtli sanchiqqa ega bo'ladi.Og'riq joylashgan joyni bemor imo -ishora bilan ko'rsatadi. Zo'rayib borayotgan yurak etishmovchiligida jigarda qonning dimlanishi hisobiga o'ng qovurg'a ostida og'riq paydo bo'lishi mumkin. Yuraknin ishemiya kasalligi yurak toj-tomirlarining aterosklerozga -yaqindan uzoqqa va aksincha uzoqdan yaqinga nigohini qaratish uchrashi va miokardga qon yetkazilishining kamayishi yoki to'xtab qolishiga qobiliyati pasayadi (akkomodasiya izdan chiqadi); bog'liq bo'lgan yurak mushagining o'tkir yoki surunkali zararlanishidir. Xastalik bitta narsa ko'zga ikkita bo'lib ko'rinadi; rivojlanishiga tashqi va ichki muhitning turli tuman omillari, arterial gipotenziya,

- kitob o'qiyotganda ko'zlar tez charchaydi; chekish, giperxolisterinemiya, kam harakatlik, yog' bosishi sabab bo'ladi.

- ko'zlar achishadi; Klinik amaliyotda yurak ishemiya kasalligining VOZ ekspertlari takliflari,

- ko'z va peshonada og'riq paydo bo'ladi;

➢ **BILIB OLING**! Harakat-holatning bajarilish tarzi, payti, o'rni, daraja-miqdori kabi belgilarini bildiruvchi va "qanday?", "qachon?", "qayer (-ga, -da, -dan)?", "qancha?"

singari so'roqlarga javob bo'luvchi so'zlar ravish deyiladi. Ravishlar tub va yasama ravishlarga bo'linadi. Yasama ravishlar qo'shimchalar qo'shish, asos qismni juft va takror qo'llash yoki ikki asosni biriktirish yo'li bilan hosil qilinadi. Tuzilishiga ko'ra ravishlarning sodda, qo'shma, juft va takroriy turlari farqlanadi.

✓ -cha, -lab, -larcha, -ona, -an, -chasiga qo'shimnhalari ot, sifatga qo'shilib ravish yasaydi.

Bu kabi ravishlarda -dan, -ga, -da kelishik, -(s)i egalik qo'shimnhalari asos qism bilan mustahkam birikib, hozirgi kunda ajralmas holga kelgan. Ravishlar ma'nosiga ko'ra holat, qayt, o'rin, miqdor-daraja, maqsad-sabab ravishlariga bo'linadi.

Ataylab, atayin, noiloj, noilojlikdan, jo 'rttaga, qasddan kabi ravishlar maqsad-sabab ravishlari hisoblanib, ularning miqdori u qadar ko'p emas.

1-topshiriq . Berilgan ravishlarni tarkibiy qismlarga ajrating.


Yillab, qahramonona, qatorasiga, erkaknhasiga, saharlab, vijdonan, bolalarcha.

2-topshiriq . Yuqoridagi yasovcnhi qo'shimchalarning tagiga chizing va bu qo'shimnhalar qo'shilgan asos qismning qaysi so'z turkum-
lariga mansubligini ayting.


3-topshiriq. -cha, -lab, -larcha, -ona, -an, -chasiga qo'shimnhalari yordamida yasalgan ravishlar qatorini tuzing.

4-topshiriq. Berilgan savollarga guruhlarga bo`lingan holda klaster asosida javoblarni yozing.

1-guruh




2-guruh



Rasmga qarab " Mahallam kecha va buguni" mavzuida matn tuzing.



Lug'at.



fuqarolik – гражданство jamiyat – общество

turmush farovonligi – семейноеблагополучие yilida – вгоду

Ixtisoslikka oid suhbatlarda tibbiy atamalarning qo’llanishi.

Mustaqil ish topshirig`i: Ixtisoslikka oid suhbatlarda tibbiy atamalarning qo’llanishi.

Foydalanilgan adabiyotlar: AA 5, QA 3,4, 30

Mavzu: Nafas olish a`zolari kasalliklari. Ko'makchi.

Reja:

1.O'zbek tilida ko'makchilar.
2.Nafas organlari sistemasi.
3.Nafas organlarining rivojlanishi.

Bilib oling.Ko'makchilar O'zbek tilida yordamchi so'zlar - ko'makchilar otga yoki otlashgan so'zga bog'lanib, ularning gapda boshaqa bo'laklar bilan turli munosabatini ifodalaydi. Ko'makchining o'zi alohida gap bo'lagi bo'lmaydi, bog'lanib kelgan so'z bilan birgalikda gapning biror bo'lagi vazifasida keladi. O'zbek tilidagi ko'makchilar bilan rus tilidagi predloglarning farqi ularning o'zi bog'langan so'zdan oldin yoki keyin kelishidadir. O'zbek tilida ko'makchilar o'zi bog'langan so'zdan oldin keladi.

O'zbek tilida ko'makchilar ikki gruppaga birlashadi: 1) sof ko'makchilar; 2) ot ko'makchilar.

Sof ko'makchilar uchun, bilan, qadar, uzra, sayin, sari ko'makchilari kiradi. Bu tur ko'makchilar biror affiksni olib o'zgarmaydi. Shu jihatdan ular rus tilidagi predloglarga o'xshaydi.

O'zbek tilida ko'makchilar qatoriga kiruvchi ot ko'makchilar o'z mohiyati bilan sof ko'makchilardan farq qiladi. bular asli o'rin-joy ma`nosini anglatuvchi otlar bo'lib, egalik affiksi va o'rin kelishiklari affikslaridan biri bilan kelganida ko'makchi otga aylanadi: ichida, orqasiga, yonidan, haqida, qarshisida, oldiga, tomonidan, o'rtasida, tepasiga, ostidan kabi. Bunday so'zlar o'z leksik ma`nosini ozmi-ko'pmi saqlaydi.

1-topshiriq.Matnni o`qing va mazmunini so`zlab bering.

Odam hamda quruqlikda yashovchi hayvonlar havo tarkibidan nafas organlari yordamida kislorod qabul qilib, nafas orqali karbonat angidrid chiqaradilar. Odam nafas organlari burun bo'shlig'i, xalqum, hiqildoq, traxeya, bronx va o'pkadan tuzilgan. Bular odatda kislorodni o'pka alveolalariga yetkazib beruvchi organlar hisoblanadi. Klinika sharoitida burun bo'shlig'i, xalqum, hiqildoq yuqori nafas yo'li deb ataladi. Traxeya, bronx va o'pkalar pastki nafas yo'li deyiladi. Nafas organlari embrion taraqqiyotining 3- haftalarida birlamchi ichak yo'lidan toq kurtak shaklida ajraladi. Rivojlanayotgan o'pka kurtagining chap tomoni 2 bo'lakka, o'ng tomoni 3 bo'lakka bo'linadi. Bo'linish bir xilda davom etib, bronx daraxti va sinusni vujudga keltiradi.

Nafas olish a'zolarining kasalliklari 2 turga bo'linadi.
1) nafas olish a'zolarining yallig'lanish kasalliklari
2) nafas olish a'zolarining yuqumli kasalliklari.

1) Nafas olish a'zolarining har bir qismi ichki yuzasini qoplab turuvchi shilliq parda tashqi ob-havo haroratining o'zgarishi, chang zarrachalarining ta'sirida yallig'lanishi mumkin. Bunga burun ichki shilliq pardasining yallig'lanishi, burundan suv oqishi, tomoq shilliq pardasining yallig'lanishi, hiqildoq shilliq pardasining yallig'lanishi.

2) Nafas olish a'zolarining yuqumli kasalliklaridan aholi o'rtasida ko'p uchraydigani gripp va o'pka sili hisoblanadi.

Gripp. Bu kasallikni maxsus viruslari qo'zg'atadi. Ular 3 xil (A,B,C).

O'pka sili- kasallik qo'zg'atuvchi mikrobni Robert Kox aniqlagan. Kasallik belgilari: darmonsizlik, ishtaha yo'qolishi, uxlagan vaqtda terlash, ozish, rangning oqarishi va h.k.

Bronxial astma

Bronxial astma - mayda bronxlarning torayishi, shilliq pardasining ko'pchishi va ichiga shilimshiq tiqilishi natijasida vaqt-vaqti bilan nafas qisishi, bo'g'ilish xurujlari bilan o'tadigan allergik kasallik. Xuruj to'satdan, turli xil vaqtda paydo bo'ladi, nafas olish qiyinlashadi, xususan, nafas chiqarish, xushtaqsimon xirillash paydo bo'ladi va masofada eshitiladi. Nafas olish tezlashgach, yopishqoq shishasimon, qiyin ko'chuvchi balg'am ajraladi. Bo'g'ilish xuruji bir nechi daqiqadan bir necha soatgacha davom etishi mumkin. Juda og'ir hollarda astmatik holat rivojlanadi, bunda xuruj bir necha kun davom etadi, yoki xuruj ketma-ket, qisqa oraliqlar bilan kechadi

1)Bemorni tinchlantiring - hissiyotli, hayajon va jismoniy zo'riqish bronxospazmni kuchaytirishi mumkin.

2) Bemorning holati majburiy ravishda deraza raxi, krovat, stul orqasiga tayangan holda o'tirish yoki turishni taqazo etadi, bemorga qulay holatni olishida yordam bering.

3) Toza havo kirishini ta`minlang, qisib turgan kiyimlarini yeching.

4) Qator hollarda xantalma, banka va boshqa chalg'ituvchi muolajalar yaxshi samara beradi.

5) Bronxlarni kengaytirish maqsadida ingalftor yordamida ingalyatsiya o'tkazing.

6) Agar xuruj birinchi marta paydo bo'lgan bo'lsa, shifokorning shoshilinch yordami zarur bo'ladi.

2 - topshiriq. Bilan, uchun, sayin, yonida, orqali, sari, bo'ylab, uzra, tomon ko'makchilarning mosini qo'yib gaplarni yozing.

Do'stlar _____ toqqa chiqdik. Dorixona _____ ko'zoynak do'koni bor. Allergologik bo'limi _____o'tamiz. Tez yordam mashinasi qirg'oq _____ berar edi.

3- topshiriq. Test.

1. O'zbekistonda qaysi daraxt birinchi bo'lib gullaydi

a) olma

b) shaftoli

c) bodom

2. Gullarning qaysi biri ilk bahor darakchisi?

a) binafsh

b) lola

c) boychechak

3. Qaysi qushlar qishda yurtimizda qishlaydi?

a) bulbul, qaldirg'och

b) chumchuq, musicha

c)turna,laylak

4. Qaysi daraxt gullamasdan meva qiladi?

a) shaftoli b) anjir c) behi

5. Quyidagi qushlardan qaysi biri qo'lga o'rganadi?

a) chumchuq

b) qarg'a

c) burgut

6. Qushlarning qaysi biri uchmaydi?

a) kurka

b) kalxat

c) o'rdak

4 -topshiriq. Quyidagi gaplarni davom ettiring.

1. Do'stlar yordami bilan _____.

2. Bir hafta ichida _____.

3. Qishloq vrachlik punkti yaqinida _____.

5-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Qanday usullarda sun'iy nafas oldiriladi?

2. Yuqori nafas yo'llari kasalliklarining sabablari va belgilari haqida nimalarni bilasiz?

3. Yallig'lanish kasalligi qanday o'tadi?

4. Grippdan qanday saqlanish mumkin?

5. Sil kasalligi haqida nimalarni bilasiz?

Mavzu: Sharq tabobati haqida suhbatlar. Bog`lovchi va yuklamalar haqida ma`lumot.

Reja:

1.Bog'lovchi va uning gammatik xususiyatlari.
2.Yuklama va uning grammatik xususiyatlari.
3.Abu Ali ibn Sinoning sharq ta'hbobatiga qo'shgan hissasi
4.O'zbekistonning o'tmishi ham, kelajagi ham buyuk davlat.

- **Bilib oling. Bog'lovchilar.**Gapning uyushiq bo'laklarini, qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so'zlar bg'lovchilar deyiladi. Mas.: Shirinlik, yog'lik va o'tkir narsalar yeyishni man qildim.

Bog'lovchilar mustaqil so'zlar kabi gapda gap bo'lagi vazifasini bajara olmaydi.

Bog'lovchilar grammatik xususiyatiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Teng bog'lovchilar (va, hamda, ham, ammo, lekin, biroq, balki);
2. Ergashtiruvchi bog'lovchilar (chunki, shuning uchun, toki, negaki, agar, basharti)

Bog'lovchilar yakka va takror holda qo'llaniladi: men va sen. Na gapga quloq soladi, na o'zi gapiradi.

Yuklamalar So'zlarga yoki gaplar mazmuniga qo'shimcha ma'no qo'shadigan yordamchi so'zlar yuklamalar deyiladi. Mas.: Sidiqxon etagini qoqib, o'rnidan turdi-yu jadallaganicha ko'cha eshigiga qarab yurdi.

Yuklamalar tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. So'z yuklamalar (faqat, holbuki, nahotki, hatto, axir)
2. Qo'shimcha yuklamalar (-mi, -chi, -a, -ya, -yu, -da)

Yuklamalar ma'nosiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

1. So'roq va taajjub yuklamalari (-mi, -chi, -a, -ya)
2. Ta'kid yuklamalari (-ku, -da, -u, -yu, ham)
3. Ayiruv yuklamalari (-gina, -kina, -qina, faqat, hatto)
4. Kuchaytiruv yuklamalari (axir, hatto, -oq, yoq)

Частицами в узбекском языке называются служебные слова или аффиксы, придающие различные смысловые оттенки предложению или отдельным его членам.

В узбекском языке наиболее употребительными частицами являются следующие:

1. Вопросительные и побудительные частицы
2. Утвердительные частицы
3. Выделительные частицы
4. Усилительные частицы



1-topshiriq. Matnni o`qing va matn mazmuniga mos sarlavha tanlang.

Qadim zamondan xalq tabobatchiligida mahsuli bo'lgan shifobaxsh o'simliklardan turli- tuman xastaliklarni davolashda muvaffaqiyatli foydalanib kelinmoqda.

Insonning bu yo'nalishidagi izlanishlari, sermahsul tajribasi ajdodlardan avlodlarga turli xil manbalar zamirida meros bo'lib qolmoqda.

Sharqning buyuk qomusiy olimi Abu Ali ibn Sino dorivor o'simliklarga alohida e'tibor bergan U o'zining "Kitob al- qonun fit- tib" ("Tib qonunlari") asarida 400 dan ortiq o'simliklarning shifobaxsh xususiyatlari va ularni ishlatish usullari haqida yozib qoldirgan.

Bugungi kunda ulug' alloma foydalangan dorivor o'simliklarning 100 dan ortig'i zamonaviy medisina amaliyotida samarali qo'llanilmoqda. Hozirgi vaqtda medisinamizda ishlatilayotgan barcha dorilarning 40 foizi, yurak qon- tomir kasalliklarini davolashda esa 80 foizini shifobaxsh giyohlar va ulardan olinadigan malhamlar tashkil etadi.

O'zbekistonda yovvoyi holda o'sadigan o'simliklarning 4 ming turdan ortig'i ma'lum. Shulardan 500 dan ko'pi shifobaxsh o'simliklar hisoblanadi. Bulardan tashqari dala va bog'larimizda turli- tuman sabzavot - poliz mahsulotlari mevalar yetishtiriladi. O'simliklar tarkibida odam organizmi uchun foydali bo'lgan A,B,C,PP vitaminlari, oqsil, yoqimli hid beradigan efir moylari, ko'p miqdorda oson hazm bo'ladigan fosfor tuzlari, temir, kalsiy va boshqa moddalar bor.

Vitamin A organizmni turli yuqumli kasalliklardan, vitamin C singadan, B asab kasalligidan, vitamin D raxitdan saqlaydi. Vitamin A yetishmasligi natijasida

organizm o'sishdan to'xtaydi, ko'z og'riydi, odam shab ko'r bo'lib qoladi. Bu vitaminga bo'lgan sutkalik ehtiyojni qondirish uchun 50 gramm sabzi yok ismaloq, ukrop, petrushka yoki 80 gramm barra, piyoz iste'mol qilish kerak.

Vitaminlar yangi uzilgan sabzavotlarda ko'p, quritilgan va tuzlangan sabzavotlarda esa kamroq bo'ladi. Shuning uchun yangi uzilgan sabzavotlardan yil bo'yi yeb turish tavsiya etiladi.

Sholi, bog'doy, loviya, no'xat, mosh kabi donli ekinlar faqat oziq- ovqatlik qimmatiga ega bo'lmay, ya'ni ayni vaqtda dorivorlik xususiyatiga ham ega. Masalan bug'doy uni tarkibida

"B" guruhiga kiradigan B ,B ,B ,PP vitaminlar, asab tizimining to'g'ri ishlashini ta'minlaydigan va insonni naslsizlik kasalidan saqlaydigan E vitamini bo'ladi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turganidek, qaysi bir o'simlikni olmang u yoki bu jihatda ular inson salomatligini saqlashga xizmat qiladi, turli dardlarga shifo bo'ladi. Ayni vaqtda tabiat ne'matlaridan olinadigan dori - darmonlar kimyoviy (sun'iy) yo'l bilan olinadigan preparatlardan afzalligi, shifobaxshligi va nisbatan bezararligi bilan ajralib turadi. O'simliklardan tayyorlangan dorilar deyarli asorat qoldirmaydi.

Bodom

1. Bodom mag'zinining qand bilan aralashtirilgani darmonsizligi, nafas qisishi, bosh aylanishi va yo'talga qarshi davo sifatida ishlatiladi. 2.Achchiq bodomning musallas bilan qo'shilgani eshakemini davolashda,asal bilan aralashtirilgani esa toshma yaralarni quritishda davodir.

3. Bodom moyiga qariqiz o'simligi ildizini qo'shib damlab, so'ngra boshga surtilsa, sochning to'kilishi anchagina kamayadi.

4. Shirin bodom mag'zi suvga obdon ezib aralashtirilsa, "bodom suti" hosil bo'ladi. Tayyorlangan bodom " suti "dan ichilsa , beozor siydik haydovchi omil bo'lib xizmat qiladi.

5. Shirin bodom urug'i po'chog'ining qaynatmasi qizamiq chiqqan bolalarga ichiriladi.

2-topshiriq. Va, hamda, chunki, shuning uchun, lekin, ammo bog'lovchilarini qatnashtirib gaplar yozing va bu gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

3-topshiriq. Gaplarni ko'chiring. Bo'glovchilarni topib, turini ustiga yozing.

4 - topshiriq. Gaplarni ko'chiring. Yuklamalarni toping. Ularning tuzilishiga va ma'nosiga ko'ra turini aniqlab, ustiga yozing.

1. Shamdek kuysa-da, o'zgalar dilini ravshan qilish baxtiga muyassar bo'lmoq haqiqiy shifokor qismati ekan, bu mas'uliyatni anglab yetmay shifokorlikka da'vogar bo'lishga haqqimiz yo'q. ("Sih-sal.") 2. Chunki biz markaz tasdig'ini kutmadik-da. 3. Bektemirning go'yo nafasi o'chgan, yurakning ko'krakda bolg'aday urganini ham sezmaydi. 4.Yong'oq po'chog'i bilan aralashtirib ishlatilsa, sochni qoraytiradimi? ("Sih-sal.")
5. Dunyo qiladi orzuki, sen bog' bo'l deb
Gohida rayhon bo'lu, sarv goh bo'l deb.
Oy kabi o'tma-ketma, hamroh bo'l deb,
Yuzlarni yorug' qilmoq uchun sog' bo'l deb. (Pahlavon Maxmud.)

5-topshiriq. Berilgan lug`atdagi so`zlarni ko`chiring va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Lug’at

Baxt-счастье

Faxrlanish-гордиться

Ajoyib-удивительное

Xislat-способность

Mehnatsevarlik-трудолюбивый

Sadoqat-верность

Mumkin-можно

Nochor-безвыходный

Do’stlar-друзья

Qilish-делать

Noto’g’ri-неправильно

**Mustaqil ish toshirig`i:** Ma`naviyat, tibbiyot, estetika,pedagogika

Foydalanilgan adabiyotlar: AA 4, QA 2,4,17

Mavzu: Kasbiy deontologiya. Modalso'zlar.Undovso'z. Taqlid so'zlar.

Reja:

1.Modal so'zlar va ularning xususiyatlari
2.Undov so'zlar va ularning xususiyatlari
3.Taqlidlar va ularning xususiyatlari
4.Shifokor dnontologiyasi va tibbiy axloq

➢ **Bilib oling! Modal so'zlar**Biror modal ma'noni ifodalab qisman so'z o'zgartiruvchi qo'shimcha oladigan gapga kirish so'z gap bo'lagi yoki butun bir gap vazifasini bajaradigan so'zlar modal so'zlar deyiladi.

Modal so'zlar aslida boshqa so'z turkumlaridan o'sib chiqqan bo'ladi.

1.Otdan o'sib chiqqan modal so'z: aftidan, ehtimol, haqiqatdan, darhaqiqat.
2.Sifatdan o'sib chiqqan modal so'zlar: shubhasiz, so'zsiz, tabiiy, bor yo'q
3.Feldan o'sib chiqqan modal so'z: chiqar bo'ldi.
4.Olmoshdan o'sib chiqqan modal so'z:o'z-o'zidan, sizningcha, menimcha, bizningcha.
5.Ravishdan o'sib chiqqan modal so'z: albatta.

Modal so'zlar tubandagi ma'nolarni bildiradi:

1.Fikrning aniqligini:albatta, shubhasiz, darhaqiqat.
2.Gumon noaniqligini:ehtimol, balki, aftidan.
3.Maqsad talab shartni:kerak, lozim,darkor.
4.Mavjudlik va tasdiqni:bor, mayli, to'g'ri.
5.Inkorni bildiradi:yo'q.
6.Ma'qullikni bildiradi:durust, bo'pti.
7.Yakunlash va taqidni:demak, xullas,modomiki.
8.Eslatishni:darvoqe, aytmoqchi.
9.Achinish taassufni:afsus, attang..

✓ **Taqlidiy so'zlar**Sharpa-tovushga va holatga taqlidni bildiradigan so'zlar tanqidiy so'zlar tanqidiy so'zlar deyiladi. M.: taqir-tuqur, gup, vag'ir, gumbur-gumbur.

Taqlid so'zlar ko'pincha juft va takrorlangan holda keladi. U gapda gap bo'lagi bo'lib kelishi mumkin.

Taqlid so'zlar ma'nosiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1. Tovushga taqlidni bildiruvchilar (g'uv-g'uv, vov-vov, g'ing'ir-g'ing'ir).
2. Holatga taqlidni bildiruvchilar (yalt-yult, apil-tapil, milt-milt).

Этоособаягруппаслов, представляющихсобойусловноевоспроизведение разного рода звучаний: криков животных, птиц, шумов, взрывов, грома, свитаидр.

✓ **Undovlar** Undovlar his-hayajon, haydash-chaqirish kabi ma'nolarni ifodalaydi. Undovlar yakka holda (voy, uh, e, iye kabi) va takrorlanib - juftlashib (vay-vay, oh-oh-oh, voy-bo'y kabi) keladi. Takrorlanib - juftlashib kelganda chiziqcha (-) bilan yoziladi.

Undovlar ma'no xususiyatlariga ko'ra his-hayajon undovlari va haydash-chaqirish undovlariga bo'linadi.

His-hayajon undovlari (eh, oh, uh, ho, he, e, iye, uf, marsh, tuf kabilar) gap bo'laklaridan ko'pincha vergul bilan ajratiladi, kuchli hayajon bilan aytilganda undov belgisi qo'yiladi.Masalan: Oh-oh-oh! Otangizga rahmat!

Haydash-chaqirish undovlari (bah-bah, quray-quray, pisht, ti-ti-ti, kisht kabilar) deb, degan so'zlari bilan birga qo'llanadi: Ha, degan tuyaga madad.

Слова, служащие для выражения чувств и волевых побуждений, называются междометиями.

В узбекском языке наиболее употребительными междометиями являются:

1. Эмоциональные, выражающиеразличныепереживанияичувства: вох (ах), эх (эх), вой-вой (ой-ой) 2. Призывные: курай-курай (когдасзываютовец), ту-ту-ту (когдасзывают кур)

1-topshiriq. Berilgan matnni o`qing va “Mening orziumdagi shifofkor” mavzusida suhbat yuriting.

O'zbekiton Respublikasi vrachi- oliy tibbiyot ma`lumotini olgan, o'z bilimi, tajribasi va malakasini kasalliklarning oldini olish va va bemorni davolashga, inson salomatligini saqlash va mustahkamlashga bag'ishlagan shaxsdir. 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 40- moddasida "Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega" deyilgan "Malakali tibbiy xizmat olish" deganda, qachonki, maxsus tibbiy ma`lumotga ega, yordamga muhtoj har qanday bemorga zaruriy yordamni ko'rsatish majburiyati haqidagi O'zbekiston Respublikasi vrachi qasamiyodini qabul qilgan shaxs tomonidan olib borilishini tushunish kerak.

Tajriba ortttirayotgan vrach kasallik va jarohatlarning oldini olish (profilaktika), ularni aniqlab tashxis quyish (diagnostika) va davosi (terapiya) bilan shug'illanadi. Bunga tibbiy bilimi va vrachlik mahoratini doimiy takomillashtirish yo'li bilangina erishib borish mumkin. Bu esa bir qator fundamental, umumiy vrachlik va maxsus fanlarni o'rganish, bemor bilan bevosita muloqotda bo'lish tajribasini egallash, uning ichki ehtiyojlari va darddan aziyat chekishini bilishdek muhim jarayonlar bilan bog'liq. Tibbiyot fanida erishilgan oxirgi yutuqlarni qo'llab, muvofaqiyatli davolash vrach mahoratini talab etadi.

Shunday ekan, bemorning umidi vrachdan, betob yotgan kishi shifokorga davolanish jarayonida tez-tez murojaat qiladi, vrach esa kasallik sabablarini surishtira boshlaydi. CHunki hech qanday kasallik o'z-o'zidan kelib chiqmaydi. Tibbiy muassasaning zamonaviy asbob - uskuna bilan jihozlanishi va vrachlarning kuchli ixtisoslashuvi negizida bemorning salomatligi tiklanadi. Vrach har bir bemor bilan shunday munosabatda bo'lmog'i zarurki, uning muolajasini qabul qilayotgan kishi u haqda faqat yaxshi fikrda bo'lsin.

Buyuk tabib Abu Ali ibn Sino ta`biri bilan aytganda, vrach- bemorning do'sti, ustozi va yordamchisidir. Mas`uliyatli bu vazifani bajarish uchun unda kasbiy bilim va tajribadan tashqari, ijobiy fazilatlar- rahm-shavqat, vijdon, imon-e`tiqod shakllangan bo'lishi kerak.

2-topshiriq. Gaplarni ko'chiring. Taqlid so'zlarni topib, ostiga chizing. Turini ustiga yozing.

1.Nega stolni asabiy taqillatayapsan? - deb so'radi bemordan. 2. Bog'da g'ir-g'ir shamol esar edi. 3. Sidiqjonning yuragi jiz etdi. 4. Doktorni ko'rib, bolaning yuragi gup-gup ura boshladi. 5. Ayniqsa, qizga juda alam qildi, lekin bularning g'uvillashi darrov tindi, chunki Karimqulning vaji hammasiga ma'qul tushdi

3- topshiriq. Ko'chiring. Undovlarni topib, ostiga chizing. Tinish belgilarining qo'yilish sababini tushuntiring.

1. E, endi dorixonaga yurganim-yurgan. ("Sih-sal.") 2. Voy-bo'y, tishning abjag'ini chiqaribsiz-ku! ("Sih-sal.") 3. E, o'g'lim, e-e, qattiq non davo bo'ldi... 4. E,

O'rmonjon aka, nima dor edi. Nuqul kolxozni surishtiradi. 5. Uff! Kasallar ko'p edi-ya. Lekin hammasi birin-ketin bu dunyoni tark etdi. ("Sih-sal.") 6. Voy-bo'y, bu avtobusda ikki kun yursang qoq baliqdek bo'lib ketasan, - dedi xola istehzo bilan.

4- topshiriq.

TEST

1.Qaysi gapda modal so'z qatnashgan?
A)Har bir ishning chamasi bo'ladi,har daryoning kemasi
B)Xatning mazmuni shunday edi
S)Tabiiy, xushro'yning fe'lini yaxshi bilgan ota-onasi unga hech narsani aytmaydi
D)Sho'x kuy yangragach, qizlarning o'yinga tushishlari tabiiy.
2.Modal so'zning morfologik xususiyatlari qaysi qatorda kiritilgan?
A)Kirish so'z vazifasida keladi
B)Modal ma'nolarni anglatish uchun xizmat qiladi
S)Morfologik jihatdan o'zgarmaydi
D) Ava B
3.Modal so'zlarning sintaktik belgisi qaysi qatorda berilgan?
A)Morfologik jihatdan o'zgarmaydi
B)Undalma vazifasida kelishi
S)Kirish so'z vazifasida kelish
D)Ikkinchi darajali bo'laklar vazifasida kelishi
4.O'zaro sinonim bo'lgan modal so'zlar qatnashgan gapni aniqlang?
A)O'shanda bahor fasli edi, shekilli
B)Ehimol xatosini tushungandir
S)Balki, bu gapning o'rni emasdir
D) A, B, S
5.Qaysi qatorda so'z chamasi modal so'ziga sinonim bo'la oladi?
A)Balki
B)Darvoqe
S)Har qalay
D)Tabiiy

5- topshiriq. She`rni ifodali o'qing va yod oling.

Aziz asrimizning aziz onlari
Aziz odamlardan so'raydi qadrin.
Hayot g'animatdir,shox satrlar-la
Bezamoq onidir umr daftari

6- topshiriq. Savollprga javob bering

1.Til nima?
2.Respublikamizda ta'lim sohasida o'tkazilayotgan islohotlar maqsadi nimada?
3.Yurtboshimizning ibratomuz fikrlaridan keltiring.
4.Nega"Til-millatlar ruhidir",deb hisoblanadi ?

7-topshiriq. Berilgan so`zlarni ko`chiring va yod oling.

Lug'at

Hurmat-уважение
Til-язык
Yurtboshi-глава страны
Milliy-национальное
Ong-сознание
Bebaho-безценое
Mulk-имущество
Madaniyat-культура
Onatili-родной язык
Xalq-народ

Mustaqilishtopshirig`i: Tibbiy mavzudagi badiiy adabiyotlarni o'qish

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati: AA 2, QA 8, 15, 31

Mavzu: Pediatriya. O'zbek tili sintaksisi. Gap. Gapning ifoda maqsadiga ko'raturlari.

Reja:

1.O'zbek tili sintaksisi.

2. Gap. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari.

3.Pediatriya – bolalar shifokori.

➢ **Bilib oling**! Til o'z ijtimoiy vazifasini sintaktik qurilma - gap vositasida amalga oshiradi. Grammatika morfologiya va sintaksisni o'z ichiga oladi.

Sintaksis (gr. sintaxys - tuzish, qurish)ning asosi gap haqidagi ta`limotidir.

Sintaksís - grammatika bo'limi bo'lib, u gaplami, so 'z birikmalarini o 'rganadi. Predmetni so'z yoki so'z birikmasi bilan atash mumkin. So'z birikmasi predmetni aniqroq ifodalaydi. Olma - juda ko'p o'xshash predmctlami ataydi. Qizil olm a esa aniq narsani bildiradi

So'z birikmasi nutqda so'zdan ko'ra ko'proq ishlatiladi; So 'z birikmasi gapdan farqli holda tugal fikr bildirmaydi. Masalan: yosh oila, chuqur bilim, toza ko'ylak;

Gapning ifoda maqsadiga kshra turlari.

Ifoda maqsadiga ko'ra gaplarning turlanishi sof nutqiy hodisadir. So'zlovchining nutq jarayonida fikr ifodalash bilan birga, ma`lum bir maqsadni ko'zlaydi ham. Gaplar so'zlovchining ko'zlagan maqsadiga ko'ra turli-tuman bo'ladi.

1.Darak gaplar: Uzoqdagi zalvorli tog'lar xayolimni keldilar bosib.

2.So`roq gaplar: Sen baxorni sog'inmadingmi?

3.Buyruq gaplar: Meni kutgil...

Darak gaplar. Darak gaplar xabar berish, biror hodisa yoki dalilni tasdiqlash xususiyatigi ega bo'ladi. Darak gapning oxirida nuqta qo'yiladi. Umrim bo'yi seni kutarman

So'roq gaplar. So'roq ohangi bilan aytiladi va oxirida so'roq belgisi qo'yiladi. Yozda ham shunday yomg'ir yog'adimi.

Buyruq gaplar. Buyruq gaplar tinglovchining biror predmetga biror ishni bajarishga undash, buyurish, qistash ma`nolarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Buyruq gaplar ko'pincha undalmali va undovli bo'ladi. Hoy, tezroq yuringlar. Bozor , bu yoqqa kel!

Pediatriya (yun. pais — go`dak va iatreia — davolash) — bola organizmining anatomik-fiziologik xususiyatlari, bolalar kasalliklarining kelib chiqish sabablari va ularning rivojlanish mexanizmlarini o`rganadi; kasalliklarni aniqlash, davolash va ularning oldini olish usullarini ishlab chiqadi.Bolalarni ovqatlantirish, parvarish qilish, ba`zi bolalar kasalliklarini davolash to`g`risida ayrim fikr va maslaxdtlar Gippokrat, Galen, Abu Ali ibn Siio va boshqa asarlarida uchrasa ham, P. 19-asrning 2yarmida mustaqil fan sifatida shakllandi.Uzbekistonda pediatriya sohasidagi tadqiqotlar Urta Osiyo universiteti tibbiyot fakulteti bolalar kasalliklari kafedrasida

boshlandi. 1927 yilda Toshkentda Onalik va bolanikni muhofaza qilish i.t. institutining tashkil qilinishi, keyinchalik tibbiyot institutlarida pediatriya fakultetining ochilishi, 1962 yilda Sog`liqni saklash vazirligi qoshida "Bolalar organizmining norma va patologiyadagi yosh xususiyatlari" muammolari respublika komissiyasining tuzilishi, 1966 yilda "Akusherlik, ginekologiya va pediatriya i.t. instituti"ning qayta tashkil qilinishi, 1972 yilda Urta Osiyo pediatriya tibbiyot instituti (xoz. Toshkent pediatriya tibbiyot instituti)ning barpo etilishi P. fanining tez rivojlanishiga imkon berdi.1920 yildan boshlab mahalliy turmush sharoitlari, ularning bola organizmiga ta`siri, Uzbekiston sharoitida bolalar kasalliklarining kechish xususiyatlari va ularning oldini olish yo`llarini o`rganishga kirishildi; bezgak kasalligi (N. I. Osinovskiy, K. G. Titov, L. M. Isayev, L. S. Aleksandrova), bolalikdagi visseral leyshmanioz va boshqa kasalliklar o`rganildi (N. I. Xodukin, R. S. Gershenovich, M. A. Mirzoyan, V. K. Ivanov), 50—60-yillarda bolalardagi o`tkir va surunkali me`da-ichak kasalliklari ustida ish olib borildi (S. G. Shamsiyev, H. A. Yunusova, O. S. Maxmudov, V. G. Balobonkin, M. A. Mir-zamuhamedov, F. X. Nazarmuhamedov, B. A. Aminov, A. H. Hamroyev va boshqalar).

Respublikamiz iqlim sharoitida bolalar siydik yo`lining fiziologiyasi va patologiyasi (K. X. Tohirov, L. S. Aleksandrova, A. S. Saydaliyev, A. S. Sulaymonov), bolalar sili (M. 3. Lyu-betskaya, A. A. Saidaxmedov, V. A. Elkonina), qon kasalliklari o`rganildi (A. T. To`rayev, N. N. Chukanin, 3. N. Bekna-zarova). Ona qornidaligida gipotrofiyaga uchragan bolalarda ularning yoshiga va ovqatlanish turiga qarab aminokislotalar almashinuvi masalasi, nefritda bolalar immun reaktivligi ko`rsatkichlari, o`tkir va surunkali virusli gepatitlarning oldini olish, ularga tashhis qo`yish va davolash masalalari (H. A. Yunusova, O. S. Maxmudov, N. S. Loginova, K. M. Mirzayev, T. O. Daminov), o`t pufagi va o`t yo`llari kasalliklari, revmatik kasalliklar, yosh bolalarda elektroensefalik xususiyatlar o`rganildi (M. A. Mirzamuhamedov, I. A. Bodnya, S. N. Yo`ldosheva, M. R. Nuritdinov, A. T. Oqilov, S. Abdurahmonova va boshqalar). Bolalardagi zotiljam, allergik va immunologik kasalliklar, shuningdek, P. fani va amaliyotining eng dolzarb muammosi — sog`lom avlodni tarbiyalash va voyaga yetkazish ustida keng ko`lamda ilmiy ishlar olib borilmoqda. Bola sog`liq holatining mamla-katimizga xos bo`lgan me`yor ko`rsatkichlari, bola organizmining immun hola-ti, sog`lom va bemor bola ovqatlanishi masalasi hamda buni yaxshilash yo`l-yo`riqlari, sog`lom turmush tarzini targ`ibot qilish va boshqa muammolarni har tomonlama o`rganish bo`yicha ilmiy izlanishlar davom ettirilmoqda.

1-topshiriq. Gaplarni ko‘chiring, rus tiliga tarjima qiling. Gaplar maqsadlariga ko‘ra qaysi ifoda turiga kirishini ayting.

1. Dunyoda shifokorlik kasbidan a'lo kasb yo‘q. 2. Bemoming taqdiri - shifokoming qo'lida. 3. Bemorlaring his-tuyg‘ulari va o ‘y-xayollari, orzu-umidlari va kelajak ishlari, hamma-hammasi shifokorning qo'lida. 4. Agar men quruvchining hayotini saqlab qolsam, u sog‘ayib ketgach ajoyib uylarquradi. 5. Bu binolar menga xuddi o ‘zim qurganday ko‘rinadi, chunki mensiz-shifokorsiz ushbu binolar qurilmay qolishi mumkin cdi. 6. Agar mening qo'limda yozuvchi ajal olib keladigan xastalikdan shifo topsa-yu, ajoyib roman yozadigan bo'lsa, bu roman mening ham romanim hisoblanadi. 7. Shifokor - uning qo'lidan shifo topganlar qilayotgan ulug‘ ishlarning ko'zga ko'rinmaydigan ishtirokchisidir.

2-torshiriq. Topishmoqlarning javobini toping.

Mazmunida buyurish,
Ham iltimos, maslahat.
Nuqta bor oxirida,
O'ylab toping, Malohat.
Biz besh og'a-inimiz,
Qarindoshmiz,qo'shnimiz.
To'ng'ich aka egavoy
Boshqasini toping hoy.

Mustaqil ish topshirig`i: Tibbiy mavzudagi badiiy adabiyotlarni o’qish.

Foydalanilgan adabiyotlar: AA 2, QA 6,7, 29

Mavzu: Stomatolog qabulida. Gapda so'z tartibi.

Reja:

1. Gapda so`zlarning o`rni.
2. Gap va so`z brikmasining bir-biridan farqi.
3. Tish nima?

➢ **Bilib oling!**BOSHBO‘LAKLAR.(Главные члены предложения)

Ega. Подлежащее - главный член предложения, указывающий о ком или о чем идет речь в предложении. В узбекском языке оно может выражаться различными частями речи:Существительным: O‘qituvchimiz qiziq bir voqeani aytib berdi.Местоимением: Bu – mening Vatanim.Прилагательным: Oqlar boshlaydi va ikki yurushda mot qiladi.(Белые начинают и делают мат в два хода);

Числительным: Ikki – to‘rtning yarmi.Причастием: Ko‘kka boqqan qoqilar (maqol). (Буквально:смотрящий в небо споткнется).Именем действия: O‘qish – yuksalish.Подражательным словом: Uzoqdan otlarning dupuri eshitildi.(Издали слышался топот лощадей).Фразеологизмом: Uning oyoq olishi bizga yoqmadi. (Нам непонравилось его поведение).

Kesim. Сказуемое – главный член предложения, грамматическизависящий от подлежащего. Оно выносит суждение оподлежащем. Различают fe’l kesim (глагольное сказуемое) –выражается различными формами глагола, и ot kesim (именноесказуемое) – выражается другими частями речи. Так жеразличают sodda kesim (простое сказуемое) и murakkab kesim(составное сказуемое).Сказуемое в узбекском языке выражается всеми частямиречи:Существительным: Toshkent – chiroyli shahar. Прилагательным:Hayot naqadar go‘zal! Жизнь так прекрасна!Числительным: Bizning uyimiz -- yettinchi. Наш дом – седьмой.Местоимением: Hamma gap – shu. Вот весь разговор.Наречием: Aytish oson, bajarish qiyin. Сказать легко, сделатьтрудно.Глаголом (чаще всего): Men o‘zbek tilini yaxshi bilaman.

Модальными словами: Bugun yig‘ilish bor.Фразеологизмом: U nima deyishini bilmay, tilini tishladi. Он

прикусил язык, не зная что сказать.

✓ Dunyoda har bir kasbning o'z o'rni bor. Shu jumladan tibbiyot sohasi va shifokorlik kasbi dunyodagi eng yuksak faoliyatlardan biridir.Chunki odamlarning dardiga malham bo'luvchi inson bu orroq xalatdagi najot elchisi - shifokorlardir. Tibbiyot xodimi bo'lish juda katta mas`uliyat talab etadi. Shuning uchun har bir tibbiyot xodimi bu kasbni tanlaganidan so'ng GIPPOKRAT qasamiyodini qabul qilib, o'z kasbiga sodiq qolib, burchiga xiyonat qilmasdan beminnat yordam berishi kerak.

Mamlakatimizda tibbiyot sohasida katta e`tibor qaratilyapti. Hukumatimiz tomonidan tibbiyot infratuzilmasini yaxshilash borasida bir qancha qarorlar qabul qilingan va ular amalda tadbiq qilinmoqda. Tibbiyot sohasi o'z navbatida keng tarmoqlarga bo'linadi, bulardan hozirda rivojlanish borasida etakchi soha bu stomatologiyadir. Keng ma`noda stomatologiya "stoma" - og'iz bo'shlig'i, "logiya"- ta`limot degani bo'lib, og'iz bushlig'i -kasalliklarini o'rganadi va davolaydi. Stomatolog - tish shifokori bu sohada faoliyat ko'rsatadi.

Ayrim manbalardagi statistik ma`lumotlarga qaralganda respublika aholisining 70%dan ortig'i kares va uning asoratlari bilan, 35%dan ortig'i paradont kasalliklari bilan kasallangan. Bu umumiy kasalliklar oldida juda baland ko'rsatgich.Og'iz bo'shlig'i kasalliklarini sifatli davolash va o'z vaqtida proflaktikasini to'g'ri tashkil qilish uchun malakali kadrlar tayyorlash aktual muammo bo'lib kelgan. Bu muammoni hal qilish maqsadida tibbiyot oliygohlari oldida stomatologiya fakultetini tashkil qilish, talabalar yaxshi bilim olishlari uchun o'quv-tajriba bazasini zamonaviy jixozlash borasida bir talay ishlar qilindi. Toshkent vrachlar malakasini oshirish institutida vrach- stomatologlar uchun og'iz bo'shlig'i kasalliklarini zamonaviy usullar bilan davolashni o'rgatish borasida o'quv kurslari tashkil qilinmoqda.

Respublikamiz aholisiga stomatologik xizmatni sog'liqni saqlash tizimidagi poliklinikalar va xususiy sektordagi poliklinika va stomatologik kabinetlar amalga oshiradi. Xar bir kasallikni davolashdan ko'ra oldini olish osonroqdir. Shuning uchun bizda og'iz bo'shlig'i kasalliklarini oldini olish borasida ko'pgina ishlar qilinmoqda. Maktab va maktabgacha bo'lgan ta'lim muassasalarda , kollej va oliy o'quv yurtlarida, yirik korxonalarda tibbiy ko'rik va sanatsiya ishlari olib boriladi. Hududiy poliklinikalarda fertil yoshdagi ayollar, xomiladorlar, o'smirlar va nogironlar sog'lig'I mutaxasislar tomonidan doimiy nazoratda bo'ladi.

Stomatologiya sohasida faoliyat ko'rsatadigan xar bir vrach nazariy va amaliy uetuk mutaxassis bo'lishi kerak. Doimiy ravishta o'z ustida ishlashi, rivojlanib borayotgan soxaning yangiliklarini o'z vaqtida o'rganib borishi va ularni o'z amaliyotida ishlatishi kerak.

Demak, stomatologiyada faqatgina tishni davolash emas, balki og'iz bo'shlig'ida kechadigan barcha kasalliklarni davolash, nuqsonlarni tuzatish kabi vazifalar ado etiladi. Bu vazifalarni faqatgina yaxshi mutaxassis-stomatolog vrachlar bajara oladi. Yosh stomatologlar kelajakda ana shunday shifokor bo'lib yetishishadi va albatta tibbiyot soxasida stomatologiyada yangi kashfiyotlar yaratib, o'z burchlarini xalqimiz orasida namoyon qiladilar.

1 - topshiriq. Gaplarni o‘qing, kesimni aniqlang, ifodalanishini tushuntiring.

1. Aqldan ortiq boylik yo‘q (maqol). 2. Bahorda kunlar iliy boshlaydi. 3.Salim, menga kitobingni berib tur. 4. Aytmoqchi bo‘lganim mana shular. 5.Orzuim - yaxshi muhandis bo‘lish. 6. Mana bu yigit sportchi.

7. Toxirning hamma ishi aniq va puxta. 8. Xabarni eshitib, Salimaning boshi ko‘kka yetdi.

Foydalanilgan adabiyotlar: AA 5, QA 2, 11, 32

Mavzu:Tozalik va orastalik sog`lik garovidir. Gap bo`laklari. Bosh bo`laklar.

Reja:

1.Gap bo`laklari haqida tushuncha

2. Bosh bo`laklar va uning turlari

3.Pokliging – sog`liging.

- **Bilib oling!** Ma’lum savolga javob beruvchi gapdagi so ‘z yoki so‘z birikmasiga gap bo` lagi deyiladi. Gap bo‘laklari bosh va ikkinchi darajali boiaklarga bo` linadi. Gapning bosh bo`laklari bu cga va kesimdir. Ega - predmetni bildirib, kim? nima? savoliga javob beradi. Ega gapda bosh kelishikda keladi. Ega ot, olm osh, sifat, son, sifatdosh bilan ifodalanishi mumkin. Kesim - grammatik jihatdan egaga bo` g liq bo`lgan gap bo`lagi. Kesim nima qildi? nima qilyapti? nima qiladi? savoilariga javob beradi. Ot, sifat, son va olmosh bilan ifodalagan kesim ga - ot kesim deyiladi. Masalan: O'zbekistonning poytaxti - Toshkent. Fe'l bilan ifodalangan kesim fe’l kesim deyiladi. Masalan: Men institutda o `qiyman.
- ✓ Ozodalik va orastalik faqat ayrim odamlar uchungina foydali bo'lib qolinay, barcha uchun zarur qoidadir. V.Shekspir: «Tozalik bor yerda hamma narsa ham toza», degan ekan. Tumov sof havoda tuzaladi. Abu Ali ibn Sino: «Agar havoda chang va to‘zon bo`lmasa edi, kishi ming yil yashagan bo`lardi», deydi. Matbuotda shunday xabar e ’lon qilingan: «Himolay tog'larida istiqomat qiluvchi kichik xunza qabilasi gripp, sil. bo'g 'ma va boshqa kasalliklarning nimaligini bilmaydi. Bu yerda yashovchi kishilaining hatto tishlari ham og ’rimagan emish, Ular toshdan yasalgan, katta derazalari janubga qaratilgan uylarda yashashadi. Hammayoq hayratda qolarli darajada toza, saranjom -sarishta, o'simliklar juda ko'p. Ortiqcha-ovqatlarni yerto'lada saqlashadi. Molxonalar qishloqdan ikki-uch kilometr uzoqda joylashgan. K o'chada na go‘ng, na pashsha ko'rtiutdi». Patogen mikroblar oqava. ariq suvlarida uzoq muddat yashaydi. Ich terlamani qo'zg'atuvchi tayoqcha ariq suvida 21 kun. muzda 60 kun,

oqava suvda 6-30 kun, ichburug' tayoqchasi ariq suvida 3 kun yashaydi. Oqava suv tushgan 1 gramni tuproqda umumiy bakteriyalar soni 40 million, odamlar yashaydigan punktlardagi 1 gramm tuproqda umumiy bakteriyalar soni 7-10 million tagacha bo'ladi. Shuning uchun meva va sabzavotlarni yuvib yeyish, qaynagan suvni ichish tavsiya etiladi. Inson o ‘z terisini toza tutishi, gigiyena qoidalariga rioya qilishi ham juda muhim. Qo'lni o‘qishdan, ishdan kelganda ovqatdan oldin va hojatdan chiqqandan so`ng, albatta, sovunlab yuvish zarur. Yuz va b o ’yinni kuniga 2 martadan, ertalabki yuvinish paytida har kuni qo'lliq ostlarini yuvish ham maqsadga muvofiqdir. Haftada kamida 1-2 marta cho ’milish zarur. Tishlarni yuvish kariyesning oldini oladi.

1-topshiriq. Savol va topshiriqlar.

1. V.Shekspir va Abu Ali ibn Sinolar tozalik haqida nim a deyishgan?
2. Kichik xunza qabilasi aholisi nega hech qachon yuqumli kasalliklar bilan og‘rimagan?
3. Kasalga chalinmaslik uchun qanday qoidalarga rioya qilish kerak?

2-topshiriq. «Tozalik salomatlik garovi» mavzusida kichik bayon yozing!

3-topshiriq. Matnga asosan «Nima qayerda, qancha bo'ladi?» konstruktsiyalari orqali to‘g ‘ri gap tuzing.

Quyidagi yumoristik dialoglarni rollarga bo‘lib o ‘qing va tarjima kiling.

*** -Kasal bo` lib qolganingizga ajablanmasa ham bo'ladi, - dedi shifokor bemorga, - axir. uyingiz to`la bakteriya-ku! -Qiziq ekansiz-u, - javob berdi bemor. - bir yildan beri eshik-derazalami ochmasam, bakteriya qayerdan kiradi?

*** Bir kishining qulog'i kir bo'lib yurardi. Keksa bir odam so'radi. -Nahotki, uyalmasdan shu kir qulog ‘ingiz bilan yursangiz? -Afsus, ming afsus. Menda boshqa quloq yo‘q-da. - javob berdi u.

4-topshiriq. Mashq. Quyidagi gaplarning egasini toping, eganing qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganini ayting.

1 .Derazamning oldida bir tup

O 'rik oppoq bo'lib gulladi. (H.OIimjon)

2.Sen o`zingni maqtama, scni birov maqtasin. 3.Majlisga bir kishi kelmadi. 4.U chalasi ham bir joyga ketdi. 5.O`qish bu ulkan zafarlar quchishdir. 6.Hech kim uning kasallik sababini bilmas edi. 7.Yigit kampiming donoligiga qoyil qolib ofarin aytibdi. 8.Uchinchi masofani bir zumda bosib o ‘tdi. 9.Yaxshilar ko'paysin. yomonlar kamaysin.

5-topshiriq. Quyidagi gaplard aga kesimlar qaysi so‘z turkumi orqali ifodalangan.

1.O‘zbekistonning poytaxti -Toshkent. 2.Tanlovda ToshPTI talabasi Maqsudova Charos g‘olib chiqdi. 3.Toshkentda pediatr-shifokorlarning ilmiy anjumani bo‘lib o'tdi. 4.Nafsini tiyish va dam olish - barcha dorilarning eng yaxshisidir. 5.Taomning eng yaxshi qaylasi - ochlik (Suqrot). 6.Bahorda qi- adirlar, tog'lar ko‘m-ko'k. 7. Ikki karra ikki - to ‘rt. 8.Shirinlik - tishning dushmani, achchiq – me’daning do'stidir. 9.Xalq tibbiyotida shaftoli guli surgi don sifatida ishlatiladi

**Mustaqil ish topshirig`i:** Xalq og`zaki ijodida tibbiyot mavzusi

Foydalanilgan adabiyotlar: AA 5,QA 17, 23, 32

Mavzu: Yuqumli kasalliklar. Gapning ikkinchi darajali bo’laklari.

Reja:

1.Gapning ikkinchi darajali bo’laklari.

2. Yuqumli kasalliklar haqida ma`lumot.

3. Yuqumli kasaliklarni keltirib chiqaruvchi omillar

- **Bilib oling! Gapning ikkinchi bo’laklaklari**

Gapda biror so’roqqa javob bo’lgan va o’zaro tobe bog’langan so’z yoki so’z birikmasi **gap bo’lagi** deb ataladi. Gap bo’laklarini belgilashda asosiy xususiyat ular orasidagi sintaktik aloqadir. So’zlarga so’roq berish, ularning qaysi turkumga mansubligi, gap ichida joylashish tartibi, qanday qo’shimchalar olishi tom ma'noda gap bo’laklarining turlarini belgilashda asos bo’la olmaydi. Gap bo’laklarining turi odatda bir-biriga nisbatan aniqlanadi: ega kesimga nisbatan, aniqlovchi aniqlanmishga nisbatan, hol hollanmishga nisbatan, to’ldiruvchi

to’ldirilmishga nisbatan aniqlanadi. Nisbat beriluvchi bo’lak bo’lmas ekan, u yoki bu gap bo’lagi haqida gapirish mumkin emas.

✓ Gap bo‘laklarining gap tarkibidagi mavqei bir xil emas. Ba’zi gap bo‘laklari gap qurilishida markaziy o‘rinni egallaydi, bunday bo‘laklarsiz fikr anglashilmaydi. Ayrim bo‘laklar esa gap qurilishida asosiy rol o‘ynamaydi, ularning ishtirokisiz ham bosh bo‘laklar orqali fikr anglashilaveradi. SHunga ko‘ra gap bo‘laklari ikki turga ajratiladi:

1) bosh bo‘laklar;

2) ikkinchi darajali bo‘laklar.

Bosh bo‘laklar gapning grammatik asosini tashkil qiladi. Fikr, asosan, gapning grammatik asosi orqali ifodalanadi.

Ikkinchi darajali bo‘laklar gapning grammatik asosini tashkil qilmasdan, uni hajm jihatdan kengaytiradi yoki so‘z birikmasini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Ikkinchi darajali bo‘laklar bosh bo‘laklar bilan yoki o‘zaro tobe aloqada bo‘lib, ularni izohlash, aniqlash, to‘ldirish uchun xizmat qiladi.

Bosh bo‘laklar ega va kesimdan iborat. Ikkinchi darajali bo‘laklar aniqlovchi, to‘ldiruvchi va holdir.

✓ **Aniqlovchi** Predmet ma’nosini bildiruvchi so‘zni izohlaydigan va uning belgisini anglatadigan ikkinchi darajali bo‘lakka aniqlovchi deyiladi.

Aniqlovchi predmetning xususiyatini, qarashliligini va shu kabilarni ifodalaydi. Aniqlovchi leksik-semantik va grammatik jihatdan uch xil bo‘ladi: sifatlovchi, qaratuvchi, izohlovchi.

✓ **To‘ldiruvchi**

Ko‘pincha fe’l bilan ifodalangan, ba’zan fe’ldan boshqa ayrim so‘zlar bilan ifodalangan bo‘lakka boshqaruv yo‘li bilan bog‘lanib, uning ma’nosini to‘ldirib keladigan ikkinchi darajali bo‘lak to‘ldiruvchi deyiladi.

To‘ldiruvchi boshqaruvchi so‘zning talabiga ko‘ra kelishik affikslari (qaratqich kelishigidan tashqari) yoki ko‘makchilar orqali shakllanadi. Masalan: Aql va idrok quyoshga o‘xshaydi, ular dog‘larni bekitadi. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»). To‘g‘ rilik bilan xiyonat, yolg‘ onchilik bilan diyonat chiqisha olmaydi. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»).

To‘ldiruvchi o‘zi bog‘lanib kelgan so‘z bilan (fe’l, sifat, ravish, ot, modal so‘z bilan) «to‘ldiruvchi-to‘ldirilmish» sintaktik munosabatni yuzaga keltiradi.

To‘ldiruvchi ifoda materialiga ko‘ra egaga hamda qaratuvchiga o‘xshaydi, faqat grammatik shakl jihatdan ulardan farq qiladi

Hol

Odatda fe’l bilan ifodalangan bo‘lakka bitishuv yoki boshqaruv yo‘li bilan bog‘lanib, undan anglashilgan ish-harakatning belgisini bildiradigan ikkinchi darajali bo‘lakka hol deyiladi. Hol ish-harakatning qay tarzda bajarilishini, uning bajarilishi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘rin, payt, sabab, maqsad, miqdor-daraja kabilarni bildiradi. Hol ravish, jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishiklari shakllaridagi ot yoki ko‘makchili ishlatilgan so‘zlar, sifat, son, fe’l shakllari, taqlid so‘z hamda so‘z birikmasi orqali ifodalanadi.

1-topshiriq. Berilgan matnni o`qing va BBB jadvaliga joylashtiring.

B	B	B

Y U Q U M LI K A S A L L IK L A R

Yuqumli kasalliklar qadim zam o n lard a ham b o ‘lgan. C h in ch ech ak , o’ la t, vabo va boshqa xatarli yuqumli kasallik lar vaqti-vaqti bilan keng tarq alib , millionlab kishilarning yostig’ini q uritgan, jamiy yatg a ko‘p talofat y etk azg an . Yuqumli kasalliklam ing mohiyati, u larn in g kelib chiqish sabablari uzoq vaqt davomida noma`lum bo'lib

kelgan.Keyinchalik yuqumli kasalliklar ikki xil bo 'lad i, degan fikrlar p ay d o b o’ ld i: 1. Bir xil yuqumli kasalliklar tashqi m uhitda yuzaga keladigan alo h id a zararli modda (miazma)ning odam o rg an izm ig a kirishi natijasida paydo b o 'la d i.2. Ikkinchi xil kasalliklar esa so g ‘Iom o d am lar bemorga yaqin y u rg an id a kontakt y o ‘li bilan yuqadi.1478-1553-yillarda yashagan italiy alik olim Frakastoro y u q u m li kasallik uch xil y o ‘l bilan:

1) kontaki orqali,

2) bemor foydalangan turli buyumlar orqali (o ‘rin -k o ‘rpa, k iyim -kechak va boshqa buyumlar),

3) havo orqali yuqishini ta’kidlagan.

A ngliyalik shifokor Eduard Jen n er (1749-1823) o d am larn i suv chechakdan asraydigan xavfsiz v a ju- da sam arali usulni kashf etdi.XIX asm ing birinchi y arm id a b a ’zi yuqumli k asallik q o ‘z g’atuvchi mikroblari ma'lum b o 'lg ach , u lar haqidagi ta’limoe tez rivojlana boshladi. Yuqumli kasalliklar h a qidagi ta’limot m ik ro b io lo g iy a, epidemiologiya, parazitologiya, im m unologiya, eksperimental k im- y o terap iy a vu patologik anatomiya bilan chambarchas b o g 'langandir.

Ba’zi mikroblar odam organizm ida uzoq vaqt zarar kcltirmay y ash ash i mumkin (saprofitlar), odam organizmining kuch-quvvati susayganda an a shu saprofit mikroblarda patogenlik xususiyati paydo bo’lib, ular hujumga o ‘tadi.

Yuqumli kasalliklar boshqa kasalliklardan quyidagi 4 xususiyati bilan farq qiladi:

1. Yuqumli kasallikni tirik patogen mikrob q o 'zg 'atadi.
2. Bemor o ‘z navbatida kasallik manbai b o’ la d i va uni boshqalarga y u q tirishi mumkin.
3. Bemor qaysi yuqumli kasallik bilan o g ‘rib o 'tsa, uning organizimida o 's h a kasallikka qarshi immunitet hosil b o 'lad i va shu kasallikning q ay tadan yuqishiga qarshilik ko'rsatadi.
4. Yuqumli kasalliklar muayyan davrlar bilan, y a ’ni siklik tarzda rivojlanadi va so ’nadi.

qadim gi - древний suvchechak - оспа
o 'la t - чума v ab o - холера
mohiyat - сущность xavfsiz - безопасный
samarali - эффективный ta’lim o t- учения

S a v o l va topshiriqlar.

1. Yuqumli kasalliklar necha xi l b o ‘ladi?
2. Italiyalik olim Frakastoro yuqumli kasalliklar yuqishini qanday x illa rg a b o’ladi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Qanday so‘zlar gap bo‘lagi bo‘la oladi?

2. Gap bo‘laklarining turi qanday aniqlanadi?

3. Gap bo‘laklari gapda tutgan mavqeiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?

4. Gap bo‘laklarining tuzilishiga ko‘ra turlari haqida gapiring.

5. Eganing ta’rifi va so‘roqlari.

6. Ega qanday so‘zlar bilan ifodalanadi?

7. Ega qanday kelishikdagi so‘zlar bilan

11. To‘ldiruvchining ta’rifini ayting.

12. Vositasiz to‘ldiruvchi va uning ifodalanishi haqida gapiring.

13. Vositali to‘ldiruvchi va uning ifodalanishi haqida gapiring.

14. Vositali to‘ldiruvchi va vaziyat holi o‘xshash bo‘lgan holatlar haqida gapiring.

15. Aniqlovchining ta’rifini ayting.

16. Aniqlovchi gapda qaysi bo‘laklarga tobe

ifodalanishi mumkin?

8. Kesimning ta'rifi va so'roqlari.

9. Ifodalagan hukm turlari bo'yicha kesim qanday guruhlarga bo'linadi?

10. Kesimning qanday so'z turkumlari bi-lan ifodalanishi bo'yicha turlari.

bo'lib keladi?

17. Sifatlovchi aniqlovchi va uning ifodalanishi haqida gapiring.

18. YOyiq sifatlovchi aniqlovchi haqida gapiring.

19. Qaratqich aniqlovchi va uning ifodalanishi haqida gapiring.

20. Izohlovchi haqida gapiring.

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Jumla tarkibidagi so'zlar qanday holatda gap bo'lagi bo'lib kela oladi?

A) gap tarkibida o'zaro faqat tobe bog'langan so'zlar gap bo'lagi vazifasida kela oladi B) gap tarkibida faqat o'zaro teng bog'langan so'zlar gap bo'lagi vazifasida kela oladi C) gapda qo'llangan har qanday so'z gap bo'lagi vazifasida kela oladi

D) gapda qo'llangan barcha mustaqil so'zlar gap bo'lagi vazifasida kela oladi

2. ***Rejasiz ish – qolipsiz g'isht*. Gap qanday bo'laklardan tashkil topgan?

A) aniqlovchi, ega, to'ldiruvchi, kesim B) aniqlovchi, ega, kesim C) ega, kesim, to'ldiruvchi D) ega, kesim

3. Qaysi hukm noto'g'ri?

A) ega va kesim o'zaro faqat tobe bog'lanadi B) ega va kesim o'zaro teng va tobe bog'lanishi mumkin C) ega va kesim shaxs va sonda moslanishi shart D) A, C

4.*Ona-yu bola – qul-u lola*. Mazkur gapda so'zlar o'zaro qaysi vosita orqali sintaktik bog'langan?**

A) ko'makchilar B) bog'lovchilar C) bog'lovchi vazifasida qo'llangan yuklamalar D) ohang orqali

5. So'zning gapda gap bo'lagi bo'lib kelishi so'z turkumlarining qanday belgisi hisoblanadi?

A) morfologik belgisi B) sintaktik belgisi
C) leksik belgisi D) uslubiy belgisi

6. Quyidagi xususiyatlardan qaysi biri gap bo'laklariga xos emas?

A) Gap bo'lagi ba'zan bir so'z bilan ifodalanadi. B) Gapni bo'laklarga ajratishda so'zlarning tobe aloqaga kirishishi asosiy mezon hisoblanadi. C) Barcha so'z turkumlariga oid so'zlar gap bo'lagi vazifasini bajaradi. D) yordamchi so'zlar mustaqil so'zlar bilan birgalikda. gap bo'lagi vazifasida keladi.

7.*Valining keksa onasi uzundan-uzoq duo o'qidi*. Ushbu gapdagi egani toping.**

A) Valining keksa onasi B) keksa onasi C) onasi D) duo

8.*Ishlamay egan og'rimay o'lar. (Maqol)*Eganing ifodalanishi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.**

A) sifatdosh bilan ifodalangan B) fe'l bilan ifodalangan
C) birikma bilan ifodalangan D) otlashgan sifatdosh bilan ifodalangan

9. Quyidagi gapda ega qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan? *Bilgan bilganin ishlar, bilmagan barmog'in tishlar*.

A) Ot bilan B) Fe'l bilan
C) Otlashgan sifat bilan D) Otlashgan sifatdosh bilan

10.*Birlashgan daryo bo'lur, tarqalgan irmoq bo'lur*. Ega qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan?**

A) Sifat B) Fe'l C) Sifatdosh D) Otlashgan sifatdosh

Mustaqil ish mavzusi: Tibbiyot xodimlarining ma'naviyati

Adabiyotlar:AA2, QA10,26,32,

Mavzu: Tabiat va biz. Uyshuq bo'lakli gaplar

Reja:

1.Tabiatning inson salomatligidagi o'rni

2. Tabiatni asarash omillari

3 Uyshuq bo'lakli gaplar

TABIAT VA BIZ

Atrofiinizdagi poyonsiz dunyo olam, deb ataladi. Yer va uning atm osferasi shu olam da m avjuddir. Bizni o 'rab turgan atmosferaning har q anday holati ob-havo dey ilad i. Ob-havo to'xtovsiz o 'zg arib turadi. M a'lum bir jo y n in g ma'lum b ir vaqldagi ob-havosi: harorat, havo namligi, bulut, y o g 'in m iqdori, shamol tezligi va y o 'nalishi, qor b o 'ro n i, momaqaldiroq, turnan va boshqalar farqlanadi. O b -h av o n in g qanday b o 'lish i haqidagi m a'lum otlar bilan metereologiya fani sh u g 'ullanadi. Ertaga, bir haftadan kcyin, bir oy davomida ob-havoning qanday boMishi haqidagi m a'lumot kema kapitanlari, uchuvchilar, temiryo'lchilar, dehqonlar. aholiga xizmat k o 'rsatish xodimlari, shifokorlar uch u n muhimdir. O b -havodagi keskin o 'zgarishlar, atmosfera bosimining turlicha b o 'lish i b em o rlar ahvolining og'irlashuviga turtki b o 'ladi. Shuning uch u n shifokorlar bunday h o latlard a yurak kasalligi, qon bosimi, suyak tizimi kasalliklari bilan o g 'riy o tg an bemorlar ahvolini yaxshilash uchun profilaklik chora-tadbirlar k o 'radilar.Tabiatdagi b arch a o'zgarishlar inson organizm iga o*z ta'sirini ko'r satm ay qolmaydi. Ch u n k i har birimiz ona tabiatning bir bo'lagimiz. S huning uchun ham tabiatni avaylab-asrashimiz, chtiyotkor munosabatda b o 'lm o g 'imiz lozim.

Topshiriq .

1. M a tni ta r jima q iling.

2. O b -h av o g a o id so 'z v a so'z b ir ik m a la r ín i y o d o ling.

BILIB OLING! Uyushiq bo'laklar haqida umumiy ma'lumot

Gapda bir xil so'roqqa javob bo'lib, bir xil sintaktik vazifasini bajaradigan, o'zaro teng aloqaga kirishgan, bir umumiy bo'lakka bog'lanadigan gap bo'laklari gapning uyushiq bo'laklari deyiladi. Masalan: Odamning eng shirin, lazzatli va halol taomi o'z mehnati, qo'l kuchi bilan topgan rizqidir. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»). Mazkur gapda eng shirin, lazzatli va halol hamda o'z mehnati, qo'l kuchi bilan guruh so'zshakllari uyushib kelgan. Bunda birinchi guruhdagi so'zshakllar bir xil so'roqqa - qanday? degan so'rog'iga javob bo'lib, sifatlovchi vazifasini bajargani holda, taomi umumiy bo'lagiga – egaga bog'langan; ikkinchi guruhdagi so'zshakllar ham bir xil so'roqqa - qanday? so'rog'iga javob bo'lib hol vazifasida kelib, topgan umumiy bo'lagiga – sifatlovchiga bog'langan. Har bir guruhdagi so'zshakllar o'zaro teng aloqaga kirishgan.

Bunday teng aloqadagi so'zshakllar soni ikkidan va undan ortiq bo'lib, keyingi paytlarda ular tilshunoslikda «uyushiq qator», «tenglanishli qator» deb yuritilmoqda. Tenglanishli qatorda ikkidan tortib o'n, hatto undan ko'p so'zshakl qatnashishi mumkin: Saroytoshning ikki tomonida qad ko'targan dara sohillari, undagi archazorlar, soy bo'yida o'sguvchi yulg'unzoru bizning uyimiz yaqinidagi eski chashma, chashma atrofida ko'karib yotadigan nilufarlar, yana qishloqning tor, egri-bugri ko'chalari, muyulishda do'mpaygan go'ng to'dalari, atrofdan eshitilib turadigan kakliklar sayrog'i, oqshom tushganida uylar ayvonida yonuvchi chiroqlar, chiroqlar tevaragida qur tutib suhbatga berilgan odamlar – bularning hamma-hammasi biz uchun aziz, qadrdon edi. (SH.Xolmirzaev).

Uyushiq qator quyidagi uyushiq bo'lak o'rnini egallaydi:

1. Uyushiq ega: Qor-yomg'ir yog'ayotgan paytlarda ham ayollar va bolalar suvga kelishadi. (P.Qodirov).

2. Uyushiq kesim:

a) uyushiq fe'l kesim: ... ufqqacha cho'zilgan lolazor rang-barang tovlanmoqda, yonmoqda. (J.Abdullaxonov);

b) uyushiq ot kesim: qalbi pok bo‘lgan kishining ishlari ham pok bo‘ladi, toza bo‘ladi. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»).

3. Uyushiq aniqlovchi:

a) uyushiq sifatlovchi: Tabiatning hech kimga bo‘ysunmaydigan, birovdan ruxsat ham so‘rab o‘tirmaydigan o‘z qonunlari bor. (O‘.Hoshimov).

Takrorlash uchun savollar:

1. Uyushiq bo‘lakli gaplar haqida gapiring.
2. Uyushiq bo‘laklar ta’rifini ayting.
3. Qanday bo‘laklar uyushib keladi?
4. Uyushiq bo‘laklar qanday ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin?
5. Uyushiq bo‘laklarda egalik, kelishik, ko‘plik qo‘shimchalari qanday qo‘llanadi?
6. Uyushiq bo‘laklar o‘zaro qanday vositalar yordamida bojlanishi mumkin?
7. Umumlashtiruvchi bo‘lak va unda tinish belgilarining ishlatilishi haqida gapiring.
8. Uyushiq va uyushmagan sifatlovchi aniqlovchilar haqida gapiring.
9. Ajratilgan izoh bo‘laklarning ta’rifini ayting.
10. Gap bo‘laklarining ajratilishiga nima sabab bo‘ladi?

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. *Lekin bu musiqa jimjitlikni buzmas, balki uni quyultirardi*. Ushbu gapda zidlov bog‘lovchisi qanday bo‘laklarni bog‘lagan?

A) *gap tarkibidagi sodda gaplarni* B) *uyushiq bo‘laklarni*
C) *turli gap bo‘laklarini* D) *bog‘lovchi vazifasini bajarmagan*

2. Qaysi qatordagi gapda uyushiq bo‘laklar mavjud emas?

A) *Zamiraning baland, ammo mayin ovozi bor edi. B) Xalqqa qaradi-yu, lekin gapirmadi. C) Til bilan dil bir bo‘lishi kerak D) Men asta-sekin bu xonadonning past-balandini yaxshi o‘rganib oldim.*

3. O‘zbek tilida gapning uyushgan bo‘laklarini bog‘lash vazifasida nisbatan kam qo‘llanadigan bog‘lovchilarni aniqlang.

A) biriktiruv bog‘lovchilari B) zidlov bog‘lovchilar C) ayiruv bog‘lovchilari D) A, B

4. Uyushgan egalar shaxsni anglatsa, kesim qanday shaklda bo‘ladi?

A) Kesim ko‘plik shaklda qo‘llanadi. B) Kesim birlikda qo‘llanadi. C) Kesim fe’l bilan ifodalansa, ko‘plikda, sifat, ravish, son bilan ifodalansa, birlikda qo‘llanadi. D) Kesim birlikda ham, ko‘plikda ham qo‘llanishi mumkin.

5. Bosh bo‘laklar uyushib kelgan gapni toping.

A) Saida kitob bilan, she’r bilan dardlashardi. B) Quyosh, havo – tanga davo. C) Havo salqin, toza. D) O‘rmonlar, bog‘lar uni quvontirdi, to‘lqinlantirdi.

6. Vaziyat (ravish) holi uyushib kelgan gapni toping.

A) Zamiraning baland, ammo mayin ovozi bor edi. B) Qo‘qon, Farg‘ona va Andijonda yaxshi bir odat bor. C) U mayda-chuyda ishlarni ham aniq va puxta bajarardi. D) U tanib, bilib, keyin so‘rasha boshladi.

7. Gapda qaysi bo‘laklar uyushib kelgan? *Yangi mafkuraning asosi, negizi bormi, yo‘qmi?(I.A.Karimov)*

A) ega B) kesim C) aniqlovchi D) ega va kesim.

8.*Onam, opam va singlim bilan mehmonga bordim*. Qaysi gap bo‘lagi uyushgan?

A) egaB) to‘ldiruvchi C) ot D) aniqlovchi

9. Uyushiq bo‘lakli sodda gap berilgan qatorni aniqlang.

A) Soy guvillab oqar va uning muzdek shamoli qirg‘oqda tartibsiz o‘sgan o‘tlarni silkitar edi. B) Gap tashuvchilarni, tirnoqdan kir izlovchilarni, chaqimchilarni men yomon ko‘raman.C) Bahor keldi, gul ochildi, chaman bo‘ldi yurtimiz. D) Ilmli ming yashar, ilmsiz bir yashar.

10. Qaysi uyushiq bo‘lakli gaplarda umumlashtiruvchi so‘z qo‘llanmagan?

A) Bog‘imizdagi mevalar: olma, o‘rik, olxo‘rilar mo‘l hosil qildi. B) Berilgan barcha gaplarda umumlashtiruvchi so‘zlar qo‘llangan. C) Suv, er, elektr - bular hayot bahoriga yangi go‘zallik va yangi nash’a bag‘ishlovchi kuchlar edi.

D) Majlisda qatnashdilar: Sobir Erkinov, Nodir Olimov, Abdulla Saidov va boshqalar

Mustaqil ish mavzusi: Sog’lom muhit sog’lom avlod
Adabiyotlar:AA5,QA5,7,32

Mavzu: Ichki kasaliklar . Qo’shma gap va uning turlari

R eja:

1.Ichki kasaliklarni keltirib chiqaruvchi omillar.
2.Kasalik bilan kurashish davri
3. Qo’shma gaplar haqida malaka hosil qilish

Ichki kasalliklar

Ichki a ’zolarnlng kasalliklarini o'rganish, ularni tashxis qilish, kechishini aniqlash, kerakli tashxis asboblaridan foydalana bilish, ta ’sirchan dori-darmonlar tayinlash har bir sh ifo k o rn in g burchidir.Ichki kasalliklar quyidagi tu rlarg a bo'linadi: nafas olish a ’zolari kasalliklari. yurak-tomir kasalliklari, hazm qilish kasalliklari, buyrak kasalliklari, qon tizimi kasalliklari birik tiru v ch i to'qim a va b o 'g 'im larning diffuz kasalliklari.

G A STR IT

H azm qilish kasalliklari ah o lin in g umumiy kasallanishida salm oqli o 'rin tutadi. Oshqozon xastaliklari o rasid a en g k o 'p uchraydigani - gastritdir. Güter - grekchada oshqozon, itis - lotinchada yalig'lnish m a’nolarini bildiradi. Dcmak, gastrit - oshqozon y allig’lan ish id ir. Gastrit k o ‘p sababli xastalik bo’lib, oshqozonning shilliq qavati va bezlarída turli d arajadagi organik va funksional o 'zg arish lar.p ay d o qilibgina qolmay, balki m e'd an in g boshqa qavatlariga ham tarqalib ketishi bilan xarakterlanadi. G astritning o ‘tkir va surunkali turlari mavjud.0’t k ir gastrit to ‘la davolanm aganligi natijasida surunkali gaslrit yuzaga keladi. Pala-partish va shoshm a-shosharlik bilan ovqatlanish. q u ru q q attiq ovqat hajmi k o ‘p iste’mol qilish. achchiq, s h o 'r ovqa tlarga o ‘ch b o ‘lish, chek ish g a, ichishga ruju q o ‘yish, turli-tuman (gormonal, o g 'riq qoldiruvchi) d o r ilar ta’siri, k o ‘mir, metall, paxta changi, ishqor yoki kislotalarning m e’daga tu sh íb turíshi, boshqa a'zo va tizim xastaliklari (sil,zaxm, buyrak va jigam ing surunkali xastaliklari), yurak yetishmovchiligi oqibatida qon aylanishining k esk in buzilishi, surukali zotiljam, yurak nuqsonlari gastritga sabab bo'ladi.

A sosiy shikoyatlar quyidagicha:

- T o ‘sh osti sohasida zirqiragan o g ‘riq paydo b o iis h i; u odatda ovqat y ey ilg an id an keyin yoki och qolganda paydo bo`ladi. Shuningdek, bemor o ‘zini to 's h osti sohasida achishish va shish bordek his qiladi. U tez-tez kekiradi, mabodo m e’dada xlorid kislota oshgan b o ‘!sa, achchiq nordon havo, kamaygan b o’ ls a , p alag ‘da tuxumning hidi keladi. Qorin tez-lez dam b o'lib, bemor b ezovtalanadi, ko'ngli ayniydi va qusadi. Shuningdek, ich o ‘tishi yoki qotib qolishi ham mumkin. A sab tizim ida o’zgarishlar yuz berib, uyqu buziladi, b em o r injiqlanib, boshi o g 'r ib tez-tez ayianadi, darmoni quriydi, ish qobiJiyati pasay ib ketadi. O g ‘irroq h oliarda esa bemorning k o “z oldi qorong‘ulashib, kam qonlik rivojlanishi mumkin. lshtahaning yomonlashishi, zarda qaynashi ham surunkali gastritga xos shikoyatdir.

1.Davolashda parhez katta ahamiyatga egu.
2. Ichki kasaliiklar nomlarini sanab bering.
3. Matnni tarjima qiling va mazmunini s o ‘zlab bering.
4. Biror bir ichki kasalik tasniflni yozing.

Topshiriq. «Diareya» nia’rifiy videofilm idan tomosha qilingan parcha bo ‘yicha savol va topshiriqlar.

1. Diareya qanday kasaliik?
2. Diareyani davolash uchun nimalarga e ’tib o r qilish kerak?

3. Shifokor va bemor bolaning onasi o rasidagi diaiogning q isq a ch a mazmunini yozing.

Bilib oling!Qo‘shma gap turlari haqida ma’lumot Qo‘shma gaplar, qismlarining o‘zaro birikish usuli va semantik munosabatiga ko‘ra, uch xil bo‘ladi: 1) bog‘langan qo‘shma gap; 2) ergashgan qo‘shma gap; 3) bog‘lovchisiz qo‘shma gap.

Qiyoslang: *Iste’dod hamisha har xil bo‘ladi, iste’dodsizlar esa hamma joyda bir xildir. (E.Vohidov) SHuni aytmoqchimizki, odam hamma vaqt bilimga tashna bo‘lishi shart. (F.Jyulio Kyuri).*

Keltirilgan misollarning birinchisi bog‘langan qo‘shma gap bo‘lib, uning qismlari esa yordamchisi vositasida o‘zaro teng bog‘langan; ikkinchisi ergashgan qo‘shma gap bo‘lib, uning qismlari –ki aniqlov bog‘lovchisi orqali ikkinchi qismni birinchi qismga tobelik yo‘li bilan bog‘lagan; uchinchi gap bog‘lovchisiz qo‘shma gap bo‘lib, uning qismlari o‘zaro hech qanday bog‘lovchi vositasiz - faqat ohang (ohang) orqali birikkan.

Bog‘langan qo‘shma gap

Qismlarining o‘zaro teng aloqaga kirishuvidan tuziladigan gap bog‘langan qo‘shma gap deyiladi. Bog‘langan qo‘shma gap qismlari o‘zaro biriktiruv bog‘lovchilari (va, hamda, ham), zidlov bog‘lovchilari (ammo, lekin, biroq, balki), ayiruv bog‘lovchilari (yo, yoki, yohud, dam... dam, goh... goh, ba’zan... ba’zan, hali... hali, bir... bir), teng bog‘lovchi vazifasidagi –da, -u (-yu), na... na yuklamalari, shuningdek, bo‘lsa, esa yordamchilari vositasida bog‘lanadi.

SHunga ko‘ra bog‘langan qo‘shma gaplarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1.Biriktiruv bog‘lovchilari yordamida tuzilgan bog‘langan qo‘shma gap.

2.Zidlov bog‘lovchilari yordamida tuzilgan bog‘langan qo‘shma gap.

3.Ayiruv bog‘lovchilari yordamida tuzilgan bog‘langan qo‘shma gap.

4.Teng bog‘lovchi vazifasidagi yuklamalar yordamida tuzilgan bog‘langan qo‘shma gap.

5.Bo‘lsa, esa yordamchi so‘zlari vositasida tuzilgan bog‘langan qo‘shma gap.

Biriktiruv bog‘lovchilari (va, hamda; ba’zan shu vazifadagi ham yuklamasi) yordamida tuzilgan bog‘langan qo‘shma gap tarkibidagi qismlardan bir paytda yoki ketma-ket ro‘y beradigan voqea-hodisalar anglashilib turadi. Masalan: haqiqat va to‘g‘ rilikni sevadigan odam doim vijdoni farmoniga itoat qiladi va uning vijdoniga hech Kim hokim bo‘la olmaydi. (Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur.) Keng bog‘ dagi har bir nihol qonib-qonib suv ichdi va uning yaproqlari nurga intilib o‘sa boshladi. (O‘.Hoshimov.)

Zidlov bog‘lovchilari (lekin, ammo, biroq, balki) yordamida tuzilgan bog‘langan qo‘shma gap qismlari mazmunan bir-biriga zid bo‘ladi. Masalan: *Har qanday narsada isrofgarchilik bor, ammo yaxshilikda isrof bo‘lmaydi. («Ajoyib nasihatlar») Burni, qoshi, yana allaqaeri otasiga o‘xshardi, lekin Akbarov ham bir vaqtlar o‘g‘liday ajinsiz, quyuq qora sochli bo‘lganini tasavvur etish qiyin edi. (P.Qodirov).*

Ayiruv bog‘lovchilari (yo, yoki, yohud, goh..., goh, dam..., dam, ba’zan..., ba’zan...) yordamida tuzilgan bog‘langan qo‘shma gapda birini tanlash lozim bo‘lgan yoki galma-gal ro‘y beradigan voqea-hodisalar ifodalanadigan qismlar birikadi.

a) yo (yo..., yo), yo..., yo bo‘lmasa; yoki (yoki..., yoki); yo..., yoki; xoh..., xoh bog‘lovchilari birini tanlash lozim bo‘lgan voqea-hodisalarni ifodalovchi qismlarni birlashtiradi. Masalan: *YO ko‘k unga o‘z sirlarini ochishni tilamas, yo uning aql ko‘zgusi xiralashib qolgan. (O.YOqubov.)*

b) goh..., goh; dam..., dam; ba’zan..., ba’zan bog‘lovchilari galma-gal ro‘y beradigan voqea-hodisalarni ifodalovchi qismlarni bog‘laydi. Masalan, *Ba’zan oy zarin kokillarini er yuziga yoyib yuboradi, ba’zan bulut oy yuzini qoplab oladi. (Oybek.)*

Teng bog‘lovchilar vazifasidagi yuklamalar yordamida tuzilgan bog‘langan qo‘shma gaplar qismlaridan bir paytda yoki ketma-ket ro‘y beradigan voqea-hodisalar yohud mazmunan zid bo‘lgan voqea-hodisalar anglashilib turadi.

Bunda –u, (-yu), -da, na..., na yuklamalari biriktiruv bog‘lovchilarining vazifasini, -u (-yu) yuklamasi zidlov bog‘lovchilari vazifasini bajaradi. Masalan: *Oyko‘l ilgari alohida xo‘jalik edi-yu, kattagina idorasi bor edi. (P.Qodirov.) Ikki tomondagi kitoblarga to‘lib turadigan qubbali javonlarda na bir kitob bor, na bir qo‘lyozma bor. (O.YOqubov.)*

Bo‘lsa, esa so‘zlari vositasida tuzilgan bog‘langan qo‘shma gap qismlaridan bir vaqtda yoki ketma-ket ro‘y beradigan voqea-hodisalar qiyoslanishi anglashiladi. Masalan: *Oliy himmatli kishi, mard odam bir lahzada do‘st orttiradi, pastkash esa necha yillik oshnaligini bir lahzada barbod qiladi.*

MAVZU: Bolalarda uchraydigan kasalliklar. Ergashgan qo’shma gap va uning turlari.

REJA:

1.Bolalar kasaliklarini davolash chora tadbirlari

2 Bolalar kasalliklarini oldini olish

3 Ergashgan qo’shma gaplar haqida malumot berish

Bolalar kasalliklari — asosan bolalar orasida uchraydigan yoki bolalik davrida o‘ziga xos kechadigan kasalliklar guruhi. Bolaning rivojlanish xususiyatlariga ko‘ra ona qornida o‘sish davri, chaqaloqlik davri, bola tug‘ilgandan keyingi (4 hafta), emizikli davri (bir yoshgacha), yasli davri (Z yoshgacha), maktabgacha davri (7 yoshgacha), boshlang‘ich maktab yoshidagi (12 yoshgacha) va o‘smirlik yoki balog‘atga yetish davri (18 yoshgacha) farq qilinadi. Ona qornida o‘sish davri bolaning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi; homiladorlik davridagi zararli omillar (kasalliklar, intoksikatsiyalar, turmush va ovqatlanish sharoitining kamko‘stligi, dori-darmonlar ta’siri) onagagina emas, qornidagi homilaning o‘sishi va rivojlanishiga ham ta’sir etadi. Bu davrda ko‘proq tug‘ruq vaqtidagi zararlanishlar (asfiksiya, shikastlanishlar, falajlar, stafilokokk infeksiyalar) kuzatiladi. Chaqaloqlar ayrim infeksion kasalliklarga tug‘ma chidamli bo‘ladi, biroq ularga (ayniqsa, chala tug‘ilgan bolalarga) yiringlatuvchi mikroblar avvalo, stafilokokklar tez ta’sir qilib, kindik jarohatining yiringli yallig‘lanishiga, chilla yaraga va hatto chaqaloklar sepsisi kabi og‘ir kasallikka sabab bo‘ladi. Bu davrda zotiljam ham xavfli kasallik hisoblanadi. Emizikli davrida bola ovqatning o‘zgarishiga moslanishi ancha qiyin, uni noto‘g‘ri ovqatlantirilganda me’daichak buzilishlari (diareya, ichak infeksiyalari va boshqalar), moddalar almashinuvining buzilishi kuzatiladi. Bu davrda nafas va hazm a’zolarining kasalliklari og‘ir o‘tadi; bolani noto‘g‘ri ovqatlantirish, sof havo va quyosh nuridan yetarli bahramand etmaslik natijasida raxit avj oladi, diatez, spazmofiliya botbot uchraydi. Yasli yoshidagi va maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga o‘z tengqurlari bilan o‘ynab yurgan chog‘ida ko‘kyo‘tal, qizamiq, difteriya, tepki va boshqa yuqishi mumkin. Bundan tashqari, onasidan o‘tgan immunitetning kuchi yo‘qoladi. Shuning uchun bu davrda bolalar emlanib (vaksinatsiya), immunitet vujudga keltiriladi. Maktab yoshidagi bolalarda yuqumli kasalliklar ko‘proq uchraydi. Emizikli bola ko‘kyo‘tal va qizamiq bilan og‘riganda ko‘pincha o‘pkasi ham yallig‘lansa, maktab yoshidagi bolalarda bu kasalliklar aksari asoratsiz o‘tadi (o‘pka yallig‘lanmaydi). Boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarda angina, yurak va buyrak kasalliklari, shuningdek allergik kasalliklar ko‘proq uchraydi. Kattaroq bolalarda va o‘smirlik (balog‘atga yetish) davrida yuraktomir, nerv va endokrin sistemalar (ichki sekresiya bezlari) faoliyatida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y beradi. Sof havodan yetarli bahramand bo‘lmaydigan, sport bilan shug‘ullanmaydigan, kun tartibiga rioya qilmaydigan o‘quvchilarda bu sistemalar ko‘proq kasallanadi. Demak, Bolalar kasalliklari ning turli shakllari organizmning chidamliligiga, yuqumli kasalliklarga qarshilik ko‘rsatish kuchiga, bolaning yoshiga bog‘liq. Har bir kasallik, u qanday bo‘lishidan qat’i nazar (yuqumli yoki yuqumsiz) jismonan barkamol, sog‘lom bolada yengilroq, ozg‘in, nimjon bolada esa og‘irroq o‘tadi. Bir xil mikrob qo‘zg‘atgan kasallik bolaning turli yoshida turlicha kechadi. Bolalar kasalliklari ning oldini olishda bola organizmining o‘ziga xos xususiyatlari ko‘zda tutiladi. Emizikli davrda ona suti eng maqbul oziq bo‘lib, bolani qo‘shimcha ovqatlantirish zaruriyati bo‘lganda faqat vrach (pediatr) bilan maslahatlashib olish kerak. Go‘daklarni sut oshxonalari orqali ovqatlantirishning to‘g‘ri tashkil qilinishi katta ahamiyatga ega. Bolalar kasalliklari qancha barvaqt aniqlanib, vaqtida davolansa, asorati qolmaydi. Buning uchun kattalar va otaonalar Bolalar kasalliklari ning oldini olish usullarini va dastlabki belgilarini bilishlari, bolada kasallikka xos biror alomat sezganda darhol vrachga murojaat etishlari zarur.

Ergashgan qo‘shma gap haqida umumiy ma’lumot

Ergashgan qo‘shma gap tarkibidagi qismlarning biri ikkinchisiga mazmunan, grammatik va ohang jihatdan tobe bo‘lib, uni aniqlash, to‘ldirish kabi vazifalarni bajaradi. SHuning uchun ham qismlardan biri hokim, ikkinchisi tobe sanaladi. Bunda ergashgan qo‘shma gap tarkibidagi hokim qism bosh gap, tobelanib kelgan qism esa ergash gap deb yuritiladi. Ergash gap bosh gapni yoki uning biror bo‘lagini izohlash, aniqlash to‘ldirish uchun xizmat qiladi. Masalan: «Gar kishi olmasa hayotdan ta’lim, Unga o‘rgatolmas hech bir muallim.» (Ro‘dakiy.) gapida «Unga o‘rgatolmas hech bir muallim» - bosh gap, «Gar kishi olmasa hayotdan ta’lim» - ergash gap. Ergash gap bosh gapni shart munosabatiga ko‘ra izohlagan.

Ergashgan qo‘shma gapda bosh gapning kesimi qo‘shimcha to‘liq shakllangan bo‘ladi, lekin ergash gapning kesimi ko‘p hollarda to‘liq shakllanmaydi, shu tufayli ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vositalar, asosan, ergash gapning kesimi tarkibida keladi yoki undan so‘ng qo‘shiladi. Masalan, O‘z darajangga munosib o‘ringa bilib o‘tirsang, bu o‘rindan seni hech kim qo‘zg‘atolmaydi. (Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur.) gapida ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vosita (-sa) ergash gapning kesimi tarkibida kelgan.

2. Ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vositalar

Ergashgan qo‘shma gap tarkibidagi ergash gap bosh gapga quyidagi vositalar orqali birikadi:

1.Ergashtiruvchi bog‘lovchilar (shuning uchun, shu sababli, shu tufayli, chunki, negaki, toki, go‘yo, -ki) yordamida: shunday odamlar bo‘ladiki, ularni mansab ham, daraja ham, shon-shuhrat ham o‘zgartirmaydi. (H.G‘ulom.) Nafas olmay quloq tutgan kishi muttasil shovullagan tovush eshitadi, go‘yo olisda shivalab yomg‘ir yog‘ayotgandek. (S.Ahmad.)

2.Ko‘makchilar (fe’l formalaridan so‘ng kelgan ko‘makchilar) yordamida: Toshtemir shaharga ketgandan keyin, Sodiq ota qiziga hech narsa demadi. (H.G‘ulom.) Eshik ortiqcha tor bo‘lgani uchun, ot siqilibgina o‘tdi... (A.Qodiriy.)

3.YUklamalar yordamida: Osmonda bulutlar paydo bo‘lganidanmi, dengiz motam tutayotgan ayolga o‘xshardi. (O‘.Umarbekov.)

4.Nisbiy so‘zlar yordamida: Odamlar uchun xotirada saqlash qanchalik zarur bo‘lsa, ba’zan unutish ham shunchalik zarur. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur».)

5.Sifatdosh shakli hamda kelishik affiksi yordamida: Ota-onalarimiz qarib qolganda, ularga mehr-muhabbat tuyg‘ularimizni baxsh etmog‘imiz lozim. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur».)

6.Fe’lning ravishdosh shakli yordamida: Nasiba chiqib ketgach, Buvsora ona sekin kosaga nazar tashladi. (San’at Mahmudova) Qalin qorlar erib, o‘tlar ko‘karib qoldi. (CH.Aytmatov.)

7.Fe’lning shart mayli formasi yordamida: Diqqat bilan quloq solsangiz, uning bulbulga taqlid qilayotganini sezasiz. (H.G‘ulom.) Oilada hamjihatlik bo‘lmasa, uni baxt tashlab ketar. (Maqol.)

8.Fe’lning buyruq-istak mayli formasi yordamida: Ona ishdan qanday o‘y, qanday tashvish bilan qaytmasin, shu ko‘zlarni ko‘riboq, ko‘ngli yozilardi. (A.Muhtor.)

9.-day (-dek) o‘xshatish ma’nosini bildiruvchi qo‘shimcha yordamida: To‘yning bo‘ldi-bo‘ldisi qiziq tuyulganday, yangi ishning boshlanish arafasi qiziq bo‘ladi.

Ergash gap bosh gapdan oldin ham, keyin ham kelishi mumkin. Masalan: Da’vogar sust kelsa, qozi muttaham... (H.G‘ulom.) Qo‘rqoq do‘st dushmandan xavflidir, chunki dushmandan ehtiyot bo‘lasan, ammo do‘stga ishonasan. (L.N.Tolstoy.)

Ayrim hollarda ergash gap bosh gap ichida ham kelishi mumkin. Masalan: O‘zi..., bo‘g‘ oz sovliqlar qiynalmasin deya, ularni o‘z yurishiga qarab bamaylixotir haydab ketdi. (CH.Aytmatov.) Uning sovuq nafasi, eshik ochilarkan, o‘rmonlarning shovqini bilan oqib kirib, yigitni biroz xushyorlantirardi. (Oybek.)

3. Ergash gapning turlari

Ma’lumki, ergash gap bosh gapni yoki uning biror bo‘lagini izohlash, aniqlash, to‘ldirish uchun xizmat qiladi. SHunga ko‘ra ergash gap ikki katta guruhga bo‘linadi: 1) bosh gapning biror qismi (bo‘lagi)ni izohlovchi ergash gaplar; 2) butun bir bosh gapni izohlovchi ergash gaplar. Masalan: Dunyoda shunday odamlar bo‘ladiki, ularning hayoti, qilgan ishlari, bosib o‘tgan yo‘llari biz uchun... yuksak namuna bo‘lib xizmat qiladi. (O.YOqubov.) Kechasi shudring tushmagan bo‘lsa ham, daraxt yaproqlari nam va muzdek edi. (O.YOqubov.)

Birinchi gap tarkibidagi ergash gap (ularning hayoti, qilgan ishlari, bosib o‘tgan yo‘llari biz uchun... yuksak namuna bo‘lib xizmat qiladi) bosh gapdagi aniqlovchi (shunday) ni izohlagan bo‘lsa, ikkinchi gap tarkibidagi (kechasi shudring tushmagan bo‘lsa ham) ergash gapni bosh gapni to‘siqsizlik munosabati orqali butun holda izohlagan.

Bosh gapning biror bo‘lagini izohlaydigan ergash gaplarga ega, kesim, aniqlovchi, to‘ldiruvchi ergash gaplar; bosh gapni butun holda izohlovchi ergash gaplarga payt, o‘rin, sabab, maqsad, shart, to‘siqsiz, ravish, miqdor-daraja, o‘xshatish, natija ergash gaplar kiradi.

Ega ergash gap bosh gapning olmosh bilan ifodalangan ega bo‘lagini izohlab, kim? nima? so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi.

Ega ergash gap bosh gapga quyidagicha birikadi:

1.Ergash gapning kesimi shart mayli shaklida bo‘ladi. Bunda bosh gapning egasi u, o‘sha, o‘zi kabi olmoshlari bilan ifodalanadi. Masalan: Kimki birovning payini qirqsa, o‘ziniki ham qirqiladi. («Ajoyib nasihatlar».) Kimki o‘tmishni yaxshi bilsa, u hozirgi zamon qadriga etadi. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur».)

2.Ergash gapning kesimi aniqlik maylida bo‘ladi. Masalan: Kim o‘zini hurmat qilar ekan, u boshqalarni ham hurmat qiladi.

3.Ega ergash gap bosh gapdan keyin kelib, bosh gapga –ki aniqlov bog‘lovchisi orqali birikadi: SHu narsa ravshanki, o‘tmishni bilmasdan turib, hozirgi zamon qadriga etib bo‘lmaydi.

Ba’zan ega ergash gap bosh gapdagi shakllanmagan egani izohlashi mumkin. Masalan: Bizga ayonki, xalq o‘z taqdirini o‘zi yaratadi.

Kesim ergash gap bosh gapning olmosh bilan ifodalangan kesimini izohlaydi. Bunda bosh gapning kesimi vazifasida shu, shunday, shu bo‘ldi, shundan iborat so‘zlari kelib, ergash gap shu so‘zlarni izohlagani holda, bosh gapga –ki bog‘lovchisi yordamida birikadi. Masalan: Farqi faqat shuki, men madaniy navlarni chatishtirardim... hatto geografik uzoq navlarning ham madaniysini tanlab chatishtirganman... (O‘.Usmonov.) Eng yomoni shundaki, u... odamlarni yil sayin o‘tkirroq dorilarni ishlatishga majbur qilyapti... (O‘.Usmonov.) Do‘stlikning qudrati shundan iboratki, bu qudratli kuch har qanday to‘siqni enga oladi.

To‘ldiruvchi ergash gap bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan to‘ldiruvchini (yoki bosh gapda qo‘llanmagan to‘ldiruvchini izohlaydi va bosh gapga quyidagicha birikadi:

1.Ergash gapning kesimi shart maylida bo‘ladi. Masalan: Kimda gumon bo‘lsa, uni ko‘zdan qochirma gapi tarkibidagi ergash gap (kimda gumon bo‘lsa) bosh gapdagi uni to‘ldiruvchisini izohlagan.

2.To‘ldiruvchi ergash gap bosh gapga –ki bog‘lovchisi orqali birikadi. Masalan: Men hech bir vaqt inkor qilmaymankim, yolg‘iz o‘z g‘arazi yo‘lida ish qiluvchi pand kishilar... bizda ham yo‘q emas. (A.Qodiriy.) gapi tarkibidagi «yolg‘iz o‘z g‘arazi yo‘lida ish qiluvchi pand kishilar bizda ham yo‘q emas» ergash gapi bosh gapda qo‘llanmagan shuni to‘ldiruvchisini izohlab, unga –ki bog‘lovchisi yordamida birikkan.

Aniqlovchi ergash gap bosh gapdagi aniqlovchi vazifasida qo‘llangan (yoki qo‘llanmagan) so‘zning ma’nosini izohlaydi.

Aniqlovchi ergash gap bosh gapga quyidagicha birikadi:

1.Ergash gap tarkibida kim, kimki, kimning kabi olmoshlar qatnashib, kesim sharti mayli shaklida bo‘ladi. Masalan: Kimning ko‘ngli to‘g‘ ri bo‘lsa, uning yo‘li ham to‘g‘ ri bo‘ladi.

2.Ergash gap bosh gapga –ki bog‘lovchisi yordamida birikadi. Bunda bosh gap tarkibida shunday, shunaqa so‘zlari keladi, ergash gap tarkibida esa bunday, bunaqa so‘zlari qatnashadi. Masalan: SHunday odamlar bo‘ladiki, ularni mansab ham, daraja ham, shon-shuhrat ham o‘zgartirmaydi. (H.G‘ulom.) Qalb shunday ummonki, uning bag‘ rida dahshatli dolg‘alar silsilasi bor. (E.Vohidov.)

Ayrim hollarda olmosh bilan ifodalangan aniqlovchi bosh gapda tushirilgan bo‘ladi. Masalan: SHoirlar bo‘ladiki, ularni bir kishi yolg‘iz o‘zi kechasi o‘qiydi. (E.Vohidov.)

Payt ergash gap bosh gap voqea-hodisaning yuzaga kelish vaqtini, paytini bildiradi. Payt ergash gap bosh gap tomonidan beriladigan qachon? qachondan beri? qachongacha? kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi.

Payt ergash gap va bosh gapdagi voqea-hodisaning yuzaga kelishi quyidagicha:

I. Bosh va ergash gaplardan anglashilgan voqea-hodisa bir paytda sodir bo‘ladi. Bunda ergashgan qo‘shma gap qismlari o‘zaro quyidagicha birikadi:

1. Ergash gapning kesimi sifatdosh shaklida bo‘lib, uo‘rin-payt kelishigida qo‘llanadi. Masalan: U hovliga chiqqanda, Qumri bilan dugonasi supa yonida suhbatlashib turishardi. (H.G‘ulom.) Kabinasi band mashinalar o‘tganda, xudi yosh bolalardek quvonib ketardim. (CH.Aytmatov.)

2. Ergash gapning kesimi sifatdosh shaklida bo‘lib, unga o‘rin-payt kelishigidagi «payt», «vaqt», «chog‘ », «zamon» so‘zlari birikib keladi. Masalan: Ular ko‘chaga chiqqan vaqtda, palos, ko‘rpachalar yozilgan edi. (H.G‘ulom.) U idoraga kirib kelgan paytda qabulxona o‘nga yaqin qari-qartang va Xotin-xalaj navbat kutib turardi. (N.Aminov.)

3. Ergash gapning kesimi «-(a)r ekan» shaklida bo‘ladi. Masalan: Raja baka hammangizni elektrostantsiyaning ortiga boshlab o‘tar ekan, Zulayho pastga tushdi. (P.Qodirov.) Men kelishdan maqsadimni asta-sekin tushuntirar ekanman, borgan sayin Boytemirning jahli chiqdi. (CH.Aytmatov.) U kasalxonaning terakzor xiyoboniga kirib borar ekan, qaerdadir jajji bir qushcha chirqilladi. (O‘.Hoshimov.)

II. Bosh gapdagi harakat, holat ergash gapdagi harakat, holatdan oldin yuzaga keladi. Bunda ergash gap bosh gapga quyidagicha bog‘lanadi:

1. Ergash gapning kesimi –guncha affiksi bilan yasaluvchi ravishdosh bilan ifodalanib, mazkur shakl ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vosita hisoblanadi. Masalan: Keyingi avtobus kelguncha, yigit... yangi «tog‘ asal»larini olib quti ustiga terib qo‘rdi. (J.Abdullaxonov.)

2. Ergash gapning kesimi ravishdoshning bo‘lishsiz shakli (-may, -masdan affikslari yasaluvchi shakli) bilan ifodalanadi. Masalan: Oradan ko‘p vaqt o‘tmay, idoraga chollar kirishdi. (A.Qahhor.)

III. Bosh gapdagi voqea-hodisa ergash gapdagi voqea-hodisadan so‘ng ro‘y berardi. Bunda ergash gap bosh gapga quyidagicha birikadi:

1. Ergash gapning kesimi –gach affiksi bilan yasaluvchi ravishdosh bilan ifodalanadi. Masalan: Oradan ikki yil o‘tgach, Mulla Fazliddin Andijon arkidagi to‘rxonaning ba’zi naqshlarini yangilash uchun chaqirildi. (P.Qodirov.) Marosim tugagach, u oyisiga vagonda qaytajaklarini eslatgan edi. (M.Kozimiy.) Mehmonlar jo‘nab ketgach, u ... Solihovni o‘z huzuriga taklif etdi. (N.Aminov.)

2. Ergash gapning kesimi chiqish kelishigidagi sifatdosh bilan ifodalanib, unga «keyin», «so‘ng» ko‘makchilari qo‘shiladi. Masalan: Oradan uch-to‘rt hafta o‘tgandan so‘ng, qo‘liga ... yigirma-o‘ttiz chaqa pul ham bergan edim. (A.Qodiriy.) Sud kengashga kirib ketgandan keyin, zal guvillab ketdi. (CH.Aytmatov.)

3. Ergash gapning kesimi «-gan edi» shaklida keladi. Masalan: Temirjon ... endigina yuvinishga tutingan edi hamki, shiypon yonidan yuz-qo‘lini yuvib, belbog‘iga artganicha kelayotgan Usmonali ota ko‘rindi. (J.Abdullaxonov.)

IV. Bosh gap va ergash gaplardagi voqea-hodisa ketma-ket yuzaga keladi. Bunda ergash gap kesimi «-gandan beri», «-gan sayin», «-gan sari» kabi shakllarda keladi. Masalan: ... cho‘l gullab-yashnagan sari, yilqilar pastlikka tusha boshlaydi. (CH.Aytmatov.)

O‘rin ergash gap bosh gap kesimidan anglashilgan ish-harakatning bajarilish o‘rnini bildiradi.

Bunda ergash gapning kesimi shart mayli shaklida bo‘lib, ergash gap tarkibida qaerga, qaerda, qaerdan kabi nisbiy so‘zlar qatnashib, ular bosh gapdagi shu erga, shu erda, o‘sha erdan, o‘sha erda, o‘sha joyda kabi so‘zlarga mos keladi. Masalan: Qaerdagi erkaklar bilan ayollar bir-birlarini astoydil qadrlasa, o‘sha joyda ikki tomonning ham qadr-qimmati ko‘tarilib ketyapti. (P.Qodirov.)

Sabab ergash gap bosh gapdan anglashilgan voqea-hodisaning yuzaga kelish sababini bildiradi. Sabab ergash gap bosh gap orqali beriladigan nima uchun? nega? nima sababdan? kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi.

Sabab ergash gap bosh gapga quyidagicha birikadi:

1. Ergash gap bosh gapga chunki, negaki sabab bog‘lovchilari yordamida bog‘lanadi. Masalan: Samimiy aytilgan so‘z sodda bo‘ladi, chunki dilning hukmronligi tildan ustun bo‘ladi. (G‘ .G‘ulom.) Tun nihoyatda qorong‘i, chunki yangi tug‘ilgan oy allaqachon botgan edi. (P.Qodirov.) Haqiqiy olim o‘zining ilmi bilan maqtanmaydi, negaki u o‘zidan ham zo‘r va fozil olim borligini biladi. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur».)

2. Ergash gap bosh gapga shuning uchun, shu sababli, shu tufayli, shu bois so‘zlari vositasida birikadi. Masalan: Boshqalar yonida birovga ayblarini aytib nasihat qilish – uni odamlar oldida uyaltirishdir, shuning uchun holi joyda nasihat qilish kerak. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»). Kishining iste’dodi barcha sohada bir xil bo‘lavermaydi, shuning uchun yoshlar o‘zi sevgan, qobiliyatiga mos bo‘lgan ishni tanlay bilishi kerak. (YO.SHukurov).

3. Ergash gap bosh gapga –mi yuklamasi orqali birikadi. Masalan: O‘zi qattiqchilik bilan o‘sgan emasmi, darrov ro‘zg‘ orga kirishib keta qoldi. (O‘.Hoshimov). Temirjonni sharjlar, kulgili surat solingan sahifalar ko‘proq qiziqtirib qo‘ydimi, uzoq-uzoq tikilib qolar, kulardi. (J.Abdullaxonov).

4. Ergash gap bosh gapga shekilli modal so‘zi vositasida bog‘lanadi. Masalan: Temirjonning qadalib tikilishi uning ham diqqatini tortdi shekilli, bir qarab qo‘ydi. (J.Abdullaxonov).

5. Ergash gapning kesimi shart maylidagi fe’l va «kerak» modal so‘zi bilan ifodalanishi mumkin. Masalan: Oy to‘lishgan bo‘lsa kerak, toshlar qirov rangida elas-elas ko‘rinib turar edi. (S.Ahmad). Ba’zan ergash gapning shunday shaklidagi kesimiga –ki yuklamasi ham qo‘shilishi mumkin. Masalan: Stol atrofida har kimning tayin joyi bo‘lsa kerakki, Qunduz chaqqon borib qarshidan joy oldi. (J.Abdullaxonov).

6. Ergash gapning kesimi «-gan+egalik affiksi+uchun (yoki sababli, tufayli)» shaklida bo‘ladi. Masalan: Dori yangi sepilgani uchun, dalada hech Kim ko‘rinmaydi. (O‘.Usmonov). Tog‘ qishloqlari notinch bo‘lgani uchun, Toshtemir shu tomonlarga tez-tez keladigan bo‘lib qoldi. (H.G‘ulom).

7. Sabab ergash gapning kesimi «-gan+egalik affiksi+-dan» shaklida bo‘ladi. Masalan: Bu taraflarda mashinalar ko‘p qatnamaganidan, chang-to‘zon bo‘lmas edi. (S.Ahmad). Bu erda tez-tez yomg‘ir quyib turganidan, daraxtlarning shundog‘am beg‘ubor barglari yuvilib xandon pista mag‘zidek och yashil tusda ko‘rinar edi. (S.Ahmad).

Maqsad ergash gap bosh gap kesimidan anglashilgan ish-harakatning qanday maqsad bilan yuzaga kelishini bildiradi. Maqsad ergash gap bosh gapning kesimi orqali beriladigan nima maqsadda? qay maqsad bilan? nega? so‘roqlariga javob bo‘ladi. Maqsad ergash gapning kesimi ko‘pincha buyruq-istak maylidagi fe’llar ifodalanadi va maqsad ergash gapning bosh gapga birikishi quyidagicha:

1. Ergash gap bosh gapga deb, deya yordamchilari orqali bog‘lanadi. Masalan: Hamma bahramand bo‘lsin deb, yaxshi ishlash kerak. (Oybek).

2. Ergash gap bosh gapga uchun vositasida birikadi. Masalan: Tog‘asi uni odobsiz demasin uchun, Hulkar choynakni ko‘tarib uyga Avazdan keyin kirdi. (P.Qodirov).

3. Maqsad ergash bosh gapga toki maqsad bog‘lovchisi yordamida birikadi. Masalan: Bolalarni kitobga o‘rgatish kerak, toki ular ishchi kuchi bo‘lib emas, ongli, katta jamiyatning bilag‘ on a’zolari bo‘lib etishsinlar. (S.Ahmad).

Ravish ergash gap bosh gapdan anglashilgan harakat, holatning qay tarzda, qay holda yuzaga kelishini bildiradi. Ravish ergash gap bosh gapning kesimi orqali beriladigan qanday? qay tarzda? qay holda? qanday qilib? kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi.

Ravish ergash gapning kesimi, asosan, fe’lning –(i)b affiksi bilan yasaluvchi o‘tgan zamon ravishdoshi orqali shakllangan bo‘lib, shu fe’l shakli ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vosita ham hisoblanadi. Masalan: Uy suv yuvib qiyalashgan silliq qirg‘ oqdan besh-olti qadamgina narida bo‘lib, undan ilon izidek yolg‘izoyoq yo‘l daryoga cho‘zilib tushgan edi. (O‘.Usmonov). Birdan qo‘llari bo‘shashib, bog‘layotgan bog‘ichi barmoqlari orasidan chiqib ketdi. (O‘.Hoshimov). Hozir ham supaning atrofii supurib-sidirilib, suv sepib qo‘yilgan. (J.Abdullaev).

O‘xshatish ergash gap bosh gapdagi voqea-hodisani boshqa voqea-hodisaga o‘xshatadigan, chog‘ishtiradigan ergash turidir. O‘xshatish ergash gapning kesimi ko‘pincha –gan, -yotgan affikslari bilan yasaluvchi sifatdosh bilan ifodalanib, bunday ergash gap bosh gapga quyidagicha birikadi:

1. Ergash gap kesimi –day, -dek affiksini olgan sifatdosh bilan ifodalanadi. Masalan: Odatda mevaning sarasini qurt eganidek, bo‘xton ham yaxshi odamlarga yopishadi. (J.Svift). Toshbaqa jayronni quvib etib g‘ajib tashlashi mumkin bo‘lmaganidek, Zaynabning o‘z orzulariga etmog‘i mumkin emasdi. (T.Malik).

2. Ergash gapning kesimi «-gan+egalik affiksi+kabi//singari» shaklida bo‘ladi. Masalan: Bulutlar ortiga yashiringan quyosh yuzidagi pardani shartta olib tashlab, olamni munavvar qilgani kabi, uning ham chehrasi birdan yorishib ketdi. (J.Abdullaxonov).

3. Ergash gapning kesimi «-gan yoki –yotgan+jo‘nalish kelishigi affiksi+ o‘xshab//o‘xshash» shaklida bo‘ladi. Masalan: Yo‘l borgan sari uzoqlashib ketayotganga o‘xshab, sira poyoni ko‘rinmasdi. (S.Ahmad).

4. Ergash gap bosh gapga go‘yo, xuddi yordamchilari vositasida bog‘lanishi mumkin. Bunda ergash gapning kesimi tarkibida odatda –day, -dek affiksi ham qatnashadi. Masalan: Ba’zi qushlarning qanotlari yozilgan, go‘yo ulab uchib tushmoqchiday edi. (Oybek).

Miqdor-daraja ergash gap bosh gap kesimidan anglashilgan harakat-holatning qay miqdorda, qay darajada bajarilishini bildiradi.

Miqdor-daraja ergash gapli qo‘shma gaplarda ergash gap tarkibidagi qancha, qanchalik, nechog‘lik so‘zlari bosh gapdagi shuncha, shunchalik, shu darajada kabi so‘zlarga mos keladi.

Miqdor-daraja ergash gapning kesimi fe’lning shart mayli bilan ifodalanib, shu fe’l shakli ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vosita hisoblanadi. Masalan: Odamlar uchun xotirada saqlash qanchalik zarur bo‘lsa, ba’zan unutish ham shunchalik zarur. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»). Unga tomon qancha yursang, u sendan shuncha uzoqlashadi. (A.Qahhor).

Shart ergash gap bosh gapdagi voqea-hodisaning qanday shart bilan yuzaga chiqishini bildiradi.

Shart ergash gap bosh gapga quyidagicha birikadi:

1. Shart maylidagi fe’l bilan. Masalan: Er baquvvat bo‘lsa, g‘ o‘za baquvvat o‘sib, hech qanday dardga chalinmaydi. (J.Abdullaxonov). Da’vogar sust kelsa, qozi muttaham ... (H.G‘ulom).

Ba’zan shart ergash gapda agar, bordi-yu, basharti, mabodo kabi so‘zlar kelib, ular gapdan anglashilgan shart mazmunini kuchliroq ifodalash uchun xizmat qiladi. Mabodo biror odam o‘zicha to‘y qilsa, ayni bazm qizigan paytda chiroq o‘chirib qo‘yiladi. (O‘.Hoshimov). Agar bir daraxt kessangiz, o‘rniga yangi novdalar ko‘karib chiqadi. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»).

2. Ba’zan shart ergash gapning kesimi «-gan+da» shaklida bo‘ladi va bu shakl ergash gapni bosh gapga bog‘lash uchun xizmat qiladi. Masalan: Agar yozuvchi ko‘ksida shunday bir nur – toza iymon bo‘lmaganda edi, uning shaytanat olamiga safari besamar chiqmog‘i ham mumkin edi (T.Malik).

3. Shart ergash gap bosh gapga –mi, -chi yuklamasi yordamida ham birikishi mumkin. Masalan: Xatosini bo‘yniga oldimi, egilgan boshni qilich kesmaydi.

To‘ciqsiz ergash gap mazmunan bosh gapga zid bo‘lsa ham, unda ifoda qilinayotgan fikr bosh gapda ifoda qilinayotgan fikrning bajarilishiga to‘siq bo‘lmaydi.

To‘ciqsiz ergash gap bosh gapga quyidagicha bog‘lanadi:

1. SHart mayli affiksi + ham yuklamasi orqali: Ular o‘tirgan joyga sel kelmagan bo‘lsa ham, Oqdaraning shag‘irlashi quloqlariga chalingan edi. (P.Qodirov). Hovli sotilib ketgan bo‘lsa ham, qarindoshlardan a’lo qo‘shnilarim bor. (Mirmuhsin).

Ba’zan ma’noni kuchaytirish uchun bosh gap tarkibida zidlovchi bog‘lovchi ham keladi: Mahfuza Rayhonga dastlab yotsirab qaragan bo‘lsa ham, lekin uning mehribonliklari qizaloq ko‘nglini sekin-asta yumshatdi. (H.G‘ulom).

2. SHart mayli affiksi + da yuklamasi orqali: Uning so‘zlari garchi o‘q kabi botayotgan bo‘lsa-da, Elchin uchun yangilik emasdi. (T.Malik).

3. Ergash gapning kesimi bo‘lishsiz shaklida qo‘llangan buyruq maylidagi fe’l bilan ifodalanadi: Ona ishdan qanday o‘y, qanday tashvish bilan qaytmasin, shu ko‘zlarni ko‘riboq, ko‘ngli yozilar edi. (A.Muxtor).

4. To‘ciqsiz ergash gapning kesimi «-gan+egalik affiksi+bilan» shaklida bo‘ladi: Yo‘q, ayniqsa Jo‘raqulovga o‘xshagan kishilar ... sip-silliqqina ko‘ringani bilan, dilida qancha siru sinoatlar borligini hamma ham bilavermaydi. (Mirmuhsin). Darvozasi ko‘rimsiz bo‘lgani bilan, bu hovlining o‘ngi ichida ekan. (T.Po‘latov). Zaynab o‘zini engilroq his qilgani bilan, boshi garang edi. (T.Malik).

Natija ergash gap bosh gapdagi voqea-hodisaning natijasini bildirib, bosh gapga –ki aniqlov bog‘lovchisi orqali bog‘lanadi. Bunda bosh gap tarkibida ko‘pincha shu qadar, shunday, shuncha, shunchalik, chunon (ergash tarkibida esa natijada, oqibatda kabi so‘zlar) qo‘llanadi. Masalan: YUlduzlar shu qadar ko‘p chiqqan ediki, allaqanchasi Somon yo‘lining ortlarida ham milt-milt qilardi. (P.Qodirov). ... nafas olish shunday engilki, keksa odam ham bu erda bolalik paytlarini eslaydi. (P.Qodirov).

ADABIYOTLAR:AA2,QQ 26,22,32

Mavzu: Navoiy tabiblar haqida. Ko’chirma va o’zlashtirma gaplar.

Reja:

1 Tabiblar mahorati haqida

2. Navoiyning tabiblar haqidagi qarashlari

3.Ko’chirma gap va o’zlashtirma haqida ma’lumot

NAVOIY TABIBLAR HAQIDA

Tabib o ‘z fani, y a'n i tabobat sohasida bilimdon, hoziq va kasallarga mehribon bo'lishi kerak. Tabibning so ‘zlari muloyim, o 'z i esa hakimlaming so 'zig a amal qiluvchi v a bcm orlarga mulozim, xizm at qiluvchi bo'lishi lozim. So'zlagan so’zi yum shoq va dilni xursand qiluvchi, o 'z id a esa sharmu-hayo va x u shfe'llik b o 'lish i kerak.Shafqatli va m ehribon tabib Isoyi ruhullohga o 'x sh ash bo'îadi. Isoning ishi odamdan ch iqqan jo n n i duo yordamida y ana tanga kirgizish b o ls a , tabibning ishi davo bilan chiqayotgan jonga to 'sq in lik qilishdir. Bunday tabibning yuzi b em orning k o 'n g lig a yoqimli. s o 'zi esa har qanday kasalning jo n ig a orom beruvchidir. Uning bergan har bir davosi xasta kishilarga shifo yetkizadi. Uning tal’ati (qiyofasi) najot Hizr kabi, bergan sharbati esa bemor uchun obihayot kabidir Ammo tab ib o ‘z fanida mohir b o ‘lsa-da, biroq badfe’l ,bemor uchun beparvo hamda q o ‘p ol so'zlov ch i b o ’lsa, kasalga b ir tomondan davo yetkazsa ham boshqa tomondan m ijoziga, y a'n i kayflyatiga o 'zg arish yetkazadi.Biroq, savodi y o ‘q, omi tabib jallodning shogirdi hisoblanadi, jallod tig‘ bilan, omi tabib esa zahar bilan o ’Idiradi. T ig ‘ bilan o ld iru v ch i jallod, shubhasiz, omi tabibdan yaxshiroqdir, chunki u gunohkom i o'Idiradî. Har qanday gunohkor ja llo d oldida xor bo’lmasin, har qanday begunoh bemor esa omi tabibga k o 'rin u v ch i b o lm a s in .

Hoziq tabibi xu shgo'y tan ranjig'a shifodur,

Omiy-yu tundu badxo 'y et jonig ‘a balodir.

yumshoq - мягкий sharm-hayo - стыдливость

to 'sq in lik - препятствие zahar - яд

q o 'p o l - грубый jallod - калач

Lug'at

hakim - врач xasta - больной

tal'at - внешность beparvo - беспечный

GRAMMATIKA: Koʻchirma gap

Oʻzgalarning hech oʻzgarishsiz berilgan gapi **koʻchirma gap** deyiladi. Koʻchirma gapda ikki xil gap boʻladi: **koʻchirilgan gap** va **muallif gapi.** Ikkalasi birgalikda **koʻchirma gapli qoʻshma gapni** hosil qiladi (20; 66). Muallif gapining kesimi *dedi, deb soʻradi, deb javob berdi, gapirdi, soʻzladi, aytdi* kabi feʼllar bilan ifodalandi. Koʻchirma gaplar soʻzlashuv va badiiy uslublarda koʻp ishlatiladi. Koʻchirilgan gap muallif gapidan avval, undan keyin, uning ichida, uning ikki tomonida kelishi mumkin: "*Mehnat ishtaha ochar", - deydi bobom. CHoʻpondan soʻradik: "Bu qoʻylar kimning qoʻyi?" "Men, - dedi u, - ertaga kelaman". Bosh injener nihoyatda bosiqlik bilan: - Bu gapga Xudoyqulovning aloqasi yoʻq, - dedi.(J.Abd.)*

Koʻchirma gapda tinish belgilarining ishlatilishi

Koʻchirilgan gap qoʻshtirnoq ichiga olinadi, badiiy asarlarda tire bilan ajratib beriladi.

Koʻchirma gapda, koʻchirilgan gapning oʻrniga qarab, tinish belgilarining ishlatilishi quyidagicha boʻladi:

1. Koʻchirilgan gap darak gap boʻlib, muallif gapidan oldin kelsa, undan keyin vergul va tire qoʻyiladi: *"YUring, men oʻsha tomonga boraman", - dedi Komila* (badiiy asarlarda tire ishlatiladi). Soʻroq va undov belgilari qoʻshtirnoq yopilmasdan oldin qoʻyiladi.

2. Koʻchirilgan gap muallif gapidan keyin kelsa, muallif gapidan keyin ikki nuqta qoʻyiladi: *Bir kun Husayn Mirzo shipga qarab yotib, vazirlariga shunday debdi: - Olib keling! (“El desa Navoiyni”)*

3. Muallif gapi koʻchirilgan gap ichida kelsa, tinish belgilari quyidagicha qoʻyiladi:

1) koʻchirilgan gapning uzilib qolgan qismida hech qanday tinish belgisi boʻlmasa yoki vergul yoxud ikki nuqta boʻlsa, bu belgilar tushirilib, muallif gapi har ikki tomondan vergul va tire bilan ajratiladi: *"Hazrat, - debdi Xudoyberdi unga qarab, - tandirni qurolmadim". (“El desa Navoiyni”)*

2) koʻchirilgan gapning uzilib qolgan qismidan soʻng nuqta qoʻyish lozim boʻlsa, muallif gapidan oldin vergul va tire, muallif gapidan soʻng esa nuqta qoʻyiladi: *"Noyib toʻraning gaplaridan bilinadi oʻzi, dedi Miryoqub. – Siz boʻlgan gaplarni aytib bering". (CH.)*

3) koʻchirilgan gapning uzilib qolgan qismidan soʻng soʻroq yoki undov belgisi qoʻyish lozim boʻlsa, muallif gapidan avval oʻsha belgi va tire qoʻyiladi, muallif gapidan soʻng nuqta va tire qoʻyilib, koʻchirma gapning davomi bosh harf bilan boshlanadi: *"Xadichaxon koʻzlarini ayyorlik bilan oʻynatib turib, kundoshiga qaradi: - Gapni eshitayotirsizmi? – dedi. – Ertaga biznikiga shaharlik mehmonlar kelishar ekan!".(CH.)*

4. Koʻchirilgan gap muallif gapining oʻrtasida kelsa, tinish belgilari quyidagicha qoʻyiladi:

1) muallif gapining uzilib qolgan qismining oxiriga ikki nuqta qoʻyilib, koʻchirilgan gap qoʻshtirnoq ichiga olinadi; koʻchirilgan gapdan keyin vergul va tire qoʻyilib, keyin muallif gapining davomi yoziladi: *Saodat: "Biz ham astoydil mehnat qildik", - dedi.*

2) koʻchirilgan gap soʻroq yoki his-hayajon gap boʻlsa, ularning belgilari qoʻshtirnoq ichida boʻladi: *Oʻqituvchimiz* : *"Sen qaysi badiiy kitoblarni oʻqib chiqqansan?" - deb soʻradilar.*

5. Koʻchirma gaplar hamsuhbatlarning luqmasi tarzida ifodalanganida yozma nutqda har bir luqmadan avval tire qoʻyiladi. Bu luqmalarda muallif gapi boʻlmaydi: - *SHaharda qarindoshingiz bormi? - Yoʻq.*

Oʻzlashtirma gap

Oʻzgalarning shakli oʻzgartirilib, mazmuni ifodalangan gapi **oʻzlashtirma gap** deyiladi. Oʻzlashtirma gap koʻchirma gapga aylantirilishi mumkin boʻlgan gapdir: *Qurbon ota ertaga kelishini aytdi (oʻzl. gap) – Qurbon ota dedi: “Men ertaga kelaman”(koʻch. gap).*

Soʻroq, buyruq mazmunini ifodalagan koʻchirma gaplar oʻzlashtirma gapga aylantirilganda, darak gap shaklida bayon qilinadi.

Ko‘chirma gap	O‘zlashtirma gap
- *Bu qanday bino, nimaga mo‘ljallaysiz? - dedi O‘ktam.*	*O‘ktam bu qanday bino ekanligini, uning nimaga mo‘ljallanishini so‘radi*

Undalma, kirish so‘z qatnashgan ko‘chirma gaplar o‘zlashtirma gapga aylantirilganda, kirish so‘zlar tushib qoladi, undalma vositali to‘ldiruvchiga aylantiriladi, 1-, 2-shaxslarni ko‘rsatuvchi so‘zlar 3-shaxsga aylantiriladi:

Ko‘chirma gap	O‘zlashtirma gap
- ***Xo‘sh***, ***Kanizakxon***, *qanday yangiliklar bor? - so‘radi O‘ktam.* - ***Men*** *ketdim, - dedi ukasi.*	*O‘ktam Kanizakxondan qanday yangiliklar borligini so‘radi.* *Ukasi* ***o‘zining*** *ketayotganini aytdi.*

O‘zlashtirma gapning kesimi *aytmoq, gapirmoq, buyurmoq, so‘ramoq, undamoq* (*demoq* fe’lidan tashqari) so‘zlari bilan ifodalanadi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Muallifning nutqida ifodalangan boshqalarning fikrlari qanday shakllarda bo‘lishi mumkin? 2. Ko‘chirma gapning ta’rifini ayting. 3. Ko‘chirilgan gap va muallif gaplari haqida ma’lumot bering. 4. Ko‘chirilgan gapning joylashish o‘rinlari haqida gapiring. 5. Ko‘chirilgan gap muallif gapidan oldin kelsa,tinish belgilari qanday qo‘llanadi? 6. Ko‘chirilgan gap muallif gapidan keyin kelsa,tinish belgilari qanday qo‘llanadi? 7.Muallif gapi ko‘chirilgan gap ichida kelsa,tinish belgilari qanday qo‘llanadi? 8. Ko‘chirilgan gap muallif gapining o‘rtasida kelsa, tinish bo‘lgilari qanday qo‘llanadi? 9. Muallif nutqida ishlatilgan qanday birliklar qo‘shtirnoqqa olinadi? 10. Ko‘chirma gaplar dialogik nutqda luqma tarzida kelgan bo‘lsa, qanday tinish belgilari ishlatiladi? 11. O‘zlashtirma gapning ta’rifini ayting. 12. Ko‘chirma gaplar o‘zlashtirma gaplarga aylantirilganda, ular tarkibidagi gap bo‘laklari hisoblanmaydigan birliklar qanday o‘zgarishlarga uchraydi? 13. Ko‘chirma va uning turlari haqida gapiring. 14. Ko‘chirmada tinish belgilari qanday ishlatiladi? 15. Ko‘chirma gapda ishlatiladigan tinish belgilarining barchasini sanab ko‘rsating.

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. *Uzoqdan, chayla tomondan, itning: «vov, vov, vov» degan ovozi eshitildi.* Ushbu gap o‘zlashtirma gapga qay ko‘rinishda aylantiriladi?

A) Uzoqdan, chayla tomondan, it «vov, vov, vov» deb hurdi. B) Uzoqdan, chayla tomondan, itning vovillagani eshitildi. C) Itning: «Vov, vov, vov», deb vovillagani uzoqdan, chayla tomondan eshitildi. D) O‘zlashtirma gapga aylanmaydi.

2. Ko‘chirma gap bilan muallif gapining o‘rni qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) Ko‘chirma gap faqat muallif gapidan oldin keladi. B) Ko‘chirma gap faqat muallif gapidan keyin keladi.C) Muallif gapi faqat ko‘chirma gap orasida keladi. D) Ko‘chirma gap muallif gapidan oldin, keyin yoki uning ichida, muallif gapi esa ko‘chirma gap orasida kelishi mumkin.

3. Ko‘chirma gaplar nisbatan qaysi uslublarda ko‘proq qo‘llanadi?

A) so‘zlashuv va badiiy uslubda B) ommabop va so‘zlashuv uslubida C) ilmiy va badiiy uslubda D) so‘zlashuv, rasmiy va badiiy uslubda

4.*- Anavi erda, - u Sherzodning qo‘lidagi xatga imo qildi, - to‘g‘ri yozishibdi*.Ushbu gap qaysi qatorda to‘g‘ri izohlangan?

A) ko‘chirma gap B) sodda yoyiq gap

C) kirish gapli gap D) qo‘shma gap

5. Ko‘chirma gap bilan birga qo‘llanadigan muallif gapi kesimining ifodalanishi haqida bildirilgan qaysi fikr to‘g‘ri?

A) faqat <u>demoq</u> fe'li bilan B) faqat <u>so'zlamoq</u> fe'li bilan C) faqat <u>gapirmoq</u> fe'li bilan D) <u>demoq,aytmoq,so'zlamoq,gapirmoq</u> kabi fe'llar bilan

6. Muallif gapi kesimining qaysi fe'llar bilan ifodalanishi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.

A) *dedi, ko'rdi, yog'di, ko'kardi;* B) *so'radi, ishondi, chiqdi, chiqdi, ketdi;* C) *uyg'ondi, yuvindi, tarandi, gapirdi;* D) *aytdi, gapirdi, so'zladi, buyurdi;*

7. Qaysi qatordagi ko'chirma va muallif gaplarida tinish belgilari noto'g'ri ishlatilgan?

A) G'ofir: «Jamila, tur o'rningdan», - dedi. B) G'ofir dedi: «Jamila, tur o'rningdan». C) «Jamila, - dedi G'ofir, - tur o'rningdan». D) Barcha javoblarda tinish belgilari to'g'ri ishlatilgan.

8.- <u>*Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmaydi,- dedi Xalil ota odatdagicha kulimsirab*</u>. Ushbu misolda nega ko'chirma gapdan keyin vergul va tire qo'yilgan?

A) ko'chirma gap darak gap bo'lgani uchun B) ko'chirma gap so'roq gap bo'lgani uchun C) ko'chirma gap his-hayajon gap bo'lgani uchun D) ko'chirma gap muallif (avtor) gapidan oldin kelgani uchun

9. Birinchi qismida nuqta (.) belgisi bo'lgan ko'chirma gap o'rtasida kelgan muallif gapidan so'ng qanday tinish belgisiqo'yiladi?

A) vergul B) nuqta C) ko'p nuqta D) tire

10. Birinchi qismida ko'p nuqta (...) belgisi bo'lgan ko'chirma gap o'rtasida kelgan muallif gapidan so'ng qanday tinish belgisi qo'yiladi?

A) vergul B) nuqta C) ko'p nuqta D) tire

Mustaqil ish mavzusi:Alisher Navoiy o'zbek tilining asoschisi

Adabiyotlar: AA5,QA4,7,29

Mavzu: Hamkasblar muloqoti. Nutq madaniyati

Reja:

1.Muloqot sirlari kasb doirasi talqinida

2. Nutq odobi notiqlik sa'nati

3.Yaxshi muomala muammolar yechimi

S H I F O K O R B IL A N H A M S H IR A M U L O Q O T I

H a m s h ir a :

-A ssalom u alaykum. Men bugun
navbatchi ham shiram an.
Kecha 2 ta b em o rq ab u l qilindi. Ular
4- va 15-palatada
S h ifo k o r:
•Juda yaxshi.
Kecha nechta bemor qabul qilindi?
Kiruvni ayollar bo'lim idan
boshlaymiz.
SHAXNOZA o g 'riqdan shikoyat! qildi.
-Xo'p.
Marhamat, oling
B em o rlard an kim kechasi y o m o n
u x lad i?
M en g a uning do ri-d arm o n lar
tay in lo v varaqasini bering.
-B cm o m in g haroraiini har ikki so atd a
0 'lch ab turish zarur.
-U n in g tom ir urishini, arterial q o n
bo sim in i ertalab va k ech q u ru n

0 ‘lch ab turing.

-M a’lum otnomani menga bering.

Topshiriq. Quydagi matn asosida ‘’Muomala odobi” deb nomlangan matn yozing

SH IFO K O R M A’N A V IY A TI

Shifokorlik kasbi undan yuksak ma’naviyatli bo 'lish n i talab qiladi. S h ifo k o rin g yuqori ma’naviyatli b o 'lish i uning pok axloqiy qiyofasi bilan ch am b arch as bog'liqdir. Y axshi inson bo'lmagan odam yaxshi shifokor b o ‘lolm aydi. Yaxshi, komil inson - bu ta’magirlik, qalloblikdan xoli b o ‘lgan, sam im iy, oliyjanob odamdir. U o ‘z atrofidagilariga yaxshiiik istovchi, ularning tashvish va quvonchlarini tushunuvchi, kerak b o 'lsa vaqtini ayamay, so'zi va ishi bilan beg'araz. y o rdam beruvchi, odamlarni sevuvchi shaxsdir.O dam oxunlik va xushmuomalalik yaxshi shifokor uchun o ‘ta muhim bo’lgan sifat hisoblanadi.Bemorning yonida hamkasblari bilan so ‘zlashganda, shifokor tu sh u n arli b o’ lm ag an tibbiy iboralarni ishlatmasligi kerak. Aks holda bemor buni o ‘zicha tushunishi yoki noto ‘g`ri talqin qilib, shubhaga tushishi mumkin.Shuni yodda tutish kerakki, o g 'ir kasalliklar va davolab bo'lmaydigan o 'zg a ris h lar qayd qilinsa ham. (saraton kasalligi, buyrak va jig ar faoliyati b u zilishining tuzalmas turlari va sh.k.) bemorga haqiqatni aytmaslik kerak, chunki u tuzalib kctishga umid bog'laydi. Shu umidni shifokor eng o g 'ir h o llard a ham bemorning k o 'n g lig a qo’l solishi lozim.

GRAMMATIKA: NUTQ ODOBI

1) og‘zaki va yozma adabiy til me’yorlari (talaffuz, urg‘u, so‘z qo‘llash, grammatika, uslubshunoslik qoidalari)ni egallash, shuningdek, turli aloqa-aralashuv sharoitlarida tilning tasviriy vositalaridan nutqning maksad va mazmuniga mos ravishda foydalanish mahorati;

2) tilshunoslikning tilni madaniyat quroli sifatida mukammallashtirish maqsadida me’yorlashtirish (tartibga solish) muammo larini o‘rganuvchi bo‘limi. G‘arb tilshu-nosligida umumiy ma’noda "til madaniyati" termini ham qo‘llanadi. 1-ma’nodagi "Nutq madaniyati" tushunchasi adabiy tilni o‘zlashtirishdagi ikki bos-qichni qamrab oladi:a) nutqning to‘g‘riligi va boshqa nutqiy mahorat. N u -tqning to‘g‘riligi muayyan tildaso‘zlovchilar va yozuvchilar tomonidan "ideal" yoki umum tomonidan qabul qilingan va an’anaviy saqlanib kelayotgan odatlar, ibrat va namunalar tarzida idrok etiladigan adabiy me’yorlarga amal qilishdir. Nutqiy mahorat esa nafaqat adabiy me’yorlarga amal qilish, balki o‘zaro mavjud bo‘lgan variantlardan mazmunan eng to‘g‘ri, eng aniq, uslub va vaziyat nuqtai nazaridan eng makbuli va ifo-dalisini tanlab olish mahoratidir (Mas, aka — oka — ako; kelyapti — kevotti — kelopti variantlaridan bi-rining adabiy me’yor sifatida tanla-nishi). Yuksak Nutq madaniyatikishining umumiy yuksak madaniyatini, fikrlash madani-yatini, tilga nisbatan ongli mexr-muhabbatini namoyon qiladi.Nutq madaniyati nazariyasining asosiy tushunchasi til me’ye’ridir. 2-ma’nodagi Nutq madaniyatining asosiy vazifasi ijtimoiy til amaliyotiga faol ta’sir ko‘rsatish maqsa-dida (tilning barcha sathlarida) ob’yektiv til me’yorlarini ularning barqarorlashgan shakllarida, ziddiyatlarida, vujudga keluvchi tamoyillarida va boshqalarda o‘rganishdir.Zamonaviy Nutq madaniyati nazariy va amaliy fan bo‘lib, u til amaliyotiga ta’sir etish maqsadida adabiy til tarixi, grammatika, uslubshunoslik va boshqa til-shunoslik bulimlarining yutuklari va xulosalarini umumlashtiradi. Nutq madaniyati na-zariyasida adabiy til milliy tilning oliy shakli deb e’tirof etiladi; ba-diiy adabiyot tilio‘zining eng yaxshi namunalari bilan xalqning madaniyat sohasidagi yutuklari va an’analarini mustahkamlaydi va boyitadi.Nutq madaniyati ijtimoiy hodisa bo‘lib, u jamiyat, fan va texnika, madaniy va adabiy hayot rivoji bilan chambarchas boglik holda taraqqiy etadi. Jamiyat a’zolarining madaniy saviyasi ortgan sari nutqi ham jilolanib, sayqallashib, Nutq madaniyati qoidalari va me’yorlariga muvo-fiq holda takomillashib boradi. Nutq madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida adabiyot, san’at, radio, televideniye va davriy matbuotning alohida o‘rni bor. Ayniqsa, adabiy tilni me’yorlashtirish va Nutq madaniyati nazariyasini rivojlantirishda leksikografiya, xususan, izox^li, imlo, talaffuz, o‘quv va boshqa maxsus lug‘atlar muhim ahamiyatga ega.15-asrdayoq o‘zbek adabiy tilining Nutq madaniyati va uning o‘ziga xos me’yorlari bo‘lgan — Alisher Navoiy o‘zining butun hayotiy va ijodiy faoliyati bilan o‘z davri Nutq madaniyatiga, nutq odobiga mislsiz hissa qo‘shgan bo‘lsa, keyingi davrda yashagan Bobur,

Muhammad Solih, Gulxaniy, Nodira, Ogahiy, Furqat, Muqimiy va boshqa shoirlarning asarlari tilida ham o‘sha davr tili va Nutq madaniyati ma’lum darajada aks etgan. "Yaxshi so‘z — jon ozig‘i", "Bug‘doy noning bo‘lmasa ham, bug‘doy so‘zing bo‘lsin","O‘ynab gapirsang ham o‘ylab gapir", "Har neni yemak — hayvonning ishi, har neni demak— no-donning ishi" kabi maqol va hikmatli so‘zlarning paydo bo‘lishi ham o‘zbek xalqida Nutq madaniyati ga avvaldan e’tibor kuchli bo‘lganidan darak beradi.O‘tgan asrning 20-yillaridan so‘ng o‘zbek tilining Nutq madaniyati xalq tiliga yaqinlashtirilgan milliy adabiy til me’yorlariga asoslanadi. Bu me’yorlarni shakllantirish ishiga olimlar (Otajon Hoshim, T.N. Qoriniyoziy, S. Ibrohimov, Olim Usmon va boshqalar), adibu shoirlar (Qodiriy, Cho‘lpon, Avloniy, Fitrat, Oybek, G‘afur G‘ulom, AbdullaQahhor va boshqalar) munosib hissa qushdilar.

Tayanch so`z va iboralar: Kurs ishi, grafikaviy-hisoblash ishlari, nazariy bilimlar, maxsus fanlar, umumkasbiy, mustaqil foydalanish, matnlar, rasmlar, sxemalar va jadvallar

Mustaqil ish mavzusi: Tavsifnoma vatibbiy ish yuritish hujjatlarni kasallik tarixi,kasalik tarixidan ko’chirma,yo’llanma vabuyruqlar rasmiylashtirishning zaruriy qismlari va na’munasi

Adabiyotlar: AA3, QA15,24

MAVZU: SOG’LOM TURMUSH TARZI . SO’ZLASHUV USLUBI

REJA:

1.Salomatligimiz o’z qo’limizda
2. Sog’lom bo’lish sirlari
3.So’zlashuv uslubi haqida ma’lumot

Sog 'lo m turm ush tarzining ahamiyati beqiyosdir. Sog'lom turmush tarzi - insonning jism o n iy , ruhiy va ijtimoiy salomatligini ta’minlovchi turmush tarzidir. U ning asosiy tamoyillari quyidagilardir:

o ‘z turmush tarzi uch u n m as’uliyatni sezish;- to ‘g ‘ri tuzilgan k u n tartibi;-to‘g ‘ri ovqatlanish;-sog'lom munosabatlardir.K o ‘p g in a odam lar o 'z so g'liqlariga e’tibor b o ‘lib, ularning salomatliklarini sh ifo korlar tiklab berishini kutib o ‘tirishadi. Ammo hozir o ‘z salomatligini ta ’m in lab beruvchi so g 'lo m turmushga e ’tiborli faol insonlar k o ‘payib borm oqda.S o g 'lo m turm ush tarzi o ‘z ichiga ishda va oilada mehnat jarayoni, madaniy hordiq. sport bilan shug'ullanishni uzviy olib borishdir. Shuningdek, zararli odatlardan voz kechish kerak. Bu o ‘z navbatida sog'lom avlodni voyaga yetkazishda m uhim omildir. Buning uchun yoshlar orasida muntazam ravishda tushuntirish ishlarini o lib borish kerak. Bu tushuntirish ishlari natijasida yoshlar chekish, alkogol ichimliklarini iste’mol qilish, giyohvand moddalami qabul qilish insonning o ‘zin ig in a emas, b o 'lajak avlod uchun ham xavfli ekanligini his qilishlari kerak. Shuning uchun ham respublikamizda b ir n ech a yildan beri turmush qurish b o 's a g 'a sida turgan yoshlar albatta tibbiy k o'rikdan o'tkaziladi.H ar b ir yosh bo'lg’usi ota -ona sifatida ham o ‘z so g ‘lig ‘i uchun javobgardir.S o g 'lo m onadangina sog'lom farzand tug'iladi. Shu tufayli homilador ayollar s o g ‘lom turm ush tarziga rioya etishlari, ovqatlaming darmondorilarga boy bo’lishiga e ’tib o r berishlari kerak. Doimiy hordiq va mehnat bilan shug‘ullanish m uhim dir. Ruhiy holatni yaxshilash ham sog'lom turmush tarzini saqlashning asosiy qoidasidir. Turmush sog'lom b o 'lg an taqdirdagina kelajak avlod ham s o g ‘lom b o ‘ladi.

Savol v a to p s h ir iq la r .

1 .0 ‘z tu r m u s h ta r z in g iz h aq ida so 'zlan g .

2. T u r m u s h ta rz in g iz d ag i n im a la r sizga y o q ad i, n im a la r y o q m ay d i?

3. S izn in g ch a, id eal tu r m u s h ta r z in i k ech irg an inson h aq id a so ’zlab berin g .

homilador – беременная k o 'rik - осмотр

faol - актин hordiq – отдых

GRAMMATIKA: USLUBIYAT (STILISTIKA). NUTQ USLUBLARI

Uslubiyat haqida umumiy ma'lumot

U s l u b i ya t tilshunoslik fanining bir bo'limi bo'lib, nutq jarayonida til hodisalarining maqsadga, sharoitga va muhitga mos ravishda foydalanish qonuniyatlari bilan tanishtiradi. Uslubiyatda uslublar, til vositalarining nutqda qo'llanish yo'llari, fonetik, lug'aviy, frazeologik va grammatik birliklarning qo'llanish xususiyatlari o'rganiladi.

Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma'lum bir sohada qo'llanadigan, bir qancha o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan ko'rinishi **adabiy til uslubi** deyiladi. Uslub orqali so'zlovchi shaxs narsalarga, voqealarga shaxsiy munosabatini aks ettiradi.

O'zbek adabiy tilida quyidagi asosiy nutq uslublari bor: **so'zlashuv uslubi, badiiy uslub, rasmiy uslub, ommabop uslub, ilmiy uslub** (Ayrim darsliklarda so'zlashuv uslubidan boshqa barcha uslublar **kitobiy uslub** degan umumiy nom ostida beriladi): *durust, metro, ko'k, tuzuk* (so'zlashuv uslubi); *moviy, metropoliten* (kitobiy).

Har bir uslubni yaratuvchi vositalar mavjud. Bularni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. So'zlashuv uslubi

Uyda, ko'chada, insonlarning o'zaro so'zlashuvida qo'llanadigan uslub **so'zlashuv** uslubi deb ataladi. Bu uslubning adabiy til me'yorlariga rioya qiladigan ko'rinishi **adabiy so'zlashuv uslubi** deb yuritilsa, bunday me'yorlarga rioya qilinmaydigan ko'rinishi **oddiy so'zlashuv uslubi** deb ataladi. So'zlashuv uslubidagi nutq ko'pincha dialogik shaklda bo'ladi. Ikki yoki undan ortiq shaxsning luqmasidan tuzilgan nutq **dialogik nutq** deyiladi.

So'zlashuv uslubida ko'pincha turli uslubiy bo'yoqli so'zlar, grammatik vositalar, tovushlar tushib qolishi, orttirilishi mumkin: ***Kep*** *qoling!* ***Obbo****, hamma ishni do'ndiribsiz-da.* ***Mazza*** *qildik.* ***Ketaqo-o-ol****!*

So'zlashuv uslubida gapdagi so'zlar tartibi ancha erkin bo'ladi, piching, qochiriqlar, kinoyalar ko'plab ishlatiladi. Ko'proq sodda gaplar, to'liqsiz gaplar, undalmali gaplardan foydalaniladi.

Mustaqil ish mavzusi: O'zbekiston mustaqiligi va ma'naviy axloqiy tarbiya
Adabiyotlar :AA 3, QA6,9,28

MAVZU: Internet hayotimizda. Publisistik uslub va uning xususiyatlari. Xabar, repartaj tayyorlash

Reja:

1. Internetdan unumli foydalanish haqida
2. Publisistik uslub haqida ma'lumot
3 Xabar , repartaj tayyorlashda kerak bo'ladigan unsurlar

Internetdan unumli foydalanish

Axborot ustida kerakli amallarni bajarish borasida tashkil qilingan javraen axborot texnologiyasi deb ataladi.Axborot texnologiyasi asosiy texnik vositalari sifatida hisoblash-tashkiliy texnikadan tashqari aloqa vositalari – telefon, teletayp, telefaks va boshqalar qo'llaniladi..Axborot texnologiyasi insoniyat taraqqiyotining turli boskichlarida ham mavjud bo'lgan bulsa-da, xozirgi zamon axborotlashgan jamiyatining uziga xos xususiyati shundaki, tsivilizatsiya tarixida birinchi marta bilimlarga yerishish va ishlab chiqarishga sarflanadigan kuch yenergiya, xom ashyo, materiallar va moddiy iste'mol buyumlariga sarflanadigan xarajatlardan ustunlik kilmokda, ya'ni axborot texnologiyalari mavjud yangi texnologiyalar orasida etakchi urinni yegallamokda.Axborot texnologiyalari industriyasi majmuini kompyuter, aloqa tizimi, ma'lumotlar ombori, bilimlar ombori va u bilan boglik faoliyat soxalari tashkil kiladi.Bugungi kunda axborot texnologiyasini shartli ravishdasaqlovchi, ratsionallashtiruvchi, yaratuvchiturlarga ajratish mumkin.Birinchi turdagi texnologiyalar mexnatni, moddiy

resurslarni, vaqtni tejaydi. Ratsionallashtiruvchi axborot texnologiyalariga chiptalar buyurtma qilish, mexmonxona xisob-kitoblari tizimlari misol bo'ladi.YAratuvchi (ijodiy) axborot taxnologiyalari axborotni ishlab chiqaradigan, undan foydalanadigan va insonni tarkibiy kism sifatida uz ichiga oladigan tizimlardan iborat.Axborot texnologiyalarining xozirgi zamon taraqqiyoti hamda yutuqlari fan va inson faoliyatining barcha soxalarini axborotlashtirish zarurligini ko'rsatmokda.Jamiyatni axborotlashtirish deganda, axborotdan iqtisodni rivojlantirish, mamlakat fan-taxnika taraqqiyotini, jamiyatni demokratlashtirish va intellektuallashtirish jarayonlarini jadallashtirishni ta'minlaydigan jamiyat boyligi sifatidafoydalanish tushuniladi.Darxaqiqat, jamiyatni axborotlashtirish—inson xayotining barcha jabxalarida intellektual faoliyatning rolini oshirish bilan boglik ob'ektiv jarayon xisoblanadi.Jamiyatni axborotlashtirish respublikamiz xalqi turmush darajasining yaxshilanishiga, ijtimoiy yextiyojlarning kondirilishiga, iqtisodning usishi hamda fan-texnika tarakkiyotining jadallashishiga xizmat qiladi.Jamiyatni axborotlashtirish jarayonini 5 asosiy yunalishga ajratish mumkin:*.Mexnat, texnologik va ishlab chiqarish jarayoni vositalarini kompleks avtomatlashtirish.*.Ilmiy tadkikotlar, loyixalash va ishlab chiqarish axborotlashtirish.*.Tashkiliy- iktisodiy boshkarishni avtomatlashtirish.*.Axoliga xizmat ko'rsatish soxasini axborotlashtirish.*.Talim va kadrlar tayerlash jaraenini axborotlashtirish..Bilim olishda, ya'ni ma'lum turdagi axborotlarni uzlashtirishda kompyuter tizimining yordami benixoya kattadir.Axborot qanday ko'rinishda ifodalanishidan qat'i nazar, uni yigish, saqlash, kayta ishlash va foydalanishda kompyuter texnikasining rolini quyidagilar belgilaydi:Birinchidan, ukitishda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish standart (an'anaviy) tizimga nisbatan ukuv jarayonini jadallashtirib, talabada ilmga kizikishni oshiradi, ular ijodiy faoliyatini ustiradi, bilim berishga differentsial yondashish, olingan bilimlarni takrorlash, mustaxkamlash va nazorat qilishni engillashtiradi, talabani ukuv jarayonining sub'ektiga aylantiradi.Ikkinchidan, yangi axborot texnologiyalaridan ta'lim-tarbiya jarayonida quyidagi shakllardafoydalanish mumkin bo'ladi:·muayyan pedmetlarni ukitishda kompyuter darslari;·kompyuter darslari—kurgazmali material sifatida;·talabalarning guruxli va frontal ishlarini tashkillashtirishda;·talabalarning ilmiy izlanishlarini tashkillashtirishda;·talabalarning ukishdan bush vaktlarini to'g'ri tashkil qilish masalalarini xal yetishda va x.k.Mexnat samaradorligining bundan keyingi o'sishi va farafonlik darajasini ko'tarish. katta xajmdagi multimediya axborotini (matn,grafika, video tasvir, tovush, animatsiya) qabul qilish ishlashga yangi intellektual vositalar va inson mashina interfeyslardan foydalanish asosidagina yerishish mumkin.Informatikada mexnat unumdorligini oshirish suratlari etarli bo'lmasa, butun halq xo'jaligida samaradorligini o'sishi anchagina kamayib ro'y berishi mumkin.Xozirgi dunyodagi barcha ish joylarining 50 foizi ga yaqin axborotni qayta ishlash vositalari bilan ta'minlangan..Jamiyatni axborotlashtirish, yangi axborot texnalogiyalari bilan ta'minlash insonlarning turli – tuman ma'lumotlarga bo'lgan yehtiyojini qondirishda muxim o'rin tutadi.Inson axborot olami ichra yasharkan , voqeya xodisalar jarayonlarning bir – biriga aloqadorligini, o'zaro munosabatlari va mohiyatni tashkil yetish ,o'z xayotidan kelib chiqayotgan murakkab savollarga ilmiy javob topish maqsadida ko'pdan - ko'p dadil va raqamlarga murojat qiladi.Axborot tufayli nazariya amalyot bilan birikadi. Amaliyot nazariyasi nazariya yesa amalyotsiz mavjud ham bo'lmaydi,rivojlanmaydi ham.Zavodlarimizning asosiy maqsadi informatika vositalarining ahamiyati to'g'risida fikir yuritish yemas, balki jamiyatning axborotga bo'lgan yextiyojini qondirishdagi usul va vositalar to'g'risida tushunchaga yega bo'lishdir .Mazkur yehtiyoj doim mavjud bo'laveradi va biror -bir axborotli muxit doirasida qondiriladi. «Axborotli muxit» tushunchasiga xozirgi kunda ingformatika masalalarini o'rganishda muxim o'rin yegallaydi. Insoniyatni o'rab tturgan muxit o'z xizmatlariga ko'ra turlichadir – tabiy siyosiy, ijtimoiy, milliy va oylaviy ruxiy bo'lishi munkin.Aniqrog'i bular xar birimiz yash bir butun muxitninig tekisliklaridir.Mazkur tekisliklarining markazida axborotli muxit turadi va u barcha axborotli odimlarni boshqaradi: voqealikning moddiy axborotli muxitni boshqarish vositalari – yenergetik tamonlarini to'ldiradi, rivojlantiradi va bunda u turli ijtimoiy faktorlar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.Axborotli muxitning tabiyatni tushunishda axborotning bilimga aylanishini o'rganish katta ahamiyatga yega. Bir qarashda bir xildak

tuyiladi ammmo ular munosabatini chuqurroq o'rganishda axborotda bilimning kommunikativ «boshqa vositalar» o'rtasidagi bog'liqlik xususiyati borligini ko'ramiz.Jamiyatda odamlar o'rtasidagi aloqa faktori bo'limlar o'rtasidagi «ko'prik» - bu axborotdir.Demak ,bilimni «o'zi uchun» axborotga aylantirish mexanizii axborotli muxitini vujudga keltirishda aloxida o'rin yegallaydi.+adimda axborotli muxit juda qashshoq bo'lib,u tor doiradagi yeng kerak va chekli ma'lumotlar majmuasidan iborat yedi, bu xol odamlar orasidagi bog'liq doirasini ming yillabchegaralab keladi va odamning jamiyat axborotli muxitidagi xissani kamaytirib yuboradi.Bugungi kunda ijtimoiy turli ko'rinishdagi axborotlar majmuasi keng va rivojlangan bo'lib ,uning jamiyatda tutgan o'rni bexisobdir.Oxirgi davrda axborotli muxitda katta o'zgarishlar bo'lib bormoqda. Ana shu o'zgarishlar qog'ozsiz texnologiya zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu yesa o'z navbatida, YEXM ning yanada keng rivojlanishiga sabab bo'ladi. Axborotli muxitning kelajakda inson xayotida o'rni va ahamiyati, bugungi holatdan ancha yuqori bo'lishi uchun bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar qo'llamini kegaytirish talab yetiladi..Respublikamizda axborotlashtirish keng yo'lgaqo'yilishi bilan undagi xar bir fuqoroga keraklipaytda, kerakli miqdorda, kerakli sifatda olish imkoniyatlari ochilmoqda. Respublikamizdagi viloyatlar, shaxarlar, tumanlarga qarashli korxonalar, tashkilotlar va muassasalar zamonaviy kompyuter texnikalari bilan jixozlanib, ular maxsus qurilmalar (teleforin tarmog'i, modem va boshqalar) yordamida axborotlarni uzatish va qabul qilish imkoniyatiga yega bo'lmoqda. Insonning iqsodiy, yekologik, siyosiy va boshqasoxalarda fikirlash doirasining kengayishi axborotli muxitninig sifat va miqdor jixatdan o'zgari ,yangi xusiyatga yega bbo'lgan axborotli muxitning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.Demak axborotlashtirish vaqtinchalik tadbig' yemas, rivojlanishning zarur vositasidir va axborotli muxitning hozirgi rivojlanish darajajasidagi holatini informatikasiz qo'llab bo'lmaydi. Axbortllarni tez, sifatli yg'ish saqlash, qayta ishlash va uzatish kabi vazifalarni bajarishda hisoblash texnikasining xizmati beqiyos yekaniga ishonch hosil qilmoqda. Iqsodiyotning boshqarishdagi o'zgarishlar, bozor munossabatlarga o'tish buxgalteriya xisobini tashkil qilish va olib berishga katta ta'sir ko'rsatadi. Xisobning xalqaro tizimlarga o'tishi amalga oshirilmoqdabu uning uslubiyatini yangi shakillarini ishlab chiqarishni talab qilad. Buxgalteriya xisobining axborot tizimi va uning kompyuterda ishlab chiqarishning tashkil qilishning ananaviy shakillari katta o'zgarishlarga uchragan. Xisobchidan korxona moliyaviy holatining ob'ektiv baholarini bilish, moliyaviiy taxlil usullarini yegallash, qimmatli qog'ozlar bilan ishlashni bilish bozor jarayonlarida pul mablag'lar investitsiyalariniasoslash va boshqalar talab qilinadi.

Savol va topshiriqlar:

1.Yuqori malakali inson deganda kimni tushunasiz?

2. Kishidagi ma'daniy axloq qanday ko'rinadi?

Tayanch so`z va iboralar: rasmiy uslub, idoraviy, devonxona uslubi, leksik, grammatik xususiyatlari, a r i z a, ma'lumotnoma, tilning ikki vazifasi, tasviriy vositalar,ishonch qog'ozi,

GRAMATIKA: PUBLISISTIK USLUB VA UNING XUSUSIYATLARI (OMMABOP NUTQ)

Publitsistika (lot. *publika* — xalq, omma) davrning eng muhim, dolzarb masalalarini o'quvchilarga, tinglovchilarga, tomoshabinlarga gazeta-jurnal, radio, televideniye orqali yetkazish, ommani jonlantirish, kishilarning ongiga atrofda sodir bo'layotgan voqealarni singdirish, ularning ijtimoiy qarashlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Ommaviy axborot vositalarida (gazeta-jurnal, radio, televideniye), Oliy Majlis yig'inlarida,turli xil anjumanlarda qo'llaniladigan nutq uslubi publitsistik uslub sanaladi.

Publitsistik uslub ikki xil shaklda namoyon bo'ladi: 1) yozma shakl; 2) og'zaki shakl.

Ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan bosh maqolalar, felyeton va pamfletlar, murojaatnomalar, chaqiriqlar, deklaratsiyalar publitsistik uslubning yozma shakliga mansubdir. Radio va televideniyeda chiqayotgan siyosiy sharhlovchilar, notiqlarning nutqlari esa publitsistik uslubning og'zaki shaklidir.

Publitsistik uslubning o'ziga xos xususiyati shundaki, u muayyan ijtimoiy masalalarga faol munosabatda bo'lishlik, hozirjavoblik, ta'sirchanlik belgilariga ega. Bunday nutq uslubi ijtimoiy

masalalarga harakatchanliligi tufayli unda ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar ko‘proq qo‘llaniladi. Masalan, *isyon, irqchilik, qo‘poruvchilar, siyosiy tanglik, bitim* va boshqalar.

Publitsistika bir qancha janrlarga ega. Har qaysi janrning o‘zi, masalan, gazeta, radio, televideniyeda beriladigan reportajlar uslub va uslubiy vositalari hamda o‘zida berilayotgan reportaj, pamflet, felyeton kabi nutqiy vositalari jihatidan farqlanadi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan ularning hammasi bir umumiy belgi asosida publitsistik nutqning turli ko‘rinishlari sanaladi. U ham bo‘lsa, nutqning jamiyatga qaratilganidir.

Savol va topshiriqlar:

1. Publitsistik uslubning o‘ziga xos tomonlarini ayting.?
2. Qanday uslubga publitsistik uslub deyiladi?
3. Publitsistik uslubning qanday shakllari bor?

Topshiriq..Maktubni o‘qing, publitsistik uslubga xos bo‘lgan o‘rinlarni topib, ularni izohlang. Siz ham biron-bir asar qahramoniga shunday maktub yozishga harakat qilib ko‘ring.

TURSUNBOYGA AYTAR SO‘ZLARIM!

(Said Ahmadning «Ufq» romanidagi Tursunboyga maktub)

Qishloqning bir xonadonida «chiroq yoqildi», ya’ni Jannat xola va Ikromjon tog‘a o‘g‘il ko‘rdilar. O‘g‘lining ismini Tursunboy deb atashdi. Samimiy odamlar xonadonida yoqilgan chiroq siz edingiz, Tursunboy!

Siz yoshligingizdan ishyoqmas, dangasa, qo‘rqoq bo‘lib o‘sdingiz. Qarang, katta yigit bo‘lib ham qolibsiz. Afsuslar bo‘lsinkim, Jahon urushi bo‘lib qoldi. Sizni ham urushga chaqirtirishdi. Ota-onangiz ko‘plar qatori yakka-yu yolg‘izini Vatan himoyasiga yubordilar. Ular: «O‘g‘limiz jang qilib, xalqimni ozod, yurtimni obod qiladi», deb orzulagan edilar. Ammo, ammo... Ota-ona orzusi osmonga havodek uchib ketdi. Orzulari og‘zida qoldi. Siz urush qiyinchiliklariga dosh berolmay qochib ketdingiz, so‘ngra qishloqning chetida, to‘qayzorlar orasida berkinib yurdingiz. Buni onangizdan boshqa hech kim bilmas edi. Bechora Jannat xola... Har kuni o‘y-xayoli, hayoti to‘qayzorda bo‘lib qoldi. Otangizdan berkitib ovqat olib kelar edi. Buni o‘zgalar bilib qolishidan juda-juda qo‘rqar edi.

Sizga maktub bitmoqdaman-u, xayolimga quyidagi misralar kelaveradi. Jannat xola zorlanayotganga o‘xshaydi nazarimda:

Chakka o‘tgan eski tomga o‘xshayman,
Ko‘zimdan yomg‘irlar to‘kilar tinmay.
Bu yorug‘ dunyoda bormi, bilmayman,
O‘z o‘g‘lin yo‘liga intizor menday...

(M. Yusuf)

Kunlar o‘tdi... Onangiz xastalana boshladi, chunki uni vijdon azobi qiynar edi. Faqat sizni o‘ylar edi.

Kunlardan bir kuni Ona sizga og‘riyotganini aytdi, siz bu gapga parvo ham qilmadingiz, qo‘lidan ovqatni olib hayvonlarcha ovqat yeyar edingiz. Ha, siz faqat o‘zingizni, qorningizni o‘ylar edingiz.

Siz to‘qayzordasiz... Ana shunday kunlarning birida ko‘chadan tobut ko‘tarib, yig‘i bilan mahalla-ko‘yingiz, qarindosh-urug‘laringiz, padaringiz Ikromjon ota o‘tib borar edi. Yuragingiz sezdi, tobut ichidagi sizning mushfiqqina onangiz Jannat xola edi. Yuragingizni g‘am-alam bosdi, chunki shunda Siz: «Endi menga kim ovqat olib keladi», deya alam chekdingiz. O‘shanda ham o‘zingizni o‘yladingiz. Onayizorga ozgina bo‘lsa ham achinmadingiz-a?!

Nahotki, onangizni tuproqqa qo‘yib kelishga ham yaramagan bo‘lsangaz? Yo‘q! Sizni odam bolasi, deya olmayman.

Tursunboy! Bir umr vijdon azobida qiynalishingizni xayolingizga keltirdingizmi? Shu payt sizni haqoratlagim keldi. Yo‘q! Yo‘q! Unday demayman, chunki har bir qilayotgan ishimizning oxiratda javobi bor-ku axir?! Sizni yuraksiz, dilsiz, zabonsiz, bir quriyotgan daraxtga qiyoslayman, xolos

Mustaqil ish mavzusi: O’zbek donishmandlarinig hikmatli so’zlari
Adabiyotlar:AA1,QA1,4,6

MAVZU: QON KETGANDA BIRINCHI YORDAM. MUHOBASA TURLARI.
Reja:
1.Qon ketganda birinchi yordam.
2.Birinchi yordam ko`rsatish
3.Munosabat turlari

Agar qon kapillyarlardan ketib, k esilgan yo tirnalgan joy c h u q u r b o ’lmasa, o’sha yerga brilliant zelenkasi yo y o d eritmasi surtiladi. So’ng b in t bilan b o g’ la b q o ‘yiladi.

1.Agar qon vena yoki arteriyadan ketay o tg an b o ’lsa, qon ketayotgan nuqta siqiladi. Agar qo’l yoki oyoqdan q o n ketsa, zararlangan q o ‘l-o y o q q a bog'ich bog'lanadi. Bog'ich sifatida qayish, arqon va o'ralgan sochiqni ham ishlatish mumkin. Chilvir puls y o ‘q o lg u n ch a tortiladi, chunki y ctarlicha tortilmasa qon ketishi k o ‘payadi. Qattiq tortilsa paralich boshlanadi.Jgut tagiga doka, paxta. sochiq qo‘yiladi. Uni kiyim ustidan h a m , qo'yish mumkin. Shuni esda tutish kerakki. b o g ‘ichni 2 soaldan ortiq q o ld irib bo’lmaydi. Shunda ham har yarim soatda b o’ sh atib turadi.

Qulayroq b o g 'lash uchun arqon yo qayish tugun qilib bog'lanadi, o 'rtasiga tayoq tiqiladi, tay o q aylantirilgan sayin b o g ‘ich kuchliroq siqiladi.A gar kesilgan jo y u ncha chuqur b o lm a y , qon ketishi ko‘p b o lm asa, q o ‘l yoki oyoqni yuqoriga k o ‘tarib, bosib turuvchi bogMam q o 'y ish bilan qon to’x tati)adi.Burundan qon kctg an d a esa bemormi 0 ‘tqazib, kiyim qon bo'lmasligi uchun bumi tagiga p ax ta yoki r o ‘mol q o 'y ish zarur. S o 'n g burun tepasiga sovuq kompress q o 'y iladi. Shikastlanish tufayli lish sinib tushganida o g 'iz b o ‘sh lig ‘ini aslo sovuq su v g a chayish yaram aydi, chunki bu holatda qon ketishi kuchayadi. Bint yo paxtani dumaloq vak shak lig a keltirib tish o 'm ig a q o 'y iladi va tishlar siqiladi

Mustaqil ish mavzulari:
Adabiyotlar:.AA 5,QA 7,9,21

MAVZU: MEN SEVGAN ASAR.BADIIY USLUB VA XUSUSIYATLARI
Reja:
1. Kitob mutoalasi haqida
2. Eng sevimli asarlarimda men sevgan qahramonlar
3. Badiiy uslubning o’ziga xos xususiyatlari

Kitoblar olami

Kitob haqida har qancha gapirish, uning sifatlarini soatlab maqtash mumkin. Sababi, eng yaqin do’st, eng zarur hamroh bo’lgan kitob, insoniyat kashf etgan ixtirolarning eng buyugi va eng qadrlisi, zamonlar o’tsada, o’z o’rnini hech nimaga bo’shatib bermagan mo’jizadir. Donolar kitob, kitobxonlik haqida fikr bildirar ekan, adabiyotlar bilan oshno qalbga hech qachon yomonlik in qurmasligini ta'kidlashadi. Ayniqsa, bolaligidanoq kitobga mexr qo’ygan insonlarning jamiyatda o’z o’rni, odamlar orasida obro’ etibori aloxida bo’ladi.

Doimo kitob va kitobxonlik haqida so’z ketar ekan, kitob o’qishni ham o’rgatish, bolalarni badiiy adabiyot bilan oshno qilishda qandaydir usullardan foydalanish kerakmi yoki yo’q, degan savollar kun tartibiga chiqaveradi. Ko’pchilik, kitob o’qishni o’rgatmasa ham bo’ladi, u kishining o’ziga bog’liq. Agar kimningdir kitobga mehri baland ekan bu o’z-o’zidan

shakllangan odat, deydi. Bugun bolasining kitob o’qimasligidan, televizoru telefondan bo’shamasligidan noliyotgan ota-onalarning o’zlari kitob o’qirmikan, bolalariga har kuni bo’lmasada oyda, yilda bir marta kitob sovg’a qilarmikan?

Xalqda «qush uyasida ko’rganini qiladi» degan gap bor. Demak, ota-ona kitobxon bo’lsa, bola ham ulardan o’rnak oladi.

— Har bir ota-ona farzandining kelajagiga mas'ul ekan, uni moddiy jihatdan to’la ta'minlash bilan birga, ma'naviy olamini boyitadigan, aqlini peshlaydigan, dunyoqarashini kengaytiradigan jihatlarga ham e'tibor qaratishlari lozim. Agar uyda ota-onaning o’zi kitobxon, kitob o’qishni sevuvchi, uyga kitob ko’tarib keluvchi bo’lsa, bu odat bolada ham asta-sekin shakllana boradi,

Bir bola sinfdagi eng past o’zlashtiruvchi o’quvchi edi. Kutubxonaga o’quv yili boshidayoq a'zo bo’lardiyu, shu bo’yi biror kitob olib o’qimas, tadbirlardaku, umuman qatnashmasdi. Bir kuni darsdan so’ng u bilan birga ketdim. Suqbat jarayonida shu narsa ma'lum bo’ldiki, uning ota-onasi xorijga ishga ketgan, buvisi bilan yasharkan. Buvisi esa, tabiiyki, qornini to’q, ustini but qilib, nazoratsiz oldirmayapman, shuning o’zi kifoya, deb o’ylarkan...

Kitob o’qish yaxshi, lekin eng muhim narsa qanday kitobni o’qishdir. Bu haqda adib Asqad Muxtorning shunday fikrlari bor: «O’qishlar har xil bo’ladi. Birov ermak uchun o’qiydi, birov hordiq chiqarish uchun; birov o’qiyotgan kitobini ilmiy tahlil qilish uchun, ya'ni «burch yuzasidan». Birov bo’lak mashg’ulot bo’lmaganidan, vaqt , o’tkazish uchun, birov nimanidir bilib olish uchun, birov asardagi voqeaga, qahramonning taqdiriga qiziqib o’qiydi». Hamma gap qanday kitobni, nima uchun o’qishda.Ha, odamzodning yaxshi yashashi uchun zarur bo’ladigan, uning ongu tafakkurini o’stiradigan kitoblarni o’qish lozimligi haqida ko’p gapiramiz. Kitobxonlikni bolalikdanoq shakllantirish uchun nimalarga ahamiyat berish kerak, degan savolga poytaxtimizdagi 248-maktabning boshlang’ich sinf o’qituvchisi Norxon Hamdamalieva shunday javob beradi:

— Boshlang’ich sinfdanoq bolalarni o’qishga qiziqtirish uchun turli usullarni qo’llaymiz. Ular bilan ertaklar o’qiymiz, eng muhimi, ota-onalar bilan suhbatlarda ham bolalarning kitobga bo’lgan mehrini oshirish borasida gaplashamiz. Ayrim ota-onalar farzandining moddiy ahvolini yaxshilash bilan birga ma'naviy dunyosini ham boyitib borish kerakligini ko’p ham anglab yetmaydilar. Kitobni sevish, uni ardoqlash kerakligi haqidagi nasihatlarimizdan so’ng bolalarning o’zi kutubxonaga serqatnov bo’lib qoladi. Bolani kitobxonlikka o’rgatish uchun har bir ta'til oldidan ularga o’qishlari uchun kamida besh-oltita adabiyotlar ro’yxatini beraman. Yozgi ta'tilga chiqayotgan bolalar uchun 15—20ta kitob o’qish kerakligini aytaman. Ular kitob o’qish «mazasi»ni tushunib qolgach, keyinchalik bu mashg’ulot odatga, so’ng ehtiyojga aylanadi. Ko’pincha sobiq o’quvchilarimni ko’rib qolsam, ular «Ustoz, yaxshiyam o’shanda falon kitobni o’qitgan ekansiz, mana bugun farzandlarim ham o’sha kitobni o’qiyapti, bu kitobni o’qiganmisiz, dadajon, oyijon deganda, uyalib qolmayapman», deya minnatdorlik bildirishadi. O’quvchilar bilan o’tkazadigan tadbirlar davomida ular kitob bilim manbai ekanligini kitobsevarlikning hikmatini o’rganadilar. Tadbirga tayyorlanish davomida ertaklardan parchalar sahnalashtiradilar, hikmatli so’zlarni yodlaydilar, shuningdek, kitob haqidagi she'rlarni aytadilar. Ertak, fantastik, badiiy, ilmiy-ommabop, ilmiy-texnikaviy kitoblar borligini bilib oladilar. Sinf kutubxonasi tashkil etganmiz. Unda o’zbek va boshqa xalqlarning ertaklari, X.To’xtaboev, A.Obidjon, T.Adashbo-ev, Janni Rodari, X.Andersenning kitoblari o’rin olgan.

Oilada kitobxonlikni an'anaga aylantirish uchun nima qilish kerak, degan savolga javob olish uchun sevimli adibimiz Asqad Muxtorning o’g’li Temur Muxtorovning xotiralari bilan qiziqdik: — Dadam tunlari ishlashga odatlangan edi. Kechki taomdan so’ng biroz dam olardilar, keyin meni, ukam Eldorni uyquga kuzatardilar. U kishi shunchaki «Bor uxla» demasdilar, balki bizga biror-bir kitobni o’qib berardilar. Bu har kuni takrorlanardi. Dadam o’qib bergan asarlar hanuzgacha xotiramda saqlanib qolgan.

Dadam qomusiy bilimga ega ziyoli edi. Bugun yoshim ulg’aygan bo’lsa ham, hamon dadamning bilim doirasini, tafakkur ko’lamini kengaytirish uchun bir umr o’z ustida tinmay ishlaganlari hayratga soladi. Umrining oxirida «Eynshteyn hayoti», «Gyote bilan mubohasalar»,

«Dostoevskiyning so’nggi yili», ««B.Pasternak (biografiyasiga oid materiallar)» kabi kitoblarni o’qib chiqqanlar. U kishining kitobxonligi bizga ham o’tgan.

Yurtboshimiz o’zining «Yuksak ma'naviyat — engilmas kuch» asarida «Xar qaysi millatning o’ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o’rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg’ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag’rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar — yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir», deya ta'kidlaydi.

— Oylik maosh olinganda xarajatlar uchun pul taqsimlanadi. Oziq-ovqat, kiyim-kechak uchun sarflanadigan pullar doimo reja asosida ishlatiladi. Oilada bolalarning kitobga bo’lgan qiziqishini shakllantirish, uni rivojlantirish uchun ota-ona bolalarni kitob do’koniga olib borishi va bola o’yinchoq yoki kiyim tanlagandek, o’zi kitob tanlashi kerak. To’g’ri, ba'zida bolajonlar yorqin rangli rasmlari bor, ota-onaga yoqmaydigan kitoblarni tanlashi mumkin. Xar safar kitob tanlay bilishga odatlangan bola keyinchalik qanday kitobni olib o’qish kerakligiyu, qaysi bir kitobni olmasa ham bo’laverishini o’zi tushunib yetadi. Agar har bir ota-ona bir yoki ikki yil davomida vaqti-vaqti bilan yuqoridagi vazifani odatga aylantirib olsa, bolada kitobga mehr uyg’onadi.

Xulosa qilib aytganda, har bir yaxshi odat va an'anani shakllantirish va mustahkamlashda ota-onaning ibrati eng yaxshi tarbiya usulidir.

Badiiy asarlarni ko‘p o‘qigansiz. Har bir tilning butun imkoniyatlari, bor boyligi, jozibasi badiiy asarlar orqali namoyon bo‘ladi.

GRAMATIKA: Badiiy uslub haqida ma’lumot

Badiiy asarlarning bayon qilish uslubi badiiy uslub hisoblanadi.

Badiiy uslubning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda adabiy tilning barcha imkoniyatlarini o‘z ichiga olish bilan birga, o‘zbek shevalariga, kasb-hunarga doir leksik birliklar, bugungi kundalik iste’moldan chiqib ketgan tarixiy so‘zlar ham personajlar nutqi orqali ishlatila beradi.

Badiiy uslub o‘quvchida estetik zavq uyg‘otadi. Demak, badiiy uslub orqali ro‘yobga chiqqan nutq ma’lum voqea-hodisa haqida axborot berish (kommunikativ vazifani bajarish)dan tashqari, o‘quvchiga ta’sir qilish (ekspressiv) vazifasini ham bajaradi.

Badiiy uslub uchun obrazlilik, tasviriy ifoda vositalariga boylik xosdir.

Badiiy uslubdan boshqa barcha uslublar ijtimoiy hayotning ma’lum sohasi doirasida chegaralangandir. Badiiy uslub, ulardan farqli ravishda, inson amaliy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi. Shuning uchun unda ilmiy uslubning ham, publitsistik uslubning ham, so‘zlashuv uslubining ham, rasmiy uslubning ham elementlari namoyon bo‘laveradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Badiiy uslub deganda qanday uslubni tushunasiz?
2. Badiiy uslubning o‘ziga xos jihatlarini bayon qiling.

Mustaqil ish mavzulari: O’zbek klassik yozuvchilarining hikmatli so’zlari.

Adabiyotlar:AA2,3,QA6,21,27,

MAVZU: Farzandlarning ota-ona va Vatan oldidagi burch va vazifalari. Badiiy essening o’ziga xos xususiyati. Badiiy esse yozish.

REJA:

1.Ota –onamiz oldidagi burch va ma’suliyatlarimiz.

2. Vatan oldida barchamiz ma’sulmiz.

3.Badiiy esse yozish qoidalari.

Xalqim izda kattalarga, ayniqsa, ota-onalarga hurmat k o 'rsatish azaliy odatdir.O qil va dono farzand ota-onasining haqlarini bekamu k o 's t bajaradi. Ularni hurmatlashda kamchilik k o ‘rsatmaydi, nomini yaxshilik bilan tilga oladi. 0 ‘z farzandi unga nisbatan qanday bo‘lishini istasa, u ham ota-onansiga shunday muomalada bo'ladi.O ta-o n a farzandini tarbiya qiladi, o'stiradi, shu y o 'ld a ancha m ashaqqat chekadi, unga hech vaqt yomonlikni ravo ko‘rmaydi, baxtli, saodatli b o lis h in i tilaydi. Shunday ekan, har bir farzand bu muhtaram zotlarning izzat- hurmatlarini bajo keltirishga g ‘ayrat qilishi kerak. Ulaming dillarini og’ritmaslik ochiq yuzli, shirin so 'zli b o’ ilis h . doimo hollaridan habardor bo’lish. h ech vaqt muhtojlikda qoldirm aslik. har jihatdan ularni o ‘zlaridan rozi qilib. duolarini olishga harakat qilish kerak.O ta-onaning farzand oldidagi burchlari b o ’lgani kabi tarzandlarning Ham ota-o n a oldidagi burchlari mavjud. Bular quydagilar:

1. Chaqirganda labbay deb jav o b bermoq.
2. Gunohdan boshqa ishlarga buyursa itoat etmoq.
3. Ota-ona bilan yumshoq muomalada gaplashmoq.
6. Ota-onani, qodir b o 'lsa, libos bilan ta'm inlam oq.
7. Ota-onaning orqasida yurmoq.
8. 0 ‘zi rozi b o 'ladigan narsani ota-onasiga ham ravo k o ‘rmoq.
9. 0 ‘zi yomon k o ‘rgan narsani ota-onaga ravo k o ‘rm aslik.
10. Doimo o ‘zi uchun duo qilganda, ota-onani ham duo qilm oq.

L u g ‘at

oqil – умный
bekamu-ko‘st - безупречный
muomala - обращение,
отношениет ashaqqat - мучение
izzat -уважение
m u h to jlik – нужда

GRAMATIKA: BADIIY NUTQ USLUBI ,UNING XUSUSIYATLARI

Badiiy asarlarni ko‘p o‘qigansiz. Har bir tilning butun imkoniyatlari, bor boyligi, jozibasi badiiy asarlar orqali namoyon bo‘ladi.

Badiiy asarlarning bayon qilish uslubi badiiy uslub hisoblanadi.

Badiiy uslubning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda adabiy tilning barcha imkoniyatlarini o‘z ichiga olish bilan birga, o‘zbek shevalariga, kasb-hunarga doir leksik birliklar, bugungi kundalik iste’moldan chiqib ketgan tarixiy so‘zlar ham personajlar nutqi orqali ishlatila beradi.

Badiiy uslub o‘quvchida estetik zavq uyg‘otadi. Demak, badiiy uslub orqali ro‘yobga chiqqan nutq ma’lum voqea-hodisa haqida axborot berish (kommunikativ vazifani bajarish)dan tashqari, o‘quvchiga ta’sir qilish (ekspressiv) vazifasini ham bajaradi.

Badiiy uslub uchun obrazlilik, tasviriy ifoda vositalariga boylik xosdir.

Badiiy uslubdan boshqa barcha uslublar ijtimoiy hayotning ma’lum sohasi doirasida chegaralangandir. Badiiy uslub, ulardan farqli ravishda, inson amaliy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi. Shuning uchun unda ilmiy uslubning ham, publitsistik uslubning ham, so‘zlashuv uslubining ham, rasmiy uslubning ham elementlari namoyon bo‘laveradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Badiiy uslub deganda qanday uslubni tushunasiz?
2. Badiiy uslubning o‘ziga xos jihatlarini bayon qiling.

Topshiriq.. A. Qahhorning «O‘jar» hikoyasidan olingan parchani o‘qing. Badiiy uslubning o‘ziga xos xususiyatlari haqida gapiring.

— Hozir, hozir! — dedi, — Suyar! Ho, Suyar! Bu yoqqa chiq, o‘g‘lim! E, yotganmiding! Mayli bu yoqqa o‘tir. Bizga bir narsani hal qilib ber: Saltikov katta yozuvchimi, Shedrin katta yozuvchimi?

Suyar goh otasiga, goh Zargarovga qarar va hayron edi.

— Yo‘q, Siz savolni noto‘g‘ri qo‘ydingiz, — dedi Zargarov.

— Bunday: Saltikov ilgari o‘lganmi, Shedrin?

— Ikkovi bitta odam-ku! — dedi Suyar, nima ekanini bilolmay. Zargarov qiyqirib kuldi, chapak chaldi va bunga ham qanoat qilmay o‘rnidan turib o‘yinga tushdi. Qutbiddinov do‘q urdi:

— Saltikov bilan Shedrin-a? Kim aytdi senga?

— O‘zim bilaman, kitobda bor.

— Kitobda bor? Shaxmatni ko‘proq o‘yna, itvachcha!

Qutbiddinov bola bechorani ko‘p urishdi... Suyar yig‘lab yubordi...

Anchadan keyin Suyar kattakon bir kitob ko‘tarib chiqdi.

— Mana, — dedi portretni ko‘rsatib, — mana, Saltikov-Shedrin!

Topshiriq. Chistonlarni o‘qing, ular asosida she’riy asarlarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuriting. Yana qanday she’riy janrlarni bilasiz. Misollar keltiring.

U nima, og‘zi bor ammo tishi yo‘q,
Og‘ziga ne tushsa qiyar, ishi yo‘q.
Barmoqni tekkizar bo‘lsang og‘ziga,
Changalin soladi, hech qo‘rqishi yo‘q.
Katta tuya — dumi yo‘q,
Ovqat uchun g‘ami yo‘q.
Daryodan suv ichadi,
Odamga rizq sochadi.

U nadirkim doimo davron kezar,
Barcha olam ichra sargardon kezar,
Yo‘q qarori, bir umr g‘ayratdadir,
Elga rizq bermoq uchun hikmatdadir.
(A. So‘fiyev)

Topshiriq. Mahmudxo‘ja Behbudiyning «Padarkush» dramasidan olingan parchani o‘qing. Dramatik janrning o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr bildiring.

D o m l a: — Shariat ilmi va zaruriyati diniya bilmoq uchun boyvachchani o‘qutmak, albatga, sizga lozimdur.

B o y: — Shariat ilmini o‘qutmakni lozim bilmayman, chunki ani mufti yo imom va muazzin qilmoqchi emasman. Azbaski, davlatim anga yetar.

D o m l a: — Zaruroti diniyaga na dersiz?

B o y: — Men o‘zum besh vaqt nomozni keraklik duolari ila bilurman. O‘zum o‘rgaturman.

D o m l a: — Xat va savodga na dersiz? Holbuki, savodi yo‘q odam hech nimaga yaramaydur.

B o y: — Bu fikringiz g‘alat, chunki meni savodim yo‘q, bovujud shul shahrimizni katta boylaridandurman va har ishni bilurman.

D o m l a: — Siz ilgari zamonda bir nav’i ila boy bo‘lubsiz, ammo endi boy bo‘lmoq nari tursun, faqat ro‘zg‘or o‘tkarmak uchun ilm kerak...

*Topshiriq.*She’rni o‘qing, uslubiy xossalarini aniqlang. Badiiy uslubning o‘ziga xos xususiyatlarini toping.

BOBUR DARDI

Boshlab keldi bu yoqlarga oyoqlarim,
Qaytib ona tuprog‘imga ketolmadim.
Farg‘onada qolmish do‘st-u o‘rtoqlarim,
Qaytib ular visoliga yetolmadim,
Amudaryo, suvlaringdan o‘tolmadim...

Qorlar erir bu daryolar oqar toshib,
Ketgim kelar ona yurtga tog‘lar oshib,
Lekin dushman yo‘lim to‘sgay doim shoshib,
Ona diyor, visolingga yetolmayman,
Amudaryo, suvlaringdan o‘tolmayman...
Dushmanlarning qo‘li uzun zamon bo‘ldi,
Ona yurtim yov qo‘lida tamom bo‘ldi,
Tashlab chiqdim — bu ishim ko‘p yomon bo‘ldi,
Qaytib endi u yoqlarga yetolmayman,

Amudaryo, suvlaringdan o‘tolmayman.
Vafo qilmay jafo qildi do‘st-u yorim,
Hind — afg‘onga boshlab keldi nomus, orim,
Qaytmoq uchun garchi ko‘pdir ixtiyorim,
Lekin ortga qaytolmayman, ketolmayman,
Amudaryo suvlaringdan o‘tolmayman...

(Abdulhay Sobirov)

Topshiriq-Vazifa. O‘qing, matnning qaysi uslubga xos ekanligini ayting.

1. Qorda ko‘milgan izni dadam ko‘ribdi shekilli, kechqurun oyimdan so‘radi:
— Kimga ko‘mir berding?
Oyim aybdor qiyofada yerga qarab turdi-da, rostini aytdi.
— Habiba buvi shamollab qopti. Ko‘miri yo‘q ekan, oborib berdim. Dadam oyimni urishmadi. (*O‘. Hoshimov*)

2. Ona tili hayotning qon tomiridir. Ona tiliga beparvo bo‘lgan xalq halokatga mahkum. Diniga, ma’rifatiga, xulq-atvoriga, kiyim-kechagiga va hayot tarziga ko‘ra o‘zaro qo‘p mushtaraklikka ega bo‘lgan Ovro‘pa xalqlari, shunga qaramay, har qaysisi o‘z ona tilini saqlab qola bilgan. Ular ona tillari uchun jonlarini ham, mollarini ham ayamaydilar, chunki biladilarki, tili yo‘q bo‘lsa, millat ham yo‘q bo‘lib ketadi. *(Ismoilbek G‘asprali)* -Topshiriq. Chistonlarni o‘qing, ular asosida she’riy asarlarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuriting. Yana qanday she’riy janrlarni bilasiz. Misollar keltiring.

U nima, og‘zi bor ammo tishi yo‘q,
Og‘ziga ne tushsa qiyar, ishi yo‘q.
Barmoqni tekkizar bo‘lsang og‘ziga,
Changalin soladi, hech qo‘rqishi yo‘q.
Katta tuya — dumi yo‘q,
Ovqat uchun g‘ami yo‘q.
Daryodan suv ichadi,
Odamga rizq sochadi.
U nadirkim doimo davron kezar,
Barcha olam ichra sargardon kezar,
Yo‘q qarori, bir umr g‘ayratdadir,
Elga rizq bermoq uchun hikmatdadir.

2-Topshiriq. O‘qing, matnning qaysi uslubga xos ekanligini ayting.

1. Qorda ko‘milgan izni dadam ko‘ribdi shekilli, kechqurun oyimdan so‘radi:

— Kimga ko‘mir berding?

Oyim aybdor qiyofada yerga qarab turdi-da, rostini aytdi.

— Habiba buvi shamollab qopti. Ko‘miri yo‘q ekan, oborib berdim. Dadam oyimni urishmadi. (O‘. Hoshimov)

2. Ona tili hayotning qon tomiridir. Ona tiliga beparvo bo‘lgan xalq halokatga mahkum. Diniga, ma’rifatiga, xulq-atvoriga, kiyim-kechagiga va hayot tarziga ko‘ra o‘zaro qo‘p mushtaraklikka ega bo‘lgan Ovro‘pa xalqlari, shunga qaramay, har qaysisi o‘z ona tilini saqlab qola bilgan. Ular ona tillari uchun jonlarini ham, mollarini ham ayamaydilar, chunki biladilarki, tili yo‘q bo‘lsa, millat ham yo‘q bo‘lib ketadi.

Tayanch so`z va iboralar: Badiiy uslub , obrazlilik, tasviriy ifoda, vositalariga boylik, ‘rta miyona asarlar, Shariat ilmi, Zaruroti dini.

Mustaqil ish mavzulari:O’zbek xalq maqollari va ularning tarbiyaviy ahamiyati

Adabiyotlar:AA5,QA3,4,26

Mavzu: Organizmda moddalar almashinuvi. Ma`lumotnoma, ishonchnoma va bildirishnoma

Reja :

1.Ma`lumotnoma, ishonchnoma matnlari.

2. Bildirishnoma matnlarining o`ziga xos xususiyati.

3. Organizmda moddalar almashinuvi.

- **Bilib oling! Bildirishnoma.** Kimga yo’nalganiga qarab bildirishnoma ichki va tashqi turlarga ajratiladi.

Ichk ibildirishnoma o’z korxona rahbariga yoki bo’lim mudiriga yoziladi.Utoza qog’oz varag’iga qo’lda yoki mashinkada yozilishi mumkin. Bunday bildirishnomalar muallif tomonidan imzolanadi. Tashqi bildirishnoma, ya’ni muassasa rahbari tomonidan yuqori idoraga yoki mansabdor shaxsga yoziladigan bildirishnoma, odatda, xosish qog’ozga ikk nusxada yoziladi.Hujjatning ikkinchi nusxasi korxonaning o’zida qoldiriladi. Bunday bildirishnomalar korxona rahbari tomonidan imzolanadi.

Bildirishnoma tashabbus, axborot va hisobot xususiyatiga ega. Bu xususiyatlar hujjat matni sarlavhasidayoq o’z aksini topadi. Tashabbus bildirishnomasi matnida tegishli masala yuzasidan umumiy yoki aniq takliflar ilgari surilib, rahbarni ularni hal qilishga undaydi.Axborot bildirishnomasi, odatda, umumiy holati rahbarga ma’lum muayyan jarayon to’g’risida xabar beradi.Hisobot bildirishnomasi ma’lum bir ishning tugallanishi haqida yoki biron-bir ko’rsatma, tavsiya, rejaning ijrosi to’g’risida rahbarni xabardor qilishi kerak. Muayyan vazifa yoki majburiyatlarni bajarilishi haqidagi hisobot bildirishnomasi amaliyotda raport ham deyiladi. Aslida frantsuzcha bo’lib, bu tushuncha bizga “bildirgi” atamasi bilan ma’lum.

Bildirishnomaning zaruriy qismlari:

1.Bildirishnoma yo’llangan rahbarning lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari hamda jo’nalish kelishigidagi familiyasi.

2.Bildirishnoma tayyorlagan shaxsning lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari hamda jo’nalish kelishigidagi familiyasi.

3.Hujjat turining nomi (bildirishnoma).

4.Matn sarlavhasi.

5.Bildirishnoma matni (mazmuni).

6.Qancha varaqligi ko’rsatilgan ilovalar ro’yxati (agar ilova bor bo’lsa).

7.Bildirishnoma tayyorlovchi xodim yoki rahbarning imzosi (agar bir necha shaxs tomonidan tayyorlangan bo’lsa, u barcha mualliflar tomonidan imzolanadi).

8.Bildirishnoma taqdim etilgan sana (sana muallif yoki muassasa rahbari tomonidan bildirishnoma

Bildirishnoma matni asosan ikki qismdan iborat bo’lmog’i kerak. Birinchi qismda uning yozilishiga sabab bo’lgan dalillar, voqealar bayon qilinishi lozim. Ikkinchi qismida esa xulosalar va aniq harakatlar haqidagi takliflar aks etmog’i zarur. Mutaxassislarning fikricha, bunday harakatlar bayon qilingan voqealar munosabati bilan yuqori idora yoki mansabdor shaxs tomonidan qilinishi (boshlanishi) kerak.

6. Rasmiy ishonchnoma shakli

ISHONCHNOMA

Tashkilot, idoraning to'rtburchak muhri, ishonchnoma raqami va berilgan vaqti

Matn

Ishonchnoma berilayotgan shaxs lavozimi, to'liq nomi, narsalar olinadigan muassasa nomi, nimalar olinishi, ishonchnoma berilishi sababi;

Ishonchnoma (sana) gacha amal qiladi.

Oluvchining shaxsiyatini tasdiqlovchi hujjat nomi va belgilari

rahbar lavozimi (imzo) (ismi, familiyasi)

(muhr)

Agar bildirishnomada bayon qilinayotgan ma'lumotlar aniq bir vaqt oralig'iga taalluqli bo'lsa, xuddi malumotnomadagidek, ushbu vaqt matndan alohida zaruriy qism sifatida ajratilib, matn oldidan joylashtiriladi. Masalan "1999 yil 31 iyuldagi holatga ko'ra" yoki "2000 yilning 1 yanvaridan 1 sentyabrgacha bo'lgan davr uchun". Bu ma'lumotlarni matn sarlavhasiga qo'shib yuborish ham mumkin.

✓ **Oqsillarning umumiy tavsifi.** Tirik organizm tarkibiga kiruvchi organik moddalarning biologik va struktura jihatidan eng muhimi va eng murakkabi oqsillardir. Oqsillarning tarkibida azot tutuvchi yuqori molekulyar biologik polimerlar bo`lib, ular asosan 20 xil aminokislotalardan tashkil topgan. Oqsillar proteinlar va proteidlarga bo`linadi.

Protein – oddiy oqsillar;

Proteidlar – murakkab oqsillar.

Ular barcha tirik organizmlar, bir hujayrali suv o`simliklari va bakteriyalar, ko`p hujayrali hayvonlar hamda odam organizmi va tirik organizmlar bilan jonsiz tabiat chegarasida turuvchi viruslar tarkibining ajralmas qismini tashkil qiladi. Hujayrada yuz beradigan har qanday kimyoviy o`zgarishlar oqsillar ishtirokisiz amalgam oshmaydi, bu jarayonlarda oqsil yoki ferment bir vaqtda ishtirok etadi [1].


Tuxum oqiga o`xshash, tarkibida azot tutuvchi shu xildagi moddalar haqida golland olimi Mulder ( 1802-1880 ) muntazam ravishda tadqiqot olib borgan. O`sha davrning mashhur kimyogari Berselusning (1779-1848) taklifiga ko`ra, birinchi marta 1838 – yili bu moddalarga nisbatan protein (yunoncha protos – birinchi darajali ) nomi qo`llanilgan va bu atama inson hayoti uchun juda muhim ahamiyatga ega ekanligini ifodalaydi Oqsillar tuxum oqi nomidan kelib chiqqan soda atama. Oqsillar taxminan hayvon organizmining quruq moddasiga nisbatan olganda 15 % ni tashkil etadi, o`simliklarning yaproq va poyalarida 3-5 % , boshoqlilarda 10-25 % va dukkaklilarda esa 20-40 % , hattoki 50 % gacha quruq modda qismini tashkil etadi. Oqsillarning turlari nihoyatda ko`p bo`lib, masalan, odam organizmida 50000 dan ortiq oqsil turlari borligi aniqlangan bo`lsa, hozirgi vaqtda ularning 2000 dan ziyodi kashf qilingan va tajribadan o`tkazilgan. 1. Oddiy oqsillar –Proteinlar. Oddiy oqsillar hayvon va o`simlik olamida keng tarqalgan. Ularga albuminlar va globulinlar kiradi. Bu oqsillar amaliy jihatdan barcha hayvonot va o`simlik hujayralarida hamda biologik suyuqliklarda uchraydi va muhim funksiyalarni bajaradi.

2. Murakkab oqsillar — proteidlar.

Murakkab oqsillar oqsil va oqsilmas qismdan tashkil topadi, proteidlar nomi prostetik guruhning nomi bilan belgilanadi. Masalan, nuklein kislotalar nukleoproteidlarning oqsilmas qismidir, fosfat kislotaning mavjudligi fosfoproteidlarga nom berdi, uglevodlar glikoproteidlar tarkibiga kiradi. Nukleoproteidlar, xromoproteidlar, fosfoproteidlar, lipoproteidlar va glikoprpteidlar proteidlarning vakillari sanaladi.

Oqsillarni biologik funksiyalari

Glikoproteidlar murakkab oqsillar bo`lib, ularning prostetik guruhi uglevodlar (aminoqandlar ) xossalaridan iborat. Glikoproteidlar orasida fermentlar, gormonlar, va struktura oqsillari uchraydi. Glikoproteidlar – shilliq moddalar asosini tashkil qiladi, ular me’da-ichak yo`lida, jag` osti so`lak bezlarida ko`p bo`lad



1-topshiriq. Bildirishnoma yozing va uni yozilish tartibini tushuntiring!

2- topshiriq. Lug‘atni o`qing va yod oling

arbob -дятель
yaratgan -создавший
bastakor -композитор
atoqli- именитый
xalqashulalariasosida- на основе (по мотивам)
народных песен
yozib olishga kirishgan - взялся записывать
nashr eta boshlagan - начал публиковать
o‘qib yurganida- когда учился
mumtoz - классический

Mustaqilishtoshirig`i: E’lonyozilishmashqlari.
Foydalanilgan adabiyotlar: AA 1, 3 QA 12, 13, 32

Mavzu: IMMUNITET ARIZA TUSHUNTIRISH XATI

Reja:

1.Ariza matnlari.
2. Tushuntirish xati matnlarining o`ziga xosligi.
3.Immunitet nima?

- Muayyan muassasa yoki mansabdor shaxs nomiga biror iltimos, taklif yoki shikoyat mazmunida yoziladigan rasmiy hujjat. Ariza ijtimoiy hayotda eng ko’p qo’llaniladigan va keng tarqalgan ish qog’ozidir. Maktab o’quvchisi va talaba, ishchi va dehqon, muhandis va olim–jamiyatning barcha a'zosi ariza yozishdan holi emas.

Hajmi, uslubi va turidan qat'i nazar, ariza o’zining umumiy zaruriy qismlariga ega va ana shu qismlarning izchilligi asosida tuzildi.

1. Arizaning zaruriy qismlari:
2. Ariza yo’llangan muassasaning yoki mansabdor shaxsning nomi.
3. Ariza yozuvchining turar joyi, vazifasi, ismi, ota ismi va familiyasi.
4. Hujjatning nomi.
5. Asosiy matn (taklif, iltimos, shikoyat).
6. Arizaga ilova qilinadigan hujjatlar nomi (agar zarur deb topilsa).
7. Ariza yozuvchining imzosi, ismi va otasining ismi bosh harflari.
8. Ariza yozilgan vaqt (yil, kun va oy).

1-topshiriq. Namunaga qarab ariza yozing!

Urganch davlat universiteti rektori
A.Sa'dullaevga O’zbek filologiyasi
fakulteti o’qituvchisi S.Rahimov
tomonidan

A R I Z A

Meni universitetning o’qituvchisi lavozimidan o’z ixtiyorimga ko’ra ozod etishingizni so’rayman.

Rahimov S. 1998 yil 20 sentyabr.

- ✓ **Tushunirish xatlari** asosan xodim (ishchi, xizmatchi, jamoa xo‘jaligi a’zosi, talaba) tomonidan, ba’zan bo‘linmalar rahbarlari tomonidan muassasa rahbari nomiga yoziladi. Unda ish (o‘qish) jarayonida xodim (talaba) tomonidan sodir etilgan ba’zi hatti-harakatlar (masalan, ish yoki o‘qishga kech qolish, kelmay qolish, reja yoki ayrim topshiriqlarni bajarmaganlik, belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilmaganlik va boshqalar) va ularning sabablari izohlanadi, dalillanadi.

Tushunirish xatlari odatda mansabdor (rahbar) shaxsning talabi bilan yoziladi, chunki u keyinchalik xodim haqida muayyan qarorga kelish, unga nisbatan tegishli intizomiy jazo chorasini qo‘llash yoki, dalillar asosli (uzrli) bo‘lsa, qo‘llamaslik uchun asos vazifasini o‘tashi mumkin.

Tushuntirish xati xodim (talaba)ning o‘z dastxati bilan yozilib, yozuvchi shaxs nomi qaratqich kelishigida (masalan: N. Sobirovning tushuntirish xati) rasmiylashtiriladi. Matn mazmuni aniq va ixcham tuziladi, sana va dalillar aniq ko‘rsatiladi, yetarlicha izohlanadi, qo‘shimcha asoslov hujjatlari ilovada beriladi.

- ✓ Immunitet deb odam yoki hayvon organizmining patogen mikrobga yoki uning zaharli moddasiga chidamli bo`lib qolishiga va organizm patogen mikrobga duch kelganda kasal bo`lmasligiga aytiladi. Immunitetni tekshiruvchi fan immunologiya deyiladi. Immunitetning hosil bo`lishi juda murakkab hodisa bo`lib, u bugun organizmning qatnashishi bilan vujudga keladi. Immunitetning hosil bo`lishida markaziy nerv sistemasining roli juda katta.

Organizmni turli natogen mikroblardan qo`riqlab turishda, ya`ni organizmining Immunitetli bo`lishiga asosan organizmning anatomik va fiziologik xususiyatlari sababchidir.Odamning terisi,shilliq pardalar,limfatik bezlar,oshqozondagi NSI,jigarda hosil bo`ladigan o`t va boshqalar organizmni miqdordan saqlovchi vosita sifatida xizmat qiladi.Organizmda Immunitetning hosil bo`lishiga tashqi muhiit ham tasir qiladi.Masalan,organizmning qizishi,

juda sovushi va kuchsizlanishi ham organizmdakasalikkaqarshi chidamli moddalarning ishlab chiqarilishini pasaytiradi.Organizmning buday bo`lishiga molning tuyimli oziq bilan boqilmasdan,em-xashakda A va S vitaminlari va Sa va R tuzlarining etarli bo`lmasligi ham sabab bo`ladi. Immunitetning vujudga kelishiga qarab tabiiy va suniy bo`ladi. Tabiiy vasuniy immunitet ham har xil formada va ko`rinishida bo`lishi mumkin.

1) Tabiiy- tug`ma immunitet.Bu immunitet organizmning anatomik va fiziologik xususiyatlaridek nasildan- nasilga o`tadigan xususiyat bo`lib,u hayvon va odamda ham bo`ladi,hayvonlar esa bu kasalliklarga immunitetlidirlar.Shuning uchun hayvonda bo`ladigan bo`nday immunitet tabiiy tug`ma immunitet deyiladi.Xuddi shunga o`xshash odamda ham ayrim kasalliklarga nisbatan tabiiy tug`ma immunitet bo`lishi mumkin. Masalan,cho`chqalarda bo`ladigan toun (chuma) kasalligini virusi odamga o`tsa ham odam kasal bo`lmaydi. Odam bu kasalliklarga nisbatan immunitetlidir. Tabiiy – tug`ma immunitet hosil bo`lish sababi har xildir. Masalan, Mechnikov qoqshol kasalligini hosil qiluvchi mikrobning toksini yani zaharining katta dozasini kaltakesak va toshbaqaning terisi ostidan yuborib,bu toksin ularoga hech tasir etmaganini,ular bu toksinga immunitetli ekanligini aniqladi.

Tabiiy tug`ma immunitetning paydo bo`lishining boshqa sababi ham bor. Buni L. Pasterning tajribasidan bilish mumkin. L. Paster qurbaqaning ko`ydirgi kasalligiga immunitetli bo`lishini tekshirib, baqaningtana temperaturasining past bo`lishi va bo`nday temperaturada kuydirgi kasalligining mikrobi ko`payib yashay olmasligini aniqladi. Agar qurbaqaning tana temperaturasini suniy ravishda 36-37o ga etkazib, keyin unga kuydirgi kasalligini qo`zg`atuvchi mikrobni yuqtirilganda qurbaqa ham kuydirgi kasali bilan kasallanishini aniqladi. Shu bilan L. Paster tovuqning qo`ydirgi kasalligiga immunitetligini tekshirib, uning sababini aniqladi. Agarda tovuqning tana temperaturasi sun`iy ravishda pasaytirilib, keyin kuydirgi kasalining mikrobi yuqtirilsa, bunday sharoitda tovuq ham kuydirgi kasali bilan kasallanishini aniqladi.

Demak, qurbaqa bilan tovuqning kuydirgi kasalligiga immunitetli bo`lishi, ularning tana tempuraturasining mikrob uchun noqulay bo`lishidir.

Hayot davomida orttirilgan yoki spesifik immunitet: orttirilgan immunitetning xususiyati shuki, kasallikni qaysi mikrob qo`zg`agan bo`lsa organizmda o`sha mikrobga qarshi maxsus immunitet modda hosil bo`ladi va kelajakda organizmning faqat shu kasallikka nisbatan immunitetli bo`lishiga xizmat qiladi. Ana shu xususiyati uchun bu immunitetni spesifik immunitet ham deyiladi.

Orttirilgan immunitetning tabiiy tug`ma immunitetdan farqi shuki, orttirilgan immunitet nasldan-naslga o`tmaydi. Bu immunitetni hayvon va odamlar o`z hayot faoliyati jarayonida hosil qiladilar. Orttirilgan immunitet uzoq muddat davom etadi va ayrim kasalliklardan so`ng umrbod saqlanadi. Orttirilgan immunitet paydo bo`lishi natijasida odamlar qizamiq, ko`kyo`tal, qorin tifi, skarlatini kabi kasalliklar bilan bir marta kasallanib, sog`aygandan keyin, 2- chi marta bu kasallik bilan umuman og`rimaydi.

Sun`iy immunitet va uning turlari: sun`iy immunitetni hosil qilish uchun 2 xil usuldan foydalaniladi. 1) Ba`zi yuqumli kasalliklarga qarshi sun`iy immunitet hosil qilishda organizmga tayyor immun moddali qon zardobi yuboriladi.Masalan, yadador bo`lganlarni tetanus va gazli gangerina kasalligidan saqlash uchun ularga anfitoksinli zardob yuboriladi.

Bunday immunitetni sun`iy passiv immunitet ham deyiladi. Bunday immunitet organizmga immunli zardob yuborilgandan so`ng 12-20 soat o`tgach hosil bo`ladi va u uzoq saqlanmaydi, 20-25 kun saqlanadi. Shunday bo`lsa ham kasallikning oldini olish uchun ishonchli usul hisoblanadi va keng qo`llaniladi. Sun`iy immunitetning ikkinchi usuli: bunda organizmga vaksina yuboriladi. Vaksina bilan suniy immunitet hosil qilishni vaksinasiya yoki emlash deyiladi. Vaksina deb o`ldirilgan yoki tirik, lekin kuchsizlantirilgan mikrobdan iborat biologik moddaga aytiladi. Vaksina bakteriologik institutlarning maxsus laboratoriyalarida tayyorlandi. Vaksina olish uchun mikrob quyuq yoki suyuq ovqatda o`stiriladi. Organizmga vaksina yuborib sun`iy immunitet hosil qilish kuchli va uzoq vaqt davom etadi. Masalan buzoqlarning parativ kasalligiga qarshi vaksina olti oylik kuydirgi kasalligiga qarshi vaksina bir yillik immunitet hosil qiladi.

Ilgari vaqtlarda chechakka qarshi vaksina qilishni Xitoyliklar keyinroq Kavkazlilar qo`llagan. 1744-1745 yillarda rus vrachi Danilo Samoylovich tovun kasaligiga qarshi vaksina qo`llaydi. 1796 yilda ingliz vrachi Eduard Djenner chechakka qarshi vaksina tayyorlab, bu kasallikning olishni topdi. Hozirgi vaqtda vaksina yordamida qutirish, chechak, tifi, paratif, vabo, tovun, brusellyoz, sil, qorason, saramas va boshqa kasalliklar davolanmoqda. Vaksinasiya organizmni ko`p kasalliklarga qarshi immunitetli qiladi. Ya`ni kasallikni oldini oladi va uni yuqotadi. Bu usul ishonchli va fanga asoslangan usuldir.

Shunday qilib, Mechnikov nazariyasiga ko`ra, organizmning turli mikroblardan qo`riqlanib immunitetli bo`lishi uchun teri, shilliqli pardalar, organizmdagi suyuqliklar, fagositoz hamda gumoral omillar ham mikrobga qarshi kurashar ekan. Organizm kasal davrida fagositoz va gumoral omillarning boshqarilishi markaziy nerv sistemasining ishtirokida vujudga keladi. Chunki markaziy nerv sistemasi organizmning yashash jarayonini normal yo`lga soluvchi organdir. Yuqumli kasallik uzoq davom etsa fagositoz ham bir xil bo`lmasligi mumkin. Ba`zi kasal hayvon organizmida fagositoz juda sust bo`lishi natijasida kasallik juda cho`zilib ketishi mumkin. Biri-bir organizmda mikrobni fagositozga tayrlab beruvchi moddalar hosil bo`ladi. Bu moddaga opsonim deyiladi. Opsonim ta`sirida fagositoz juda zo`rayadi va organizmning kasallikdan qutilishiga ancha yordamlashadi. Fagositozning aktivligini fizikaviy va kimyoviy omillar ta`sirida ham kuchaytirish yoki susaytirish mumkin. Masalan, past temperaturada xinin, xolestrin fagositozning aktivligini susaytirsa, optimal temperaturada K va Md tuzlari fagositozning aktivligini oshiradi.

2-topshiriq. Quyidagi qoliplashgan birikmalarni daftaringizga ko‘chirib oling va xotirangizda saqlab qoling. Bu birikmalardan foydalanib, o‘quv mashg‘ulotlariga qatnashmaganingiz sababi to‘g‘risida tushuntirish xati yozing.Zaruriyat tufayli, betobligi sababli, shifoxonada davolanayotganligi uchun, nosozligi tufayli, yomon tashkil etilganligi sababli, joriy etilganligi munosabati bilan, imkoniyati yo‘qligi tufayli, vafot etganligi sababli, ob-havo noqulayligi uchun, o‘zgarganligi munosabati bilan, xabar berilmaganligi sababli, e’tiborsizlik tufayli, ruxsat berilmaganligi sababli.

Mustaqil ish toshirig`i: Ariza va tarjimai holning zaruriy qismlari va yozish namunalari
Foydalanilgan adabiyotlar: AA 1, QA 4, 19,35

Mavzu: Bola parvarishi. Majlis bayonnomasi va kasallik tarixi.

Reja:

1.Majlis bayonnomasi
2. Kasallik tarixi
3. Bolani ovqatlantirishda nimalarga e'tibor qaratilishi lozim?

- **Bilib oling**!Turli yig'ilish, kengash va boshqa tur anjumanlarning borishini, majlis qatnashchilarining chiqishlari va ular qabul qilgan qarorlarni aniq, siqiq holda qayd qiluvchi rasmiy hujjat. U voqyelikning o`rni, vaqti va holati haqida ma'lumot berish bilan birgalikda, qarorlarning to`g'ri qabul qilinganligini tekshirish va ularning bajarilishini nazorat qilishga imkon beradi. Doimiy ish ko`ruvchi organlar (ilmiy kengash, hay'at va boshqalar), shuningdek vaqtinchalik ish ko`ruvchi organlar (konferen-siyalar, yig'ilishlar, anjumanlar, komissiyalar) faoliyat-larida, albatta, bayonnoma yozilishi kerak. Bayonnomani yozishni tashkil qilish kotibning asosiy vazifalaridan biridir. Bayonnoma turli organlarning doimiy kotiblari tomonidan tuziladi va rasmiylashtiriladi. Vaqtinchalik ish ko`ruvchi organlar majlislarida esa yig'ilish jara-yonida saylangan kotib aynan shu ishni bajaradi.Bayonnomada o`z aksini toptan axborotlarning aniqligi uchun butun mas'uliyat va javobgarlik majlis raisi va kotibi zimmasiga yuklatiladi.

Bayonnoma yozib olinishiga ko`ra, qisqa, to`liq, stenogra-fik, fonografik, konspektiv shakllarda bo`lishi mumkin. Q i s q a bayonnomada faqatgina kun tartibi, ma'ruzachi va muzokarada qatnashuvchilar familiyasi va qabul qilingan qaror ko`rsatiladi. Ularda ma'ruzalar mazmuni batafsil bayon qilinmaydi. Bunday bayonnomalar masalani muhokama qilinishi haqida to`liq tasavvur bera olmaydi. Shu nuqtai nazardan yig'ilishda so`zga chiqqan barcha qatnashchilarning bayon qilgan fikr va mulohazalarini qamrab olgan to`liq majlis bayonnomasi afzaldir. Majlis bayonnomasining to`liq shakli faqat yig'ilish xususida emas, balki o`sha jamoaning faoliyati to`g'risida ham fikr yuritishga imkoniyat beradi.Yig'ilish stenografiya usulida (stenografik) yoki mag-nitofon yordamida yozib olinayotgan (fonografik) bo`lsa, qisqa bayonnoma tuzilib, stenogramma rais va kotib tomo-nidan imzolanadi va asosiy bayonnomaga ilova qilinadi.

Mavzu bayoni - bu turli yig'ilish, kengash va boshqa tur anjumanlarning borishini, majlis qatnashchilarining chiqishlarini va ular qabul qilgan qororlarni aniq, siqiq holda qayd qiluvchi rasmiy hujjat. U voqelikning o'rni, vaqti va holati haqida ma'lumot berish bilan birgalikda, qarorlarning to'g'ri qabul qilinganligini tekshirish va uning bajarilishini nazorat qilishga imkon beradi. Doimiy ish ko'ruvchi organlar (ilmiy kengash, hay'at va boshqalar), shuningdek, vaqtinchalik ish ko'ruvchi organlar (konferentsiyalar, yig'ilishlar, komissiyalar) faoliyatlarida albatta, majlis bayoni yozilishi kerak. Majlis bayonini yozishni tashkil etish kotibning asosiy vazifalaridan biridir. Majlis bayonlari turli organlarning doimiy kotiblari tomonidan tuziladi va rasmiylashtiriladi. Vaqtinchalik ish ko'ruvchi organlar majlislarida esa yig'ilish jarayonida saylangan kotib aynan shu ishni bajaradi.

Majlis bayonida o'z aksini topgan axborotlarning aniqligi uchun butun mas'uliyat va javobgarlik majlis raisi va kotibi zimmasiga yuklatiladi.

Majlis bayoni yozib olinishiga ko'ra, qisqa, to'liq, stenografik, fonografik, konspektiv shakllarda bo'ladi.

Qisqa majlis bayonida faqatgina kun tartibi, ma'ruzachi va muzokaralarda qatnashuvchilar familiyasi va qabul qilingan qaror ko'rsatiladi. Ularda ma'ruzalar mazmuni batafsil bayon

qilinmaydi. Bunday majlis bayonlari masalani muhokama qilinishi haqida to’liq tasavvur bera olmaydi. Shu nuqtai nazardan yig’ilishda so’zga chiqqan barcha qatnashchilarning bayon qilgan fikr va mulohazalarini qamrab olgan to’liq majlis bayoni afzaldir.

To’liq majlis bayonida esa ma’ruzalar ham to’liq bayon qilinadi. Majlis bayonining to’liq shakli faqat yig’ilish xususida emas, balki o’sha tashkilot yoki organning faoliyati to’g’risida ham fikr yuritishga imkon beradi.

Yig’ilish stenografik yoki magnitofonda yozib olinayotgan (fonografik) bo’lsa, qisqa majlis bayoni tuzilib, stenogramma raisi va kotib tomonidan imzolanadi va asosiy majlis bayoniga ilova qilinadi.

Majlis bayonining asosiy zarur qismlari:

1.Muassasa nomi.

2.Sarlavha (bamaslahat ish ko’ruvchi organ yoki yig’ilishning nomi).

3.Hujjatning nomi (majlis bayoni).

4.Yig’ilish sanasi.

5.Shartli raqami.

6.Yig’ilish joyi.

7.Tasdiqlash ustxati (agar majlis bayoni tasdiqlanishi zarur bo’lsa).

8.Yig’ilish raisi va kotibining familiyasi.

9.Matn:

a)qatnashuvchilar ro’yxati yoki soni;

b)kun tartibi; v) eshitildi;

g) so’zga chiqdilar; d) qaror qilindi;

10.Ilovalar (agar ular mavjud bo’lsa).

11.Imzolar.

Majlis bayonini tuzishda ularning huquqiy jihatdan to’laqonligini ta’minlash kerak. Buning uchun majlis bayonida barcha asosiy zaruriy qismlar mavjud bo’lishi, ularni to’g’ri rasmiylashtirish lozim.

Doimiy maslahat organi yig’ilishining majlis bayonida yig’ilishda ishtirok etuvchilar soni ko’rsatilishi juda muhimdir, chunki bu siyosiy va huquqiy ahamiyatga ega. Majlis qarorlarini qabul qilish va uning qonuniy bo’lishi uchun ishtirokchilarning nizom bo’yicha etarli ekanligi (kvorum) asosiy hisoblanadi.

✓ **Kasallik tarixi** – davolash profilaktika muassasalarida har bir bemorga tutiladigan asosiy tibbiy hujjat. Bemordagi kasallikni aniqlash va davo uchun zarur ma`lumotlar, bemorni kuzatish davrida uning ahvolida ro‘y bergan o‘zgarishlar, bemorga tavsiya etilgan maslahatlar qayd etiladi. Xotima (epikriz) da kasallik tashhisi va qilingan davo asoslab beriladi. Bemor o`gan taqdirda Kasallik tarixi ga patologoanatomik tekshirish bayonnomasi ilova qilinadi. Zarur hollarda kasallik tarixi sud-tibbiyot tergovini olib borish uchun muhim manba vazifasini o`taydi. Tug‘ruqxonalarda Kasallik tarixi tug`ilish tarixi deyiladi. Ambulatoriya va sog`liqni saklash punktlarida ambulatoriya kartasi tutilib, u yozuvlarininng ancha qisqaligi bilan Kasallik tarixidan farq qiladi.Касалликтарихинингбукисминитулдиришсизларучунянгиликэмас.

Клиникфанларбошланибдикибукисмнинечабортулдиргансиз. Букисмдаболанингэс-хуши (жойида, саволларгажавобберади, сопор, ступор, кома), умумийхолати, (коникарли, уртачаогирликда, огир), терисивашилликкаватларининг, териостиёгкаватининг, суяк-бугинвамушакмажмуаси, ичкиорганлар (юрак, упка, ошкозон-ичак, ажратувтизими, нервсистемаси,

ичкисекрециябезларифаолиятигаузгаришларкадамба-кадамёзилади. Одам организми бир бутун, ЛОР-аъзоларининг касалликлари барча аъзо ва мажмуаларга узининг аксини беради.

Birinchidan, onalar bolani to‘g‘ri ovqatlantirishlari kerak. Ikkinchidan, ayniqsa iliq-issiq kunlarda bolaga ko‘proq suv berish lozim, bu terlash tufayli organizm yo‘qotgan suyuqlik o‘rnini to‘ldiradi. Uchinchidan esa o‘tkir yuqumli ichak kasalliklarining oldini olish maqsadida shaxsiy gigena qoidalariga rioya etish alohida o‘rin egallaydi. Chunki o‘tkir me’da-ichak infeksiyalari bilan kasallanish 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar orasida 65-70 foizni tashkil qiladi.



Kasallik ko‘pincha iste’mol qilingan suv va oziq-ovqat mahsulotlari orqali yuqishini inobatga olib issiq kunlarda bolalarning ochiq suv havzalarida cho‘milishlarini nazorat qilish, ayniqsa mevalarni qaynagan suvda yuvib berish muhim hisoblanadi.

Vitaminga boy ko‘katlarni to‘g‘rab, bola ovqatiga qo‘shib yedirish lozim. Umuman, vitaminli yeguliklar kundalik dasturxonda doimo bo‘lishi shart. Oddiygina misol. Bola organizmida vitamin C yetishmasa, uning aqliy va jismoniy qobiliyati pasayib ketadi, me’da-ichak faoliyati buziladi, bola tez-tez shamollaydigan bo‘lib qoladi. Shunday ekan, askorbin kislotasiga boy petrushka, karam, na’matak, limon, pomidor va sabzi iste’mol qilishni yo‘lga qo‘ygan ma’qul. Vitaminlarning B guruhi yetishmasa, bolada ishtaha yo‘qolishi, asab tizimi faoliyati buzilishi, lanjlik, ozib ketish kabi belgilar kuzatiladi, shu sababli bolalarga go‘sht, jigar, dukkakli donlar, sut mahsulotlari, tuxum va turli sabazavotlarni ko‘proq berish tavsiya etiladi.

Vitamin A tanqisligi yosh bolalarning ko‘rish qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, moddalar almashinuvining bir me’yorda bo‘lmasligiga olib keladi. Bolalarga go‘sht, baliq, sut, tuxum, sariyog‘ va ko‘k no‘xatli taomlarni ko‘proq berish lozim.

Go‘dakning “jajji dorixona”sida nimalar bo‘lishi zarur?

Bular quyidagilar:

- Asetomenofen (og‘riq qoldiruvchi suyuq dori). Bolalar uchun u paratsetamol bilan birga (isitma tushirish uchun) dorixonadan olinadi. Asosiy nomlari: Taylenol, Panadol;
- Oq oddiy leykoplastr;
- Spirtli paxta tamponlari;
- Antibiotikli maz;
- Dezinfeksiyalovchi suyuqlik (aptekalarda turli xili mavjud: Betadine, Hibiclens);
- Steril leykoplastr;
- Paxtali cho‘plar;
- Steril bint;
- Vodorod peroksidi;
- Muz solingan paketchalar (doim muzlatgichda tursin, bola lat yeganda shikastlangan joyga qo‘yish uchun tayyor bo‘lib turadi);

- Ipekakuana siropi (qustiradigan suyuqlik bo‘lib, bola tasodifan zaharlanganda vrach bilan maslahat qilgan holda qayt qildirish uchun qo‘llaniladi);
- Pipetka, o‘lchov qoshiqcha (dori berishda o‘lchash uchun);
- Burun tozalash uchun namokob suv (dorixonalarda mavjud – Sodium Hloride);
- Uchi o‘tkir bo‘lmagan kichik qaychi (tirnoq olish uchun);
- Kichik plastrlar;
- Termometr;
- Pinsset;
- Glitserin svechalar (bola qornida gaz yig‘ilib, ichi qotganda foydalaniladi);
- Bolalarni cho‘miltirish uchun giyohlar (masalan badanida issiqlik toshmalari bo‘lganida ittikanak – chereda bilan cho‘miltirish foyda beradi.)
- Regidron (ich buzilishida qo‘llaniladi).

Ushbu maqolani ham o‘qing: Bolani sutdan ajratish (Pediatr tavsiyasi)

Bu kun ko‘pchilik onalar bola tinchligini o‘ylab pampersdan foydalanishadi…

Bolalarga uy sharoitida pampers taqishda me’yorga amal qilish shart. Ayniqsa o‘g‘il bolalarga pampersni uzoq muddat taqish kelajakda o‘z salbiy asoratlarini berishi (bepushtlikka olib kelishi) mumkin.

Bolalar qisqa muddatga, (ya’ni uni poliklinikaga olib chiqqanda yoki mehmonga borganda) ortiqcha noqulayliklarning oldini olish maqsadida pampersdan foydalanish mumkin. Ayrim onalar kun davomida bolalarni pampersda qoldirishadi, bu mutlaqo noto‘g‘ri.

Pampers tanlaganda albatta uning havo o‘tkazuvchanligiga alohida e’tibor qaratish lozim. Uzoq muddat pampersda yuradigan bolalarda hojatga chiqish ko‘nikmalari shakllanmay qoladi, natijada bunday bolalar maktabgacha ta’lim muassasalariga borganda qiynalishadi.

Onalar o‘z farzandlarini uy sharoitida pamperssiz parvarish qilishlari hamda ularda zarur ko‘nikmalar shakllanishida yordam berishlari kerak.

Bolani qanday kiyintirgan ma’qul?

Yil fasllari almashadigan paytda bolalar salomatligiga alohida e’tibor talab etiladi, chunki iqlim, ob-havo salomatlikka jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Faslga qarab ovqatlantirish kabi, faslga mos qilib kiyintirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bolalarga paxtali matodan tikilgan, tana uchun qulay (tor yoki juda ham keng bo‘lmagan) kiyimlar kiydirish ular organizmi uchun foydali. Kiyim bola tanasiga havo o‘tkazadigan bo‘lsa, u organizmda moddalar almashinuvi me’yorida kechishiga yordam beradi.

Bolaning boshiga oq matodan tikilgan soyabonli qalpoqcha kiydirish lozim (sababi, u quyosh nurlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri bola yuziga tushishidan saqlaydi).

Chaqaloqqa vitaminlar qachondan boshlab beriladi?

Chaqaloqni ko‘krak suti bilan boqish uning har tomonlama mukammal o‘sishi, sog‘lom bo‘lishi, turli yuqumli kasalliklarni yengib o‘tishida yordam beradi. Shu sababli 6 oylikkacha bo‘lgan bolalarga hech qanday vitaminlar, sharbatlar berish tavsiya etilmaydi.

Ko‘krak sutida chaqaloq organizmi uchun zarur bo‘lgan barcha ozuqalar, hatto vitaminlar yetarlicha mavjud.

Bolaga 6 oylikdan so‘ng sekin-asta suv, kompot va meva sharbatlaridan oz-oz berish mumkin, faqat ko‘krak sutidan so‘ng, kuniga 1- 2 marotaba, 1 choy qoshiqdan boshlash tavsiya qilinadi.

Mustaqil ish toshirig`i: Taklifnoma, tabriknoma turlari va ularning yozilish mashqlari

Foydalanilgan adabiyotlar: AA 3, QA 1, 3, 33, 34

Mavzu: Xalq tabobati xazinasidan. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari tezis anotatsiya yozish.

Reja:

1.Ilmiy uslub va uning xususiyatlari.
2. Tezis, anotatsiyasi haqida.
3.Xalq tabobati xazinasidan.

- **Bilib oling!Uslub** — tilning inson faoliyatining muayyan sohasi bilan bog‘liq vazifalariga ko‘ra ajratilishi. Kishilar faoliyatning barcha sohalarida aloqa qilish jarayonida tildagi leksik, frazeologik, grammatik va fonetik vositalarni tanlash va ishlatishda birbirlaridan ma’lum darajada farq qiladilar. Umumxalq tili doirasida til vositalarining bunday tanlab olinishi nutqning xilmaxil ko‘rinishlarining paydo bo‘lishiga olib keladi. Nutq Uslub tilning vazifasi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ham ular vazifaviy (funksional) U. deb yuritiladi. Vazifaviy U. deganda, tildan farq qiladigan qandaydir aloxdda narsa tushunilmaydi, balki aniq bir adabiy til tarkibi ichida qaraladigan, o`ziga xos xususiyatlari, xizmat qilish doirasi bilan o`zaro farq qilib turadigan yordamchi tizim tushuniladi.

Ilmiy uslub Fan-texnikaning turli tarmoqlariga doir ilmiy asarlar, darsliklar ilmiy uslubda yoziladi. Mantiqlilik, aniqlik bu uslubga xos xususiyatlardir. Ilmiy uslub aniq ma’lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalar (qoidalar, ta’riflar)ga boy bo‘lishi bilan boshqa uslublardan farq qiladi. Misol uchun: *Yomg‘ir – suyuq tomchi holidagi atmosfera yog‘ini. Tomchining diametri 0,5-0,6 mm bo‘ladi.*Ilmiy uslubda har bir fanning o‘ziga xos ilmiy atamalaridan foydalaniladi, bu uslubda so‘zlar o‘z ma’nosida qo‘llanadi, qoida yoki ta’rifning mazmunini ochishga xizmat qiladigan ajratilgan bo‘laklar, kirish so‘zlar, kirish birikmalar, shuningdek, qo‘shma gaplardan ko‘proq foydalaniladi**.** Ilmiy uslub ilmiy asarlar uslubidir. Til birliklarining fan sohasida, ilmiy bayon jarayonida ishlatilishi mazkur uslubning shakllanishiga asos bo’ladi. Ilmiy tafakkur fikrlashning o’ziga xos usuli ekanligi, obyektiv borliqni idrok etishda faqatgina dalil va faktlarga tayanish, fikriy izchillik kabi ekstralingvistik omillar ham nutqning ushbu turining shakllanishida, binobarin, nutqiy me’yorning o’ziga xos turining yuzaga kelishida muhim omil sanaladi.

Yuqorida bu kabi xususiyatlarning mushtarakligi bilan rasmiy uslubga yaqinligi aytib o’tilgan edi.

Ilmiy uslubning janr xususiyatlari ham keng. Monografiya, risola, darslik, o’quv qo’llanmasi, o’quv-metodik qo’llanma, dastur, ma’ruza matnlari, taqriz va referat singarilar uning ana shu janr ko’rinishlari hisoblanadi. Garchi ularning har birining bayon usuli va uslubi ma’lum darajada bir-birlaridan farq qilsa-da, til birliklaridan foydalanish me’yoriga ko’ra umumiylikni tashkil etadi.

Ilmiy uslubga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. Aniqlik. Har qanday ilmiy bayon, xulosa, shubhasiz, aniqlikni talab qiladi. 2. Obyektivlik. Ilmiy adabiyotlarda bu uslub doirasida til materiali fikrning haqqoniyligi, obyektivligiga xizmat qilishi lozimligi uqtiriladi.

3. Mantiqiy izchillik ilmiy bayon uslubining o’ziga xos xususiyatini tashkil etadi. Matnda so’zlar, gaplar, abzaslar o’zaro mantiqiy bog’langan bo’lishi lozim..

4. Qisqalik. Bu xususiyat aynan ilmiy bayonga xos xususiyatdir. Shuning uchun unda tilning tasviriy imkoniyatlaridan deyarli foydalanilmaydi

Ilmiy uslubning morfologik xususiyatlari to’g’risida M.Mukarramovning «Hozirgi o’zbek adabiy tilining ilmiy stili» monografiyasida quyidagi fikrlar bayon qilingan:

Ilmiy uslubda faqat adabiy tilda me'yor sifatida e'tirof etilgan grammatik ko'rsatkichlardan foydalaniladi. So'z turkumlaridan ot faol, ko'pincha takror qo'llanadi. Subyektiv baho shakllari xos emas. ***–lar*** ko'plikdan boshqa semantik-uslubiy ma'nolarni ifodalamasa-da, atama hosil qilishda ishtirok etadi. Umumiy egalik ustun turadi, I-II shaxs qo'shimchalari ishlatilmaydi, III shaxs shakli faol. Undov va taqlid so'zlar ham bu uslubga xos emas. Yuklamalarning esa imkoniyati chegaralangan.

Ilmiy nutq uchun ***deyiladi, aytiladi, yoritiladi, bayon qilinadi, aniqlanadi, tekshiriladi, foydalaniladi, ta'riflanadi*** singari xoslangan fe'llar mavjud. Fe'lning majhul daraja shakli ham bu uslub uchun xos. Ammo hozirgi-kelasi zamon shaklidan tashqari xarakterli zamon ko'rsatkichi yo'q. Kishilik olmoshlari kam qo'llaniladi. Bu gap faqat ***muallif*** va ***men*** ma'nolarida qo'llaniladigan hamda kamtarlik ma'nosini ifodalaydigan ***biz*** olmoshiga tegishli emas.

✓ **ANNOTATSIYA** Annotatsiya – ilmiy tarzdagi nutq. Uning motivlari: xabar berish, ma'lumot berish, ishonch hosil qilish, isbot qilish, ma'qullash, muhokama qilish, rad etish, tanqid qilish, e'tiroz bildirmoq, inkor qilmoq, bahslashmoq.Annotatsiya oddiy tarzda material ko`chirish(yoki bir necha manbalar matnlarini o`g`irlab ko`chirish bilan hech qachon murosa qilmaydi) unda muallif tomonidan adabiyotlarni o`rganish orqali o`z fikrlari, qarashlari, xulosa va takliflari aniq tarzda ifoda etilishi lozim.

Annotatsiya – kitob, maqola, qo`lyozma mundarijasini, mavzu yo`nalishi va boshqa jihatlarini ochib berishga qaratilgan kichik hajmli matn. Annotatsiya kitobning o`zida, bibliografik ko`rsatkichlarda va kutubxona kataloglarida uchratish mumkin. Uning vazifasi o`quvchilarda muayyan kitob, maqola yoki qo`lyozma to`g`risida umumiy tasavvur tug`dirish va ularga adabiyot tanlashga yordam ko`rsatishdir. Masalan, Alisher Navoiyning 1991 yilda chop etilgan "Saddi Iskandariy" dostoniga nashriyot yomonidan shunday annotatsiya berilgan:

"Xamsa"ning yakunlovchi dostoni "Saddi Iskandariy" ham ma'lum an'analar zaminida yaratilgan.

Annotatsiyani tuzishdagi asosiy xato – axborotning ko`pligi, fikrlarni ifodalashda gaplarning uzunligi, davrlarning noaniq ishlatilishi!

Ortiqcha holatlar: kirish so`zlari va gaplari, murakkab gaplar.

Annotatsiya matnidagi asosiy iboralar va so`z birikmalari"

Maqolada …lar k o`rib chiqilgan.

… ko`rsatilgan.

…ning tavsifnomasi katta ahamiyatga ega.

… keng material keltirilgan.

Tadqiqot … kabi muhim muammolarni ko`tarib chiqqanli bilan muhim.

… mohiyatini ochishda muhim vosita bo`la oladi.

Muallif …ning ilmiy ta'rifini birinchi marta beradi va hokazo.

Annotatsiya turlari

Mazmuni va maqsadli vazifasiga ko`ra

-bildirgichli (matnning tanqidiy bahosiz tavsifnomasini beradi);

-tavsiyali (matn iste'molchilarning muayyan auditoriyasi uchun yaroqliligi jihatdan tavsifini va bahosini beradi)

Mazmunni to`liq qamrab olishiga ko`ra

-umumiy (keng auditoriyani hisobga olib umuman matnning tavsifini beradi);

-ixtisoslashgan (matnning tor doiradagi mutaxassislarni hisobga olib muayyan jihatlardagi tavsifini beradi)

-guruhli (mavzu bo`yicha yaqin bir necha matnlar tavsifini beradi)

Annotatsiya (lotincha annotacio – xabar, ma'lumot). Kitob, monografiya, qo`lyozma asarlarning qisqacha xarakteristikasini o`z ichiga oladi, ularning mazmuni, ahamamiyati juda siqiq tarzda bayon qilinadi, asarning qaysi kitobxonlarga mo`ljallanganligi ham qayd etiladi.
Masalan, professor H.Umirovning "Qahramonning ma'naviy olami va epiklik" (Toshkent, "Fan", 1995) asarida annotatsiya quyidagicha berilgan:
"Ushbu risolada Abdulla Qodiriyning "O`gan kunlar" romanida qahramonlar ruhiyatini tasvirlashdagi o`ziga xos takrorlanmas mahorati tahlil qilingan.
Risola tadqiqotchilar, oily o`quv yurtlarining o`qituvchi va talabalariga, shuningdek, adabiyot bilan qiziquvchi keng kitobxonlarga mo`ljallangan".
Yozuvchi Oybekning "Adabiyot to`g`risida" (Toshkent, "Fan" 1985) to`plamiga quyidagicha annotatsiya bayon etilgan:
"Ushbu kitobchada O`zR fanlar akademiyasining akademigi, O`zbekiston xalq yozuvchisi M.T.Oybekning adabiyot haqidagi qimmatli fikr va mulohazalari o`rin oldi. Atoqli shoir va adibning adabiy-tanqidiy qarashlari ifodalangan bu fikr-mulohazalar katta estetik qiymatga egadir.
Risola keng kitobxonlar ommasiga mo`ljallangan".
Annotatsiya, asosan, muayyan asar titul varag`ining ikkinchi betida chop etiladi. Ba'zi asarlarda muxtasar "Kirish" – so`zboshi yoki debocha bo`lsa, unday asarlarda annotatsiya bo`lmasligi ham mumkin.
Annotatsiyaning referativ jurnallar, nashriyot rejalari, kutubxona kataloglariga yoziladigan turlari ham mavjud bo`lib, bu ma'lumotlar soha mutaxassislariga zarur adabiyotlarni tez tanlashga, uni sotib olish uchun oldindan buyurtma berishga imkoniyat beradi.
Jumladan, "O`zbekiston Fanlar Akademiyasi "Fan" nashriyotining 1992 yilgi nashr rejasi" kitobining 204 raqami mazmunini ko`raylik:
"204. Umirov H.I. qahramonning ma'naviy olami va epiklik (O`zbek romanlarida psixoligizm masalasi) mas. Muh. Karimov E.A.; Samarqand Davlat pedinstituti. – Toshkent: fan, 1992 (1U kv.) – 10 t.
Monografiya o`zbek adabiyotida psixolingizmning tarixi, nazariyasi va tipologoyasi, uning shakl va prinsiplarini tahlil etishga bag`ishlangan. Unda psixolingizmning shakl va prinsiplarining dalil va to`qima, subyektivlik va obyektivlik, hayot haqiqati va badiiy shartlilik, xarakter va sharoit bilan bog`liqligi jihatlari ham yoritiladi.
Kitob filologlar, oliygohlarning o`qituvchi va talabalariga hamda keng kitobxonlarga mo`ljallangan.
Buyurtma……. Nusxa…….

1- topshiriq. Savolga javob bering:
1. Annotatsiya qilinayotgan kitob, monografiya, maqola, qo`lyozma asarning mazmuni bilan to`liq tarnishing, uning maqsad va vazifalarini aniqlang, bugungi ahamiyatini, amaliy qo`llash darajasini tasavvur qiling.
2. Tadbiq qilish, aniqlash va tasavvur qilish natijasida tug`ilgan xulosalaringizni lo`nda va siqiq qilib yozing.
3. Yozilgan xulosalaringizni umumlashtiring va eng qisqa shaklda bayon qiling. Bayoningizdagi so`zlar faqat o`sha asarning mazmunini ifodalasin.
4. Annotatsiya qilinayotgan asar kimlarga mo`ljallanayotganini aniqlang.

5. Yuqoridagi ko`rsatmalar asosida yaratilgan annotatsiyani ilmiy va badiiy asarlarni konspektlashtirish daftaringizga chiroyli qilib ko`chiring.

2-topshiriq. Annotatsiya yozishga harakat qilib ko`ring!

Mustaqil ish toshirig`i: Alisher Navoiy va tibbiyot.

Foydalanilgan adabiyotlar: AA 2, QA 2,18, 33

MAVZU: Milliy va umuminsoniy qadriyatlar. Ilmiy referat.

Reja:

1.Qadiriyat tushunchasining mazmun mohiyati

2.Milliy qadriyatlar millat tayanchi

3.Ilmiy referat haqida.

Bilib oling!Referat – asosiy matn yoki bir necha manbalarni talqin qilish shakllaridan biri. Shuning uchun referat, konspektdan farqli ravishda, yangi, muallifning matni hisoblanadi. Bunday holdagi yangilik yangicha bayonni, materialning bir tizimga solinishi, har xil nuqtai nazarlarni qiyoslashda muallifning alohida pozisiyasini nazarda tutadi.Referatlash qandaydir masalaning bir yoki bir necha manbalarning tasniflanishi, umumlashtirilishi, tahlili va sintezi asosida bayon qilinishini nazarda tutadi. Referatning o'ziga xosligi: keng miqyosli dalillar, qiyoslashlar, mushohadalar, baholarga ega bo'lmaydi, matnda qanday yangi, muhim jihat bor, degan savolga javob beradi.

Referatlar turlari

Bayonning to'liqligi bo'yicha	Axborotli (referat – konspektlar)
	Indikativ (referat – rezyumelar)

Referatlanadigan manbalar soni bo'yicha	Monografik
	Tahliliy

Referatning tuzilishi

1. Bibliografik bayon	2. F.I.Oi. Asar nomi. Nashr qilingan joyi. Nashriyot. Yil. Sahifalar soni.
Referat matni	- Mavzu, muammo; referat qilinadigan ishning predmeti, maqsadlari va tuzilishi. - Qisqacha mazmuni. - Aniq natijalari. - Muallif xulosalari. - Ish natijalari qo'llaniladigan soha.

Referat diqqat-e'tiborni yangi ma'lumotlarga qaratadi va boshlang'ich matnga murojaat etishning maqsadga muvofiqligini belgilaydi!

O'quv fani bo'yicha referatlarning tayyorlanishi o'qishda quyidagi natijalarga erishishni nazarda tutadi:

- O'quv fanining dolzarb nazariy masalalari bo'yicha bilimlarning chuqurlashuvi, ushbu bilimlarning Siz tanlagan mavzuga ijodiy qo'llanilishi.
- Tanlangan kasbiy sohadagi xorijiy tajribaning o'zlashtirilishi, undan mamlakat sharoitida, Sizning kelgusidagi kasbiy faoliyatingizda amalda qo'llanish imkoniyatlari va muammolarining o'rganilishi.
- Tanlangan mavzu bo'yicha turli adabiy manbalarni (monografiyalar, davriy matbuotdagi maqolalar va shu kabilar) o'rganish mahoratini takomillashtirish va ularni tanqidiy tahlil etish asosida materialni mustaqil va savodli bayon qilish, dalillangan xulosalar chiqarish va takliflar

berish.
- Yozma ishni to’g’ri rasmiylashtirish malakalarini rivojlantirish.
Referat materialning shunchaki bir oddiy takrorlanishi, bir yoki bir necha manbalardagi materialni o’zlashtirib olishdan iborat bo’lib qolmasligi, ya’ni ko’chirmachilik va kompilyasiya mahsuli bo’lmasligi kerak. Unda referent tanlagan mavzuga oid va ishlab chiqilgan adabiyotlarda mavjud bo’lgan jamiki material tahlil qilib chiqilishi lozim.

Referat ustida ishlash bo’yicha yo’riqnoma

Referat ustida ishlash bo’yicha yo’riqnoma

1. Mavzuning tanlanishi

Kafedra taklif qiladigan referatlar mavzulari namunaviy bo’ladi.Sizning o’zingizning qiziqishlaringiz va mayllaringizga mos keladigan mavzuni tanlashga mustaqil yondashishingiz maqsadga muvofiq. Siz o’z qiziqishlaringiz doirasi asosida tanlangan muammoga amal qilib va uni asoslash bilan kafedra tavsiya qilgan mavzular ro’yxatiga kirmagan referat mavzuini taklif qilishingiz ham mumkin. Bunday vaziyatda taklif qilayotgan referat mavzuingizni ilmiy rahbaringiz bilan albatta kelishib olishingiz kerak bo’ladi.

2. Tayyorgarlik ishlari:

Asosiy manbalarni o’rganish Siz referat mavzuini tanlagach, 1) tanlangan mavzuga tegishli masalalar doirasi bilan tanishib chiqing:
• leksiya materiallarini ko’zdan kechiring,
• fan bo’yicha o’quv dasturiga ko’ra tegishli mavzu uchun tavsiya etilgan adabiyotlarni yana bir bor tahlil qiling.
Bu Sizning mavzuning mohiyati, uning o’rganiladigan kursdagi o’rni va ahamiyati to’g’risida aniq tasavvur olishingizga imkon beradi.
2) TDIUning axborot-kutubxona majmuida, shuningdek Toshkent shahar kutubxonalarida mavjud bo’lgan kataloglardan foydalanib, referat mavzui bo’yicha adabiyotlar manbalari doirasini kengaytiring.
O’quv va monografiyali adabiyotlar bilan bir qatorda davriy nashrlarda, shu jumladan: «O’zbekiston iqtisodiy axborotnomasi», «Ekonomicheskiy vestnik Uzbekistana», «Marketing», «Lizing revyu», «Bozor, pul va kredit», «Kompaniya», «Ekspert», «Sekret firmы», «Dengi», «Iskusstvo upravleniya», «Problemы teorii i praktiki upravleniya», «Ekonomist», «Voprosы ekonomiki» kabi va boshqa jurnallarda e’lon qilingan maqolalardan ham foydalanish zarur.
O’zbekiston Respublikasi Hukumatining tadqiqot mavzuiga tegishli sohadagi qonunchilik hujjatlari va qarorlarini bilish ham referat sifatini oshirishga yordam beradi. Ishning dastlabki bosqichi yakuni bibliografiyadan iborat bo’ladi.

3. Zarur materialning konspekt qilinishi

Konspekt qilish konspektlashning bir turi: rejali, matnli, tematik, xronologik, tahliliy yoki erkin turiga muvofiq amalga oshiriladi.

4. Muammoni tadqiq qilish mantiqini ishlab chiqish, referat rejasini tuzish

Referat rejasi quyidagilarni o’z ichiga olishi kerak: kirish, asosiy qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati, ilovalar (referatning shart bo’lmagan qismi).
Referatning rejasi tanlangan mavzuda ko’rilishi lozim bo’lgan masalalar doirasi va referatning asosiy mazmunini belgilaydi. U referentning mavzu materialida umumiy yo’nalish olishga imkon beradi, uning to’g’ri tanlanishi va bayon qilish mantiqini ta’minlaydi. Har bir bandi qat’iy tanlangan material bilan ta’minlangan puxta o’ylangan reja referatning muvaffaqiyatli yozilishining g’oyat muhim shartidir.Referatning asosiy qismi o’zining lo’nda va aniq nomiga ega masalalarga va kichik masalalarga (bandlarga) bo’linishi zarur.

5. To’plangan materialning bir tizimga solinishi va referatning yozilishi

Kirishda tanlangan mavzuning nazariy va amaliy jihatlardan dolzarbligi asoslanadi, referat qilish maqsadi va vazifalari ifodalanadi.Agar referat monografik bo’lsa (bir manba yoki muallif referat qilinayotgan bo’lsa), unda kirishda quyidagilar ko’rsatiladi:
1) muallif haqidagi qisqacha ma’lumotlar (ilmiy darajasi, uning ixtisosligi, boshqa ishlari);
2)manba mavzuining qisqacha bayoni;

3) ishning maqsadi;
4) ishning ruknlari;
5) muallifning ustuvor yo'nalishi va boshqalar.
Asosiy qismda barcha muhim qoidalar aks ettirilishi kerak.
Referat asosiy qismining matni to'plangan materialning tegishlicha taqsimlanishi bilan masalalarga va kichik masalalarga (bandlarga) bo'linishi zarur.
Har qanday masala, kichik masala (band)ning ajratilishi, umuman referatning tuzilmaga solinishi quyidagicha algoritm bo'yicha bajarilishi lozim:
vazifa
ishlab chiqilishi
xulosa.
Bayon qilish shakli – referentning tanlashi bo'yicha: konspektli, parchali, tahliliy bo'ladi.
Referat matnidagi klishelangan iboralar va so'z birikmalari
«Ishda …. Tizim ko'rib chiqiladi…»
(Muallifning F.I.Oi.) «…….» asarida … berilgan.
«Kirishda ko'rsatilishicha, ..»
«Muallifning hisoblashicha, …»
Muallif shunga asoslanadiki, ….
Shu bilan birga u … shunday deb hisoblaydi.
«1-bobda … masalasi yoritiladi»
«2-bobda … tadqiq qilinadi»
« … haqida gapirganda, muallif … deb ta'kidlaydi»
«Ishda, shuningdek … ga e'tibor qaratiladi»
«Shunday qilib, muallif… degan xulosaga keladi»
« 3-bobda… tadqiq qilinadi, … ko'rib chiqiladi»
«… zarurligi belgilanadi»
«Xulosada muallif: «…» deb yozadi.
Material quruq bayon qilib berilmasligi kerak. Tegishli xulosalarga, shu jumladan matn bilan chambarchas bog'lanadigan statistik materialga ega tahlil zarur.
Keng hajmdagi statistik ma'lumotlarni jadvallarga yig'ish maqsadga muvofiq. Statistik ma'lumotlar asosida u yoki boshqa ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar va jarayonlarni ancha yaqqol tasavvur etish va rivojlanish dinamikasida aks ettirishga imkon beradigan diagrammalar, grafiklarni qurish mumkin.Referatda keltiriladigan barcha jadvallar, diagrammalar, grafiklar, sxemalar sarlavhalanishi va raqamlanishi kerak. Statistik ma'lumotlar olingan manbalarning sarlavhalari ko'rsatilgani holda qayd qilinishi lozim.Matnda beriladigan barcha raqamli materialning tegishli manbalari ko'rsatilishi kerak.Shuningdek, boshqa mualliflar asarlaridan olingan matndan ko'chirmalar, fikrlar, qoidalar, xulosalar so'zma-so'z ko'chirib olinganida ham albatta satr ostida qaydlar berilishi zarur.Munozarali masalalar bo'yicha har xil nuqtai nazarlarning tahlili, qo'shiladigan yoki o'zining pozisiyasining dalillanishi ham referatning afzalligi hisoblanadi.Referatning xulosasi referent tanlangan mavzuni o'rganish natijasida qilgan aniq ifodalangan xulosalarni, shuningdek hal etilmay qolgan va keyinchalik ishlab chiqishni talab qiladigan masalalarni o'z ichiga oladi.

Referat matnidagi klishelangan iboralar va so'z birikmalari

«Ishda …. Tizim ko'rib chiqiladi…» (Muallifning F.I.Oi.) «…….» asarida … berilgan.
«Kirishda ko'rsatilishicha,..» «Muallifning hisoblashicha, …»Muallif shunga asoslanadiki, ….
Shu bilan birga u … shunday deb hisoblaydi.«1-bobda … masalasi yoritiladi»
«2-bobda … tadqiq qilinadi» « … haqida gapirganda, muallif … deb ta'kidlaydi»
«Ishda, shuningdek … ga e'tibor qaratiladi»
«Shunday qilib, muallif… degan xulosaga keladi»
« 3-bobda… tadqiq qilinadi, … ko'rib chiqiladi»
«… zarurligi belgilanadi»
«Xulosada muallif: «…» deb yozadi.

6. Adabiyotlar ro'yxatining rasmiylashtirilishini tekshirish

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati qat’iy belgilangan tartibda tuziladi:
1. O’zR qonunlari.
2. O’zR Prezidenti farmonlari.
3. O’zR Hukumati qarorlari.
4. Me’yoriy hujjatlar, yo’riqnomalar.
5. Kitoblar, davriy nashrlarda e’lon qilingan maqolalar.
6. Internetdan olingan axborot manbalari.
Manbalarning bibliografik bayonida quyidagilar ko’rsatiladi:muallifning familiyasi va ismi-sharifi, kitob nomi, nashr qilinganjoyi, nashriyot nomi va nashr yili. Agar maqola jurnalda (gazetada)bosilgan bo’lsa, unda jurnal (gazeta) nomi, chiqqan yili, jurnal (gazeta) sahifasi raqami.

7. Matnning tahrirli tuzatilishi. Matnning savodxonlik va uslubiyot jihatidan tekshirilishi

Referat savodli tarzda yozilishi va toza ko’rinishda bo’lishi kerak. Umumiy qabul qilingan so’zlardan boshqa so’zlarning qisqartirilishiga, shuningdek xatolar, noaniqliklar, uslubiy nuqsonlarga yo’l qo’yilmaydi. Referat ilmiy rahbarga taqdim etiladigan vaqtga kelib hamma jihatdan maromiga yetkazib ishlab chiqilgan bo’lishi lozim.

8. Referatning Rasmiylashtirilishi

Ilmiy rahbarga taqdim etiladigan referat kompyuterda 12-shrift bilan, 1,5 interval orqali standart A 4 formatli qog’ozda, chap tomonidan 2,5 sm, o’ng tomonidan 1,5 sm, yuqorisi va pastidan kamida 2 sm lik hoshiyalar bilan terilishi kerak.
Matn sahifalari albatta raqamlanishi lozim. Ishning raqamlanishi uzluksiz bo’ladi va 3-sahifadan boshlanadi (birinchi va ikkinchi sahifalar - bu titul varag’i va ish rejasi bo’lib, ular raqamlanmaydi). Sahifa raqami yuqorida o’rtaga yoki o’ng tomonga qo’yiladi. Referat hajmi 16-20 sahifadan oshmasligi kerak.
Referatning tuzilishi:
1) titul varag’i;
2) har bir masala, kichik masala (band) sahifalari ko’rsatilgan ish rejasi;
3) kirish;
4) materialning masalalar va kichik masalalar (bandlar)ga bo’lingan matnli bayoni, muallif foydalangan manbalarga zaruriy qaydlar ham ko’rsatiladi;
5) xulosa;
6) foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati;
7) jadvallar, diagrammalar, grafiklar, rasmlar, sxemalardan iborat ilovalar.
Ilovalar ular mazmunini ko’rsatadigan sarlavhalarga muvofiq tarzda izchillik bilan tikib qo’yiladi.
Referat ilmiy rahbar tomonidan referatni baholash bo’yicha kafedra belgilagan ko’rsatkichlar va mezonlar asosida baholanadi.

Referatning baholanishi
(Baholashning namunaviy ko’rsatkichlari va mezonlari)

Baholash ko’rsatkichlari	Baholash mezonlari
1. Referat qilingan matnning yangiligi Maks.- 20 ball	- muammo va mavzuning dolzarbligi; - muammoning qo’yilishi, tahlil uchun tanlangan muammoning yangi jihatini ifodalashdagi yangilik va mustaqillik; - muallif pozisiyasining mavjudligi, fikrlarning mustaqilligi.
2. Muammo mohiyatini ochib berish darajasi	- rejaning referat mavzuiga muvofiqligi; - mazmunning referat mavzui va rejasiga

Maks.- 30 ball	mosligi; - muammoning asosiy tushunchalarini ochib berishning to'liqligi va chuqurligi; - material bilan ishlash usullari va uslublarining asoslanganligi; - adabiyotlar bilan ishlash, materialni bir tizimga solish va tarkiblashtirish mahorati; - ko'rib chiqilayotgan masala bo'yicha har xil nuqtai nazarlarni umumlashtirish, qiyoslash, asosiy qoidalar va xulosalarni dalillash mahorati.
3. Manbalarni tanlashning asosliligi Maks.- 20 ball	- muammoga doir adabiy manbalardan foydalanish doirasi, to'liqligi; - muammo bo'yicha eng yangi asarlardan foydalanish (jurnal maqolalari, ilmiy asarlar to'plamlari materiallari va hokazo).
4. Rasmiylashtirish talablariga rioya qilinishi Maks. - 15 ball	- foydalanilgan adabiyotlarga qaydlarning to'g'ri rasmiylashtirilishi; - bayonning savodliligi va madaniyati; - muammo atamalari va tushunchalar apparatini egallaganlik; - referat hajmiga talablarga rioya qilinishi; - rasmiylashtirish madaniyati: xatboshilarning ajratilishi.
5. Savodlilik Maks.- 15 ball	- orfografik va sintaktik xatolar, uslubiy nuqsonlarning yo'qligi; - xatolar, umumiy qabul qilingan so'zlardan tashqari so'zlarni qisqartirishlarning yo'qligi; - adabiy uslubi.

Natijada referat quyidagi tarzda bilimlarni baholashning 100 ballik va 5 ballik tizimida baholanadi:

• 86 – 100 ball – «a'lo»;
• 70 – 75 ball – «yaxshi»;
• 51 – 69 ball – «qoniqarli";
• 51 balldan kam – «qoniqarsiz».

Ballar dasturiy materialni bilishni joriy baholash jarayonida hisobga olinadi.

«Qadriyat»

«Qadriyat» tushunchasi — juda keng tushuncha. Uning bir qismi — ma'naviy qadriyatlardir. Milliyma'naviy qadriyatlar «milliylik», «ma'naviyat» va «qadriyat» tushunchalari kesishgan nuqtada jamlangan ijtimoiy hodisalarni o'z ichiga oladi.«Milliy ma'naviy qadriyatlar» tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin:Muayyan millat vakglllari uchun zarur va aqamiyatli, aziz va ardokli bo'lgan,manfaati va maksadlariga xizmat kiladigan ma'naviy boyliklar, amallar va tamoyillar, yeoyalar va me'yorlar milliy ma'naviy Kadriyatlardir.Xar bir xalqning o'zi uchun e'zozli, qimmatlibo'lgan ma'naviy boyliklari bo'ladi. Bular asrlar davomida avloddanavlodga o'tib kelgan, hozirgi kunda ham o'zining ahamiyati va Qadrini yo'qotmagan, shu xalqningiftixor manbaigaaylangan durdonalardir. Masalan, qirgaz xalqi «Manas» dostoni bilan, misrliklar qadimiy piramidalar, fransuzlar Parijdagi Luvr saroyi, o'zbeklar Samarqandu Buxoro va Xiva bilan haqli ravishda faxrlanadilar.Millat va elatlarning o'ziga xos tarixiy merosi, san'ati va adabiyoti bilan bir qatorda ularning urfodat va marosimlari, madaniy munosabat va axloqiy fazilatlari ham ma'naviy qadriyatlar tizimiga kiradi. Bular xalqning o'zigaxosligini saqlab qolishda, yosh avlodni tarbiyalashda, shaxsning ijtimoiylashuvida muhim rol o'ynaydi.Milliy ma'naviy qadriyatlarda xalqning dunyoqarashi va hayotga munosabati,

ichkitabiati va turmush tarzi o’z ifodasini topadi. Bularda millatning ruhiy olami va tafakx kur tarzi, orzuumidlari va ideallari, vijdoni va ornomusi aks etadi.Milliy qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va turmugs tarzida o’ziga xos mezon vazifasini o’taydi. Ushbu qadriyatlar vositasida turli hodisa va holatlarga, yangi paydo bo’layotgan faoliyat turlari va rasmrusumlarga baho beriladi. Yosh avlodning hayotiy mo’ljallari, «zamona qahramoni» haqidagi tasavvurlari ham ma’naviy qadriyatlardan kelib chiqib shakllanadi.Milliy ma’naviy qadriyatlar ijobiy axloqiy sifatlarni takomillashtirish, davlat va millat rivojiga to’g’anoq bo’ladigan salbiy illatlarni bartaraf etish omilidir.Milliyg’oyava ma’naviy qadriyatlar orasida uzviy aloqadorlik o’zaro ta’sir mavjud bo’lib, bu quyidagilarda o’z ifodasini topadi:birinchidan,milliy qadriyatlar milliy g’oya uchun ma’naviy negiz, manba bo’lib xizmat qiladi;ikkinchidan,milliy g’oya qadriyatlarni boyitish, yanada yuksak bosqichga ko’tarish, odamlar ongi va qalbiga milliy qadriyatlarni singdirish omili bo’lib hisoblanadi;uchinchidan,milliy g’oya xalqning tub manfaatlari nuqtai nazaridan mavjud ma’naviy qadriyatlarga baho beradi, ijobiy jihatlarni rivojlantirish, salbiy holatlarni inkor etishning ma’naviy mezoni bo’lib maydonga chiqadi.Yuksak ma’naviyat—kelajak poydevori.Islom KarimovMa’naviyat, qadriyatlar va milliy g’oya — jamiyat hayotining juda murakkab va serqirra, o’zaro uzviy aloqadorlikda bo’lgansohalaridir.Ma’naviyat, milliy qadriyatlar va istikdol g’oyalari alohida olingan har bir shaxs hayotida ham, jamiyatdagi turli guruh va qatlamlar faoliyatida ham, umuman insoniyat taraqqiyotida ham katta ahamiyatga ega. Millat va davlat taraqqiyotining ma’lum davrlarida ma’naviyat va milliy g’oyaeng dolzarb, halqiluvchi omil bo’lib maydonga chiqadi.O’zbekiston istiqlolining asoschisi Islom Karimov tomonidan mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab taraqqiyotning o’ziga xos va o’ziga mos yo’lini belgilovchi milliy ma’naviy qadriyatlar masalasiga juda katta e’tibor qaratildi. Xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishning ilmiynazariy, fundamentalkonsepsiyasi ishlab chiqildi.Ayni paytda, buyuk kelajakni yaratish yo’lida xalqni birlashtirib, yakdil qila oladigan, bunyodkorlik ishlariga safarbar etib, ruhiy tayanch bo’la oladigan milliy g’oyani shakllantirish muammosi yurtboshimiz Islom Karimovning diqqat nazaridan bir daqiqa ham chetda qolmadi.«O’zining eqayotini, oldiga ko’ygan maksadlarini anik tasavvur kiladigan, o’z kelajagi xakida kayeuradigan millat xech bir davrda milliyg’oyava milliy mafkurasiz yashamagan va yashay olmaydi»1.Islom KarimovBinobarin, ma’naviyat, qadriyat va milliy g’oya — xalqning bugungi hayoti uchun ham ertangi istiqboli uchun beqiyos ahamiyatga ega bo’lgan ma’naviyijtimoiy sohalardir.Milliy o’zlikni anglash aynan ma’naviy qadriyatlarni o’zlashtirish, o’z xalqining tarixi, madaniy merosini o’rganish, butungi holati va ertanga istiqbolini aniq tasavvur etishdan boshlanadi. Har bir insonning mexdati, faoliyati, hayotiy maqsadlari ma’lum bir qadriyatlarga erishish, moddiy va ma’naviy boyliklarga ega bo’lishga yo’naltirilgan bo’ladi.Milliy ma’naviy qadriyatlar ko’p asrlik tarixga ega.O’zbekistondagi tarixiy obidalar, madaniy yodgorliklar yo urfodat va marosimlarni tahlil kilish, bularning paydo bo’lishi juda qadim zamonlarga borib taqalishini ko’rsatadi.Misol uchun, «Avesto»ni olaylik. Bundan 2700 yil muqaddam o’n ikki ming mol terisiga oltin harflar bilan bitilgan bu asar paydo bo’lishi uchun undan avval ham kamida necha ming yillik davr o’tganligi, teran hayotiy tajriba va hikmatlar to’planganligi, shubhasiz. Bu asar yuksak madaniy hayot,falsafa va fan, xattotlik va mushtariylik rivojlanishi natijasida yaratilganligi uchun ham shu paytgacha o’z qimmatini yo’qotmadi.Davrlar o’tishi bilan milliy ma’naviy qadriyatlar ham o’zgarib, rivojlanib, yangilanib, boyib boradi. Zamon ruhiga va taraqqiyot talablariga mos kelmay qolgan me’yor va talablar inkor etiladi. Yangicha tasavvur va yondashuvlar, fazilat va odatlar hayotga kirib keladi. Bo’nga kundalik hayotimizdan, turmush tarzi kiyinish, ovqatlanish, to’yxashamlarni o’tkazish va boshqalardan ko’plab misollar keltirish mumkin.Insoniyatning oxirgi yarim ming yillik umri davomida jahon bozori paydo bo’ldi, iqtisodiyot va madaniyatlarning o’zaro ta’siri kuchaydi. XXI asr boshiga kelib axborot texnologiyalari tufayli globallashuv jarayoni yangi bosqichga ko’tarildi. Bu sharoitda milliy qadriyatlarga chetdan bo’ladigan ta’sir beqiyos darajada zo’raydi. Bu ta’sir, bir tomondan, milliy madaniyatlarning boyishi,qadriyatlarning qayta baholanishi va yuksalishiga, ikkinchi tomondan esa, millatning ruhiyati va qadriyatiga yot bo’lgan odat va harakatlarning kirib kelishiga sabab bo’ldi.I.Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab milliy ma’naviy qadriyatlarni yuksaltirishga alohida e’tibor berib kelmoqda. Bir tuzumdan boshqasiga o’tish davrida aholining

ruhiyati va qadriyatlarida jiddiy o’zgarishlar sodir bo’ladi. O’z umrini yashabbo’lgan g’oyalar va mafkuraviy aqidalar, zamonga mos kelmaydigan munosabat va fazilatlar o’rnini yangilari bilan to’ldirish osonlikcha kechmaydi. Shularni hisobga olib, aytish mumkinki, milliy o’zlikni saqlash, tarixiy xotirani tiklash, kelajakka komil ishonch hissini uygotish uchun ma’naviyat, milliy ma’naviy qadriyatlar beqiyos ahamiyatga ega.Milliy ma’naviy meros,qadriyatlarning tarkibi, ko’rinishlari Milliy ma’naviy meros va qadriyatlar tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo’lib, uning tarkibi quyidagilardan iborat:— tarixiy meros va tarixiy xotira;— madaniy yodgorliklar, osoriatiqalar, qadimiy qo’lyozmalar;— ilmfan yutuqlari va falsafiy tafakkur durdonalari;— san’at va milliy adabiyot;— axloqiy fazilatlar;— diniy qadriyatlar;— urfodat, an’ana va marosimlar;— ma’rifat, ta’limtarbiya va hokazolar.Milliy ma’naviy qadriyatlar tizimidatarixiymerosvatariosiy xotiramuhim o’rin tutadi. Ma’naviyatni yuksaltirish va xalqning ruhini ko’tarishda tarixiy meros hamda tarixiy xotiraning juda katta ahamiyati bor. Tarixni haqqoniy o’rganish, undan saboqlar chiqarish lozim.O’zbek xalqi jahon madaniyati hazinasiga munosib hissa qo’shgan millatlar qatoridan faxrli o’rinni egallaydi.Madaniy yodgorliklar, me’morchilik san’ati namunalari, kadimiy ko’lyozmalar— milliy ma’naviyatning bebaho durdonalari, xalqimiz uchun eng qadrli va muqaddas bo’lgan boyliklardir. Bularni avaylabasrash,kelajak avlodlarga yetkazish ma’naviyat sohasidagi eng dolzarb vazifadir.Ilm-fan va uning yutuchushri— milliy yokihududiy chegaradan chiqadigan, butun jahon e’tirof etadigan, umuminsoniyatga xizmat qiladigan boylikdir. Biroq olimning ijodi va uning ilmiy kashfiyoti, avvalo, uning millati va Vatanini dunyoga tanitadi, milliy qadriyatni jami bashariyatning yutushga aylantiradi.Milliylik xalqning ruhiyati va ma’naviyati, ayniqsa,san’at va adabiyotrivojida yorqin ifodalanadi. Ezgulik va poklikni, insoniylik va haqqoniylikni kuylagan buyuk asarlar, qaysi janrda yoki qaysi tilda yaratilganidan qat’iy nazar, jahonga taniladi, pirovardida yana shu millatning xalqaro nufuzini yuksaltiradi.Milliy ma’naviy qadriyatlar tizimidaaxlokiy sifat, diniy qadriyatlarmunosib o’rin egallaydi va milliy o’zlikni anglashningmuhim sharti, omili sifatida namoyon bo’ladi. Axloqiy va diniy qadriyatlar aksari hollarda o’zaro bog’liq bo’lib, jamiyatning ma’naviy yuksalishida, yosh avlod tarbiyasida birdek muhim ahamiyatga ega.Shularni hisobga olib, prezident Islom Karimov «TurkistonPress» agentligi muxbirining savollariga javob berar ekan, madaniy, ma’naviy, axloqiy qadriyatlarni saqlab qolish va avloddanavlodga yetkazishda dinning beqiyos xizmati borligini uqtiradi:«Diniy kadriyatlar, islomiy tushunchalar es&yotimizga shu k&dar singib kgtganki, ularsiz biz o’zligimizni yo’kotamiz»1,deb ta’kidlaydi.Harbir xalq, millat yaratgan ma’naviy qadriyatlar, uning dunyoga qarashi va hayotga munosabati, o’ziga xos betakror xususiyatlari, ayniqsa,urfodat va marosimlardato’laqonli namoyon bo’ladi. Marosimchilik bir qator ijtimoiy funksiyalarni bajaradi, milliy o’zlikni saqlashda, yoshlarni tarbiyalashda, muayyan royalarni ruhiyatga singdirishda katta ahamiyat kasb etadi.Tarbiya va ta’limning milliy xususiyatlariham ma’naviy qadriyatlar tizimida o’z o’rniga ega. Xalqning kelajagi yoshlarga bog’liq ekanligi qanchalik haqiqat bo’lsa, bularni milliy ruhni tarbiyalash zarurati ham umume’tirof etilgandir. Milliy tarbiya xalqning o’zo’zini saqlash va istiqbolini ta’minlash omilidir.Xulosa qilib aytganda, milliy ma’naviy qadriyatlarning har bir tarkibiy qismi xalqning mustaqilligini mustahkamlash va kelajagini ta’minlashda muhim ahamiyatgaega.Milliy qadriyatlar — milliy g’oyaning ma’naviy negizi. Milliy g’oya — millat tafakkurining mahsuli, ijtimoiy ongning yuqori darajadagi shakli, xalq falsafasining o’zagidir.Turli xalqlarning milliy g’oyasi ularning maqsadmuddaolarini, orzuumidi va ishonche’tiqodini ifodalaydi, ayni paytda, muayyan tamoyil va negizlarga asoslanib rivojlanadi. Tarixsaboqlari guvohlik berishicha, o’tkinchi manfaat va g’aliz niyatlarga tayangan, o’zga xalqlar va yurtlarga tajovuz qilishni, bosqinchilikni ko’zlagan yovuz g’oya va mafkuralar millat va davlatlarni tanazzulga duchor etgan. Faqat ezgu g’oyalar va yuksak qadriyatlar negizida shakllangan milliy g’oyalar xalqlarni taraqqiyotga eltgan.

Savol va topshiriqlar:

1. Milliy qadriyatlar qanday tushuncha ?
2. Milliy ma’naviy meros qanday meros ?
3. «Qadriyat» tushunchasi qanday tushuncha?

MAVZU:XAFAQON KASALIKLARI (GIPERTANIYA).ILMIY MAQOLA

REJA:

1. Xafaqon kasaligini keltirib chiqaruvchi omillar
2.Gipertaniya kasaligi bilan kurashish davri
2. Ilmiy maqola yozish qonun qoidalar

XAFAQON KASALIKLARI (GIPERTANIYA).ILMIY MAQOLA

Xafaqon kasalligi aholi o 'lta sid a keng tarqalgan. Xafaqon kasalligi qon bosimi normadan ortiq b o'l gan kishilar orasida 70-80% ni tashkil etadi.Xafaqon kasalligi - arterial bosim ning k o 'tarilish i bilan o ‘tadigan kasallikdir. Xafaqon kasalligining k elib chiqishiga irsiy inoyillik bilan, b a’zi tashqi omillar ta’sirining birgalikda q o ‘shilib kelishi sabab b o 'lad i. H ar xil salbiy tashqi omillar ta’sirida bosh miyaning q o’ z g a lg a n b o ‘lishi natijasida xafaqon kasalligi kelib chiqishi kuzatilgan.Jahon S og‘liqni saqlash (tashkiloti nomenklaturasi b o ’yicha arterial bosiin 140/90 mm simob ustunidan yuqori bo'lm aganda normal, 160/95 mm si mob ustunigacha «tahdid soladigan», biroq hali gipertoniya em as deb hisoblanadi. Arterial bosimi b u ndan yuqori b o lg a n bem orlar gipertoniya kasalligiga chalingan hisoblanadilar. X afaqon kasalligi uzoq vaqt davom etadi. Qon bosimining simob ustuni h iso b id a 180/100 - 200/120 m m va undan yuqori b o 'lish i kuzatiladi. Tomirlarda qay tm as o 'zg arish lar y u z beradi. Xafaqon kasalligi yurak, buyrak. bosh miya faoliyati izdan chiqishiga olib kcladi.Xafaqon kasalligi kechishi b o ‘yicha xavfsiz, sekin avj oladigan hamda tez avj oladigan bo'ladi. Kasallikning klinik manzarasi miya. yurak, buyrak tipida va aralash kechishi mumkin.Kasallik boshlanishida qon bosim i yuqoriga k o 'tarilib , tusliib turadi. Bemor bosh o g ‘rig 'i, aylanishi, q u log ’ida shovqin eshitilishi, k o ‘z oldida narsalar uchib turishi, tez charchash, holsizlik, yurakning bezovta urishidan shikoyat qiladi.Xafaqonni davolash uchun bem orning lurmush va m ehnat sharoitini m c’yoriga keltirish, uni tinchlantirish lozini. Ish jarayonida salbiy ta ’sirlarni kamaylirish (silkinish. shovqin). tungi ishlardan ozod qilish lozim. Tamaki chekish, spirtli ichimliklarni iste’mol qilish q at'iyan man qilinadi. K o ’p hollarda ovqatdagi osh tuzi miqdorini chegaralash tavsiya etiladi.Asab tizimini keskin q o 'zg 'atu v ch i achchiq ch o y . kofe, o 'tk ir dorivorlar, so’rlangan mahsulotlar istc'mol qilish mumkin emas.

L u g ‘at

bosh miya - головноймозг nogiron - инвалид

irsiy - генетический

avj olmoq - прогрессировать omil - фактор

simob - ртуть so’ralgan - конченный

1. X a f a q o n k asallig i q a n d a y k elib ch iq ad i?
2. A r te r ia l q o n bosim i q a n d a y b o’lg a n o d am lar g ipecrto n iy a kasalligiga c h a lin g a n h iso b lan ad i?
3. X af aq o n g a ch alin g an b e m o r la r n i m ad an sh ik o y at q ilish ad i?
4. X af aq o n n i d av o lash d a n im a la r g a rio y a qilish k er ak ?
5. “ G ip e r to n iy a ” ,matn in i q is m la r g a b o ‘lib chiqing. H a r b ir q ism id a asosiy

m a z m u n bildir u v ch i g ap n i to p in g .

6. M a tni s o 'z la b b erin g .

GRAMATIKA: ILMIY MAQOLA

LMIY XABAR VA ILMIY MAQOLA YOZISH USLUBIYOTI HAQIDA

M.Qahhorov, U.Qosimova** — Qo’qon DPI

Ma’lumki, magistratura ta’lim tizimini isloh qilish vo’nalishlaridan biri bo’lib, bunda magistrantlarni ilmiy faoliyatga tayyorlash, shu jumladan qisqa ilmiy xabar (tezis) va ilmiy maqolalar yozishga o’rgatish bu sohaning muhim vazifalaridan biridir. Maqolamizni yozishdan maqsad iim bilan shug’ullanuvchi bo’lg`usi tadqiqotchilarga ilmiy xabar (tezis) va ilmiy maqoia yozish uslubiyoti haqida to’laqonli ma’lumot berishdan iboratdir. Binobarin aksariyat tadqiqotchilar, ayniqsa, yoshlar bu borada yetarli tushunchaga ega emas. Ayrim nashrlarda e’lon

(qilinayotgart maqolalar tuzilishi, mantiqiy asoslanishi, yangi nuqtai nazarlarga. ega emasligi, ilmiylik kasb etmaganligi va boshqa salbiy jihatlar bilan - ilmiy jamoatchilikda taassuf uyg'otadi.

Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, tezis — yunoncha thesis so'zidan olingan bo'lib, asoslash, nuqtai nazar degan ma'noni bildiradi. Tezis - nutq, nuqtai-nazar, ma'ruza, xabarlarning muhim asosiy tomoni, qonun-qoidalarning qisqartirilgan holatidir (1). Dissertasiya va ilmiy ma'ruzalaming qisqartirilgan shakliga ham tezis shakli deyiladi. Tezisga, ya'ni ilmiy xabarga nazariya iborasining ma'nodoshi deyish mumkin. Tadqiqotchi tezisda o'z nazariyasini olg'a suradi. tezis bir mulohaza yoki bir necha mulohazalardan iborat bo'lishi mumkin. Ilmiy maqolalarda ko'p hollarda tezis yakka hodisani ifoda qilib keladi. U mantiqan aniq va ravshan bo'lishi kerak. Agar shu talablarga mos yozilmasa tezisni isbotlash yoki rad etish uchun asos bo'la olmaydi.

Ilmiy maqola yozish uslubiyoti haqida yozishdan oldin maqola o'zi nima degan savolga to'xtalsak. Adabiyotshunoslikda maqola publistik janr hisoblanadi. janrda ijtimoiy hayot hodisalari chuqur tahlil qilinadi, nazariy va ommaviy jihatdan umumlashtiriladi, davlat siyosati va iqtisodiyoti, texnika fan va madaniyatda erishilgan yutuqlar, ilg'or ish tajribalari ommalashtiriladi, xalq xo'jaligidagi nuqsonlar tanqid qilinadi (2),

Endi ilmiy maqola tushunchasi haqida to'xtalamiz. Ilmiy maqola bu mustaqil ilmiy tadqiqot bo'lib, u dolzarb muammo bo'yicha o'z fikrlarim bayon qiladi. Ilmiy maqola vazifasi fan, madaniyat, texnika yutuqlarini tushuntirish, ommalashtirish o'quvchining intellektual saviyasini oshirishdan iborat. Ilmiy maqola yozishdan oldin maqola nima uchun yoziladi, ish mazmuni nimadan iborat bo'ladi, maqoladan qanday xulosa chiqarish kerak, degan sayollarga javjb o'ylash lozim va maqola yozishdan aniq bir maqsadni ko'zlash kerak bo'ladi. illmiy maqola yozishda birinchi bo'lib, mavzuni belgilash, uning tahlili, reja tezislarni tuzish kerak. Maqolalar ilmiy uslubda yozilishi lozim. Maqola faqat uchinchi shaxs tomonidan yozilishi shart. Maqola bayoni o'quvchi uchun qulay bo'lgan ketma-ketlikda olib borilishi, bu quyidagicha bo'lishi kerak: umumiydan xususiyga, soddadan murakkabga qarab fikrlar bildiriladi. Maqolaning mantiqiy tuzilmasi kirish, asosiy qism va xulosadan iborat bo'ladi. Kirish qismida mavzu asoslanishi, ilmiy nazariy jihatdan uning istiqboli (perespektivligi) berilishi, bugungi kun talablari asosida ko'rib chiqilishi kerak. Asosiy qismda dalillar, ilgari surilgan ilmiy xabarni tasdiqlaydigan faktlar bo'lishi, bunda induksiya va deduksiyadan foydalanish, ya'ni aniqdan umumlashtirishga, umumiydan batafsil ko'rib chiqishga o'tish lozim bo'ladi. Xulosada asosiy fikrni ixchamlab tezislar shaklida bayon qilinishi, ilgari surilgan tezisni tasdiqlaydigan umumlashmalar berilishi va muammoning dovomiyligini ko'rsatish
kerak.

Maqola mazmuni mavzuga muvofiq bo'lishi maqolaning asosiy tezisi aniq, lo'nda bo'lishi va ishning hamma qismlari unga bo'ysundirilgan bo'lishi, maqolaning qismlari bir-biriga nisbatan mutanosib (proporsional) bo'lishi, mantiqlikning buzilishlari bo'lmasligi, ish ilmiy uslub talablariga javob berishi, nutqiy xatolar bo'lmasligi lozimdir va bular maqola yozishning asosiy talablaridir. Masalan, Qo'qon DPI BTM kafedrasi dotsenti Zokirjon Isaqovning "SHe'rning lisoniy tahlili xususida" maqolasida (Ilmiy to'plam. T., .2014), Qo'qon DPI katta o'qiluvchisi Dilorom Saliyevaning "O'quvchilarda o'zini o'zi anglash orqali o'quv mustaqilligini ta'minlash" ("Xalq ta'limi" j.2014 yil 5-son), TDPU dotsenti Nargiz Nishonovaning "Farzand tarbiyasida mutaffakrlarimiz merosidan foydalanish yo'llari" ("Xalq ta'limi" j. 2014 vil 5-son) maqolalari bunga misol bo'la oladi.

Xulosa qilib aytganda ilmiy xabar va ilmiy maqola zamon talabiga mos, tushunarli ilmiy tilda yozilgan, ilmiy yangilikka ega yaxlit tugallangan ilmiy asar bo'lishi lozim.

Ilm-fan sohasida qo'llaniluvchi nutq uslubi ilmiy uslub hisoblanadi.Ilmiy uslub daliliy ma'lumotnomalar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga (ta'rif-qoidalarga) ega bo'lish, atamalarining keng qo'llanilishi bilan boshqa uslublardan farq qiladi.

Ilmiy uslub ham o'z ichida ikki guruhga bo'linadi: 1) sof ilmiy uslub; 2) ilmiy-ommabop uslub.

Sof ilmiy uslub muayyan fan sohasidagi kishilarga nisbatangina qo‘llaniladi. Shuning uchun bu uslubda fanning ma’lum sohasiga doir atamalar keng qo‘llaniladi.

Ilmiy-ommabop uslubda esa fan yutuqlarini keng ommaga yetkazish maqsad qilinadi. Shuning uchun bunday uslub publitsistik uslubga yaqinroq bo‘ladi. Ma’lum fan sohasiga doir atamalar qo‘llanilsa ham, lekin bu atamalar xalqqa tushunarli bo‘lishi uchun izohlanadi.

Sof ilmiy uslubning o‘zi ham fan tarmoqlari bo‘yicha bir-biridan farqlanadi. Masalan, matematika uslubi bilan tarix yoki adabiyotshunoslik uslubi bir xil emas. Tarix va adabiyotshunoslik uslubi publitsistik uslubga yaqinroq tursa, matematika fanining bayon qilish uslubida eng yuqori darajadagi mavhumlashtirish, turli xil formulalar, shakliy ifodalar orqali ilmiy xulosalarni bayon qilish kuchli bo‘ladi.

Topshiriq. Matnni o‘qing, ilmiy uslubga xos bo‘lgan o‘rinlarga diqqat qilib ularni izohlang.

Bakteriyalarni o‘ldiradigan va organizmni yuqumli kasalliklarga qarshi chidamli qiladigan moddalar qonda bo‘ladi.

Leykotsit tarkibidagi leykin ham bakteriyalarni o‘ldiradi. Shuningdek, leykinga o‘xshash plakin degan modda qon trombotsitlaridan ajratib olinadi.

Qonning tabiiy muhofaza moddalaridan biri betalizin hisoblanadi.

Mana shulardan tashqari, qon va organizm suyuqliklarida «ingibitorlar» deb atalgan moddalar ham topilgan. Ular mikroblarning rivojlanishini va ko‘payishini to‘xtatibgina qolmay, balki viruslarga qarshi g‘oyatda faol ta’sir qiladi. Chunonchi, nukleazalar oqsil tabiatli fermentativ moddalar bo‘lib, nuklein kislotalarni parchalaydi. Shunisi ham borki, ribonuklein kislota RNKning faqat ribonukleaza fermenti, dezoksiribonuklein esa DNKning dezoksiribonukleaza fermentinigina parchalaydi.

*Topshiriq.*Matnni o‘qing, unda ishlatilgan atamalarga diqqat qiling va ularning ilmiy uslubni vujudga keltirishdagi o‘rnini belgilang.

Mikrobiologiyaning rivojlanishi tufayli sanoatda turli antibiotiklar, aminokislotalar, stearid garmonlar va enzimlar ishlab chiqarish imkoniyati tug‘ildi.

Hozirgi vaqtda sintetik yuvuvchi vositalarda gidromentlar ishlatilmoqda. Ular suvda erimaydigan murakkab organik moddalarni katalizator sifatida parchalaydi, natijada hosil bo‘lgan «mayda» molekulalar suvda yaxshi eriydi. Shu tipdagi ferment (enzim)lardan proteazlar kengroq tarqalgan. Bundan tashqari, amilaza ham keng ishlatilmoqda; bu ferment uglevodorodlarni gidroliz qiladi va yog‘ni parchalaydi.

Mamlakatimizda yaqindan beri tarkibiga enzim qo‘shilgan yuvuvchi vositalarning yangi xillari ishlab chiqarilmoqda. «Sino» pastasi va «Oka» poroshogi turli xil gazlamalar va sun’iy-sintetik tolalardan to‘qilgan kiyimlarni yuvish uchun mo‘ljallangan.

*Topshiriq.*Iqtisodiyot sohasiga oid quyidagi matnni o‘qing. Ilmiy uslubning o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering. Atamalarni daftaringizga ko‘chirib yozing va izohlang.

Bozorda, tovar muomalasi jarayonida tovar pulga almashinishi (sotish) va pulning tovarga almashinishi (xarid qilish) sodir bo‘ladi. Bunga tovar-pul munosabatlari deyiladi. Shuning uchun ham bozor pul vositasida tovarlar oldi-sotdisi asosida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmuasidir. U xaridorlar va sotuvchilarni birga qo‘shuvchi mexanizm sanaladi.

Bozor iqtisodiy kategoriya sifatida takror ishlab chiqarishning ayirboshlash bosqichiga xosdir. Bu yerda ayirboshlashni tushunish kerak. Bir tovar to‘g‘ridan to‘g‘ri (barter yo‘li bilan) ikkinchi bir tovarga almashganda bozor munosabatlari yuzaga kelmaydi. Bundan ko‘rinadiki, bozorning eng muhim sharti pul bo‘lib, tovar ayirboshlashganda u vositachi bo‘lishi kerak. Berilgan ta’rifga ko‘ra aytish mumkinki, bozor jamiyatdagi ishlab chiqarish munosabatlari tizimining murakkab iqtisodiy tarkibiy qismidir, chunki u ishlab chiqaruvchi bilan iste’molchi o‘rtasida markaziy o‘rin tutadi. Demak, jamiyat rivojlanishining nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy tomonlarini ham qamrab oladi.

Topshiriq. Quyidagi atamalar asosida ilmiy uslubga xos matn tuzing.

Vazn, aruz, qofiya, she’riy janr, tuyuq, misra, radif, ruboiy, oddiy ruboiy, taronayi ruboiy.

*Topshiriq.*Ko‘chiring. Berilgan matndan ilmiy uslubga xos so‘zlarni aniqlang.

Sonli tengsizliklarning asosiy xossalari.

Istalgan qo‘shiluvchining, tengsizlikning bir qismidan ikkinchi qismiga shu qo‘shiluvchining ishorasini qarama-qarshiga almashtirgan holda ko‘chirish mumkin.

Agar tengsizlikning ikkala qismi ayni bir musbat songa ko‘paytirilsa, u holda tengsizlik ishorasi o‘zgarmaydi. Agar tengsizlikning ikkala qismi ayni bir manfiy songa ko‘paytirilsa, u holda tengsizlik ishorasi qarama-qarshisiga o‘zgaradi.

Chap va o‘ng qismlari musbat bo‘lgan bir xil ishorali tengsizliklarni ko‘paytirish natijasida xuddi shu ishorali tengsizlik hosil bo‘ladi. *(Darslikdan)*

Topshiriq. «Tadbirkorlikka keng yo‘l», «Kichik korxonalar hayotidan», «Bozor infrastrukturasi», «Makroiqtisodiyot nima?» kabi mavzulardan birida ilmiy-ommabop matn tuzing, matnning o‘ziga xos tomonlarini izohlang.

Topshiriq. Uch guruhga bo‘lining: 1-guruh huquqshunoslik, 2-guruh matematika, 3-guruh tilshunoslik faniga oid atamalarni yozib izohlasinlar.

*Topshiriq.*O‘qing. Quyidagi matn ichidan ilmiy uslubga xos so‘zlarni toping. Shu so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Ikkinchi darajali bo‘laklar fikrni to‘laroq va mukammalroq ifodalash uchun xizmat qiladi. Ular faqat bosh bo‘laklarga bog‘lanib, ularni izohlab, to‘ldiribgina qolmay bir-birlariga bog‘lanishi, bir-birining ma’nosini aniqlashi ham mumkin.

Gaplar tuzilishiga ko‘ra, to‘rt xil bo‘ladi: sodda, qo‘shma, murakkab gaplar va periodlar.

Sodda gap ma’lum fikr, maqsadni ifodalovchi, grammatik va intonatsion tomondan shakllangan sintaktik birlikdir. Sodda gap tuzilishiga ko‘ra yig‘iq yoki yoyiq bo‘lishi mumkin. Bosh bo‘laklardan tarkib topgan gaplar yig‘iq gap, agar bosh bo‘laklardan tashqari ikkinchi darajali bo‘laklar ham ishtirok etsa yoyiq gap sanaladi.

Topshiriq-Vazifa.. O‘qing. Matnning qaysi uslubga xosligini aniqlang, uni boshqa uslubga o‘tkazib gapiring.

Tekislikdagi tuproqning tarkibi, undagi nam miqdori, turli yil fasllardagi issiqlik va yorug‘lik miqdoriga qarab tog‘ oldi va tog‘larda turli-tuman o‘simliklar o‘sadi. Qanday bo‘lmasin bitta turning katta-katta maydonlarda chakalakzor hosil qilishi tabiatda juda kam uchraydi. Odatda, har xil o‘simliklar birgalikda yashayvermasdan, balki ma’lum o‘simlik turlari bir-biri bilan birga o‘sadi. Tabiatda o‘simliklarning gruppalanishi tasodifiy emas. O‘simliklar millionlarcha yillar davomida shunday turkumlanib qolgan. Muayyan tashqi muhit bilan bog‘langan o‘simliklargina birgalikda o‘sishi mumkin edi. Shuning natijasida ma’lum bir joydagi sharoitlarga moslashgan o‘simlik gruppalari, ya’ni birga o‘sadigan o‘simliklar paydo bo‘lgan.

Savol va topshiriqlar:

1.Tabiatni nima uchun asrashimiz kerak?

2.Ekologik muommolar qanday kelib chiqadi.?

3. Ekologiya,tabiat hodisalari,to`fon,jazirama –so`zlariga izoh bering?

4.Ilmiy uslub o‘z ichida nechta guruhga bo‘linadi?

5.Ilmiy uslub qanday uslub hisoblanadi?

6. Ilmiy uslubning o‘ziga xos belgilari qanday?

7. Ilmiy uslubning qanday turlari bor?

MAVZU : ENDOKRIN KASALLIKLAR . Ilmiy maqolalar tahriri

1. Endokrin kasalliklari.

2. Ilmiy maqolalar tahriri.

3.Ilmiy maqoladan namuna.

Maqola – bu mustaqil ilmiy tadqiqot bo'lib, u dolzarb ilmiy muammo bo'yicha o'z fikrlarini bayon qilishdir.

Maqola ustida ishlashning asosiy bosqichlari
1. Mavzuning belgilanishi, uning tahlili, reja/tezislarning tuzilishi.
2. Reja/tezislar asosida maqolaning birinchi varianti ustida ishlash
3. Ishning yakunlanishi, matn tahlili, takomillashtirish, tuzatish.

Maqola yozishga kirishishdan oldin quyidagi savollarga javob bering:
- materialdan qanday xulosa chiqarish kerak?
- ish mazmuni nimadan iborat bo'ladi?
- maqola nima uchun yoziladi?
Agar Siz o'z maqolangiz yakunini «ko'rib turgan bo'lsangiz», unda ish puxta bo'lishi kerak.

Maqolaning tuzilishi
I. Kirish qismi

Mavzuning asoslanishi + mavzuning dolzarbligi + asosiy tezis	• Qo'yilgan mavzuning retrospektiv tahlili. • Mavzuni bugungi kun pozisiyalaridan ko'rib chiqish zarurligining asoslanishi. • Mavzu asosiy tushunchalarining izohlanishi. Mavzuni bayon qilish bilan bog'liq xatolar bayoni va hokazo

II. Asosiy qism

Dalillar+ ilgari surilgan tezisni tasdiqlaydigan faktlar	• induksiyadan foydalanish: aniqdan umumlashtirishga; • deduksiyadan foydalanish: umumiydan batafsil ko'rib chiqishga.

III. Yakunlovchi qism

Ilgari surilgan tezisni tasdiqlaydigan yoki inkor qiladigan xulosalar	• asosiy fikrning tezislar shaklida bayon qilinishi; • xulosalar; • muammoning davomiyligini ko'rsatish


Matnni rasmiylashtirishdagi xarakterli nuqsonlar
1. Mavzudan chetga chiqish, uni boshqasi bilan almashlash.
2. Haddan ortiq hajmli kirish qismi,aniq xulosalar yo'qligi.
3. Fikrni bayon qilishdagi muayyan bosqichlarni ko'rsatadigan xatboshilarni ajrata bilmaslik.
4. Materialni bayon qilishning uzunligi va haddan ortiq ko'pso'zlilik.
5. Har xil nutqiy va uslubiy xatolar.

Endokrin bezlar va ularning gormonlari


Ko`pgina umurtqali hayvonlarning endokrin tizimi quyidagi endokrin bezlar bilan taqdim qilingan (2-rasm ). Jinsiy bezlar (gonadlar)-sutemizuvchilarda jinsiy bezlardan ajraladigan jinsiy gormonlar (ichki sekretsiya) bilan birga aralash sekretsiya qiluvchi juft organlardir. Urug`donlar yoki testikulalar (testes, orchis, didimis) erkak gonadlar-ular barcha voyaga etgan sutemizuvchilarda pallachali tuzilishga ega qorin bo`shlig`idan tashqarida urug` xaltasida joylashgan. Pallachalarda spermotogenezni amalga oshiruvchi urug` kanalchalari joylashgan. Urug`donlarning gormon ishlab chiqaruvchi hujayralari bo`lib, urug` kanalchalari orasida

joylashgan Leydigning intretitsialli hujayralari hisoblanadi. Unda erkak hayvonlar organizmidagi reproduktiv funktsiyalarni boshqaruvchi asosiy erkaklik gormoni (androgen)-testosteron hosil bo`ladi. Leydig hujayrasida faol bo`lmagan androstendion, degidroepiandrosteron kabi androgen qatorli birikmalar ham hosil bo`ladi. Urug`donda bir muncha miqdordagi urg`ochilik gormonlari va spermatogenez ingibatori ingibin ( follikulostatin ) ham sintezlanadi. Bundan tashqari embrional urug`don urg`ochi hayvonlarda ichki urg`ochilik jinsiy organlarda shakllanuvchi juda muhim gormon-Myuller kanallarining regressiya omili (MKRO) ajratadi.

Tuxumdonlar (ovaria, oophoron)-urg`ochilik gonadlari, sutemizuvchilarda kichik tazga kirish darajasida qorin bo`shlig`i ichida joylashgan. Parrandalarda faqat bitta chap tuxumdon bo`lib, o`ngdagi esa –rudimentlashgan. Tuxumdonning ichki sekretorlik qismi follikulalar, sariq tana hamda interstitsialli to`qimalar bilan taqdim etilgan. Tuxumdonning asosiy gormonli birikmalari: estrogenlar (estradiol, estron)-ikkilamchi urg`ochilik jinsiy belgilarni shakllanishini ta`minlovchi; progestinlar yoki gestagenlar yoki progestogenlar-sutemizuvchilarda bug`ozlikni rivojlanishini va jinsiy sikllarni mutadil kechishini boshqaruvchi; relaksin-tug`ish gormoni; ingibin (follikulostatin)-follikulogenezning ingibatori. Bundan tashqari tuxumdon hujayralarida androgenlar ham hosil bo`ladi.



2-rasm.Umurtqalilarning asosiy endokrin bezlari va ulardan sekretsiya qilinuvchi gormonlar (V.B.Rozen bo`yicha-1984)




3-rasm. Sut emizuvchilar urug'donining ko`ndalang kesimi.

1-urug' yo'li, 2-intersttsialli leydig hujayrasi, 3-spermatogoniy, 4-I tartibli spermatotsit, 5-II tartibli spermatotsit, 6- spermatozoid, 7- Sertoli hujayrasi, 8- urug'don po`stlog'i hujayrasi.

Buyrakusti bezlari (glandulal suprarenales) – yuqori darajada rivojlangan umurtqalilarda buyrakning yuqorigi qutbiga yaqin joylashgan alohida-alohida holdagi ikkita po`stloq va mag`iz qatlamlaridan iborat endokrin bezlardir. Tog`ayli baliqlarda esa ushbu ikki to`qima morfologik jihatdan bir-biri bilan bog`lanmagan. Buyrakusti bezi po`stlog`i adrenalat po`stloq yoki interrenalatli to`qima (substantia corticals)-ko`pchilik umurtqalilarda uch qismdan iborat organning tashqi qatlami: yuza qatlam-koptokchali (zona glomerulosa), o`rta-tutamli (zona fasciculata) va ichki-to`rli (zona reticularis). Buyrakusti bezining po`stlogi bilan kortikosteroidlar sekretsiya qilinadi; kortizol-tutamli qismda va qisman to`rli zonada hosil bo`lsa, kortikosteron-tutamli qismda va qisman koptokchali qismda hosil bo`ladi. Ulardan birinchisi Na^+, K^+ ionlari almashinuvini hamda H^+ ekskretsiyasini boshqaradi, qolgan ikkalasi esa organizmni maxsus bo`lmagan jarayonlarga moslashish integratsiyasida ishtirok etish bilan birga uglevodlar va oqsillar almashinuvini boshqaradi. Buyrakusti bezining to`rli qismida yana bir necha androgen qatorli birikmalar (androstendion, II-oksiandrostendion, adrenosteron, degidroepiandrosteron va uning sul`fatlari) ham hosil bo`ladi. Bu birikmalar o`z-o`zidan biologik faol bo`lmasada, lekin periferiyada faol shakldagi erkaklik jinsiy gormonlarga aylanish qobiliyatiga egadirlar. Ayrim turdagi sutemizuvchilarning buyrakusti bezi po`stloq qismida estrogenlar ham hosil bo`lishi mumkin. Adrenalatli po`stloq to`qimalari buyrakusti bezidan tashqarida buyrakoldi yog`li kletchatkani o`rab turuvchi qorin pardasi yuzasida va

boshqa joylarida joylashgan bo`lishi mumkin. Bunday to`qimalar ektopirlangan to`qimalar deyiladi.

Buyrakusti bezining mag`iz qatlami (substratia medularis) – organning ichki qismi bo`lib, xromaffinli to`qimalardan tashkil topgan. Unda gormonoidlar guruhiga mansub katexolaminlar (adrenalin, noradrenalin) hosil bo`ladi. Katexolaminlar uglevodlar va yog`lar almashinuvida, yurak-tomirlar tizimini faoliyatini boshqarishda, silliq muskullar funktsiyalarini, qon ivishida, organizmning "o`tkir" moslashish reaktsiyalarini mobilizatsiyasini nazorat qilishda muhim rol o`ynaydi. Kelib chiqishi jihatidan neyroektodermal bo`lgan katexolaminlarni ishlab chiqaruvchi xromaffinli to`qimalar ayrim simpatik gangliya va paragangliya oblastlarida ham mavjuddir.




4-rasm. Sut emizuvchilar tuxumdonining tuzilishi (Gorbmen bo`yicha, 1964).

1-shakllanuvchi primordial follikulalar, 2- primordial follikulalar, 3-o`suvchi follikulalar, 4-vezikulyar follikulalar, 5-yetilgan follikulalar, 6- follikula bo`shlig'i, 7-tuxum olib yuruvchi oyoqcha, 8-atretik follikula, 9-yangi hosil bo`lgan sariq tana, 10-yeitilgan sariq tana, 11-involyatsiyalanuvchi sariq tana, 12-interstsial to`qima, 13-qon tomiri, 14-belbog', 15-zarodishli epiteliy, 16-tuxim hujayra.I-follikulaning tashqi pardasi, II- follikulaning ichki pardasi, III-granulali to`qima, IV-follikuylarli suyuqlik.


**Me`daosti bezi** (pancreas) – qorin bo`shlig`ining chap tomonida me`da ostida joylashgan bo`lib, aralash sekretsiya qiluvchi toq organdir. Uning ekzokrin qismi atsinozli (zimogenli) to`qimalar

bilan taqdim qilinsa, endokrin qismi turli tipdagi oval shaklidagi hujayralar jamlanmasidan iborat murakkab ichkisekretor apparat –Langergan orolchalari bilan taqdim etiladi: α-hujayralarda uglevod va yog`lar almashinuvini boshqaruvchi – glyukogon gormoni ( bu gormon oshqozon-ichaklar tizimida ham hosil bo`ladi) hosil bo`ladi: β-hujayralarda uglevodlar, yog`lar va oqsillar metabolizmini boshqaruvchi –insulin; difintivli (D-) hujayralarda bizning nazarimizda uchta gormon-somatostatin, pankreagastrin va sekretin sintezlanadi. Somastatin-glyukogon, insulin va boshqa bir qator gormonlarni sekretsiyasini nazorat qiluvchi gormondir.




5-rasm. Buyrak usti bezining topografiyasi va tuzilishi; A-turli turdagi umurtqalilarda buyrak usti bezining joylanishi va uning qatlamlari (Gorbmen bo`yicha 1964); B- Buyrak usti bezi po`stlog'ining zonalari:

1-interrenalli to`qima, 2-xromaffinli to`qima, 3-buyrak, 4-tashqi kapsula, 5-tupli zona 6- bog'li zona, 7-turli zona, 8-mag'izli qatlam.



6-rasm. Meda osti bezining mikro tuzilishi.

1-langergans orolchasi, 2-α-hujayralar, 3-β-hujayralar, 4-D-hujayralar, 5-atsinozli to`qimalar.




7-rasm. Qalqonsimon bezlarning tuzilishlari; A-turli umurtqalilarning qalqonsimon bezining makro sturukturasi (Gorbmen bo`yicha, 1964); B- qalqonsimon bez follikulalarining gipofunktsiya holatidagi mikro strukturasi.

Pankreagastrin – me`dadagi kislotali muhitni boshqaradi. Xuddi shunday gormon (gastrin) me`dada ham sekretsiya qilinadi. Sekretin-me`daosti bezining ekzokrinli sekretsiyasini stimullaydi, yana ingichka ichaklarning yuqorigi bo`limida ham hosil bo`ladi. Parrandalarda yana bir o`zida gastrin va samotastatin gormonlari xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim pankreatik peptid (APP) topilgan.

Qalqonsimon bez (glandula thyroidea) – qalqon yoki taqa shaklida, tomoq ostida, bo`yinning o`rta qismida joylashgan toq organdir. Bezning morfofunktsional birligi – follikulalardir. Bezning bosh follikulyarli hujayralarida ikkita gormon hosil bo`ladi: tiroksin va triyodtironin. Ular energiya almashinuvida, oqsillar sintezida, to`qimalarning tabaqalanishida va organizmning o`sish va rivojlanish jarayonlarining boshqarilishida muhim rol o`ynaydi. Bezning maxsus hujayralarida (C-hujayralar yoki parafollikulali hujayralar), odatda bu hujayralar qator turdagi hayvonlarda qalqonsimon bezdan alohida joylashgan bo`lib (ultimobronxial tanachalar), ularda yana bir kaltsiy va fosfor almashinuvini boshqaruvchi-kaltsitonin gormonini ajratadi.

Qalqonzimon bezoldi bezchalari (glandulae parathyroideae) – uncha katta bo`lmagan ikkita yoki to`rtta bezli hosilalar bo`lib, asosan qalqonsimon bezning yuzasi yoki orasida joylashgan. Ular kaltsiy va fosfor almashinuvini boshqaradi va bezning poliganal hujayralarida hosil bo`luvchi paratgormonni (paratirin) ishlab chiqaradi.




8-rasm. Odamlarda paratireoid bezining joylanishi (V.N.Tonkov bo`yicha, 1948):

1-yutqun, 2-qalqonsimon bez, 3- paratireoid bez, 4-qizilo`ngach, 5-kekirdak, 6-pastki qalqonsimon arteriya.

Timus yoki ayrisimon bez (glandula thumus) – toq limfoid-bezli organ bo`lib, sutemizuvchilarda tush suyagining o`rtasida-o`rta devorning oldingi qismida joylashgan bo`lib, jinsiy yetilish davrida jiddiy darajada faoliyat ko`rsatadi. Timus hujayralari immunitetga ma`sul va serologik immunitetlarni boshqaruvchi T- hujayrali limfoidli qatorini ishlab chiqaradi, hamda shu bilan birga bu organ endokrin bez ham hisoblanadi. Immunli va o`sish jarayonlarini kimyoviy stimullovchi timozin va timopoetin gormonlarini hosil qiladi.

Gipofiz – pastki miya ortig`i, yoki pituatar bez (hupophisis cerebri, glandula pituitaris) – bosh suyagining tubidagi turk egarining asosiy suyagida joylashgan murakkab endokrin organdir va u anatomik jihatdan oraliq miyaning uchinchi miya qorinchasi tubiga oyoqcha bilan tutashgan bo`ladi. Oldingi, o`rtangi va keyingi qismlardan iborat bo`lib, oldingi va o`rtangi qismlari – adenogipofiz, keyingi qismi esa – neyrogipofiz deb ataladi.



9-rasm. Gipofizning tuzilishi. A-asosiy anatomik bo`limlar; B-gisto strukturasi.

1-oldingi qismi, 2- o`rtangi qisim, 3-keyingi qisim, 4-o`rtadagi balandlik, 5-gipofizar oraliq, 6-gipotalamus, 7-uchinchi miya qorinchasi, 8-oldingi qisimning tuberal zonasi, 9-kapsula, 10-xromofobli hujayralar, 11-bazofilli hujayralar, 12-eozinofilli hujayralar, 13-qon tomirlari.

Mavzu: Farmastevtik terminlarni lotin yozuvidagi o'zbek alifbosida yozish tartibi. Ilmiy taqriz.

Reja:

1.Farmastevtik terminlarni lotin yozuvidagi o'zbek alifbosida yozish tartibi.
2.Ilmiy taqriz.
3. Topshiriqlar ustida ishlash

Bilib oling! Taqriz (arab. — ijobiy baho) — adabiy tanqid janri; yangi badiiy, ilmiy yoki ilmiyommabop asar taxlili. T.da asarning bibliografik tavsifi, shuningdek, mazmuni, unda ko'tarilgan muammolar, asarning g'oyaviybadiiy xususiyatlari, muallif ijotsida, adabiyotda tutgan o'rni xaqida ma'lumot bo'ladi; asarga baho beriladi, uning asosiy fazilatlari va nuqsonlari qayd qilinadi. T. asosan keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallanadi, ularni yangi asarlardan ogoh qiladi, zarurini tanlab olishga ko'maklashadi. Ichki T. ham bo'ladi. Mac, nashriyotga kelgan badiiy, tanqidiy va ilmiyommabop asar ichki T.ga beriladi, birok, bu T. matbuotda e'lon qilinmaydi.

Rus tanqidchiligi tarixida T.ning rivojida V.G. Belinskiyning roli katta. U T.ni haqiqiy san'at darajasiga ko'tardi. T. badiiy asar haqida shunchaki ma'lumot beruvchi janr darajasidan adabiy hayotning muhim masalalarini ko'taruvchi, kitobxonni hayot va adabiyot haqida o'ylashga o'rgatuvchi, uning estetik didini tarbiyalashga yordam beruvchi janrga aylanadi. T. xarakteriga ko'ra xilmaxil bo'ladi. Mac, kengaytirilgan annotatsiya tipidagi T.da asar haqida bibliografik ma'lumot beriladi. Tanqidiy yoki publitsistik maketa T. larida konkret asar munosabati bilan biron muhim masala haqida fikr yuritiladi. Esse (adabiy o'ylar) xarakteridagi T.da taqrizchi o'z fikrtuyg'ularini, asarni o'qish jarayonida hosil bo'lgan taassurotlarini lirik tarzda ifodalaydi. Nihoyat, muallif o'z asariga ham T. yozishi mumkin (avtotaqriz). Bunda muallifning asarga qarashlari bayon qilinadi yoki u biron munosabat bilan munozaraga kirishadi. O'zbek adabiyotida T. 20-asr boshlarida vaqtli matbuot bilan teng rivojlana boshlagan. Endilikda T. o'zbek adabiy tanqidchiligining eng muhim janrlaridan bo'lib qoldi. Oybek, Abdulla Qahhor,

Shayxzoda, G‘afur G‘ulom kabi yozuvchilar, O.Hoshimov, S.Husayn, Olim Sharafiddinov, V.Zohidov, I.Sultonov, H.Yoqubov, M. Qo‘shjonov, Ozod Sharafiddinov, U.Normatov, N. Xudoyberganov, I.Haqqulov va boshqa olimlar o‘zbek adabiy hayotida chuqur iz qoldirgan T.lar yaratdilar.

1-topshiriq. Matnni o`qing va matn mazmuniga mos sarlavha tanlang.

Farmatsevtika atamashunosligida yunon-lotin terminlari ko’p uchraydi. Atamashunoslikni o’rganish termin element (TE) deb nomlanuvchi alohida komponentlarning tahliliga asoslanadi. Har qanday so’z yasovchi element (o’zak, negiz, old qo’shimcha (prefiks), suffiks) termin element deyiladi. Termin elementlar muayyan ma’noga ega. Shuning uchun bir nechta termin elementlardan tuzilgan terminlarni tahlil qilishda asosiy ma’noni bildiruvchi termin elementlarga ilmiy jihatdan yondoshish zarurdir[2].

Masalan: dyspepsia (dys-yunoncha old qo’shimcha, faoliyatni buzilishini ko’rsatadi + pepsis – hazm qilish) – dispepsiya- ovqat hazm qilinishning buzilishi; colitis (kolon – yug’on ichak (yunoncha) + itis yunoncha suffiks bo’lib, yalig’lanish degan ma’noni bildiradi) – kolit - yug’on ichak shilliq pardasining yallig’lanishi.

Termin bir yoki bir necha so’z yasovchi elementlardan: old qo’shimcha + o’zak + suffiksdan iborat bo’lishi mumkin.

Ko’pchilik yunon va lotin terminlari o’zbek tiliga tarjimasiz ko’chiriladi.

Masalan: infarctus, us, f – infarkt.

Ba’zi hollarda termin bilan birga uning tarjimasi ham berilishi mumkin.

Masalan: transplantatio, onis, f – transplantatsiya, kuchirib o’tkasizh.

Termin elementlarni o’zlashtirish talabalarning so’z boyligini kengaytirib, tibbiyotga oid terminlarni bemalol tushunishlari uchun imkon beradi.

2-topshiriq. Berilgan matnni o`qing va BBB jadvaliga joylashtiring.

II tipik guruh. O‘simliklar mahsulotidan olingan ajratmalardan iborat bo‘lgan dorivor preparatlar nomlari

II tipik guruhga quyidagilar kiradi:

1. Zavodlarda ma’lum belgilangan standartlar bo‘yicha tayyorlanadigan dorivor preparatlarning nomlari. Bular – nastoykalar, ekstraktlar va sharbatlarning nomlari bo`lib, ikkita otdan iborat bo‘lgan so‘z birikmalaridir. Birinchi ot dori turining nomini ko‘rsatadi va bosh kelishikda turadi. Ikkinchi ot o‘simlik nomini ko‘rsatadi va qaratqich kelishigida turadi.

Masalan: tinctura Valerianae – valeriana nastoykasi extractum Crataegi – do‘lana ekstrakti sirupus Glycyrrhizae – shirinmiya sharbati

2. Damlama va qaynatma nomlari. Ular uchta otdan iborat bo‘lgan so‘z birikmalaridir. Birinchi ot dori turining nomini ko‘rsatadi va bosh kelishikda turadi.Ikkinchi ot o‘simlik organini ko‘rsatadi va qaratqich kelishigida turadi. Uchinchi ot o‘simlik nomini ko‘rsatadi va qaratqich kelishigida turadi.

Masalan: infusum foliorum Sennae – sano barglarining damlamasi
decoctum herbae Hyperici – dalachoy (sariqchoy) yer ustki qismining qaynatmasi.

III tipik guruh. Organik kimyoviy moddalarning ilmiy va trivial(shartli) nomlanishi

Dorivor vositalar sifatida qo‘llaniladigan organik kimyoviy moddalar ikkita nomga ega: **ilmiy** (tizimli) va **trivial** (shartli).

«**Trivial**» so‘zi lotincha **“trivialis***”* odatdagi, oddiydan kelib chiqqan.

Odatda ilmiy nomlar uzun bo‘lgani uchun ularni tibbiyot amaliyotida ishlatish noqulay. Shuning uchun dorivor vositalar nomi sifatida ilmiy emas, balki trivial nomlari qo‘llaniladi. Trivial nomlar qisqaligi bilan amalda qo’llashga qulaydir.

Masalan: Dietilamidsulfamidobenzoat kislota – ilmiy nomlanishi,

Etamid – trivial nomlanishi.

Trivial nomlar dorivor vositalarning kimyoviy tarkibini, davolash ta’sirini, farmakologik guruhga mansublikni va boshqa turli belgilarni ifodalaydi.

3-topshiriq. Berilgan matnni o`qing va rus tiliga tarjima qiling.

Bugungi kunda jahonda mavjud bo‘lgan 7000ga yaqin dorivor vositalarning 70000ga yaqin nomlari mavjud. Har yili xalqaro patentlanmagan nomlar ro‘yxati 120dan 150 tagacha nomga ko‘payib bormoqda. Dorivor vositalar nomlarining sinonimiyasi salbiy tomonga ega. Dorivor vositalarning umumiy xalqaro nomlari sinonimiyani kamaytirishga yordam beradi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (World Health Organization; qisqacha-WHO) qoshida dori moddalariga halqaro nom berish ishlarini boshqaruvchi maxsus (International Nonproprietary Names For Pharmaceutical Substances; qisqacha-INN) qo‘mita mavjud. Xalqaro nomlardan shu dorivor moddani ishlab chiqaruvchi davlat yoki firma foydalanishi mumkin. Bu nomlar patentlanmagan. Davlat farmakopeyasida patentlanmagan halqaro nomlar (XPN) sinonim sifatida albatta maxsus belgi * bilan ko‘rsatiladi. Dori moddalariga xalqaro nom beruvchi maxsus qo‘mita tomonidan «Dorivor moddalarning patentlanmagan xalqaro nomlarini tuzish uchun amal qilinishi lozim bo‘lgan asosiy printsiplar» ishlab chiqildi.Bosh prinsiplarga asosan XPN talaffuz qilishda va yozishda oson ajratiladigan bo’lishi kerak. Ular uzun bo’lmasligi yoki umumiy qo’llanishda foydalanib kelinayotgan nomlar bilan adashtirib yuborilmaydigan bo’lishi lozim.Farmalogik jihatdan yaqin bo’lgan guruhga taalluqli moddalar uchun XPN ushbu taaluqlikni ko’rsatishi lozim.Dorivor moddalarning patentlanmagan xalqaro nomlari Jahon Sog‘liqniSaqlash Tashkilotining “WHO Drug Information” jurnalida to‘rtta tilda quyidagi ketma-ketlikda yoziladi: lotincha, inglizcha, frantsuzcha va ispancha.

4 - topshiriq. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Мой брат ещё в детстве научился читать и писать. 2. Книга – друг человека. 3. В кружке по узбекскому языку часто проводятся дискуссии по прочитанным книгам. 4. Айбек – псевдоним писателя Мусы Ташмухамедова. 5. Поэтесса Увайси жила в XIX веке. Её звали Жахонотин. Увайси – это её псевдоним.

5- topshiriq. Quyidagi sodda so‘zlardan juft so‘zlar yasang.

ota	Past
katta	Kichik
baland	Yomon
oq	Chaqa
yaxshi	Qora
katta	Kichik
yaxshi	Qora
bola	Ona

Mustaqil ish topshirigi: Tibbiyotga doir ilmiy maqolalar.

Foydalanilgan adabiyotlar: AA 3,QA 30,35

Mavzu: Dori vositalari yo’riqnomalari ustida ishlash. OAVlari va internetga maqola va ma’lumotlar tayyorlash.

Reja:

1. Dori vositalari yo’riqnomalari ustida ishlash.

2.OAVlari va internetga maqola va ma’lumotlar tayyorlash

3.Topshiriqlar ustida ishlash.

Bilib oling! Internet jurnalistikasining an’anaviy jurnalistikadan farqli jihatlari Dunyoda yangi tijorat tarmoqlarini ommaviy ravishda barpo etish 1991-yildan boshlandi va doimiy davom etmoqda. Telekommunikatsiya xizmatining rivojlanishi xo‘jalik va tijorat faoliyatini harakatlantirishning, iqtisodiy rivojlanishning muhim shartlaridan biridir.
1983-yilda Internet tashkil etildi.Internet-axborot bilan mustaqil almashish imkonini yaratdi.Internetbutun dunyoni qamrab olgan global kompyuter tarmog‘idir.1990-yillar o‘rtalarida Internet biznes-ishlovlar bilan ishlash uchun ko‘llanila boshladi.Biroq, bu borada turli muammolar mavjud edi.

Hozirgi kunda Internet dunyoning 150 dan ortiq mamlakatlarida 100 milionlab abonentlarga ega.Har oyda tarmoq miqdori 7-10%ga ortib bormoqda.Internet dunyodagi turli xil ma'lumotlarga oid axborot tarmoqlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqani amalga oshiruvchi yadroni tashkil qiladi.

Internet qachonlardir faqat tadqiqot va o‘quv guruhlarigagina xizmat qilgan bo‘lsa, hozirgi kunga kelib, u ishlab chiqarish doiralari orasida keng tarqalmoqda. Kompaniyalarni Internet tarmog‘ining tezkorligi, arzon, keng qamrovdagi aloqa, hamkorlik ishlaridagi qulaylik, hammaning ishlashi uchun imkon beruvchi dastur hamda ma'lumotlarning noyob bazasi ekanligi o‘ziga tortmoqda. Arzon xizmat narxi evaziga foydalanuvchilar AQSH, Kanada, Avstraliya va boshqa ko‘pgina UEvropa mamlakatlarining tijorat yoki notijorat axborot xizmatlariga yo‘l topadilar. Internet ning erkin kiriladigan arxividan insoniyat faoliyatining barcha jabhalarini qamrab oladigan axborotlarni, yangi ilmiy yangiliklardan tortib, to ertangi kungi ob-havo ma'lumotigacha bilib olish mumkin.Ayniqsa, kundalik kommunikatsiyaga muxtoj shaxslar, tashkilot, muassasalar uchun ko‘pincha telefon orqali to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqa nisbatan Internet infrastrukturasidan foydalanish anchagina arzon tushadi. Bu narsa, ayniqsa, chet ellarda filiallari 10 mavjud bo‘lgan firmalar uchun qulaydir, chunki Internet ning konfidensial noyob aloqalari butun dunyo bo‘yicha imkoniyatga ega.

Shu bilan birga yana bir narsani ta'kidlash lozimki, internetga gipermatn tushunchasi kirib keldi. 1965-yil Nelson gipermatn so‘zini qo‘lladi. Van Dam va boshqalar 1967-yilda gipermatn tahrirlovchisini tuzib chiqdi. Nelson 1987-yil ma'lumotlarning gipermatn tahrirlovchisini tuzib chiqdi.Jeneva SERN (CERN) da ishlovchi fizik Tim Bernes Li 1990-yil gipermatnli loyihani taklif etdi. Bu loyiha fizik olimlarga Internet orqali tadqiqot natijalarini o‘zaro almashish imkonini berar edi. Shunday qilib xalqaro axborot tarmog‘i – World Wide Veb (WWW)ga poydevor qo‘yildi. 1993-yil Mark Anderson rahbarligida birinchi gipermatnli Mosaic grafik brauzeri ishlab chiqildi va u Netscape korporatsiyasiga o‘tib Netscape brauzerini ishlab chiqdi.

Shunday qilib biz sevgan gazeta va jurnallarimizning oxirgi ma'lumotlarini WWW4 so‘zlaridan boshlangan manzilda ko‘rish va uni shu manzildan nusxasini ko‘chirib olish mumkin, degan so‘zlar ko‘prok uchrab turibdi. Shu bilan birga, elektron nashrlar tushunchalarining kamrovi oyma-oy kengayib bormoqda. Elektron usulda chop etilgan yangi-yangi jurnallar paydo bo‘lmoqda.

Hozirgi XXI asr axborot-texnologiyalari asri bo’lib, olimlar tomonidan kashf etilgan ixtirolar omma etiboriga havola etilib ulgurmay, bundan-da yangi va mukammalroq variantlari o’ylab topilmoqda. Bu esa texnika sohasida o’sishga, insonlarga qulaylik yaratishga olib kelmoqda.Yurtimizda ham biz yoshlarni texnikaning eng so’ngi yutuqlaridan xabardor qilish

bilan bir qatorda, yangidan-yangi imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratib berish yuzasidan samarali ishlar olib borilmoqda.

1-topshiriq. Berilgan matnni o`qing va BBB jadvaliga joylashtiring.

Meditsina fanining rivojlanishida qadimiy Osiyo mamlakatlarining hissasi ham bor. Hindiston, Tibet, Xitoy va Arab davlatlarida o'simliklar bilan davolash keng tus olgan. ≪Yajur - veda≫(≪Hayot haqidagi fan≫) dorivor
O`simliklar haqida yozilgan qadimiy hind kitobidir.
Tibet tibbiyoti hind tibbiyoti yordamida rivojlandi. Mashhur ≪Djudshi≫ {≪Shifobaxsh dori-darmonlar mohiyati≫) kitobi Tibet tibbiyotining asosini tashkil etadi.Xitoy xalq tabobati juda uzoq tarixga ega. Xitoy tibbiyotining asoschisi bundan 3 ming yit oldin xoqonlik qilgan Shen Nung hisoblanadi.Uning dastxatiga mansub kitoblar bizgacha yetib kelmagan. Ammo bu kitoblaming ko‘chirma nusxalari va toldirilgan shakllari ming yillar o`sha meros bo'lib kelmoqda. Shen-Nung kitobida o'simliklarning sinonim nomlari,
botanik taYifi, o'simliklardan mahsulotlar tayyorlash davrlari va usullari, o`simliklarning geografik joylashishi, mazkur dori-darmonning ta`sir doirasi, qo'llanishi, dori-darmon ishtirok etadigan retseptlar ro`yxati hamda shu doridarmonlar bilan davolash mumkin b o ‘lgan kasalliklarning umumiy ro`yxati kehirilgan.
Sharqning mashhur olimlari Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso Al-Xorazmiy, Abu Bakr Muhammad bin Zakariya ar-Roziy, Abu Rayhon Muhammad al-Beruniy, Abu Mansur Buxoriylar ham tibbiyot fani rivojiga katta hissa qo'shdilar.
O`rta Osiyoning zabardast olimlaridan biri bo`lgan Abu Ali ibn Sinoning jahonshumul faoliyati to`g`risida to`xtalib o'tmasdan bo`lmaydi. Abu Ali ibn Sino 450 dan ortiq qimmatli asarlar yaratgan. Biroq zamonlar o`tishi bilan ularning ko’pi yo‘qolib kctgan. Ibn Sinoning bizgacha yetib kclgan 240 asaridan 40 tasi meditsinaga oiddir. Abu Ali ibn Sino ≪AI- qonun≫ asarida 900ga yaqin o'simlikning shifobaxsh xususiyatlari va ulami ishlatilish yo'llari to 'g ’risida ma'lumot keltiradi. Uning shogirdlaridan Sharafuddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Yusuf Iloqiy . Abu Sodiq Mutatabbib va Jurjoniylar ham ineditsinaning rivojlanishiga hissa qo'shganlar.

2-topshiriq. Berilgan so`zlarni ko`chiring va ular ishtirokida matn yarating.

SHARQ TABOBATI

hissa - доля
dastxat - письмо, подпись
mahsulot - продукция
qimmatli дорогой
zabardast - выдающий
ro ’yxat - список
yo'qolmoq - затсрягься
shifobaxsh целебный

3-topshiriq. Matnni o`qing va mazmunini rus tilida yozing.

DORIVOR O'SIMLIKLAR

Dorivor o ‘simliklar davolash yoki profilaktika maqsadlarida tibbiyot yoki veterinariyada qo'llaniladigan o'simliklar guruhi. Dorivor o'simliklaming shifobaxshligi - ular tarkibida ma’lum ta’sir qiluvchi kimyoviy moddalar: alkoloidlar, flavonoidlar, glikozidlar, vitaminlar, oshlovchi moddalar va boshqalar borligidadir. Odatda o'simlikning ta’sir qiluvchi moddalar ko’p to ‘plangan qismlari ishlatiladi. Dorivor o ‘simliklar yig‘malar. damlama, qaynatma, kukun holida q o ‘llaniladi. Turli xil dorilar tayyorlash uchun xom-ashyo hisoblangan dorivor o'simliklar alohida guruhni tashkil etadi. Dorilar, asosan, yovvoyi va qisman ekiladigan o'simliklardan tayyorlanadi. Mamlakatimizda tayyorlanadigan barcha shifobaxsh vositalaming 40 % idan ko'pi o‘sirnliklardan olinadi, ular sintetik dorilarga nisbatan bezarar va qo'shimcha ta 'sirga ega emas.

O‘zbekistonda yovvoyi holda o'sadigan o ‘simlik 4148 turi mavjud. Shundan 577 turi shifobaxsh hisoblanadi. Lekin dorivor o‘simliklardan foydalanishda shifokor maslahatiga rioya qilish kerak.

4-topshiriq. Berilgan savollarga javob yozing.

1. Dorivor o'simliklar qanday maqsadlarda qo'llaniladi?
2. Dorivor o'simliklardan foydalanishda shifokor maslahati zarurnii?
3. Main asosida quyidagi konstruksiyalar bo'vicha gaplar tuzing.

Mustaqil ish topshirigi: Tibbiyotga doir ilmiy maqolalar.

Foydalanilgan adabiyotlar: AA 2, QA 1, 20, 32

Mavzu: Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida dorivor o’simliklar. Punktuatsiya.

Reja:

1. Punktuatsiya.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida dorivor o’simliklar.
3. Topshiriqlar ustida ishlash.

Bilib oling! Punktuatsiya - tinish belgilarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi. Hozirgi yozma adabiy tilda **10** ta tinish belgilari qo'llaniladi: nuqta (.), so'roq belgisi (?), undov belgisi (!), ko'p nuqta (...), qavs (), qo'shtirnoq («»), vergul (,), nuqtali vergul (;), ikki nuqta (:), tire (-).Ma'lum bir maqsad, fikr og'zaki nutqda ma'lum bir ohang bilan, yozuvda esa gapning grammatik qurilishi va tinish belgilari orqali ifodalanadi. Tinish belgilari fikrni, maqsadni yozuvda ko'rsatishda qo'shimcha, ammo zaruriy vositadir. So'zlovchining maqsadini tinish belgilari orqali bilib olamiz: *Poyezd keldi.Poyezd keldi! Poyezd keldi?*Bu uch gapdagi xabar, his-hayajon, so'roq mazmuni gaplardan so'ng qo'yilgan tinish belgilari orqali bilinadi.Tinish belgilari **mazmun, ohang va gapning grammatik qurilishiga** ko'ra qo'llanadi:**1. Mazmun.** Ifodalanmoqchi bo'lgan mazmun tugallangan bo'lsa, **nuqta, undov** yoki **so'roq belgisi, ko`p nuqta** qo'yiladi.**Masalan:**

- O'zimiz institut ochyapmiz, bilib qo'y...
- Institut?
- Institut!

O'zgalarning gapi bo'lsa, **qo'shtirnoqqa** olinadi: «Ertaga sinovlar boshlanadi», - dedi o'qituvchimiz.

Gaplar orasidagi mazmun munosabatlari qo'shma gaplarda **ikki nuqta, tire, vergul** yoki **nuqtali vergul** orqali ifodalanadi.

Tugallanmagan yoki izohtalab tushunchalar **ko'p nuqta** yoki **qavslar** orqali ifodalanadi.

2. Grammatik qurilish. Ayrim tinish belgilari gapning grammatik tuzilishiga ko'ra qo'llanadi. Masalan, ega bilan kesim orasida tire qo'yilishi yoki qo'yilmasligi ma'lum grammatik qoidalar asosida belgilanadi.

Ayrim ergash gaplar o'z tuzilishiga ko'ra vergul bilan ajratiladi.

Masalan: *Yo'lchi, qancha aqchasi bo'lsa ham, berishga tayyor edi.* Bu jumladagi *qancha aqchasi bo'lsa ham* ergash gap bo'lgani uchun, bosh gap orasida to'xtalish (pauza) bo'lmasa ham, undan so'ng vergul qo'yiladi.

3. Ohang. Ohang fikr, maqsadning og'zaki nutqdagi ifodasidir.Har bir tinish belgisi o'ziga xos ohangga ega bo'ladi: *undov,so'roq belgisi, ko'p nuqta va nuqta* tugallangan ohang bilan; *qo'shtirnoq, qavs* kichik to'xtalish bilan, ajratilgan ohang bilan; *ikki nuqta, tire* izoh ohangi bilan *vergul, nuqtali vergul* kichik to'xtalish ohangi bilan talaffuz qilinadi.Ayrim tinish belgilari ohang talabi bilangina qo'yiladi:

Qush mag'rur - qanoti bo'lgani uchun,
Tog' mag'rur - savlati bo'lgani uchun.

Bu jumlada tire ohang talabi bilan, birinchi gaplarning ma'nosiga diqqatni jalb etish talabi bilan qo'yilgan. *Vatanimiz - kelgusida buyuk davlat bo'ladi.* Bu jumlada kesim egaga *bo'ladi* bog'lamasi bilan birikkani uchun, egadan so'ng tire qo'yilmasligi kerak edi. Ammo ega mantiqiy urg'u olgani uchun, undan so'ng tire qo'yilgan.

1-topshiriq. Berilgan matnni o`qing va "Boburnoma" asarining avlodlarga ahamiyati haqida fikr yuriting.

"Boburnoma"

"Boburnoma" O'rta Osiyo, Afg'aniston, Hindiston, kabi mamlakatlar tarixi, sotsial-iqtisodiy ahvoli, tabiati, etnografiyasi, geografiyasi, tibbiyoti kabi sohalarni qamrab olgan genial asardir.

"Boburnoma"ning asosiy xislatlaridan biri shundaki, unda muallif yorqin bo'yoqlar yordamida, sodda til bilan tabiat, geografik xususiyatlar, o'simlik va hayvonot dunyosi, xo'jalik imkoniyatlari yaxlit tasvirlanadi.

Bobur keng tarqalgan, hujalik ahamiyatiga va davolash xususiyatiga ega bo'lgan o'simliklar, o'sha vaqtlarda insoniyatga qiron keltirgan bezgaq kassaligi va uning yuzaga kelish sabablari haqida ma'lumotlar keltiradi. Muallifning fikricha bezgak kasalini yuzaga keltiruvchi vositalar ob-havo, bezgak chivinlarning ko'pligi va ularning keng tarqalganligidadir.

Muallif O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston qishloq xo'jaligi tarixi to'g'risida to'laqonli, qiziqarli faktik materiallarni izohlaydi.

"Boburnoma" o'z mohiyati bilan o'lkamiz tarixi, geografiyasi, tabiati, etnografiyasi va madaniyati borasidagi beqiyos manbadir.

Bobur Hindiston, O'rta Osiyoda gul, manzarali va mevali daraxtlarni ko'paytirish va o'stirishga katta ahamiyat beradi. U ilgari o'simlikninng ba'zi navlari o'smaydigan joylarda ularni o'stirishga harakat qiladi.

U, Hindiston va Afg'onistonning boshqa yerlarida o'smaydigan mevali daraxtlar haqida ham ancha ma'lumotlar beradi.

2-topshiriq. Berilgan matnni o`qing va tinish belgilari qo`llanilishi sabablarini tushuntiring.

She'riyat - O'zbek klassik she'riyati



Bobur (taxallusi; to'liq ismi Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo) (1483.14.2, Andijon 1530.26.12, Agra) — o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili: buyuk shoir; tarixchi, geograf; davlat arbobi, iste'dodli sarkarda; boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy shahzoda.Boburning otasi — Umarshayx Mirzo Farg'ona viloyati hokimi, onasi — Qutlug' Nigorxonim Mo'g'uliston xoni va Toshkent hokimi Yunusxonnint qizi edi. Boburning onasi o'qimishli va oqila ayol bo'lib, Boburga hokimiyatni boshqarish ishlarida faol ko'mak bergan, harbiy yurishlarida unga hamrohlik qilgan. Umarshayx Mirzo xonadoni poytaxt Andijonning arki ichida yashar edi. Hokim yoz oylari Sirdaryo bo'yida, Axsida, yilning qolgan faslini Andijonda o'tkazardi. Boburning yoshligi Andijonda o'tgan. Bobur barcha temuriy shahzodalar kabi maxsus tarbiyachilar, yirik fozilu ulamolar ustozligida harbiy ta'lim, fiqx ilmi, arab va fors tillarini o'rganadi, ko'plab tarixiy va adabiy asarlar mutolaa qiladi, ilmfanga, she'riyatga qiziqa boshlaydi. Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan «Bobur» («Sher») laqabini oladi.

Bobur 18—19 yoshlarida ruboiy va g'azallar yoza boshlagan. Uning «Topmadim» radifli g'azali va «Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi» misrasi bilan boshlanuvchi ruboiysi o'sha yillardagi hayoti bilan bog'liq.Boburning ulkan san'atkorligi shundaki, shaxsiy kechinmalarini jiddiy umumlashma darajasiga ko'tara oladi va natijada asarlarida olg'a surilgan g'oyalar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tariladi. Bobur ijodida, xususan, she'riyatida kindik qoni

to‘kilgan ona yurtini dildildan qo‘msash, uning tuprog‘iga talpinish, g‘ariblik azoblaridan o‘tli hasrat, yoru diyor soginchi va visol ilinji, takdir zarbalari va turmush uqubatlari, zamona nosozliklaridan nola badiiy tahlil etiladi.Bobur ijodida ishqmuhabbat, sevgisadoqat, visol va hijron mavzui ham salmoqli o‘rin tutadi. Uning gazal va ruboiylarida, tuyuq va masnaviylarida ma’shuqaning maftunkor go‘zalligi, beqiyos husnu latofati, sharqona odobu axloqi, nozu karashmasi yengil va o‘ynoqi, musiqiy va ravon misralarda katta mahorat bilan tarannum etiladi. Boburning uz she’riy asarlarini to‘plab, devon holiga keltirgan sanani ko‘rsatuvchi aniqtarixiy ma’lumotlar ma’lum emas. Ammo «Boburnoma»ning 1518—19 yillar voqealari bayoniga bag‘ishlangan faslida Bobur devonini Kobuldan Samarqandga yuborganligi to‘g‘risida so‘z boradi. Demak, shu yillarda uning devoniga tartib berilgan va mazkur devon Movarounnahrda ham tarqalgan.Hozirda uning 119 g‘azali, bir masnu she’ri, 209 ruboiysi, 10 dan optik tuyuq va qit’alari, 50 dan ortiq muammo va 60 dan ziyod fardlari aniqlangan. Devoni tarkibida umumiy hajmi 270 baytdan iborat 8 masnaviy ham o‘rin olgan. Hindiston yurishlari davri (1521)da Bobur «Mubayyin» asarini yaratdi. Masnaviy tarzida yozilgan, islom huquqshunosligi va shariat aqidalariga bag‘ishlangan bu asarda Movarounnahr va Hindistonga oid o‘sha davr ijtimoiyiqtisodiy hayoti bo‘yicha qiziqarli ma’lumotlar ham jamlangan. Valiahd Humoyun va Komron Mirzolarga dasturulamal sifatida mo‘ljallangan «Mubayyin»da, ayni zamonda, namoz, zakot va haj ziyorati to‘g‘risida ham shar’iy mezonlar bayon qilingan. Shu yillarda Bobur Sharq she’riyatining asosiy masalalaridan biri aruz vazni, uning nazariyasi va amaliyotiga oid ilmiy risolasini yakunlaydi. Bobur nomini dunyoga mashhur qilgan shoh asari «Boburnoma» ustidagi ijodiy ishini 1518—19 ylarda boshlagan (q. «Boburnoma»).Boburning yuqorida keltirilgan asarlaridan tashqari, «Xatti Boburiy», shuningdek musiqa san’ati va harb ishlariga maxsus bag‘ishlangan qator risolalari ham bo‘lgan. Ammo keyingi ikki asar matni hanuz topilgan emas. «Xatti Boburiy»da muallif arab alifbosini taxrir etib, yozuvni soddalashtirish va osonlashtirish maqsadida uni turkiy til va talaffuz mezonlariga moslashtirgan.1526 yil 21 dekabrda Boburga qarshi suiqasd uyushtiriladi. Mahv etilgan Ibrohim Lo‘diyning onasi oshpazlar bilan til biriktirib, uning ovqatiga zahar qo‘shtiradi. Shuning asoratimi yoki ko‘p yillik mashaqqatli va qo‘nimsiz hayot ta’sirimi, har holda keyingi yillarda Bobur tez-tez kasalga chalinib turadi. 1527 yil oktabrda Bobur yana xastalikka uchragach, umrining oxirlab qolganini his etadi. Shunda Bobur o‘zi e’tiqod qo‘ygan Xoja Ahror Valiy ruhidan najot tilab, ixlos bilan uning nasrda bitilgan «Volidiya» asarini she’riy tarjima qiladi. Boburning mohir tarjimon sifatidagi qobiliyati namoyon bo‘lgan 243 baytli bu asar katta ijodiy ilhom bilan juda qisqa muddatda yakunlangan. Boburning o‘z e’tiroficha, tarjima tugashi hamonoq batamom sog‘ayib ketgan. Bu yillarda u «Boburnoma» fasllari ustida ishlashni davom ettirdi, yangiyangi g‘azalruboiylar yaratdi, o‘z iborasi bilan aytganda, «Hindistong‘a kelgali aytqon ash’orni» tartibga solib, shuningdek, «Volidiya» tarjimasini, «Xatti Boburiy» bilan bitilgan namuna va qit’alarni Movarounnahr va Afg‘onistonga, Xumoyun, Xoja Kalon, Hindol va b.ga yubordi. Humoyun Mirzoga atalgan ijtimoiyaxloqiy masalalarni tahlil etuvchi mashhur maktubi ham Bobur ijodiy faoliyatining yorqin qirralaridan biri bo‘ldi.Bir necha muddat oldin podsholikni Humoyunga topshirgan Bobur 47 yoshida o‘zi asos solgan saltanat poytaxti Agrada vafot etdi va o‘sha yerda dafn etildi, keyinchalik (1539), vasiyatiga muvofiq xoki Kobulga keltirilib, o‘zi bunyod ettirgan «Bog‘i Bobur»ga qo‘yildi (q. maqbarasi).Bobur O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng o‘z yurtida haqiqiy qadrqimmattopdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga ko‘ra 1993 yilda Bobur tavalludining 510 yilligi tantanali nishonlandi. Andijon sh.da Bobur nomida unt, teatr, kutubxona, milliy bog‘ («Bog‘i Bobur») bor. Bobur milliy bog‘i majmuasitsa «Bobur va jahon madaniyati» muzeyi, shoirning ramziy qabrmaqbarasi bunyod etilgan. Shahar markazida (muallifi Ravshan Mirtojiev) va Bobur bog‘idagi yodgorlik majmuida (muallifi Qodirjon Salohiddinov) shoirga haykal o‘rnatildi. Andijondagi markaziy ko‘chalardan biriga, shuningdek Toshkentdagi istirohat bog‘i va ko‘chaga, Andijon viloyati, Xonobod shahridagi istirohat bog‘iga Bobur nomi berildi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Bobur nomidagi medali ta’sis etildi. Sharqshunos olim Ubaydulla Karimov bu medalning birinchi sovrindori bo‘ldi.

Andijonlik tabiatshunos olim Zokirjon Mashrabov rahbarlik qiladigan Xalqaro Bobur

jamg‘armasi (1993.23.12) Bobur ijodini o‘rganishda katta ishlarni amalga oshirdi. Jamg‘armaning ilmiy ekspeditsiyasi 10 dan ortiq Sharq mamlakatlari bo‘ylab avtomobilda ilmiy safarlar uyushtirib, 200 ming km dan ortiq masofani bosib o‘tdi, Bobur va boburiylar qadamjolari, ularning ilmiy merosiga oid yangi ma’lumotlar to‘plab, ularni ilmiy iste’molga kiritdi. Mazkur ma’lumotlar asosida 10 dan ziyod ilmiy, hujjatli, badiiy asarlar (Z. Mashrabov, S. Shokarimov: «Asrlarni bo‘ylagan Bobur»; S. Jalilov: «Boburning Farg‘ona davlati», «Bobur va Andijon»; Qamchibek Kenja: «Hind sorig‘a»; X. Sultonov: «Boburning tushlari», «Boburiynoma»; R. Shamsuddinov: «Boburiylar izidan», «Boburiylar sulolasi»; T. Nizom: «Uch so‘z»), 10 ga yaqin hujjatli, videofilmlar (F. Rasulov: «Bobur izidan», «Muqaddas qadamjolar»; T. Ro‘ziev: «Bobur salomi», «Bobur nomidagi Xalqaro ilmiy ekspeditsiya»; T. Hamidov: «Iftixor» va h.k.) yaratildi. Jamg‘armaning Lohur (Pokiston), Haydarobod (Hindiston), Abu Dabi (Birlashgan Arab Amirliklari), Moskva (RF), O‘sh (Qirg‘iziston), Toshkent, Namangan (O‘zbekiston) shaharlarida bo‘limlari mavjud. 1998 yil Jamg‘armaning bobur shunoslik sohasidagi xalqaro mukofotlari ilk marta Pirimqul Qodirov, Sabohat Azimjonova, G‘aybulloh asSalom, Ne’matilla Otajonov, Xayriddin Sultonov, Eyje Mano (Yaponiya), Muhammadali Abduqunduzov, Maqsud Yunusov, Shafiqa Yorqin (Afg‘oniston), Ma’murjon To‘xtasinov, Ravshan Mirtojiev, Majid Tursunov, Rahmonjon Azimov, Muhammadjon Mirzaevga berildi.

2-topshiriq. Berilgan g`azalni ifodali o`qing va mazmunini izohlashga harakat qiling.
Kim ko’rubtur, ey ko’ngul, ahli jahondin yaxshilig’,
Kimki ondin yaxshi yo’q, ko’z tutma ondin yaxshilig’.

Bu zamonni naf’i qilsam ayb qilma, ey rafiq,
Ko’rmadim hargiz, netayin, bu zamondin yaxshilig’.

Dilrabolardin yomonliq keldi mahzun ko’ngluma,
Kelmadi jonimg’a hech oromi jondin yaxshilig’.

Ey ko’ngul, chun yaxshidin ko’rdung yomonlig’ asru ko’p,
Emdi ko’z tutmoq ne ya’ni har yomondin yaxshilig’.

Bori elga yaxhshilig’ qilg’ilki, mundin yaxshi yo’q
Kim, degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig’.

Yaxshilig’ ahli jahonda istama Bobur kibi,
Kim ko’rubtur, ey ko’ngul, ahli jahondin yaxshilig’.

4-topshiriq. Berilgan ruboiyni o`qing. Shoir aytmoqchi bo`lgan fikrni tushuntiring. Ruboiylardan birini yod oling.

Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz,
Sondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz,
Har neniki sevmak andin ortiq bo'lmaz,
Andin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.

Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi,
Shod etmas emish ko'ngulni mehnatda kishi.
Ko'nglim bu g'ariblikda shod o'lmadi, oh,
G'urbatda sevinmas emish, albatta, kishi.

5- topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.
1. Mening fikrim shu, siz uni bekorga xafa qilyapsiz. 2. Biznikiga kelsang, birga dars

tayyorlaymiz. 3. Bahor kelsa ham, kunlar ancha sovuq. 4. Umid qilamanki, bizni unutib yubormaysiz. 5. Yulduzlar bitta-bitta so'nib, ufq oqara boshladi. 6. Sizdan o'tinib so'rayman, biz bilan qoling.

6- topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Когда я окончу учебу, мы переедем в Самарканд. 2.Если хорошо постараться, эту работу можно закончить за два дня. 3. Карим настолько увлекся чтением, что не заметил как я ушел. 4. Мы все знаем, что счастья можно добиться лишь честным трудом.
5. Несмотря на то, что шел дождь, болельщики не покидали стадион.

Mustaqil ish topshirigi: Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi.

Foydalanilgan adabiyotlar: AA 1,QA 26,30,35

MUSTAQIL ISH

Бухоро давлат тиббиёт институтида
талабалар мустақил ишини ташкил этиш
ва назорат қилиш бўйича
ЙЎРИҚНОМА

Кадрлар тайёрлаш миллий дастурида чуқур назарий ва амалий билимлар билан бир қаторда танлаган сохаси бўйича мустақил фаолият кўрсата оладиган, ўз билими ва малакасини мустақил равишда ошириб борадиган, масалага ижобий ёндошган ҳолда муаммоли вазиятларни тўғри аниқлаб, таҳлил қилиб, шароитга тез мослаша оладиган мутахассисларни тайёрлаш асосий вазифалардан бири сифатида белгиланган.

Маълумки, ахборот ва билимлар доираси тез суъатлар билан кенгайиб бораётган ҳозирги шароитда барча маълумотларни фақат дарс машғулотлари пайтида талабаларга етказиш қийин.

Тажрибалар шуни кўрсатадики, талаба мустақил равишда шуғулланса ва ўз устида тинимсиз ишласагина билимларни чуқур ўзлаштириши мумкин. Талабаларни асосий билим, кўникма ва малакалари мустақил таълим жараёнидагина шаклланади, мустақил фаолият кўрсатиш қобилияти ривожланади ва уларда ижодий ишлашга қизиқиш пайдо бўлади.

Шунинг учун талабаларнинг мустақил таълим олишларини режалаштириш, ташкил қилиш ва бунинг учун барча зарурий шар-шароитларни яратиш, дарс машғулотларида талабаларни ўқитиш билан бир қаторда уларни кўпроқ ўқишга ўргатиш, билим олиш йўлларини кўрсатиш, мустақил таълим олиш учун йўлланма бериш профессор-ўқитувчиларнинг асосий вазифаларидан бири ҳисобланади.

Ҳар бир профессор-ўқитувчи дастлаб талабада ўз қобилияти ва ақлий имкониятларига ишонч уйғотиш, уларни сабр-тоқат била, босқичма-босқич мустақил билим олишни тўғри ташкил қилишга ўргатиб бориши лозим бўлади. Талабалар омонидан мустақил равишда ўзлаштириладиган билим ва кўникмаларнинг курсдан-курсга мураккаблашиб, кенгайиб боришини ҳисобга олган ҳолда уларнинг ташаббускорлиги ва ролини ошириб бориш зарур. Шунда мустақил таълимга кўника бошлаган талаба фақат ўқитувчи томонидан белгилаб берилган ишларни бажарибгина қолмай, ўзининг эҳтиёжи, қизиқиши ва қобилиятига қараб, ўзи зарур деб ҳисоблаган қўшимча билимларни ҳам мустақил равишда танлаб ўзлаштиришга ўрганиб боради.

Талаба мустақил иши (ТМИ) – муайян фандан ўқув дастурида белгиланган билим, кўникма ва малаканинг маълум бир қисмини талаба томонидан фан ўқитувчиси маслаҳати ва тавсиялари асосида аудитория ва аудиториядан ташқарида ўзлаштиришига йўналтирилган тизимли фаолиятдир.

Талабалар мустақил ишларининг шакли ва ҳажмини белгилашда қуйидаги жиҳатлар эътиборга олиниши лозим:

- ўқитиш босқичи;
- муайян фаннинг ўзига хос хусусияти ва ўзлаштиришдаги қийинчилик даражаси;
- талабанинг қобилияти ҳамда назарий ва амалий тайёргарлик даражаси (таянч билими);
- фаннинг ахборот манбалари билан таъминланганлик даражаси;

- талабанинг ахборот манбалари билан ишлай олиш даражаси.

Мустақил иш учун бериладиган топшириқларнинг шакли ва ҳажми, қийинчилик даражаси семестрдан-семестрга кўникмалар ҳосил бўлишига мувофиқ равишда ўзгариб, ошиб бориши лозим. Яъни, талабаларнинг топшириқларни бажаришдаги мутақиллиги даражасини аста-секин ошириб, уларни топшириқларни бажаришга тизимли ва ижодий ёндашишга ўргатиб бориш керак бўлади.

ТМИни ташкил қилишда талабанинг академик ўзлаштириш даражаси ва қобилиятини ҳисобга олган ҳолда қуйидаги шакллардан фойдаланиш мумкин:

- фаннинг айрим мавзуларини ўқув адабиётлари ёрдамида мустақил ўзлаштириш, ўқув манбалари билан ишлаш;
- амалий, семинар ва лаборатория машғулотларига тайёргарлик кўриб келиш;
- маълум мавзу бўйича реферат тайёрлаш;
- ҳисоб-китоб ва график ишларини бажариш;
- макет, модел ва бадиий асарлар устида ишлаш;
- амалиётдаги мавжуд муаммонинг ечимини топиш, тест, мунозарали саволлар ва топшириқлар тайёрлаш;
- илмий мақола, тезислар ва маърузалар тайёрлаш;
- амалий мазмундаги ностандарт вазиятли масалаларни ечиш ва ижодий ишлаш;
- клиникада навбатчилик қилиш, касаллик тарихи ёзиш;
  уй вазифаларни бажариш ва бошқалар.

Фан хусусиятидан келиб чиққан ҳолда талабаларга мустақил иш учун бошқа шакллардаги вазифалар ҳам топширилиши мумкин. Талабаларга қайси турдаги топшириқларни бериш лозимлиги кафедра томонидан белгиланади. Топшириқлар пухта ўйлаб ишлаб чиқилган ва маълум мақсадга йўналтирилган бўлиб, талабаларнинг аудитория машғулотларида олган билимларини мустаҳкамлаш, чуқурлаштириш, кенгайтириш ва тўлдиришга хизмат қилиши керак.

Мавзуни мустақил ўзлаштириш. Фаннинг хусусияти, талабаларнинг билим даражаси ва қобилиятига қараб ишчи ўқув дастурига киритилган алоҳида мавзулар талабаларга мустақил равишда ўзлаштириш учун топширилади. Бунда мавзунинг асосий мазмунини ифодалаш ва очиб беришга хизмат қиладиган саволларга эътибор қаратиш, асосий адабиётлар ва ахборот манбаларини кўрсатиш лозим.

Топшириқни бажариш жараёнида талабалар мустақил равишда ўқув адабиётларидан фойдаланиб ушбу мавзуни конспектлаштирадилар, таянч ибораларнинг моҳиятини англаган ҳолда мавзуга тааллуқли саволларга жавоб тайёрлайдилар. Зарур ҳолларда (ўзлаштириш қийин бўлса, саволлар пайдо бўлса, адабиётлар етишмаса, мавзуни тизимли баён эта олмаса ва ҳ.к.) ўқитувчидан маслаҳатлар оладилар. Мустақил ўзлаштирилган мавзу бўйича тайёрланган матн кафедрада ҳимоя қилинади.

Реферат тайёрлаш. Талабага қийинчилик даражаси унинг шахсий имкониятлари, қобилияти ва билим даражасига мувофиқ бўлган бирор мавзу бўйича реферат тайёрлаш топширилади. Бунда талаба асосий адабиётлардан

ташқари қўшимча адабиётлардан (монографиялар, илмий, услубий мақолалар, Интернетдан олинган маълумотлар, электрон кутубхона материаллари ва ҳ.к.) фойдаланиб материаллар йиғади, тахлил қилади, тизимга солади ва мавзу бўйича имкон даражасида тўлиқ, кенг маълумот беришга ҳаракат қилади. Зарур ҳолларда ўқитувчидан маслаҳат ва кўрсатмалар олади.

Якуноанган реферат кафедрада экспертлар иштирокида ҳимоя қилинади.

Кўргазмали воситалар тайёрлаш. Талабага муайян мавзуни баён қилиш ва яхшироқ ўзлаштириш учун ёрдам берадиган кўргазмали материаллар (жадваллар, чизмалар, расмлар, хариталар, макетлар, моделлар, графиклар, намуналар, фантомлар ва ҳ.к.) тайёрлаш топширилади. Мавзу ўқитувчи томонидан аниқланиб, талабага маълум кўрсатмалар, йўл-йўриқлар берилади. Кўргазмали воситаларнинг миқдори, шакли ва мазмуни талаба томонидан мустақил танланади. Бундай вазифани бир мавзу бўйича бир неча талабага топшириш ҳам мумкин.

Талаба кўргазмали материаллардан фойдаланиш бўйича ёзма равишда тавсиялар тайёрлайди ва кафедрада ҳимоя қилади.

Мавзу бўйича тестлар, мунозарали саволлар, вазиятли масалалар ва топшириқлар тайёрлаш. Талабага муайян мавзу бўйича тестлар, қийинчилик даражаси ҳар хил бўлган вазиятли масалалар ва топшириқлар, мунозарага асос бўладиган саволлар тузиш топширилади.

Бунда ўқитувчи томонидан талабага тестга қўйиладиган талаблар ва уни тузиш қонун-қоидалари, қандай мақсад кўзга тутилаётганлиги, муаммоли саволлар тузишда мавзунинг мунозарали моментларини қандай ажратиш лозимлиги, топшириқларни тузиш усуллари бўйича йўл-йўриқ берилади. Консультация пайтларида бажарилган ишларнинг қўйилган вазифа ва талабларга жавоб бериш даражаси назорат қилинади (қайта ишлаб келиш, аниқлаштириш ёки тўлдириш таклиф этилиши мумкин).

Тест, саволлар**,** вазиятли масала ва топшириқлар мажмуаси кафедрада экспертлар иштирокида ҳимоя қилинади.

Илмий мақола, тезислар ва мақолалар тайёрлаш. Талабага бирон бир мавзу бўйича (мавзуни талабанинг ўзи танлаши ҳам мумкин) илмий (рефератив) характерда мақола, тезис ёки маъруза тайёрлаш топширилиши мумкин. Бунда талаба ўқув адабиётлари, илмий тадқиқот ишлари, диссертациялар, мақола ва монографиялар ҳамда бошқа ахборот манбаларидан мавзуга тегишли материаллар тўплайди, тахлил қилади, зарурларини ажратиб олиб, тартибга солади, шахсий тажрибаси ва билими, илмий натижаларига асосланган ҳолда қўшимчалар, изоҳлар киритади, ўз нуқтаи-назарини баён этади ва асослайди. Бунда талаба ўқитувчи билан ҳамкорликда ишлайди.

Тайёрланган мақола, тезис ёки маъруза кафедрада ҳимоя қилинади.

Амалий мазмундаги ностандарт масалаларни ечиш ва ижодий ишлаш. Бир мавзу ёки бўлим бўйича ностандарт, алоҳида ёндашиш талаб қилинадиган, назарий аҳмиятга эга бўлган амалий топшириқлар, ижодий ёндашиш талаб қилинадиган илмий-ижодий вазифалар, моделлар, макетлар, намуналар яратиш вазифаси топширилиши мумкин. Амалий топшириқлар масалани ҳал қилишнинг оптимал вариантларини излашга ва топишга қаратилган бўлиши керак.

Талабанинг қизиқиш ва қобилиятига қараб, унга илмий характердаги топшириқлар бериш, ўқитувчи билан ҳамкорликда илмий мақолалар тайёрлаш ва чоп эттириш мумкин.

Клиникада навбатчилик қилиш ва касаллик тарихи ёзиш. Талаба клиникада навбатчи врач билан биргаликда тунги навбатчилик қилади. Навбатчилик вақтида беморларни қабул қилишда, беморларни кўрувида, шошилинж ҳолатларда ёрдам кўрсатишда, хирургик муолажалар ва ҳ.к. да актив иштирок этиб, қилинган ишлар бўйича кундалик тўлдиради.

Фанни ўтиш семестри (цикли) давомида бир ёки икки бемор учун касаллик тарихи ёзиб, кафедрада ҳимоя қилади.Касаллик тарихи ёзишда клиник фаннинг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқиб, тартибига риоя қилиши эътиборга олинади.

Касаллик тарихи ҳимоясида талабанинг анализни тўла ёритиши, клиник ва лаборатор текширувларни тахлил қила олишига, охирги диагнозни асослай олишига, даво режасини тўғри тузиб, асослаши ва бошқаларга эътибор берилади.

Талабалар мустақил ишини самарали ташкил этиш:

- тизимли ёндошиш;
- барча босқичларини мувофиқлаштириш ва узвийлаштириш;
- бажарилиши устидан қатъий назорат қилиш;
- ташкил этиш ва назорат қилиш механизмларини такомиллаштириб бориш зарур.

Мустақил иш топшириқлари муваффақиятли якунланиши учун қуйидаги талаблар бажарилиши лозим:

- мақсад (билимни мустахкамлаш, янги билимларни ўзлаштириш, ижодий фаолликни ошириш, амалий кўникма ва малакаларни шакллантириш ва ҳ.к.) аниқ асосланиши;
- вазифа ва топшириқларнинг аниқ-равшан белгиланиши;
- топшириқларни бажариш алгоритми ва методларидан талабаларнинг етарли даражада хабардор бўлиши;
- маслахат ва бошқа ёрдам турларининг тўғри белгиланиши (йўлланма ва кўрсатма бериш, мавзунинг мазмуни ва моҳиятини тушунтириш, муаммоли топшириқларни бажариш усуллари бўйича тушунча бериш, айрим муаммоли моментларни биргаликда ҳал қилиш ва ҳ.к.);
- ҳисобот шакли ва баҳолаш мезонини аниқ белгилаш;
- назорат вақти, шакли ва турларини аниқ белгилаб олиш (амалий семинар, лаборатория машғулотлари, консультация ёки назорат учун махсус ажратилган вақт; маъруза ёки реферат матни, бажарилган топшириқлар дафтари, назорат ишлари, уй вазифаси дафтари, тест, мақола, ностандарт топшириқлар, саволлар, мақола, кўргазмали жихозлар ва ижодий ишлар; савол-жавоб, бажарилган иш мазмуни ва моҳиятини тушунтириб бериш, ёзма шаклда баён қилиш ва ҳ.к.).

Талабалар мустақил ишини шартли равишда иккига ажратиш мумкин:

*Аудиторияда амалга оширилган ТМИлари.*Ўтилган мавзуни қайта ишлаш, кенгайтириш ва мустахкамлашга оид топшириқлар бажарилади;

Аудиториядан ташқарида амалга оширилган ТМИлари. Ўқув дастуридаги айрим мавзуларни мустақил ҳолда ўзлаштириш, уйга берилган вазифаларни бажариш, амалий ва лаборатория ишларига тайёргарлик кўриб келиш, ижодий ва илмий-тадқиқот характеридаги ишлар ва ҳ.к.

Биринчи тур ишлари талабаларнинг назарий ва амалий билимларини ўзлаштириб бориш даражаси, амалий машғулотларга (амалиёт, лаборатория, семинар дарслари) тайёргарлик савияси ва уй вазифаларининг бажарилиш сифатини текшириш мақсадида, одатда, назорат ишлари олиш, савол-жавоб, суҳбат, мунозара, амалий топшириқларни бажартириб кўриш ва ҳ.к. усулларда асосан амалиёт дарсларида назорат (жорий назорат) қилинади.

Жорий назоратда талабанинг дарс пайтида ўтилган материалларни ўзлаштириш ва уйга берилган вазифаларни бажаришдаги фаоллиги, бажариш савияси ва ўзлаштириш даражаси эътиборга олинади.

Иккинчи тур ишлар фаннинг ишчи ўқув дастурида аудиториядан ташқарида ўзлаштирилиши белгиланган мавзу бўйича маълумот ва ахборотларни мустақил равишда излаб топиш, тахлил қилиш, конспектлаштириш (ёки реферат тарзида расмийлаштириш) ва ўзлаштириш, ижодий ёндашишни талаб қиладиган амалий топшириқларни бажариш кўринишида амалга оширилади. Бу турдаги ишларни бажариш жараёни ва ўзлаштириш сифатининг назорати дарсдан ташқари пайтларда, махсус белгиланган консультация соатларида амалга оширилади.

Талабалар мустақил ишини бахолаш. ТМИ натижалари амалдаги “ талабалар билимини назорат қилиш ва баҳолашнинг рейтинг тизими тўғрисидаги Низом”га асосан баҳолаб борилади.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ish (jami 74 soat ajratilgan) o'qituvchining talabalarga avvalda berib qo'yiladigan fanning mavzulari asosida tashkil etiladi.Talaba mustaqil ishni tayyorlashda o'zbek tilini o'zlashtirishning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

-darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish; -tarqatma materiallar bo'yicha mashg'ulotlar mazmunini o'zlashtirish;

-maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;

- nutq mavzulari O'zbekiston tarixi, fan va madaniyati, milliy qadriyatlari to'g'risida qo'shimcha adabiyotlarni o'rganish va bo'yicha referat tayyorlash;

- radio va televideniye orqali mavzuga oid eshittirishlar asosida matn yozish; -masofaviy (distantsion) ta'limni tashkil etish.

Mustaqil ish uchun quyidagi topshiriqlarni bajarish tavsiya etiladi:

1.Amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish.

2.O'rganilgan yangi so'zlar bo'yicha lug'at tuzish.

3.Nutqiy mavzular yuzasidan matn, suhbat namunasi, referet, albom tayyorlash.

4.Mutaxassislikka oid terminlar izohini tayyorlash, ular ushtirokida gap tuzish.

5.Videotasvir asosida matn, maqola, taqriz yozish.

6.O'zbek yozuvchilarining asarlarini o'qish, ular bo'yicha suhbat, adabiy anjuman o'tkazish;

7.O'zbek tilida olib boriladigan madaniy-ma'rifiy tadbirlar uchun material tayyorlash, senariya yozish.

Talabalarning mustaqil ishlarining tematik rejasi

№	MAVZU	SOAT
1	Alisher Navoiy - o'zbek tilining asoschisi.	**2**
2	O'zbekiston mustaqilligi va ma'naviy - axloqiy tarbiya.	**4**
3	Sog`lom muhit – sog`lom avlod.	**4**
4	Tibbiyot xodimlarining ma'naviyati.	**4**
5	O'zbekiston o'tmishi ham, kelajagi ham buyuk davlat.	**2**
6	Imom Al-Buxoriy hayoti va ijodi.	**2**
7	Ahmad Al-Farg`oniy merosi.	**2**
8	Iso Muhammad At-Termiziy ijodi.	**2**
9	Sharqning buyuk allomalari.	**4**
10	Milliy qadriyatlar.	**2**
11	Zahriddin Muxammad Bobur ijodi.	**2**
12	Sharq tabobati.	**2**
13	Alisher Navoiy va tibbiyot.	**2**

14	Abu Ali ibn Sinoning buyuk merosi.	**2**
15	O’zbek xalq maqollari va ularning tarbiyaviy ahamiyati.	**2**
16	O’zbek klassik yozuvchilari, donishmandlarining hikmatli so’zlari.	**4**
17	Til - millatning ko’zgusi.	**2**
18	Tilga ehtiyotsiz – elga e’tiborsiz.	**2**
19	Mehnat – mehnatning tagi rohat.	**2**
20	Ixtisoslikka oid suhbatlarda tibbiy atamalarning qo’llanishi.	**4**
21	Ariza va tarjimai holning zaruriy qismlari va yozish namunalari.	**2**
22	Tushuntirish xati, bildirishnoma, xizmat xatining yozilish tartibi va namunasi.	**4**
23	E’lon, taklifnoma, tabriknoma turlari va ularning yozilish mashqlari.	**4**
24	Ishonchnoma, tibbiy ma’lumotnoma, tavsifnoma va tibbiy ish yuritish hujjatlarini (kasallik tarixi, kasallik tarixidan ko’chirma, yo’llanma va buyruk) rasmiylashtirishning zaruriy qismlari va namunasi.	**4**
25	Tibbiy mavzudagi badiiy adabiyotlarni o’qish.	**4**
26	Xalq og`zaki ijodida tibbiy mavzu	**4**
	JAMI:	**74**

ILOVALAR

FANNING NAMUNAVIY DASTURI

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ

СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ

Рўйхатга олинди: **Соғлиқни сақлаш вазирлиги**

№БД- _____

201_ йил "____"_____ **201_ йил "____"_____**

"ЎЗБЕК ТИЛИ"

ФАН ДАСТУРИ

Билим соҳаси: 500000 - Соғлиқни сақлаш ва ижтимоий таъминот

Таълим соҳаси: 510000 – Соғлиқни сақлаш

Таълим йўналиши: 5510100 - Даволаш иши
5111000 – Касб таълими (5510100 – Даволаш иши)
5510200 – Педиатрия иши
5510300 – Тиббий профилактика
5110700 – Олий хамширалик иши
5510400 – Стоматология
5511000 –Болалар стоматологияси
5510900 – Тиббий биология иши
5510500 – Фармация(турлари бўйича)
5510600 – Саноат фармацияси (турлари бўйича)
5320500 – Биотехнология (тармоқлари бўйича)
5310900 – Метрология, стандартлаштириш ва маҳсулот сифати менежменти(тармоқлари бўйича)

Тошкент – 201_

Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг 201__ йил “____”_____ даги _____ -сонли буйруғининг _____ -иловаси билан фан дастури рўйхати тасдиқланган.

Фан дастури Соғлиқни сақлаш вазирлигининг Тиббиёт таълим муасса-салараро мувофиқлаштирувчи услубий Кенгашининг 201__ йил “____”_____ даги _____ -сонли баённомаси билан маъқулланган.

Фан дастури Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг Тиббиёт таълим муассасалараро ишчи гуруҳ аъзолари томонидан ишлаб чиқилди.

Тузувчилар:

К.Ш.Турдиева – ТПТИ Ўзбек, рус ва лотин тиллари кафедраси мудири, ф.ф.н., доцент.

Ф.А.Акбарходжаева – ТПТИ Ўзбек, рус ва лотин тиллари кафедраси ўқитувчиси.

А.С. Асланов - ТТА Тиллар кафедраси катта ўқитувчиси, ф.ф.н.

К.Ю.Қиличева - ТДСИ Педагогика ва психология кафедраси мудири, п.ф.д.

Н.Х. Ашурова - ТошФармиИ Тиллар кафедраси ўқитувчиси

Тақризчилар:

З. Салишева- Ўзбек Давлат жаҳон тиллари университети Ўзбек тиллари кафедраси мудири, ф.ф.н., доцент

Т.Эрназаров – ЎзМУ Ўзбек тили ва нутқ маданияти кафедраси мудири, ф.ф.н., доцент.

Фан дастури Олий ва ўрта махсус касб-ҳунар таълим йўналишлари бўйича ўқув – услубий бирлашмалар фаолиятини Мувофиқлаштирувчи Кенгашнинг 201__ йил “____”_____ даги _____ -сонли баённомаси билан маъқулланган.

I. Ўқув фанининг долзарблиги ва олий касбий таълимдаги ўрни

Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги, "Давлат тили ҳақида"ги қонунлари ҳамда "Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури"да республикадаги олий таълим муассасаларида ўзбек тилини иккинчи тил (Давлат тили) сифатида ўқитишни янада такомиллаштириш кўзда тутилган.

Ушбу концепция таълим рус ва бошқа маҳаллий тилларда олиб бориладиган олий таълим муассасаларида давлат тилини ўргатиш учун меъёрий ҳужжат саналади. У бакалавриат босқичида талабалар ўзбек тилидан эгаллашлари шарт бўлган билим, кўникма, малака ва маънавий, маданий дунёқарашнинг зарурий меъёрини асословчи таълим-тарбиявий ҳужжатдир.

Таълим рус ва бошқа маҳаллий тилларда олиб бориладиган олий таълим муассасаларида ўзбек тилини ўқитиш ижтимоий фанлар ичида муҳим ўрин тутади. Бошқа миллат вакилларининг давлат тили ҳисобланган ўзбек тилини пухта эгаллашлари, миллий, маданий қадриятларни ўрганиш ва уларга ҳурмат билан муносабатда бўлишлари тақозо этилади.

Таълим рус ва бошқа маҳаллий тилларда олиб бориладиган олий таълим муассасаларининг биринчи босқичида ўзбек тили фани бўйича шу босқич учун белгиланган нутқий кўникмага, лексик-грамматик билимларга эга бўлишлари, мустақил равишда ўзбек тилида фикр юрита олишлари учун тил материали ва воситаларидан бакалавриат босқичи ҳажмида ва унгача бўлган даврда ўрганилган материаллар ҳажмида тўғри ва мустақил фойдалана билишларига эришишлари лозим.

II. Ўқув фанининг мақсади ва вазифаси

Фаннинг мақсади ихтисослик таълим йўналишидаги билим ва кўникмалардан ташқари, кундалик мулоқот билан боғлиқ ҳамда маънавий-маърифий билимларни ўз ичига оладиган мавзуларга ҳам эътибор қаратишдан иборат.
Амалий машғулотларда асосий лексик мавзулар, жонли мулоқотлар ўз фикрини мустақил ёзма ва оғзаки нутқ орқали ифодалай олиш, сўз ва ибораларнинг таржимаси, талаффузи ва ихтисосликка оид сўз бойлиги ҳамда зарур тил кўникмаларини эгаллашга, шунингдек, тил ўрганишва ўзлаштиришнинг барча воситалари, яъни оғзаки нутқ, ўқиш, ёзув, сўз бойлиги, грамматикадан унумли ва тўғри фойдаланиш, амалиётда қўллашни ўргатиш фаннинг асосий вазифаларидир.

Талаба:

<u>Ўқиш соҳасида:</u>

а) турли услубий кўринишдаги оригинал матнларни ўқиш (қисман луғат ёрдамида);

б) ўқилган матндан талаб этилган йўл-йўриққа асосан топшириқнинг мазмун моҳиятига кўра маълумотни ола билиш;

в) матннинг мантиқий узвийлигини аниқ билиш, ўқиб чиқилган материал асосида режа, тезис, аннотация тузиш;

г) ўқилган матнлар мазмунидаги маълумотларни турли адабиётлардаги олимлар нуқтаи-назарлари ва фикрлари билан таққослаш.

Тинглаш соҳасида:

а) нутқни эшитиш ва диалогда қатнашиб унга муносиб жавоб қайтариш (касбий ва бошқа йўналишда);

б) эшитиш давомида берилган маълумотни режа, чизма, расм сифатида ажрата олиш;

и) берилган топшириққа ёки амалий вазифага мувофиқ маълумотлар оқимини ажрата олиш.

Сўзлаш соҳасида:

а) ўқилган, эшитганларининг мазмун-моҳиятларини калит сўзлар, чизма жадваллар ва бошқа белгилардан фойдаланган ҳолда оғзаки нутқда етказа олиш;

б) тақдим этилган мавзу ва таянч сўзлар асосида ўз мулоҳазасини билдириш;

в) тақдим этилган мавзу ва таянч сўзлар асосида ўз мулоҳазаларини олдиндан фикр билдириш;

г) тасвир кўринишидаги монологик мулоҳаза тайёрлаш;

д) қабул қилинган маълумотни йиғиқ ёки ёйиқ ҳолатда қайта тиклаш;

е) ўз мулоҳазасини асослашда далил исботлар ва қарши далиллар келтириш;

ж) мутахассислик бўйича адабиётларга аннотация, резюме ёзиш ва реферат тузиш (тиббий-биологик ёки тиббий-илмий йўналишда);

з) тавсия этилган стереотип вазиятларда баҳс-мунозара, касбий суҳбат ва фикрлар алмашинувини, ижтимоий-маиший ва жамоатчилик соҳаларида бир хил қолипдаги диалоглар олиб бориш;

и) бемор жавобларига, шунингдек шифокор саволларига асосан диалог тузиш.

Ёзма нутқ соҳасида

а) тақдим қилинган матн асосида аннотация, режа ва тезис ёза олиш;

б) услубий жиҳатдан ўрта даражадаги маълумотли матнни ўзбек тилидан рус тилига ва рус тилидан ўзбек тилига ёзма таржима қила олиш.

Ўзбек тили фанини ўқиш учун керак бўлган зарурий фанлар рўйхати.

Ўзбек тили таълимини қуйидаги таълим фанларига асослаш:

1. Тиббиёт тарихи 4. Терапия

2. Одам анатомияси 5. Стоматология

3. Одам физиологияси 6. Фармацевтика

7. Педиатрия.

билим ва кўникмаларга эга бўлиши керак.

Ўзбек тили фанини ўқитишда замонавий информацион

ва педагогик технологиялар

Ўзбекистон таълим тизимининг концепцуал асослари сифатида ушбу соҳага доир жаҳон тамойиллари қабул қилинган бўлиб, унинг мақсади шахснинг интелектуал ва маънавий равнақи, танқидий ва мантиқий фикрлашининг шаклланиши, ахборотларнинг турли ҳажмлари билан ишлай олиш, мустақил қарор қабул қилиш ва конструктизмни ривожлантиришдан иборат.

Шу сабабли янги педагогик ва ахборот технологияларидан фойдаланиш масаласи долзарб бўлиб қолмоқда. Ўқув жараёни, унинг мазмуни ва шакл-у шамойилини ташкил этишда асосий диологик ёндашув (ўқитувчи ва талабанинг тенг хуқуқли ҳамкорлиги)дан иборат бўлган шахсга йўналтиришган технологиялар муҳим ўрин эгаллайди. Ушбу жараёнда ўқитувчи талабаларни ўқитишдан ҳам кўра касбий ривожланишини рағбатлантиради.

“Ўзбек тили” фанини ўқитишда турли педагогик ва ахборот технологияларини қўллаш мумкин.

Замонавий педагогик технологиялар орасида таълим жараёнини фаоллаштирувчи ва машғулотларни тайёрлаш ҳамда ўтказишда ўқитувчига ижодий муҳит яратишга эришиш, таълим ва тарбиянинг мақсадга мувофиқлик масаласини самарали ҳал қилиш, таълим олувчида амалий кўникмалар, назарий материални сифатли эгаллаш ва инновацион фикрлашни шакллантириш, шунингдек креативлик шарт-шароитларини яратишнинг фаол услубларини қўллаш муҳим аҳамиятга эга.

Педагог томонидан ишлаб чиқилган замонавий таълим технологияларининг ишланмалари унга машғулот ўтказишнинг турли конфигурациясини яратади, бу жараён эса ўз навбатида дарсларни фаол услубларда ўтказиш тизимига айланади. “Ўзбек тили” фани бўйича технологияларни лойиҳалашнинг асосий концепцуал ёндашувлари қуйидагилар:

Шахсга йўналтирилган таълим ўз моҳиятига кўра таълим жараёнидаги барча иштирокчиларнинг тўлақонли ривожланишини назарда тутади. Бу эса таълим жараёнининг нафақат шахсга йўналтирилиши ва дифференциациялашувини, яъни давлат таълим стандартлари талабларига риоя қилган ҳолда таълим олувчи шахсининг интелектуал ривожланиш даражасига йўналтирилишни, балки талабанинг руҳий-процессуал ҳамда шахсий хусусиятлари ва қобилиятларини ҳисобга олишни назарда тутади.

Тизимли ёндашув: Таълим технологияси тизим хусусиятларининг барча белгиларига эга бўлиши зарур: мантиқий жараён, барча қисмларининг ўзаро боғлиқлиги, яхлитлик.

Фаолиятдаги ёндашув: таълим шахс фазилатларини шакллантиришга йўналтирилишини таъминлайди, таълим олувчи фаолиятини фаоллаштиради ва жадаллаштиради, ўқув жараёнида унинг бор қобилияти ва имкониятлари, синчковлик ва ташаббускорлигининг кенг намоён бўлишини юзага келтиради.

Диалогик ёндашув: ушбу ёндашув таълим жараёни иштирокчиларининг руҳий ҳамжиҳатлик ва ўзаро ҳамкорлигини яратиш заруриятини белгилаб беради, бунинг натижасида шахснинг ўзининг муҳимлигини англаш ва ўз қобилиятларини намоён қилиш ижодий жараёнини кучайтиради.

Ҳамкорлик асосидаги таълимни ташкил этиш: таълим берувчи ва олувчи субъектларининг муносабатида демократия, тенг ҳуқуқлик, шериклик муносабатларини кучайтириш, ҳамкорликдаги фаолиятнинг мақсад ва мазмунини, шунингдек эришилган натижаларни баҳолашни биргаликда ишлаб чиқиш заруратини кўзда тутади.

Eng yangi vosita va usullarni qo’llash axborotni taqdim etishda yangi kompyuter va axborot texnologiyalarni tadbiq etishdan iborat. Konstepstiya qoidalari ma’lumotlariga asoslanib va “O’zbek tili” fanining maqsadi, mazmuni va fan bo’yicha o’quv axboroti hajmidan kelib chiqib ta’lim, kommunikastiya, axborot boshqaruvining uslub va vositalarini, tanlovi amalga oshirildi, bularning jamuljam qo’llanilishi mazkur sharoit va o’quv rejasida belgilangan vaqt me’yorida davlat ta’lim standartlarida ko’zlangan ta’lim maqsadiga kafolatli erishish imkonini beradi.

Ta’lim texnologiyalari asosida interaktiv uslublar: bahs-munozara, keys-stadi, ta’lim beruvchi o’yin, “Insert”, “Birgalikda ta’lim olamiz”, muloqot, "Nima uchun?", "Qanday?", "Sinkveyn", Pinbord, anjuman (eksperttaklif qilinadigan fanga kirishga oid, mavzuga oid, vizualizastiyalangan, muayyan bir vaziyatni tahlil qilish, yakuniy).

Ta’limning tashkiliy shakllari: frontal bilan birgalikda jamoaviy va guruhda, dialogli muloqot, hamkorlik va birgalikdagi ta’limga asoslanadi.

Ta’lim vositalari: an’anaviy ta’lim vositalari (darslik, multimediya proyektori, audio) bilan bir qatorda grafik organayzerlar, kompyuter va axborot texnologiyalari qo’llaniladi.

Kommunikastiya uslublari: tezkor muloqot asosida talabalar bilan bevosita munosabatlarga kirishish.

Qarama-қarshi aloqaning uslub va (axborot) vositalari: kuzatish, blits – so'rov, ta'limni joriy, oraliq va yakuniy nazorat natijalari asosida tashxislash.

Boshqarishning uslub va usullari: o'quv mashғulotlarining bosқichlarini, oldinga қo'yilgan maқsad sari ta'lim beruvchi va oluvchining birgalikdagi xarakatlarini, ularning nafaқat auditoriyadagi, balki mustaқil (auditoriyadan tashқari) faoliyatini nazorat (joriy, oraliқ, yakuniy nazorat) қilishni belgilab beruvchi texnologik xarita ko'rinishida o'қuv mashғulotlarini rejalashtirish.

Monitoring va baholash: o'quv mashg`uloti jarayonidagi kabi (o'quv masg`ulotlari va testlarini bajarilish bahosi, ta'lim oluvchining har bir o'quv mashg`ulotdagi o'quv faoliyatini reyting bahosi), shuningdek butun kurs davomida ham (har bir ta'lim oluvchining reyting bahosi asosida joriy oraliq va yakuniy nazorat baholari natijalari) rejali kuzatilib boriladi. Talabalar bilimini baholash og`zaki so'rov, yozma ish va testlar asosida o'tkaziladi.

Amaliy mashg`ulot mavzulari va ajratilgan soat

№	Mavzular	Ajratilgan soat
1	O'zbekiston - yagona vatan. Ozbek tili fanining maqsad va vazifalari. Davlat tili va lotin yozuviga asoslangan o`zbek alifbosini o`rganishning ahamiyati. O`zbek tilining tovush tuzilishi.	2 soat
2	Oilam - tayanchim va faxrim. Urg`u va bo'g`in ko'chirishqoidalari.	2 soat
3	O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlari. Leksikologiya. So'zlarning to'g`ri va ko'chma ma'nosi (omonim, sinonim, antonim, paronim so'zlar)	2 soat
4	Ona tili – millat ko'zgusi. So'z va atama. Til va terminologiya.	2 soat
5	Dunyo tillari."Har bir xalqning o'z tili" mavzusida esse yozish.	2 soat
6	Odam anatomiyasi.Morfologiya. So'z turkumlari. Ot haqida umumiy tushuncha. Otlarda son kategoriyasi. Egalik qo'shimchalarining ishlatilishi.	2 soat
7	Men shifokor bo'lmo`qchiman.Otlarda kelishikkategoriyasi.	2 soat
8	Shifoxonada.Otlarning yasalishi.	2 soat
9	Yil fasllari. O'zbek tilida sifatlarning o'ziga xos xususiyatlari. Sifatning ma'no va tuzilishiga ko'ra turlari. Sifat darajalari. Sifatlarning yasalishi.	2 soat
10	Abu Ali ibn Sino.Son haqida umumiy tushuncha. Sonning ma'no va tuzilishi jihatdan turlari. O'zbek tilida vaqt hisobi.	2 soat
11	Dorishunoslik.Olmosh va uning turlari, gapda qo'llanishi, vazifalari.	2 soat
12	Ulug` ajdodlarimiz.Fe'l. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar.	2 soat

13	Tez yordam chaqirish.Fe'llarda zamon kategoriyasi. Hozirgi zamon fe'li.	2 soat
14	Tish nima o'zi?O'tgan zamon fe'li. Kelasi zamon fe'li.	2 soat
15	XXI asrda innovatsiyalar.Ravishdosh va uning qo'llanishi.	2 soat
16	Poliklinikada. Anamnez yig`ish. Sifatdosh. Harakat nomi.	2 soat
17	Yurak kasalliklari.Ravish haqida tushuncha. Ravishlarning ma'noga ko'ra turlari, yasalishi.	2 soat
18	Nafas olish a'zolari kasalliklari.Ko'makchi.	2 soat
	Jami:	36 soat

ASOSIY QISM

"O'zbek tili" fanidan uzviylashtirilgan ishchi dastur

II. Nutq o'stirish bo'yicha egallanadigan ko'nikma va malakalar:

A. Og'zaki nutq:

1)Quyidagi tavsiya etilayotgan nutqiy mavzularga oid matnlarni tez va ravon oqish va mazmunini to'la tinglab tushunish:

1.O'zbekiston - yagona vatan.
2.Oilam - tayanchim va faxrim.

3.O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlari.
4.Ona tili – millat ko'zgusi.
5.Dunyo tillari.

6.Odam anatomiyasi.
7.Men shifokor bo'lmo`qchiman.

8.Shifoxonada.
9.Yil fasllari.

10.Ali ibn Sino.
11.Dorishunoslik.
12.Ulug` ajdodlarimiz.
13.Tez yordam chaqirish.
14.Tish nima o'zi?

15.XXI asrda innovatsiyalar.

16.Poliklinikada. Anamnez yig`ish.
17.Yurak kasalliklari.

18.Nafas olish a'zolari kasalliklari.

1)O`rganilayotgan nutqiy mavzuga oid she'r, badiiy va dramatik asarlardan parchalarni ifodali o'qish.

2)O`rganilgan yangi so`z, so`z birikmalari, mutaxassislik atamalari va iboralarni to'g'ri talaffuz qilish, sodda hamda qo`shma gaplarning ohangini to'g'ri qo`yish.

3)O’zlashtirilgan yangi grammatik qo’shimcha va so’z shakllarini to‘g‘ri o’qish.

4)O`rganilgan mavzular boyicha oqituvchi tomonidan berilgan savol va topshiriqlarga to’liq javob berish;

5)Gazeta va jurnallardagi ilmiy - ommabop, shuningdek, tanlagan sohasiga oid matnlarni tezda o’qib tushunish va mazmunini so’zlab berish;

Yuqorida tavsiya etilgan nutqiy mavzularda o'zaro (talaba - o'qituvchi, oqituvchi - talaba) suhbatlashish:

6)O’rganilgan matn mazmunini ochuvchi savollar tuzish, ularga tez va ijodiy javob qaytarish;

7) O’rganilgan mavzular to‘g‘risidagi muammoli savollarga javob berish;

8)Kuzatilgan yoki audiovizual vosita orqali namoyish etilgan voqea - hodisalar haqida so’zlab berish;

9)O’rganilgan bog‘lanishli matnning mazmunini to’liq va ijodiy o’zgartirgan holda so’zlay olish;

10)O’zlashtirilgan grammatik bilimlarni qo’llagan holda tanish va notanish nutqiy mavzular doirasida o’zaro fikr almashish.

11)Mutaxassislik mavzusida erkin bahs- munozara qilish.

12)Sohaga oid maqola, ilmiy - o’quv adabiyotlari mazmunini tushunish va so’zlab berish.

13)Ilmiy va rasmiy - idoraviy nutq uslubini puxta egallash, mutaxassislik doirasida bu uslublarda erkin muloqotga kirisha olish.

B. Yozma nutq:

1) O’rganilgan mavzular doirasida sodda va qo’shma gaplar tuzish.

2)Mavzuga oid bog‘lanishli matn tuzish.

3)O`zlashtirilgan mavzulardagi adabiy - badiiy, ilmiy - ommabop matnlarni ko`chirib yozish.

4)O’zlashtirilgan grammatik materiallar asosida notanish mavzuga oid gaplarni o’zbek tiliga va o’zbek tilidan o’z ona tiliga tarjima qilish.

5)O’rganilgan matn mazmuni asosida yangi grammatik bilimlarni qo’llab savollar tuzish va ularga javob yozish;

7)Tavsiya etilgan mavzular doirasida bayon yoki insho yozish.

8)Ilmiy va rasmiy - idoraviy nutq uslubida matn yozish, mutaxassislik doirasida bu uslublardagi matnni ijodiy ozgartirish.

9)E`lon, ariza, tushuntirish xati, bayonnoma, bildirishnoma, ishonchnoma matnlarini yozish.

10)Mutaxassislikka oid maqola va o``quv adabiyotlariga annotatsiya, rezyume, taqriz yozish.

11)Referat, malakaviy bitiruv ishni rasmiylashtirish.

II.Grammatika:

1.O`zbek tilining tovush tuzilishi.

2.Urg`u va bo’g`in ko’chirish qoidalari

3.Leksikologiya. So’zlarning to’g`ri va ko’chma ma’nosi (omonim, sinonim, antonim, paronim so’zlar)

4. So’z va atama. Til va terminologiya

5. "Har bir xalqning o’z tili" mavzusida esse yozish.

6.Morfologiya. So’z turkumlari. Ot haqida umumiy tushuncha. Otlarda son kategoriyasi. Egalik qo’shimchalarining ishlatilishi

7.Otlarda kelishikkategoriyasi.

8.Otlarning yasalishi

9.O’zbek tilida sifatlarning o’ziga xos xususiyatlari. Sifatning ma’no va tuzilishiga ko’ra turlari. Sifat darajalari. Sifatlarning yasalishi.

10.Son haqida umumiy tushuncha. Sonning ma’no va tuzilishi jihatdan turlari. O’zbek tilida vaqt hisobi.
11.Olmosh va uning turlari, gapda qo’llanishi, vazifalari.
12.Fe’l. Bo’lishli va bo’lishsiz fe’llar.
13.Fe’llarda zamon kategoriyasi. Hozirgi zamon fe’li.
14.O’tgan zamon fe’li. Kelasi zamon fe’li.

15.Ravishdosh va uning qo’llanishi.

16.Sifatdosh. Harakat nomi.
17.Ravish haqida tushuncha. Ravishlarning ma’noga ko’ra turlari, yasalishi.

18.Ko’makchi

III. Asosiy nazariy qism (amaliy mashg`ulotlar)
Nutqiy mavzular bo’yicha bajariladigan ishlar taqsimoti
(Dars mashg’ulotlarining mazmuni)
I kurs, I semester, 36 soat
l. O'zbekiston - yagona Vatan
Og’zaki nutq:

Mavzuga oid matnni tez va ravon o'qish, mazmunini to’liq tinglab tushunish. Ozbekistonni nima uchun sevishingizni tushuntirib berish.O`zbekistonning xalqaro aloqalari haqida suhbatlashish.
Yozma nutq:

O'zbekistonda yashovchi millatlar haqidagi matnni kengaytirib yozish. “Ozbekiston davlatchiligining asoslari" mavzusida dialog tuzish.O'z shahar (tuman)ingizning isbiqboli to'g'risida matn tuzish.“Ozbekiston yagona - Vatan" mavzusida bayon yozish.
*Grammatika:***O’zbek tili fanining maqsad va vazifalari. Davlat tili va lotin yozuviga asoslangan o’zbek alifbosini o’rganishning ahamiyati. O’zbek tilining tovush tuzilishi. Unli va undosh tovushlar.**
Interfaol usul: ”Aqliy hujum”
Adabiyotlar: AA 1,QA 2, 23
2.Oilam - tayanchim va faxrim.
***Og`zaki nutq:*** Oila, oilaviy munosabatlar, qarindosh-urug`chilikka oid so’z va iboralar ishtirokida suhbatlashish (tarjimai hol). Mavzuga oid matnni o’qib tushunish, mazmunini qayta hikoya qilish.

Yozma nuq: "Oila - muqaddas dargox", "Qarindoshlar davrasida" mavzusida hikoya tuzish.

Grammatika:

Urg`u va bo’g`in ko’chirish qoidalari.

Interfaol usul: Klaster
Adabiyotlar: AA 2, QA 21, 26

3. O’zbekiston Respublikasi davlat ramzlari.

Og`zaki nutq:

Mavzuga oid matnni o’qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma’nosini izoҳlash. Davlat ramzlarining o’rni va axamiyati haqida so’zlash.

Yozma nutq:

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash. "Men nechun sevaman Vatanimni" mavzusida insho yozish

Grammatika:

Leksikologiya. So’zlarning to’g`ri va ko’chma ma’nosi (omonim, sinonim, antonim, paronim so’zlar).

Interfaol usul: “BBB”
Adabiyotlar: AA 1,QA 4, 31

4. Ona tili – millat ko’zgusi.

Og`zaki nutq:

Mavzuga oid matnni o’qib tushunish. Matndagi atamalarning ma’nosini izohlash. Til va muloқot madaniyati haqidagi maqollardan yod olish.

Yozma nutq:

"Tilga e’tibor - elga e’tibor" mavzusida esse yozish.

Grammatika:

So’z va atama. Til va terminologiya.

Interfaol usul: “Ikki qismli kundalik”
Adabiyotlar: AA 3, QA 5, 28

5. Dunyo tillari.

Og`zaki nutq:

Mavzuga oid matnni o’qib tushunish. Matndagi iboralarning ma’nosini izohlash. Til va muloқot madaniyati haqidagi maqollardan yod olish.

Yozma nutq:

"Har bir xalqning o’z tili" mavzusida esse yozish.

Grammatika:

Ibora (frazeologizm)

Interfaol usul: “Bahs-minozara”
Adabiyotlar: AA 1, QA 22, 29

6. Odam anatomiyasi.

Og`zaki nutq:

Mavzuga oid matnni o’qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlash. Anatomiya atamalarini yod olish.

Yozma nutq:

Mavzuga oid mashq va topshiriқlar ustida ishlash. "Shifokor huzurida" mavzusida dialog tuzish.

Grammatika:

Morfologiya. So’z turkumlari. Ot haqida umumiy tushuncha. Otlarda son kategoriyasi. Egalik qo’shimchalarining ishlatilishi.

Interfaol usul: ”Kim topqir?”
Adabiyotlar: AA 2, QA 9, 13

7. Men shifokor bo’lmo`qchiman.

Og`zaki nutq:

Mavzuga oid matnni o’qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma’nosini izoҳlash. Matnga munosabat bildirib so’zlash. Orzu qilgan mutaxassislik ҳaqida so’zlashish.

Yozma nutқ:

"Sohamiz ravnaqi" mavzusida matn tuzish. Hunar va ilmga oid xikmatli so’zlarni yozish. Kasb-hunar tasviri asosida bayon yozish.

Grammatika:

Otlarda kelishik kategoriyasi.

Interfaol usul: “Insert”
Adabiyotlar: AA 3, QA 8, 17

8. Shifoxonada.

Og`zaki nuq:

Mavzuga oid matnni o’qib tushunish. Matnni so’zlab berish. O’rin-joy, kishilar va narsa hodisalarning turli holatlarini ifodalovchi iboralar ishtirokida suhbat olib borish.

Yozma nutq:

Tibbiy muassasaning biror bo’limi ҳaqida matn tuzish. Tibbiy muassasaning bo’limlari ro’yxatini tuzish.

Grammatika:

Otlarning yasalishi

Interfaol usul: “Muammoli vaziyat”
Adabiyotlar: AA 2, QA 1, 10, 14

9. Yil fasllari.

Og`zaki nutq:

Mavzuga oid matnni o’qib tushunish. Matnni ijodiy so’zlab berish. Narsa va hodisalarning sifat xususiyatlari xaqida suhbat. Tabiatga munosabat xaqida so’zlab berish.

Yozma nutq:

Bo’sh vaqtni qanday o’tkazish haqida hikoya tuzish. Tabiatni asrash haqida reja tuzish va ularni izohlash.

Grammatika:

O’zbek tilida sifatlarning o’ziga xos xususiyatlari. Sifatning ma’no va tuzilishiga ko’ra turlari. Sifat darajalari. Sifatlarning yasalishi.

Interfaol usul: Klaster
Adabiyotlar: AA1, QA 3, 26

10. Abu Ali ibn Sino.

Og`zaki nutq:

Mavzuga oid matnni o’qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma’nosini izoxlash. Matnni so’zlab berish. Ibn Sino hikmatli so’zlari.

Yozma nutq:

Matnni dialog asosida tuzish. "Ibn Sino hayoti va ijodi", "Ibn Sino asarlarida sog`lom turmush tarzi" kabi mavzularda kichik ma’ruzalar tayyorlang.

Grammatika:

Son haqida umumiy tushuncha. Sonning ma’no va tuzilishi jihatdan turlari. O’zbek tilida vaқt hisobi.

Interfaol usul: “Zakovat”

Adabiyotlar: AA 3, QA 18, 30

11. Dorishunoslik.

Og`zaki nutq:

Mavzuga oid matnni o’qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlash. Mavzu bo’yicha bahs-munozarada ishtirok etish.

Yozma nutq:

"Dorixonada" mavzusida suhbat tuzish. Dori-darmonlardan biriga tasnif berish. Dorivor o’simliklar haqida ma’lumot yozish.

Grammatika:

Olmosh va uning turlari, gapda qo’llanishi, vazifalari.

Interfaol usul: ”Aqliy hujum”
Adabiyotlar: AA 3, QA 12, 24

12. Ulug` ajdodlarimiz.

Og`zaki nutq:

Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi atama va iboralarning ma'nosini izoҳlash. Matnni kengaytirib so'zlab berish. Matnni qismlarga bo'lib har bir qismini nomlash.

Yozma nutq:

Mashhur allomalardan biri haқida taқdimot tayyorlash. Buyuk allomalarimizning asarlari ro'yxatini tuzish.

Grammatika:

Fe'l. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar.

Interfaol usul: "Insert"
Adabiyotlar: AA 2, QA 14, 15, 22

13. Tez yordam chaqirish.

Og`zaki nutq:

Telefonda gaplashish odob-axloq qoidalari bilan tanishish va mavzu bo'yicha baҳs-munozarada ishtirok etish. "Tez yordam chaqirish" mavzusida rolli dialogda ishtirok etish.

Yozma nutq:

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash. Hayot haqidagi o'z fikrini tezis tarzida yozish.

Grammatika:

Fe'llarda zamon kategoriyasi. Hozirgi zamon fe'li.

Interfaol usul: "Bahs-minozara"
Adabiyotlar: AA 1, QA 4, 17. 30

14. Tish nima o'zi?

Og`zaki nutq:

Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash. Matnni gapirib berish.

Yozma nutq:

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash. "Tish shifokori qabulida" muloqotidan iborat rolli dialog tuzish. Inson hayotida tishlarning ahamiyati haqida ma'lumot tayyorlash.

Grammatika:

O'tgan zamon fe'li. Kelasi zamon fe'li.

Interfaol usul: "Klaster"
Adabiyotlar: AA 2, QA 5, 6, 30

15. XXI asrda innovatsiyalar.

Og`zaki nutq:

Mavzuga oid matnni o'qiib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash. Turli soҳalarga oid innovastiyalar haqida gapirib berish.

Yozma nutq:

"Zamondoshlarimizning kashfiyotlari" mavzusida taqdimot tayyorlash. Kasb sohasidagi innovastiyalar haqida ma'lumot tayyorlash. Sohada qo'llaniladigan baynalminal so'zlar lug`atini tuzish.

Grammatika:

Ravishdosh va uning qo'llanishi.

Interfaol usul: "Ikki qismli kundalik"
Adabiyotlar: AA 2, QA 1, 19, 29

16. Poliklinikada. Anamnez yig`ish.

Og`zaki nutq:

Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash. Matnni so'zlab berish. "Bemor va shifokor" mavzusida bahs-munozarada ishtirok etish.

Yozma nutq:

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash. Bemorga beriladigan anamnez savollarini tuzish.

Grammatika:

Sifatdosh. Harakat nomi.

Interfaol usul: "BBB"
Adabiyotlar: AA 2, QA 12, 14

17. Yurak kasalliklari.

Og`zaki nutq:

Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash. Matnni so'zlab berish. Mavzuga oid bahs-munozarada ishtirok etish.

Yozma nutq:

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash. Yurak kasalliklaridan biri bo'yicha ma'lumot tayyorlash.

Grammatika:

Ravish ҳaқida tushuncha. Ravishlarning ma'noga ko'ra turlari, yasalishi.

Interfaol usul: "Bahs-minozara"
Adabiyotlar: AA 1, QA 3,4, 30
18. Nafas olish a'zolari kasalliklari.

Og`zaki nutq:

Mavzuga oid matnni o’qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlash. Matnni so’zlab berish. "Mutaxassis maslahati" mavzusida savol-javob o’tkazing.

Yozma nutq:

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash. Nafas olish a’zolari kasalliklarihaqida ma’lumotlar tayyorlash..

Grammatika:

Ko’makchi.

Interfaol usul: ”Aqliy hujum”
Adabiyotlar: AA 2, QA 10, 11, 29

Fanni o’qitish bo’yicha ko’rsatma va tavsiyalar

O‘zbek tili, eng avvalo, O‘zbekistonda yashaydigan(millatdan qat'i nazar) barcha uchun davlat tili sanaladi. Bundan tashqari nutqiy savodxonlik har bir oliy ma'lumotli mutaxassis uchun muhim ahamiyatga egadir. Talabalar o‘zbek tilidan litsey va kollejda egallagan bilimlarini tanlagan ixtisosliklari sohasidagi leksik vositalar bilan boyitishlari, turli muloqot mavzulariga oid ko’nikmalarini mustahkamlashlari, ixtisoslikka oid matni tushunish, so’zlab berish, shunday matn tuza olish malakalariga ega bo’lishlari lozim.

Shuning uchun o’zbek tili fanini 1-kursning 1-semestrida o’qitish maqsadga muvofiqdir. Mazkur konsepsiya o’zbek tili o’qituvchisidan birinchi navbatda puxta ixtisoslik bilimiga ega bo’lishni talab etadi. Zero, o’zbek tilshunosligini yaxshi bilgan o’qituvchi bu tilning leksik-uslubiy imkoniyatlarini ham chuqur biladi, til faktlarini talabaning ona tilisi bilan to’g‘ri qiyoslab bera oladi.

Ikkinchidan, o’zbek tili o’qituvchisi chet tillarni ikkinchi til sifatida o’qitish usuliyotidan yaxshigina xabardor bo’lishi, zamonaviy o’qitish usullarini ijodiy qo’llashni o’zlashtirgan bo’lishi lozim. O’zbekcha nutqni amaliy egallash til o’qitishning kommunikativ tamoyiliga asoslangan holda ish ko’rishni shart qilib qo’yadi. Buning uchun o’qituvchi tavsiya etilgan nutq mavzulari bo’yicha keng dunyoqarashga ega bo’lishi bilan birga talabalarning shu mavzularda erkin suhbatlashishlari mumkin bo’lgan barcha imkoniyat va vositalarni ishga solishi zarur, har bir mashg‘ulotda talabalarning faolligiga erishish uchun mavzu yuzasidan bajariladigan ishlar oldindan rejalashtirilib, talaba bu ishlardan xabardor etilishi lozim. Shunda zarur nutqiy vaziyat ham, savol - javob ham, mashq va topshiriqlar ham yuksak mas'uliyat bilan bajariladi. Mavzuga oid grammatik bilimlarni esa imkon qadar talabaning mustaqil bilim olishi va mustaqil ravishda o’z ustida ishlashi uchun vazifa qilib berish maqsadga muvofiqdir.

O’qituvchi shu bilimlarni izoh tarzida anglatishi, xatolarni tuzatishi, mavzuning matn tilida ifodlanish xususiyatini ochib berishi mumkin. Bu orqali talablarni o‘zbek tilida mustaqil fikrlash, til materiali, vositasini nutqda mustaqil qo‘Пashga o‘rgatish oson kechadi. Asosiy e'tibor matn ustida ishlash, matn tuzishga qaratilgani uchun ham talabaning o‘z nutqi ustida ishlashga majbur qilish, uning xatolarini o’z vaqtida tuzatish, zarur o’rinlarda yordamlashish hamkorlik texnologiyasi asosida olib borilgani ma'quldir.

Tilni mukammal o‘rganishda, avvalo, hayotiy mavzulari bo‘yicha savol-javob, suhbat, bahs

uyushtirish muhim ahamiyatga ega. Tavsiya etilgan mavzulardan kelib chiqib, ularga har xil sharhlar berish (fonetik, leksik, grammatik) asosida darsni olib borish maqsadga muvofiqdir. Savol-javob, suhbat, bahslashuv orqali mustaqil yozma ishlar uyushtirish, matn tuzdirish, qo'llanadigan interfaol usullarning samaradorligini ta'minlash, talabalarning o'zbek tilidan hosil qiladigan malaka va ko'nikmalarini uzluksiz o'stirishga erishiladi. Bunda nofilologik ixtisosliklarga til o'rgatishni o'sha soha fanlariga moslashtirish ham talab qilinadi. Masalan, yozma ishlar o'tkazish, so'zlashuv, bahs-munozara darslarini o'qituvchi har bir fakultetning ixtisosligiga mos ravishda belgilanishi maqsadga muvofiqdir.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ish (jami ___soat ajratilgan) o'qituvchining talabalarga avvalda berib qo'yiladigan fanning mavzulari asosida tashkil etiladi.Talaba mustaqil ishni tayyorlashda o'zbek tilini o'zlashtirishning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

-darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish; -tarqatma materiallar bo'yicha mashg'ulotlar mazmunini o'zlashtirish;

-maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;

- nutq mavzulari O'zbekiston tarixi, fan va madaniyati, milliy qadriyatlari to'g'risida qo'shimcha adabiyotlarni o'rganish va bo'yicha referat tayyorlash;

- radio va televideniye orqali mavzuga oid eshittirishlar asosida matn yozish; -masofaviy (distantsion) ta'limni tashkil etish.

Mustaqil ish uchun quyidagi topshiriqlarni bajarish tavsiya etiladi:

1.Amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish.

2.O'rganilgan yangi so'zlar bo'yicha lug'at tuzish.

3.Nutqiy mavzular yuzasidan matn, suhbat namunasi, referet, albom tayyorlash.

4.Mutaxassislikka oid terminlar izohini tayyorlash, ular ushtirokida gap tuzish.

5.Videotasvir asosida matn, maqola, taqriz yozish.

6.O'zbek yozuvchilarining asarlarini o'qish, ular bo'yicha suhbat, adabiy anjuman o'tkazish;

7.O'zbek tilida olib boriladigan madaniy-ma'rifiy tadbirlar uchun material tayyorlash, senariya yozish.

Talabalarning mustaqil ishlarining tematik rejasi

№	MAVZU	SOAT
1	Alisher Navoiy - o'zbek tilining asoschisi.	2
2	O'zbekiston mustaqilligi va ma'naviy - axloqiy tarbiya.	2
3	Sog`lom muhit – sog`lom avlod.	2
4	Tibbiyot xodimlarining ma'naviyati.	2
5	O'zbekiston o'tmishi ham, kelajagi ham buyuk davlat.	2
6	Imom Al-Buxoriy hayoti va ijodi.	2
7	Ahmad Al-Farg`oniy merosi.	2
8	Iso Muhammad At-Termiziy ijodi.	2

9	Sharqning buyuk allomalari.	**2**
10	Milliy qadriyatlar.	**2**
11	Zahriddin Muҳammad Bobur ijodi.	**2**
	JAMI:	**22**

Dasturning informatsion-metodik ta’minoti

Dasturdagimavzularnio'tishdata'limningzamonaviymetodlaridankengfoydalanish, o'quvjarayoniniyangipedagogiktexnologiyalarasosidatashkiletishsamaralinatijaberadi. Buboradazamonaviypedagogiktexnologiyalarning "Klaster", "Insert", "Bumerang" hamda "Muammolita'lim" texnologiyasining "Zakovat" metodi, shuningdek, o’zbekxalqiningtarixiy,madaniy - ma’rifiyqadriyatlarigadoirslaydlardanfoydalanish, savol-javob, testechish, didaktik va roll io'yin usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

Foydalaniladigan darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

Darsliklar va o'quv qo'llanmalari:

1. Turdieva K. va hammualliflar, O’zbek tili. O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tibbiyot oliy o’quv yurtlari rusiyzabon talabalari uchun darslik. T.,2018 y.

2. Turdieva K., Ahmedova D., O’zbek tili. O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tibbiyot oliy o’quv yurtlari rusiyzabon talabalari uchun o’quv qo’llanma. T.,2006 y.

3. Turdieva K., Ahmedova D., O’zbek tili. O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan oliy o’қuv yurtlari uchun darslik. T.,2007 y.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1.Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil qt`iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak." T-2016

2..Mirziyoyev Sh. M. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan biga quramiz."T-2017

3.Yuldashev R.A. Izuchaem uzbekskiy yazik /O'zbek tilini o'rganamiz. Izd. 2- e, dop. - Toshkent.: O'qituvchi, 1996. - 264 s.

4.Abdurahmonov X., Shodmonov E., Rafiev A. O'zbek tili. - Toshkent.: O'qituvchi, 1988.

5.Nazarov K., Sayfullaev R., Ubaydullaeva M. O'zbek tili (Ixtisoslik grammatikasi). - Toshkent.: O'qituvchi, 1993.

6.Madvaliev A., Mahmudov N., va b. O'zbek tilida ish yuritish (munshoot). - Toshkent: O'zbek Milliy ensiklopediyasi.; 1990. - 223 b.

7.Muhitdinova X.S., Salimova Z., Po'latova X. O'zbek tili. Toshkent.: O'qituvchi, 2006.

8.Reshetov V.V. Osnovi fonetiki I grammatiki uzbekskogo yazika. - Toshkent.: O'qituvchi, 1966.

9.Rasulov R., Mirazizov A. O'zbek tili. O rta mxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining

ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan guruhlari uchun o'quv qo'llanma. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2006.
10.Rafiyev A. va boshqalar. Chet elliklar uchun o'zbek tili. I-qism.(CD kassetali) - Toshkent.: O'zbekiston , 2001.
11.Rafiyev A. va boshqalar. O'zbek tili. Kasb-hunar kollejlarining rus guruhlari uchun o'quv qo'llanma. -Toshkent.: Ilm Ziyo, 2006 - 160 b.
12.Rafiyev A.,G.Qurbonova. O'zbek tili.(tibbiyot mutaxassisliklari uchun).O'quv qo'llanma.- Toshkent.: 2008.
13. Ruscha - o'zbekcha lug'at. 1-2 jild. -Toshkent: O'zbek Milliy ensiklopediyasi.; 1988.
14.O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-5 jild. -Toshkent.: O'zbek Milliy ensiklopediyasi, 2005 - 2008.
15..Hojiev A., Muhitdinova X. O'zbekcha-ruscha-o'zbekcha rasmli lug'at.- Toshkent.: O'qituvchi, 2009
16.G`.B.Shoumarov va b. "Oila psixologiyasi",Toshkent,"'Sharq" 2007
17.I.Suvonqulov,Ya.Allayorov "Tibbiy xodim ma`naviyati"Toshkent Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti,1999.
18. Asadulla Abdulla o'gli Qodirov "Abu Ali ibn Sino" Toshkent,"Fan" 1995.
19.I.S.Usmonxo'jayev,S.G.Arzumonov " Jismoniy tarbiya" Toshkent,"O'qituvchi",2003.
20.M.R.Tilavov,S.O.Turdiyev,A.M.Bozorov "Ovqatlanish gigiyenasi" Toshkent, "Ilm Ziyo", 2007
21. O.Safarov,M.Mahmudov "Oila ma'naviyati" Toshkent, "Ma'naviyat" 2009.
22.S.Yo'ldosheva "Xalq urf-odat va an'analari" Toshkent, "Ijod dunyosi",2003
23. N.Jo'rayev "O'zbekiston tarixi" Toshkent, "Sharq", 2004
24 "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2001.
25 "Alisher Navoiy" O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi Toshkent,2012
26. "Saodat" jurnali. 2014-yil 5/6
27. "Tafakkur" jurnali. 2014, Buxoro, "Durdona",2012.
28.Til va adabiyot ta'limi. Jurnal. -Toshkent.:

Internet saytlari:

29.http://teachyourselfuzbek.com/resources/coursebooks/ - Самоучительузбекскогоязыка.
30. http://solver.uz/translate.php - Русско-узбекский переводчик.
31. http://sahifa.tj/russko_uzbekskij_razgovornik.aspx - Русско-узбекский разговорник.
32. http://sahifa.tj/uzbeksko_russkij.aspx - Узбекско-русский переводчик.
33. https://my.gov.uz/ - agona interaktiv davlat xizmatlari portal.
34. https://www.lex.uz. – O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma`lumotlari milliy bazasi.
35. http://library.ziyonet.uz/ - ta`lim portali

TARQATMA MATERIALLAR

INTERFAOL TEXNOLOGIYALARDAN NAMUNALAR.

AQLIY HUJUM METODI

Aqliy hujum metodidan ham lektsiya, ham amaliy darslarda foydalanish qulay. Bu metod bir zumda auditoriyadagi barcha o’quvchi-talabalarni qamrab olib ularni aktiv holatga keltiradi.

YAxlit mavzu, uning bir qismi yoki tanlab olingan muammo юzasidan o’quvchi-talabalarga beriladigan savollar majmuasi o’qituvchi tomonidan oldindan tayyorlangan bo’lishi ishda yaxshi natija beradi.

Aqliy hujum metodi qo’yilgan muammo echimiga bog’liq ravishda 5-10 daqiqa davom etishi mumkin. Bunda o’quvchi-talabalarning berayotgan javoblariga na o’qituvchining va na boshqalarning aralashuviga, har qanday fikr bildirishlariga yo’l qo’yilmaydi va natijalar baholanmaydi, ballar qo’yilmaydi. Bu qoida ko’pincha o’qituvchi tomonidan avtomatik tarzda buziladi, ya’ni talaba-o’quvchi bildirgan noto’g’ri fikrga tezda o’z munosabatini bildirib to’g’rilaydi. Bu vaziyat talaba-o’quvchilarni fikrlashdan to’xtatadi, darsda foydalanilayotgan aqliy hujum metodiga putur etkazadi. Maqsad: noto’g’ri bo’lsada o’quvchi-talabaning o’z fikrini bildirishiga erishishdan iborat. O’qituvchi umumlashtirishdan so’ng bildirilgan fikrlarning to’g’ri yoki noto’g’riligi har bir talabaga ma’lum bo’ladi.

Talabalarning fikr юritishlari o’qituvchi tomonidan to’g’ri yo’lga solib turiladi va rag’batlantirilib boriladi. Vaqti-vaqti bilan fikrlar umumlashtirib turiladi.

Muammoning echimi bo’yicha fikrlar shaklannib bo’lgach u oxirgi marta umumlashtiriladi va aniq fikrga kelinadi. SHundan keyin talabalar o’zlarining takliflarini o’zlari solishtirib, to’g’ri va xato fikrlarini anglab etishadilar va o’zlarini o’zlari baholaydilar. Ammo o’qituvchining ularga baho yoki tanbeh berishiga yo’l qo’yilmaydi.

BUMERANG TEXNOLOGiYASi

Otilgan buюmning otuvchiga qaytib kelishini ta’minlovchi o’roqsimon otish quroliga bumerang deyiladi. Ta’limda bumerang metodining ma’nosi pedagog tomonidan tashlangan muammoli masala yoki mavzuning talaba-o’quvchilar tomonidan o’zlashtirilgan holda o’qituvchiga og’zaki yoki yozma shaklda qaytishidan iborat.

1.Darsda o’rganiladigan mavzuning rejasida 4 ta mavzucha bo’lsa, auditoriyadagi talabalar ham 4 guruhga ajratiladi. Rejadagi birinchi mavzucha o’qituvchi tomonidan tayyorlangan javoblari bilan birinchi guruh talaba-o’quvchilarining har biriga taqdim etiladi. SHu tariqa rejadagi boshqa mavzuchalar ham javoblari bilan birgalikda o’ziga mos nomerdagi guruhlarning talaba-o’quvchilariga tarqatiladi. Har bir guruhdagi talabalar o’zlariga javoblari bilan taqdim etilgan bitta mavzuchani o’qituvchi tomonidan belgilangan reglamentda o’rganib chiqishadilar.

2.SHundan keyin 4 guruh talaba-o’quvchilari aralashtirilib, YAngi tarkibdagi 4 guruh tashkil etiladi. Bu yangi guruhlarning har birida dastlabki 4 guruhlarning barchasidan bir nechtadan talaba-o’quvchilarning ishtirok etishiga erishiladi. Natijada butun o’quv materialini yaxlit jamoa bo’lib o’rganish imkoniyati tug’iladi. Muhimi, talaba-o’quvchilarda o’quv materialini mustaqil o’rganish, hamkorlikda ishlash,bilganlarini boshqalarga tushuntira bilish ko’nikma va malakalari shakllanadi.

3. O’qituvchi tomonidan belgilangan reglamentda mavzuni jamoa bo’lib o’rganish yakunlangach, talaba-o’quvchilar dastlabki guruhlariga qaytishadi va savol-javoblar boshlanadi. O’qituvchining tashkilotchiligi asosida savollar boshqa guruhlar tomonidan bitta jamoaga beriladi. Jamoa ichidan o’zlari tanlagan bir talaba-o’quvchi sheriklarining to’plagan ballarini yozib, jamlab, natijalarini o’qituvchiga topshiradi. Barcha guruhlar shu tarzda savol-javobdan o’tkaziladi. Bunda qo’yilgan savolga to’g’ri javob bergan talaba-o’quvchiga 3 ball,

to’g’ri qo’shimcha qilganga 2 ball, to’g’ri replika qilganga 1 ball, umuman fikr bildirmaganga 0 ball qo’yiladi.

4. Har bir guruh mavzu bo’yicha o’zlari bittadan savol tuzib, unga javob berishni boshqa jamoalarga taklif etadi. To’g’ri javob bergan jamoaning umumiy baliga 3 ball qo’shilib, boshqalarga 0 ball qo’yiladi. Hech kim javob bera olmasa, savolni tuzgan jamoaning o’zi javob bersa, ularning umumiy baliga 3 ball qo’shib qo’yiladi.

5. Endi har bir talaba-o’quvchining baholash uchun ularga mavzu bo’yicha oldindan tayyorlangan test tarqatiladi. Bir guruhning ish natijalarini boshqa jamoa talaba-o’quvchilari tayyor javoblar asosida tekshirib, o’qituvchi tomonidan taqdim etilgan shkala bo’yicha ball qo’yiladi.

6. Dars o’qituvchi tomonidan talaba-o’quvchilar ishtirokida mustahkamlanadi va umumlashtiriladi. Guruhlar va talaba-o’quvchilarga to’plangan ballar e’lon qilinib, rag’batlantirish amalga oshiriladi. Kelgusi dars uchun kerak bo’ladigan topshiriq va vazifalar shakllantiriladi.

Guruh talaba-o’quvchilarining tayyorgarlik darajasiga, o’quv materiallarning hajmi, oson yoki qiyinligiga bog’liq ravishda dars vaqtida etishmovchilik kutilsa, to’rtinchi bosqichni o’tkazmaslik mumkin.

Mazkur texnologiya bir mashg’ulot davomida o’quv materialini chuqur va yaxlit holatda o’rganish, ijodiy tushunib etish, erkin egallashga yo’naltirilgan. U turli mazmun va harakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo’lgan mavzularni o’rganishga yaroqli bo’lib, o’z ichiga og’zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg’ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan o’quvchi-talaba yoki o’qituvchi rolida bo’lishi, kerakli ballni to’plashiga imkoniyat beradi, talaba-o’quvchilarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o’rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so’zlab bera olish, fikrini erkin bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o’quvchi–talabalarni baholay olishga qaratilgan.

BUMERANG TEXNOLOGiYASiNi O’TKAZiSH BOSQiCHLARi

1 – BOSQiCH

- Trening tinglovchilari 4–5 kishidan iborat kichik guruhlarga bo’linadi;

- o’qituvchi har bir guruh va uning har bir a’zosiga mustaqil o’rganish, fikrlash va yodda saqlab qolish uchun alohida–alohida aniq yozma tarqatma material beradi. Ularning soni guruhlar va tinglovchilar soniga bog’liq. Agar 4 ta kichik guruh bo’lsa, u holda umumiy mavzu 4 ta kichik matnlarga bo’linib har bir guruhga beriladi;

- faoliyat samarali bo’lishi uchun har bir guruhga berilgan tekstdan har bir tinglovchiga beriladi. SHunday qilib, 4 ta guruh umumiy mavzu asosida 4 xil matnga, har bir tinglovchi esa o’z guruhiga tushgan matnga ega bo’ladi.

2 – BOSQiCH

- guruhlarga berilgan matnni guruh a’zolari yakka tartibda alohida o’rganishlari, tekstni eslab qolishlari, keyin esa kerak bo’lsa boshqalarga yoki o’qituvchiga gapirib berishlari , iloji boricha tekstni o’zlashtirib olishlari kerakligini o’qituvchi uqtiradi va tayyorgarlik uchun

matnni katta yoki kichikligiga qarab 10-15 daqiqacha vaqt beradi. O'zi esa guruh va tinglovchilarning ish faoliyatini kuzatadi.

3- BOSQiCH

-o'qituvchi oldindan tayyorlab qo'yilgan raqamlar yozilgan kichik qog'ozlar bilan xar bir guruh yoniga kelib guruh a'zolaridan ushbu qog'ozlardan bittadan raqam tortib olishlarini so'raydi (qog'ozlar soni guruhdagi tinglovchilar soniga bog'liq ,masalan guruhda 5 kishi bo'lsa, qog'ozdagi raqamlar 1,2,3,4,5, etib tayyorlanadi, agar 4ta bo'lsa 1dan 4gacha va hokazo.). Kichik guruhlardagi barcha tinglovchilar raqamlar yozilgan qog'ozdan olishlari kerak . Nechta guruh bo'lsa , shuncha guruh a'zolari soniga qarab raqamlar yozilgan qog'ozlar tayyorlanadi .

Trener raqamlar bo'yicha tinglovchilardan yangi guruhlar tuzishlarini so'raydi . Masalan , hammada 1-raqamini olganlar bitta yangi guruh , 2-raqamlilar ikkinchi , 3-raqamlilar uchinchi guruhni, 4- raqamlilar to'rtinchi guruhni , 5- raqamlilar beshinchi guruhni tashkil etishlarini so'raydi . Guruh a'zolari yangi guruhga o'zlari bilan o'rgangan matnlarini ham olib o'tishadilar.

4 – BOSQiCH

- raqamlar bo'yicha yangi guruhlar tuzilganda har bir yangi guruhda avvalgi guruhlardan bittadan vakillar o'z–o'zidan to'planib qoladi, ya'ni 4 xil matn o'rganilgan bo'lsa, bu yangi guruhda har bittasidan bittadan vakil to'planadi, umumiy mavzu bo'yicha 4 tinglovchi va 4 xil matn to'planadi.

5 – BOSQiCH

- yangi tuzilgan guruhning har bir a'zosi endi o'ziga 2 ta vazifa, ya'ni o'qituvchi va o'quvchi vazifasini oladi va quyidagicha faoliyat ko'rsatadi:

-o'qituvchi (o'rgatuvchi) sifatida, o'zi avval o'rgangan materialni gapirib beradi, o'zi mustaqil o'rgangan materialning asosiy joylariga barchaning diqqatini jalb qiladi, boshqa guruh a'zolarining tushunish va o'zlashtirish qobiliyatlarini tekshiradi.

-o'quvchi sifatida, guruh a'zolarining navbatma–navbat so'zlab, tushuntirayotgan, gapirayotgan matnlarini eshitadi, tahlil qiladi, fikrlaydi va yodda saqlab qolishga harakat qiladi.

- o'qituvchi esa ularga o'z tekstlarini faqat so'zlab berishlari kerakligini uqtiradi va bunga 20 daqiqacha vaqt beradi (matn hajmiga va umumiy mavzuning qiyin, osonligiga qarab vaqt ajratiladi).

Bu bosqichda trening boshlanishida tarqatilgan barcha material tinglovchilar tomonidan o'zlashtirilgan hisoblanadi.

6 – BOSQiCH

-guruhdagilar bir–birlariga o'z matnlarini gapirib berib, barchalari ushbu matnlarni bilib olishgach, o'qituvchi o'rganilgan material guruh a'zolari tomonidan qanchalik o'zlashtirib olganini tekshirib ko'rish uchun har bir guruh a'zolarining bir–birlariga o'z matnlaridan kelib chiqqan holda savollar berishlari mumkinligini tushuntiradi. SHunday qilib, guruh ichida

ichki nazorat, ya’ni savol–javob orqali o’tkaziladi. Bu esa guruhdagi tinglovchilarni bir–birlariga so’zlab bergan materiallarini boshqalar tomonidan o’zlashtirilganlik darajasini aniqlashga,o’zining bilimini yanada mustahkamlashiga yordam beradi.

7 – BOSQiCH

- o’qituvchi barcha tinglovchilarni yana qaytadan avvalgi joylariga qaytishlarini so’raydi, ya’ni talaba-o’quvchilar yana mashg’ulot boshlanishidagi guruhlariga qaytadilar.

8 – BOSQiCH

- o’qituvchi auditoriyadagi tinglovchilarning barchasi hammaga tarqatilgan yozma materiallar bilan tanish ekanliklari, ular haqida to’liq ma’lumotga ega bo’lganliklarini hisobga olgan holda, har bir talaba-o’quvchidan o’rganilgan materialni so’rashi mumkinligini aytadi.

9 – BOSQiCH

- tinglovchilarga tarqatilgan o’quv materialining ular tomonidan qay darajada o’zlashtirilganligini aniqlash maqsadida o’qituvchi talaba-o’quvchilarning nazorat savollariga bergan javoblarini reyting ballari orqali baholashini tushuntiradi, masalan, savollarga berilgan javoblar– agar to’liq javob bo’lsa – 3 ball, qo’shimcha qilinsa – 2 ball, o’tirgan joydan luqma tashlansa – 1 ball, javob berilmasa – 0 ball qo’yilishi belgilanadi.

Baho sistemasida - to’liq javob uchun 5 baho, qo’shimcha uchun 4 baho, luqma tashlansa 3 baho, javob bermasa 2 baho, umuman ishtirok etmasa 1 baho qo’yishni belgilash mumkin.

Guruh a’zolarining javoblarini юqorida ko’rsatilgan tartibda baholash, ballarni qo’yib borish, umumlashtirish uchun har bir guruh o’ziga guruh qatnashchilaridan birini “hisobchi” etib tayinlashi mumkin (“hisobchi” ham davrada bo’layotgan savol–javoblar muloqotida ishtirok etadi).

10 – BOSQiCH

- o’qituvchi tarqatma materiallar asosida tuzilgan savollar (5–6 ta) bilan talaba-o’quvchilarga murojaat qiladi (savollar iloji boricha hamma matnlarga tegishli bo’lgani ma’qul, shuningdek, o’qituvchi auditoriyadagi barcha o’quvchi-talabalarni javob berish uchun qamrab olishga harakat qiladi).

Belgilangan savollarga javob berish tugagach, o’qituvchi doskaga guruhlar tomonidan to’plangan ballarni yozadi va mashg’ulotning keyingi bosqichiga o’tadi.

11 – BOSQiCH

-o’qituvchi har bir guruhni o’z yozma materiallarining mazmunidan kelib chiqqan holda bittadan savol tayyorlashlari kerakligini aytadi va guruhlarga savol tuzishlari uchun 5 – 7 daqiqa vaqt ajratadi.

12 – BOSQiCH

-guruhlar bir–birlariga savollar beradilar, guruhlardagi “hisobchilar” esa guruh a’zolarining javoblarini юqorida belgilangan tartibda baholab boradilar. Javoblar to’g’ri bo’lsa, savol bergan guruh javobni to’ldirmaydi.

13 – BOSQiCH

-o’qituvchi guruh a’zolari to’plagan ballarni yana bir marta doskaga yozadi va to’plangan ballar (baholar)ning umumiy qiymatini aniqlaydi. To’plangan ballar (baholar)ning umumiy qiymati barcha guruh a’zolariga teng bo’linadi (kelishganlik asosida).

izoh: agar to’plangan ballarni guruh a’zolariga teng bo’lishda o’quvchi–talabalar tomonidan norozilik bo’lsa, ya’ni ba’zi guruh a’zolari guruhning faoliyatida faol ishtirok etib, umumiy jamoaviy faoliyatda passiv bo’lgan bo’lishsa, yoki umuman ishtirok etmagan, qiziqmagan bo’lishsa, bunday holatda vaziyatni echishni guruh a’zolariga юklatiladi. Guruhning echimi to’g’ri hisoblanadi, yoki o’qituvchi o’z fikrini bildirishi mumkin, chunki u dars jarayonida o’quvchi–talabalarning javoblari, faol yoki passivliklarini kuzatib boradi.

Umuman olganda, agar o’quvchi–talaba faollik ko’rsatmagan, yoki savol – javoblarda ishtirok etmagan bo’lsa ham uning shu dars jarayonida biron narsani eslab qolib o’zlashtirganini hisobga olgan holda unga eng kichik ball berilishi mumkin. Bu o’quvchi–talabani keyinchalik shu shakldagi darslarda faolroq bo’lishga undaydi. ЮOqoridagi kabi vaziyat vujudga kelsa uning echimini har bir o’qituvchi sharoitga qarab o’zi hal etishi yoki guruh, jamoaga tashlashi mumkin.

Ba’zida guruhning “hisobchilari” ballarni qo’yishda noaniqlik yoki qo’shib yozishlari mumkin, natijada, ba’zi guruhlarning umumiy to’plangan ballari boshqa guruhlarnikidan juda kam farq qilishi mumkin.O’quvchi-talabalarning haqqoniy baholanishlari ularning tanlangan “hisobchi”lariga bog’liq ekanligini o’qituvchi oldindan eslatib o’tadi. Agar umumiy to’plangan ballarni guruh a’zolariga taqsimlaganda shu mashg’ulot uchun belgilangan maksimal balldan ortib ketgan bo’lsa, u holda shu mashg’ulot uchun kerakli ballni olib qolib,ortiqchasini keyingi mashg’ulotlarga yoki yakuniy nazoratga o’tkazish mumkin .

14-BOSQiCH.

-har bir talaba-o’quvchiga ballar qo’yilgach o’qituvchi mashg’ulotga yakun yasaydi.O’quvchi-talabalarning faoliyatiga baho beradi, berilgan javoblarga o’z fikrini bildiradi va quyidagi savollar bilan ularga murojaat qiladi:

-bugungi mashg’ulotdan nimalarni bilib oldingiz?

-nimalarga o’rgandingiz?

-nimalar siz uchun yangilik bo’ldi?

-yana nimalarni bilishni istar edingiz?

15-BOSQiCH.

O’qituvchi o’quvchi–talabalarning javoblarini diqqat bilan tinglab ularga minnatdorchilik bildiradi va darsni yakunlaydi.

MULOQOT TRENiNGi

Ushbu trening o’quvchi–talabalarda dars jarayonida mustaqil fikrlashga, o’z fikrini erkin holda bayon eta olishga hamda ularda bahslashish madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan bo’lib, odatda bunday mashg’ulot tinglovchilarni kichik guruhlarga bo’lgan holda o’tkaziladi.

MULOQOT TRENiNGNi O'TKAZiSH BOSQiCHLARi

O'qituvchi mashg'ulotni boshlashdan avval tinglovchilarni muloqot, baxs-munozarani o'tkazishga qo'yilgan talablar, qoidalar bilan tanishtiradi

1-BOSQiCH.

-o'qituvchi ishni o'tkaziladigan muloqotning mavzusini aniqlashdan boshlaydi, masalan, «Siz qaysi madaniyat tarafdorisiz: «SHarq yoki Evropa?». SHu mavzuni o'rtaga tashlab tinglovchilardan SHarq madaniyati va Evropa madaniyati tarafdorlarini aniqlab oladi.Ularni shu tartibda guruhlarga bo'ladi.

2-BOSQiCH.

-har bir guruhdagi tinglovchilar o'z mavzulari bo'yicha kerakli materiallar, dalillar, misollar, aniq fikrlar, o'z fikrini tasdiqlovchi ko'rgazmali materiallar, imkoni bo'lsa videofilim, maqolalar, mutafakkir va olimlarning so'zlari va boshqalarni tayyorlaydilar. Guruhdan bir kishini himoya uchun tanlaydilar, qolganlar esa o'z fikrlarini qo'shimcha qilishlari mumkin. O'qituvchi guruh talabalarining tayyorgarlik ko'rish imkoniyatlarini hisobga olgan holda vaqt beradi.

3-BOSQiCH.

-guruhlar himoyaga tayyor bo'lgach o'qituvchi guruhlarning biriga himoya uchun so'z beradi (himoyaga chiqish ixtiyoriy ravishda bo'lishi mumkin). Guruh vakili guruh nomidan so'zga chiqib ularga berilgan mavzuni tayyorlangan materiallar, dalillar asosida himoya qilishga kirishadi.Guruh vakili so'zini tugatgach, guruhning qolgan a'zolari qo'shimcha fikrlar bildirishlari mumkin.

4-BOSQiCH.

-mashg'ulotning 3-bosqichidagi kabi bu bosqichda ham o'qituvchi navbatdagi guruh vakiliga himoya uchun so'z beradi. ikkinchi guruh ham birinchi guruh kabi o'z mavzusi bo'yicha himoya qiladi.Himoya tugagach, o'qituvchi mashg'ulotning keyingi bosqichiga o'tadi. Xar ikkala himoya vaqtida o'qituvchi iloji boricha o'z fikr va mulohazasini bildirmaslikka, savol bermaslikka harakat qiladi, hech qaysi guruhga yon bosmagan holda muloqotni boshqaradi, guruh himoyasi vaqtida tartib saqlanishiga va muloqotni o'tkazishga qo'yilgan talab, qoidalarning to'liq bajarilishiga erishishga harakat qiladi. Bu bosqichda, asosan, ikki guruh erkin, mustaqil faoliyat ko'rsatishlari kerak bo'ladi.

5-BOSQiCH.

-guruhlar bir-birlariga savol berishni boshlaydilar. Guruhlar tomonidan beriladigan savollar ular himoyasi vaqtida aytilgan dalillar, misollar, fikrlarni yanada oydinlashtirish maqsadida, shuningdek, o'z guruhlarining fikrlarini yanada ta'kidlab, isbotlab, qolganlarni ham shu fikrga qo'shilishlariga da'vat qilish uchun berilishi mumkin. Tinglovchilar erkin holda o'zlarining chiqishlari bilan barchaga ta'sir ko'rsatishga, o'z fikrlarini ma'qullashga harakat qiladilar. O'qituvchi bunday holatga sharoit, imkoniyat yaratadi, ya'ni u bahs-munozarani samimiylik bilan boshqaradi.

6-BOSQiCH.

-o’qituvchi har ikki tomonning bir-birlariga savollari, aytadigan fikrlari, ma’qullaydigan so’zlari tugagach, har ikki guruh tomonidan aytilgan fikrlarni umumlashtiradi va o’zinig bu masala haqidagi fikr va mulohazasini bayon etadi va guruh tinglovchilari tomonidan tushgan savollarga kerakli javoblarni berishga harakat qiladi.

Mashg’ulot oxirida o’qituvchi har ikkala guruhning mashg’ulot jarayonidagi faoliyatlarini taxlil etib, ularga minnatdorchilik bildiradi va mashg’ulotni yakunlaydi.Ushbu treningning davomiyligi sharoitga qarab belgilanadi.

FSMU TEXNOLOGiYASi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs munozaralar o’tkazishda yoki o’quv–seminari yakunida (tinglovchilarning o’quv seminari haqida fikrlarini bilish maqsadida), yoki o’quv rejasi asosida biron bo’lim o’rganib bo’lingach qo’llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o’z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o’z fikrini boshqalarga o’tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda o’quvchi-talabalarni o’quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o’rgatadi.

FSMU TEXNOLOGiYASiNi O’TKAZiSH BOSQiCHLARi

1 – BOSQiCH

- o’qituvchi tinglovchilar bilan birga bahs mavzusini yoki muhokama etilishi kerak bo’lgan muammoni yoki o’rganilgan bo’limni belgilab oladi;

- o’qituvchi o’quv mashg’ulotida avval har bir tinglovchi yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borilishi va nihoyat dars oxirida jamoa bo’lib ishlanishi haqida tinglovchilarga ma’lumot beradi;

- mashg’ulot davomida har bir tinglovchi o’z fikrini erkin holda to’liq bayon etishi mumkin ekanligi eslatib o’tiladi.

2 – BOSQiCH

- har bir tinglovchiga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog’ozlar tarqatiladi:

F – fikringizni bayon eting;

S – fikringizning bayoniga sabab ko’rsating;

M – ko’rsatgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring;

U – fikringizni umumlashtiring.

Har bir tinglovchi yakka tartibda tarqatilgan qog’ozni FSMU ning 4 – bosqichi bo’yicha o’z fikrlarini yozma bayon etgan holda to’latadi.

3 – BOSQiCH

- har bir tinglovchi o’z qog’ozlarini to’latib bo’lgach, trener ularni kichik guruhlarga bo’linishlarini iltimos qiladi yoki o’zi turli guruhlarga ajratish usullarining biridan foydalangan holda tinglovchilarni kichik guruhlarga bo’lib юboradi;

- o’qituvchi har bir kichik guruhga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan katta formatdagi qog’ozlarni tarqatadi;

-o’qituvchi kichik guruhlarga har birlari yozgan qog’ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda 4 bosqich bo’yicha yozishlarini taklif etadi.

4 – BOSQiCH

- kichik guruhlarda avval har bir tinglovchi o’zi yozgan har bir bosqichdagi fikrlari bilan guruh a’zolarini tanishtirib o’tadi. Guruh a’zolarining barcha fikrlari o’rganilgach, kichik guruh a’zolari ularni umumlashtirishga kirishadi;

- guruh a’zolari FSMUning 4 bosqichini har biri bo’yicha umumlashtirib, uni himoya qilishga tayyorgarlik ko’radilar;

- fikrlarni umumlashtirish vaqtida har bir tinglovchi o’z fikrlarini himoya etishi, isbotlashi mumkin.

5 – BOSQiCH

- kichik guruhlar umumlashtirilgan fikrlarini himoya qiladilar: guruh vakili har bir bosqichni alohida o’qiydi (iloji boricha izoh bermagan holda). Ba’zi bo’limlarni isbotlashi, ya’ni guruhning aynan nima uchun shu fikrga kelganini aytib o’tishi mumkin.

6 – BOSQiCH

- o’qituvchi mashg’ulotga yakun yasaydi, bildirilgan fikrlarga o’z munosabatini bildiradi;

- quyidagi savollar bilan tinglovchilarga murojaat qiladi;

- ushbu trening yordamida nimalarni bilib oldingiz va nimalarga o’rgandingiz?

- ushbu texnologiyaning o’quv jarayoniga qo’llanilishi qanday samara berdi?

- ushbu texnologiyaning qo’llanilishi talaba-o’quvchilarda qanday xislatlarni tarbiyalaydi, nimalarni shakllantiradi, ularning qanday fazilatlarini rivojlantiradi?

- ushbu texnologiyani o’quv jarayonining qaysi bosqichida qo’llash ma’qul va nima uchun?

- ushbu texnologiyaning dars jarayonida qo’llanilishi o’quvchi talabalarga nima beradi va nimaga o’rgatadi?

- ushbu texnologiyani yana qanday tartibda yoki qanday shaklda o’tkazish mumkin?

- ushbu treningda o’qituvchining asosiy vazifasi nimadan iborat.

iZOH: юqorida keltirilgan savollar har bir treningning mazmuni, maqsadidan kelib chiqib trener (o’qituvchi) tomonidan tinglovchilarga yoki talaba-o’quvchilarga berilishi mumkin.

Tarqatma materialning taxminiy nusxasi:

FSMU TEXNOLOGiYASi

(F) – Fikringizni bayon eting;

(S) – Fikringiz bayoniga biron sabab ko’rsating;

(M) – Ko’rsatilgan sababni tushuntiruvchi (isbotlovchi) misol keltiring;

(U) – Fikringizni umumlashtiring.

BLiTS-SO’ROV TEXNOLOGiYASi

Blits- pedagogikada tezkor, bir zumlik ma’nosida ishlatiladi.

Bu texnologiyada talaba-o’quvchilarga o’rganilgan butun mavzu yoki uning ma’lum qismining asosiy tushunchalari va tayanch iboralari bo’yicha tuzilgan savollarga javob (og’zaki, yozma, biror jadval yoki diagramma ko’rinishida) berishlari taklif etiladi. Masalan, genetika fanidan o’tilgan «Hujayra tuzilishi» mavzusining oxirida quyidagi savollar bo’yicha blits-surov o’tkazish mumkin:

1. Hujayraning irsiyatda qanday ahamiyati bor?
2. Hujayraning shakli va o’lchami qanday bo’lishi mumkin?
3. Hujayraning ximiyaviy tarkibi qanday moddalardan tashkil topgan?
4. Hujayra organoidlari va ularning vazifalari nimalardan iborat?

BLiTS – O’YiN TEXNOLOGiYASi

Ushbu texnologiya o’quvchi–talabalarni harakatlar ketma–ketligini to’g’ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o’rganayotgan predmeti asosida ko’p, xilma–xil fikrlardan, ma’lumotlardan kerakligini tanlab olishni o’rgatishga qaratilgan. Ushbu texnologiya davomida o’quvchi–talabalar o’zlarining mustaqil fikrlarini boshqalarga o’tkaza oladilar, chunki bu texnologiya shunga to’liq sharoit yaratib beradi.

“BLiTS – O’YiN” TEXNOLOGiYASiNi O’TKAZiSH BOSQiCHLARi

1 – BOSQiCH

- o’qituvchi ushbu trening bir necha bosqichda o’tkazilishi haqida tinglovchilarga (talaba-o’quvchilarga) tushuncha beradi. Har bosqichdagi vazifani bajarishga aniq vaqt berilishi, tinglovchilar esa shu vaqtdan unumli foydalanishlari kerakligi haqida ularni ogohlantiradi;

- o’qituvchi hamma tinglovchilarga alohida – alohida tarqatma material beradi va tinglovchilardan ushbu materialni sinchiklab o’rganishlarini so’raydi;

- o’qituvchi tarqatma material mazmuni va bajariladigan vazifani tushuntiradi, ya’ni tarqatma materialda berilgan 13 ta harakatning ketma – ketligini to’g’ri belgilash kerakligi, belgini esa qog’ozda alohida ajratilgan bo’limga raqamlar bilan belgilash kerakligini tushuntiradi;

- qo’yilgan vazifa avval yakka tartibda bajarilishini aytadi.

2 – BOSQiCH

-o’qituvchi birinchi berilgan vazifani har bir tinglovchi tomonidan yakka tartibda bajarilishini kuzatadi, qiynalganlarga yordam beradi, yoki qaytadan tushuntiradi;

- har bir tinglovchi tarqatma materialdagi “YAKKA BAHO” bo’limiga shu erda berilgan harakatlardan o’zining shaxsiy fikri asosida mantiqiy ketma–ketligini raqamlar bilan belgilab

chiqadi, ya’ni berilgan 13 harakatdan, uning fikricha qaysi biri, birinchi bo’lishi, qaysi biri esa ikkinchi bo’lishini va hokazo. Bu vazifani bajarishga 10 daqiqa vaqt beradi.

3 – BOSQiCH

- o’qituvchi tinglovchilardan 3 kishidan iborat kichik guruhlar tashkil etishlarini so’raydi. 3 kishilik guruhlar tinglovchilarning xohishlariga qarab yoki raqamlar bo’yicha tashkil etilishi mumkin;

- kichik guruhlardagi tinglovchilarning har biri o’z qog’ozidagi yakka baho bo’limida belgilangan harakatlar ketma–ketligi bilan bir–birlarini tanishtiradilar, keyin 3 kishida uch xil bo’lgan ketma–ketlikni birgalashib, bir–birlari bilan tortishib, bahslashib, bir–birlariga ta’sir o’tkazib, o’z fikrlariga ishontirib kelishgan holda bir muqimga kelib ularga tarqatilgan qog’ozdagi “GURUH BAHOSi” bo’limiga raqamlar bilan belgilab chiqadilar.

- o’qituvchi kichik guruhdagi tortishuvlarda ishtirok etmaydi, faqat kichik guruhlar va har bir tinglovchi faoliyatini kuzatadi. Bu vazifani bajarish uchun 20 daqiqa vaqt beriladi.

4 – BOSQiCH

Barcha kichik guruhlar o’z ishlarini tugatgach, o’qituvchi harakatlar ketma–ketligi bo’yicha to’g’ri javobni beradi, ya’ni tinglovchilardan ularga tarqatilgan qog’ozlardan “TO’G’Ri JAVOB” bo’limini topishi va unga o’qituvchi tomonidan aytilgan harakatlar ketma–ketligining raqamlarini yozishni so’raydi.

5 – BOSQiCH

O’qituvchi “TO’G’Ri JAVOB” bo’limida berilgan raqamlardan “YAKKA BAHO” bo’limida berilgan raqamlarni (yoki aksincha), ya’ni kattadan – kichikni ayirgan holda “YAKKA XATO” bo’limiga chiqqan farqni yozishni so’raydi. “YAKKA BAHO” bo’limidagi sonlarni юqoridan pastga qarab qo’shib chiqib umumiysini hisoblashlari kerakligini uqtiradi.

6 – BOSQiCH

- xuddi shu tartibda “TO’G’Ri JAVOB” va “GURUH BAHOSi” o’rtasidagi farq kattadan – kichikni ayirish orqali bajariladi, chiqarilgan farqlar soni “GURUH XATOSi” bo’limiga yozilib, юqoridan pastga qarab qo’shiladi va umumiy son keltirib chiqariladi.

7 – BOSQiCH

- O’qituvchi yakka va guruh xatolarining umumiy miqdori (soni) bo’yicha tushuncha berib, ularni alohida–alohida sharhlab beradi.

“YAKKA XATO” bo’limidagi umumiy sonlarning sharhi:

Agar yakka xatolar soni 30 gacha bo’lsa, bunday tinglovchilarda tashkilotchilik, konstruktivlik qobiliyati etarli, ular mustaqil ravishda har bir ishni tashkil eta oladilar, turli sharoitlardagi harakatlar vaqtida mantiqli ularning ketma–ketligini tashkil eta oladilar.

Agar yakka xatolar soni 30 dan 40 gacha bo’lsa, bunday tinglovchilarda tashkilotchilik qobiliyati etarli emas, biron bir ishni yoki faoliyatni tashkil etishlarida qiynaladilar yoki pala–partishlikka yo’l qo’yadilar. SHuning uchun ular alohida kurslarda o’qishlari yoki mantiqiy fikrlashga o’rganishlari kerak bo’ladi.

Agar xatolar son 40 dan юqori bo'lsa, bunday tinglovchilarda tashkilotchilik, mantiqiy fikrlash qobiliyati etarli emas, ular o'z ustilarida ishlashlari kerak bo'ladi yoki maxsus treninglar kurslarida o'qishlariga to'g'ri keladi.

"GURUH XATOSi" bo'limidagi umumiy sonlarning sharhi:

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To'g'ri javob	YAkka xato	YAkka baho	Guruh ishidan chetlashish	Harakatlar mazmuni
		5				Tadbir rejasini tuzish.
		2				Tadbirning maqsa-dini belgilash.
		3				Tadbirning mazmunini tanlash.
		8				Tadbirni boshlash yo'lini tanlash va uning stsenariysini yozish.
		12				Tadbirni repetitsiya qilish
		7				Bo'lajak tadbirga tomoshabinlarning munosabatlarini oldindan ko'ra bilish.
		9				Tadbirni vaqtlarga bo'lish .
		1				Tayyorlangan tadbirning boshqa tadbirlarga nisbatan dolzarbligini baholash.
		4				Tadbirning mavzusini tuzish.
		6				Bo'lajak tadbirning eng

						qiziqarli, ta’sirli nuqtalarini tanlash
		13				O’tkaziladigan tadbirning yakuniy tahlili va keyingi tadbirga tayyorgarlik.
		10				Tadbirda ishlatiladigan turli texnikalarni tayyorlash masalalarini hal etish .
		11				Tadbir o’tkaziladigan joyni jihozlash hamda kerakli texnikani tayyorlash

- Agar xatolar soni 30 gacha bo’lsa, bu guruhlardagi tinglovchilar bir– birlarini tushunishga harakat qilganlar, bir–birlarini ishontira olganlar va natijada bir xil natijaga erishganlar. Demak, guruhda samimiy munosabat o’rnatilgan, fikrlar bir joydan chiqqan.

- Agar guruhning xatolar soni 30 dan 40 gacha bo’lsa, bu guruhda tinglovchilarning bir muqimga kelishlari qiyin bo’lgan, tortishuvlar ıozaki yoki ishonarsiz bo’lgan yoki guruh a’zolari bir–birlarini tushunishga sust holda intilganlar yoki vazifaga beparvoroq bo’lganlar, yoki bir– birlarini xafa qilib qo’yishdan cho’chiganlar, yoki guruhning barcha a’zolari ıozaki holda kelishilgan-u, aslida esa har kim o’z fikrida qolgan bo’lishi mumkin. Samimiy munosabat bu guruhda o’z aksini topmagan.

Agar guruh xatosining soni 40 dan ortiq bo’lsa, bu guruh a’zolari umuman bir–birlari bilan kelisha olmaganlar, o’zaro ishontirish bo’lmagan. Har kim o’z fikrida qolgan. Samimiy munosabat o’rnatilmagan.

izoh: Bajarilgan vazifani baholashning yana bir turi quyidagicha: tinglovchilarning javoblari o’qituvchi tomonidan berilgan “TO’G’Ri JAVOB” ning yarmidan ko’piga to’g’ri kelgan bo’lsa, “qoniqarli”, 75 % to’g’ri kelgan bo’lsa “yaxshi”, 100 % to’g’ri kelgan bo’lsa “a’lo” deb belgilash mumkin.

8 – BOSQiCH

- Misol tariqasida “Men–tashkilotchisi” mavzusidagi blits–o’yinning chizmasini keltirish mumkin. (har bir o’qituvchi o’z predmeti, yoki o’tayotgan yoki o’tgan mavzusi asosida blits–o’yin shaklidan foydalanib o’yin mazmunini tuzishi mumkin);

- o’qituvchi mashg’ulotni yakunlaydi. Guruhlarning ba’zilariga, ularning faoliyatlariga o’z fikrini bildiradi. Ushbu trening ularni nimalarga o’rgatganini, ular shu trening orqali nimalarni bilib olishganlari bilan qiziqadi va kerakli savollarni beradi.

Blits – o’yin “Men- tashkilotchisi”

BiR KiSHi HAMMA UCHUN, HAMMA BiR KiSHi UCHUN METODi

Akademik guruh jami talabalar sonidan kelib chiqqan holda 4-5 kishidan tashkil topadigan bir necha kichik guruhlarga ajratiladi. Kichik guruhning talab darajasida o’quv faoliyati ko’rsata olish uchun uning tarkibida bilimlarni o’zlashtirish bo’yicha bitta yaxshi, bitta undan sustroq talaba-o’quvchining bo’lishi shart. Qolganlari qobiliyatlari va bilim darajalari bo’yicha sust o’qiydigan talaba-o’quvchilar bo’lishi mumkin. YAxshi o’zlashtiruvchi talaba-o’quvchi kichik guruhning sardori bo’lib, o’z navbatida sheriklarining ma’lum hajmdagi bilimlarni o’zlashtirishlari bo’yicha o’qituvchiga yordamchilar hisoblanadi. Har bir talaba-o’quvchining darsga tayyorgarlik darajasidan kelib chiqqan holda barcha sheriklarining baholanishi o’qituvchi tomonidan o’quv yili boshida hammaga e’lon qilinadi.

Kichik guruhdagi talabalarning fan bo’yicha butun o’quv faoliyati qat’iy o’zaro mas’uliyatga asoslangan bo’lib «Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun» shiori ostida boradi. CHunki sardorlarga joriy nazorat bo’yicha rag’batlantiruvchi ballarni qo’yishda kichik guruhlar talaba-o’quvchilarining uyga berilgan topshiriqlarni bajarganlik darajalari, ayniqsa sust o’zlashtiruvchi talabalarning mavzu bo’yicha o’qituvchi va boshqalarning savollariga og’zaki yoki yozma javob berishlari, masala echimini tushuntira olishlari e’tiborga olinadi. Uy vazifasini ko’proq sust o’zlashtiruvchi, biroq bilim olishga ishtiyoqi bor talaba-o’quvchilardan so’rab, kichik guruhning barcha talaba-o’quvchilarini uning javobini e’tiborga olgan holda baholash katta ta’limiy va tarbiyaviy samara beradi. Sust o’zlashtiruvchilarni yaxshi tayyorlagan kichik guruh sardorlariga eng юqori ball qo’yiladi. Natijada sardorlarga ham tabaqalashtirilgan ball qo’yishga erishiladi. Kichik guruhdan biror talaba-o’quvchi uy vazifasini bajarmagan yoki qisman bajargan bo’lsa, bu kamchilikni yo’qotish uchun uning sardori yoki barcha sheriklarini bir-ikki marta qo’yiladigan ballardan mahrum etib, o’sha mavzuni qayta ishlab darsdan keyin topshiradigan qilish kifoya. O’qituvchining uy vazifasini nega tayyorlamay kelding deyishi bilan bu gapni kichik guruh talabalarining jamoa bo’lib norozi ohangda sheriklariga aytishi orasida juda katta tarbiyaviy farq bor.

Darsning mustaqil ishlash qismida barcha kichik guruhlarga bir xil muammo (masala)ni sust o’qiydigan talaba-o’quvchilarga o’rgatishlari so’raladi. CHunki, berilgan topshiriq tipidagi muammo(masala)lar darsning asosiy qismida o’qituvchi va talaba-o’quvchilar hamkorligida o’rganilgan bo’ladi.

Bitta kichik guruhga kirgan talaba-o’quvchilar auditoriyaning ma’lum qismidagi ketma-ket qo’yilgan partalarda birgalikda, sardor esa orqadagi partaning o’qituvchi borib yordam ko’rsatishi va o’zining kelib o’qituvchidan yoki boshqa kichik guruh sardoridan yordam olishi uchun qulay qismida o’tiradi. ikkita parta bir-biriga qaratib qo’yilsa talaba-o’quvchilarning hamkorlikda ishlashlari uchun yanada qulay bo’ladi. Sardorning amaliy mashg’ulot paytida auditoriya bo’ylab erkin harakatlanib, o’qituvchi va boshqa sardorlar bilan hamkorlikda vujudga kelgan tushunmovchilikni hal qilish bo’yicha muloqotda bo’lishiga ruxsat etiladi.

Biroq, o’qituvchi huzuriga birdaniga bir nechta emas faqat bitta sardorning kelishiga yo’l qo’yiladi.

Bir kichik guruh qo’yilgan muammoni (masalani) hal etgach, uning to’g’riligini o’qituvchi tomonidan tekshirilib, sardorga sheriklariga o’rgatish taklif qilinadi. Uning o’rgatishi jarayonida masalani echa olmagan guruhchalarning sardorlari ham shu guruhga kelib qo’shiladi, so’ngra o’zlarining guruhlariga qaytishib sheriklariga o’rgatishadi.

TALABALARNiNG MUSTAQiL TAYYORGARLiGiDAN KEYiNGi LEKTSiYA METODi

Talaba-o’quvchilar fan bo’yicha asosiy adabiyotlar, lektsiyalar matnlari, amaliy mashg’ulotlar ishlanmalari va boshqa kerakli materiallar bilan to’liq ta’minlanadi.

Endi 5-6 soatlik hajmdagi lektsiya materiallarini qisqartirmasdan, tegishli isbotlar va etarli sondagi masalalarni echish bilan 1-2 soatda talaba-o’quvchilarga etkazish uslubini quyidagi mavzular misolida keltiramiz.

Bu lektsiyalar mavzulari o’quv yili boshida talabalarga mustaqil o’rganish uchun berildi: Aniqmas integral. Aniq integral. Aniq integralning tadbiqlari.

ishni amalga oshirish bosqichlari:

1. **Tayyorgarlik bosqichi.**

1. Amaliy darslar qattiq talabchanlik asosida interfaol usulda olib borilib, talabalar berilgan topshiriqlarni sistematik bajarishga, kitob va uning matni ustida ishlashga o’rgatiladi.

2. Talabalar tavsiya etilgan manbalardan foydalanib, mavzularni konspekt qilishadi.

3. Har bir talaba adabiyotlar, ayniqsa ma’ruzalar matnlaridagi tayanch iboralar va nazorat savollaridan foydalanib 5 tadan savollar tuzishadi.

4. Har bir talaba mustaqil ravishda yoki tegishli adabiyotlardan foydalanib mavzuga doir o’zining bitta masalasini tuzadi.

2. Tartibga solish bosqichi

1. Sardor kichik guruhning talabalari bilan birgalikda o’zlari tuzgan savollarni ko’rib chiqib takrorlanuvchi savollar o’rniga boshqa yangisini tuzishadi.

2. Barcha sardorlar birgalikda tayyorlangan savollar ro’yxatlarini bir-birlari bilan taqqoslashib takrorlanuvchi savollar o’rniga yangilarini kiritishadilar.

3. Talabalar tomonidan tuzilgan masalalar ham xuddi shunday ko’rib chiqilib, tartibga solinadi.

4. Tuzilgan savollar va masalalar o’qituvchi tomonidan ko’rib chiqilib, tuzatishlar kiritiladi va to’ldiriladi.

5. Tuzilgan savollar va masalalarning yakuniy tugal ro’yxati qilinadi.

3. Faol bosqich

1. Talabalar tuzilgan savollarga to’xtamasdan baralla tovush chiqarib javob berish mashqini boshlashadi.

2. Tuzilgan masalalarni echish algoritmini tuzish va uni echish mashqini boshlashadi.

3. Amaliy mashg’ulotlarda uyga berilgan vazifalardan tashqari юqorida zikr etilgan mavzular birin-ketin so’rab boriladi va umumiy natija e’tiborga olingan holda talabalarga ball qo’yiladi. Tushunilmagan savollarga javob beriladi.

4. YAkuniy bosqich

1. Auditoriyaga kirgan o’qituvchi avvalo talabalarning risoladagidek to’g’ri turishlariga erishishi, salomlashgach bir lahza tik holda saqlab ularga qattiq tikilib o’zining ruhiy ta’sirini o’tkazishi, shundan keyingini o’tirishlariga ruxsat berishi shart.

2. O’qtituvchi auditoriyaning darsga tayyorligini nazoratda o’tkazayotgan, talabalarni yo’qlama qilayotgan, jurnallarni to’ldirayotgan paytda husni xati chiroyli bir talaba doskaning o’ng burchagiga, sana, mavzu va uning rejasini yozadi. Mavzu va rejani texnik vosita yordamida ekranga chiqarilsa yanada yaxshi bo’ladi.

3. O’qituvchi o’tilgan va bugun bo’ladigan darslarni takrorlash, ularni yangisi bilan bog’lash, yangi mavzuni bayon qilish va xulosalash ishlarini talabalarga to’xtovsiz savollar yog’dirish (aqliy hujum) va ulardan javoblar olish orqali boshqaradi. Bunda barcha talabalarning savollarga xor ovozda javob berishlariga erishish juda ahamiyatli. Biron talaba noto’g’ri javob qilsa umumiy ohang buzilib birdaniga butun auditoriyaga seziladi. Bu holat talabani kelgusida o’z ustida yanada yaxshiroq ishlashga undaydi.

4. Darsda ko’rgazmali va namoyish materiallaridan keng foydalaniladi.

Biz bunday lektsiya darsini «Talabalarning mustaqil tayyorgarliklaridan keyingi lektsiya» deb atadik.

Lektsiya ushbu uslubda olib borilsa katta hajmdagi o’quv materialini qisqartirmasdan, tegishli isbotlar va etarli sondagi misol va masalalar echish bilan qisqa vaqt ichida talabalarga etkazish imkoniyati tug’iladi.

O’quv materiali talabalar tomonidan юqori darajada ongli o’zlashtiriladi.

Talabalarda kitob va uning matni ustida ishlash, savollar tuzish va ularga javoblar topish, masalalar tuzish va ularni echish ko’nikmalarining hosil bo’lishi kuchayadi, mantiqiy, algoritmik fikrlash hamda og’zaki nutq o’sadi. Hamkorlik pedagogikasi g’oyalari amalga oshadi.

AJURLi ARRA METODi

Ajur frantsuzcha «ajour» so’zidan olingan bo’lib, «bir yoqdan ikkinchi yoqqa o’tgan, ikki tomoni ochiq» degan ma’noni anglatadi.

Bu metoddan foydalanish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

-talaba-o’quvchilardan 4-5 kishilik kichik guruhlar tashkil etiladi

-talaba-o’quvchilarga beriladigan topshiriq va ularni bajarishda foydalaniladigan matnli materiallar bir nechta asosiy qismlar (masalan, reja asosida bir nechta mavzuchalar)ga qirqiladi;

-mavzuchalar va ularga doir matnli materiallar paketi kichik guruhlarning har bir a’zosiga tarqatiladi;

-kichik guruh a’zolari matnli materiallardan foydalanib topshiriqni bajarishga kirishadilar;

-kichik guruhlarning yaxshi o’zlashtiruvchi a’zolaridan ekspert guruhi tashkil etiladi;

-ekspert guruhi a’zolari qo’llaridagi topshiriqlarni hamkorlikda muhokama qilishib, boshqalarga o’rgatish rejasini egallashadilar;

-ekspertlar o’zlarining dastlabki kichik guruhlariga qaytishib o’rganganlarini boshqa sheriklariga o’rgatishadi.

O’qitishga bunday yondashilganda talaba-o’quvchilarning hamkorlikda ishlashlariga va katta hajmdagi o’quv materiallarining o’zlashtirilishiga erishiladi.

Bu metoddan foydalanuvchi pedagog talaba-o’quvchilarga taqdim etilgan topshiriqni bajarishga doir materiallarni qunt bilan o’rganishni, birgalikda muhokama etishni, savol-javob qilishni, o’rganganlarini boshqalarga o’rgatishlari zarurligini oldindan aytadi.

SiNEKTiKA METODi

Bu metod amaliy, seminarlar va laboratoriya mashg’ulotlari uchun qulay bo’lib, «aqliy hujum» metodiga yaqin. Bunda talaba darsda qo’yilgan muammoni hal qilish юzasidan analogiyaga asoslangan holda o’z fikrlarini, qarashlarini olg’a suradi. Bunda analogiya bevosita, shaxsiy, ramziy va xayoliy bo’lishi mumkin.

DUMALOQ STOL METODi

Bu metod amaliy mashg’ulot uchun qulay. Bunda o’qituvchi tomonidan bitta savol yozilgan varaq kichik guruhga taqdim etiladi. Talabalar o’zlarining ismi-shariflari va savolga javoblarini yozib, varaqni yonidagi talabaga uzatadi. SHu tariqa yozilgan javoblar yig’ishtirib olinib, talabalar ishtirokida noto’g’rilari o’chirib chiqiladi va natijalar baholanadi.

RUCHKA STOL USTIDA METODI

Bu metod amaliy mashg’ulot uchun qulay. Savolga o’zining javob variantini yozgan kichik guruhdagi talaba ruchkasini stol ustiga qo’yib varaqni yonidagi sherigiga uzatadi. Savolga javob yoza olmagan talaba ruchkasini stolga qo’ymaydi. Bir nechta kichik guruhlardagi talabalarning qo’yilgan bir xil savolga javoblari yig’ishtirib olinib birgalikda muhokama qilinadi. Bu metodning afzalliklari: o’qituvchi mashg’ulotga kim tayyor, kim tayyor emasligini ko’rib turadi; mashg’ulotga tayyorlanmagan talaba og’zaki muhokama paytida ko’rib chiqilayotgan mavzu юzasidan anchagina foydali bilimlar oladi; bu metod kichik guruhda olib boriladigan ish bo’lib, talaba intizomini mustahkamlaydi va ularni jipslashtiradi, chunki o’zining javob varianti ustida uzoq o’ylab o’tiradigan talaba butun guruhga ajratilgan vaqtni sarflab юboradi. SHuningdek talaba mashg’ulotga tayyor bo’lmasa, bunda ham guruhga pand beradi; talabalar o’z javoblarini ikki marta, ya’ni yozma ish paytida va og’zaki muhokama vaqtida tahlil qilib chiqishadi.

ROTATSiYA METODi

Bu metod mashg'ulot mavzuini har bir kichik guruh alohida-alohida muhokama qilib chiqishi, yozganlarini butun guruh jamoa bo'lib tahlil qilib ko'rishi uchun qo'llaniladi va quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

-dars mavzusi bo'yicha nomerlangan topshiriqlar (masalan, rejadagi mavzuchalar) plakatlarga yozilib doskaga osib qo'yiladi;

-topshiriqlar soni uchta bo'lsa, talaba-o'quvchilar ham shuncha kichik guruhlarga ajratiladi va guruhchalar nomerlanadi;

-kichik guruhlar o'zlarining nomerlariga mos nomerdagi topshiriqni va uni bajarishda foydalaniladigan yozma ma'lumotlar paketini oladi;

-kichik guruhlar o'zlariga taqdim etilgan materiallarni hamkorlikda o'rganishib topshiriqqa javoblarini yozishadi;

-javoblar kichik guruhdagi husnixati chiroyli bir talaba-o'quvchi tomonidan yoziladi;

-topshiriqlarga yozilgan javoblar varag'i, ma'lumotlar paketi kichik guruhlararo almashtiriladi va qo'shimchalar qilinadi, biroq javoblarning takrorlanishiga yo'l qo'yilmaydi;

-javoblar qaysi kichik guruhniki ekanligi ajralib turishi uchun ularga har xil rangdagi flamasterlardan foydalanish tavsiya etiladi. SHuningdek kichik guruhlar nomerlanib, ular o'zlarining javoblarini shu nomer ostida yozishlari ham mumkin;

-javoblar yozilgan varaqlar doskadagi osig'liq plakatlarga skochda yopishtirilib, o'qituvchi ishtirokida muhokama qilinadi, umumlashtiriladi va to'g'ri javoblar daftarlarga yozib olinadi;

-to'g'ri va mukammal javoblar soniga qarab talaba-o'quvchilar rag'batlantiriladi va baholanadi.

GALEREYANi AYLANiSH METODi

Kichik guruhlarning barcha a'zolariga bitta muammo taklif etiladi. Har bir kichik guruh o'zlariga berilgan muammoga belgilangan vaqt ichida fikrlarini yozib, javoblari yozilgan varaqlarini boshqa guruh bilan almashtiradi. Javoblarni olgan guruh ularni baholaydi va tugal bo'lmasa o'z variantlari bilan to'ldiradi. So'ngra guruhlar fikrlari umumlashtirilib, eng юqori ballga arziydigan to'g'ri va mukammal javoblar tanlab olinadi.

QOR BO'RON METODi

ikkiga ajratilgan guruh talabalari bir muammo юzasidan eng ko'p to'g'ri javoblar topish maqsadida birgalikda muhokama юritishadi. Har bir to'g'ri javob юmaloqlangan qor ko'rinishida o'sha guruh hisobiga yozib qo'yiladi; to'plangan umumiy ballar miqdori asosida guruhlar baholanadi.

ASALARi GALASi METODi

Muammo bitta guruhda yoki ikki kichik guruhlarda muhokama qilinadi. Bunda topshiriqlar har xil yoki butun guruhga bitta bo'lishi mumkin. Guruhlar qo'yilgan muammoni ma'lum muddat muhokama etib, natijani boshqalarga ma'lum qilishadi. Muammo echimining eng yaxshi varianti tanlab olinadi.

DUMALOVCHi QOR UЮMi METODi

Dumalovchi qor uюmi metodi o'quv mashg'uloti o'tkazish metodining ramziy nomi bo'lib, ish qo'yilgan muammo ustida mulohaza юritib ko'rish uchun talabalarga vaqt, tegishli manbalar, tarqatma materiallar berishdan boshlanadi. Bu metod guruhning har bir a'zosiga butun guruhning bilimlari va tajribalaridan foydalanib, o'zining keng qamrovli nuqtai nazarini bayon etishni nazarda tutadi. Buning uchun talabalar 4 ta kichik guruhlarga ajratiladi. Muhokama qilib chiqish uchun barcha guruhlarga bitta topshiriq beriladi. Har bir kichik guruh topshiriq ustida alohida ishlaydi. So'ngra birinchi bilan ikkinchi va uchinchi bilan to'rtinchi guruhlar muammo ustida birgalikda muhokama юritishadi. Oxir oqibatda barcha kichik guruhlar birlashib, butun yaxlit guruh bo'lib qo'yilgan muammo echimini hal etishning turli yo'llarini, variantlarini muhokama qilishadi. Bunday muhokama jarayonida talabalarning qo'yilgan muammo юzasidan bilimlari chuqurlashib, oydinlashib, boyib, kengqamrovli bo'lib boradi.

SiNDiKAT METODi

Guruh uchta kichik guruhlarga bo'linadi. Bunda taklif etilayotgan topshiriq uch xil nuqtai nazardan hal etilish zarur. Masalan, uch no'malumli uchta tenglamalar sistemasini echish topshirig'i berilgan bo'lsin, u holda birinchi guruh masalani Gauss, ikkinchi guruh Kramer, uchinchi guruh matritsa usulidan foydalanib echadi. So'ngra echimlar birgalikda muhokama etilib, umumlashtiriladi.

AKVARIUM METODI

Guruhdan uch talaba ajratib olinib ularga xona o'rtasidagi stol atrofiga o'tirishlari va qo'yilgan muammoni o'n minut atrofida birgalikda muhokama, qilishib fikr bildirishlari so'raladi. Bu uch talaba akvariumdagi baliqlarga qiyos. Atrofda o'tirgan kuzatuvchilar o'rtadagi talabalarning fikrlarini diqqat bilan tinglab, javoblarni to'g'ri va noto'g'riga ajratib yozib borishadi hamda muhokama paytida o'zlarining qarashlarini bayon etishadi. Etarli darajada fikr bildira olmagan o'rtadagi talabalar o'z o'rinlarini kuchli fikr bildirgan kuzatuvchi talabalarga bo'shatib berishadi. Har bir muammo юzasidan bildirilgan fikrlar talabalar ishtirokida o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

RAQAMLI METODLAR

Guruhdagi talabalarning umumiy sonidan kelib chiqqan holda 4x4x4, 5x5x5 yoki 6x6x6 metodlarining biridan foydalaniladi. Masalan, 5x5x5 metodida har biri 5 talabadan iborat 5 ta kichik guruhchalar tashkil etilib, ularning 5 nafar sardorlari to'planishib qo'yilgan muammoni hamkorlikda muhokama etishadi, so'ngra o'zlarining guruhlariga qaytishib sheriklariga masalaning echimini o'rgatishadi.

SKARABEY TEXNOLOGIYASI

"Skarabey" interaktiv texnologiya bo'lib, u o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya talaba-o'quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqida tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U, ayni paytda turli g'oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi.

VEER TEXNOLOGIYASI

Bu texnologiya murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar muammoli harakterdagi mavzularni o'rganishga qaratilgan.

Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

DELIFI TEXNOLOGIYASI

Bu texnologiyaning mazmuni jamoa bo'lib qo'yilgan muammoning muqobil echimlarini maqbullik darajalari bo'yicha tabaqalashtirib, ulardan har birining muhim yoki nomuhimligini baholashdan, shu asosda eng yaxshi variantni tanlab olishdan iborat. Masalan, er maydonini plugda 15, 20, 25, 30, 35, 40, 45 sm chuqurlikda og'darish mumkin bo'lsin. Muayyan olingan er maydonini og'darishda shu variantlardan qaysi biri eng yaxshi ekanligini aniqlash uchun ulardan har biri erni haydashga doir mavjud agrotexnik faktorlar asosida o'qituvchining trenerligida talaba-o'quvchilar tomonidan baholanadi. Bunda har bir kichik guruh o'zlarining variantlarini taklif etishlari, so'ngra fikrlar umumlashtirilib eng yaxshi variant tanlab olinishi ham mumkin.

T- JADVAL TEXNOLOGIYASI

Bu texnologiyadan lektsiya darslari va amaliy mashg'ulotlarning yakuniy qismida foydalanish qulay. Bunda bir muammoni turli qarama-qarshi nuqtai nazarlardan qaraladi (ijobiy va salbiy, afzallik va kamchilik, foyda va zarar, to'g'ri va noto'g'ri). Masalan, o'qituvchi mavzu bo'yicha aralashtirib tuzilgan to'g'ri va noto'g'ri javoblarni ekranga chiqarib, bir partada o'tirgan talaba-o'quvchilarga hamkorlikda ularni jadvalga ajratib yozishlarini, so'ngra yozilgan varaqlarini yondosh partadagi talaba-o'quvchilar bilan almashtirib qo'shimchalar qilishlarini taklif etadi. ish yakunlangach to'g'ri va noto'g'ri javoblar ajratib yozilgan jadval ekranga chiqariladi. Talaba-o'quvchilar o'zlarining javoblarini ekrandagi jadval bilan taqqoslab tegishli xulosalarga kelishadi.

To'g'ri javoblar	**Noto'g'ri javoblar**
1.	1.
2.	2.

SWOT- TAHLIL JADVALI TEXNOLOGIYASI

SWOT termini inglizcha kuchli, kuchsiz, imkoniyat, havf so'zlarining bosh harflaridan tuzilgan. Bu texnologiyadan tashkilot yoki biror korxonaning kelgusidagi strategik rivojlanish mexanizmlarini tahlil etishda foydalanish qulay.

S- korxonaning ichki rivojlanish imkoniyatlari;

W- korxonaning ichki muammolari; .

O- korxonaning tashqi rivojlanish imkoniyatlari;


T- korxona uchun tashqi havflar.

Darsda shakllantirilgan muammo юzasidan to’plangan ma’lumotlar paketi o’qituvchining trenerligida talaba-o’quvchilar tomonidan o’rganilib bo’lingach guruhlar yoki kichik guruhlar hamkorlikda quyidagi jadvalni to’ldirib, oxir oqibatda tegishli optimal echimga kelishadilar:

S: 1. 2. 3.	W: 1. 2. 3.
O: 1. 2. 3.	T: 1. 2. 3.

«NIMA UCHUN?» SXEMASI TEXNOLOGIYASI

Bu texnologiyadan shakllantirilgan muammo юzasidan«nima uchun?»savoli qo’yilib unga har bir talaba-o’quvchi o’zining qarashlarini, fikrlarini yozadi. Asosiy maqsad noto’g’ri bo’lsada talaba-o’quvchilarning fikr bildirishlariga, oxir oqibatda to’g’ri xulosalar chiqarishlariga erishishdan iborat. «Nima uchun?» savolining qo’yilishi va unga javoblarning yozilishi muammo echimi topilguncha davom etadi. Dastlab bir partada yonma-yon o’tirgan talaba-o’quvchilar, so’ngra kichik guruh, oxirida butun guruh yozma javoblari hamkorlikda taqqoslanib, takrorlanuvchi va xato fikrlardan tozalanib, bir umumiy to’g’ri natijaga kelinadi. Noto’g’ri javoblar tanqid ostiga olinmaydi.



INSERT TEXNOLOGIYASI

Bu texnologiya har bir talaba-o’quvchining mavzuni tezkor o’qib oldindan olingan bilimlari asosida matnga belgilar qo’yib chiqib munosabat bildirish imkonini beradi. Ma’ruza matnidagi har bir muhim tushunchalar, fikrlar to’g’risiga tegishli belgilar qo’yib chiqilib, ulardan quyidagi jadval tuziladi:

Mavzuning asosiy tushunchalari va tayanch iboralari mazmuni	Bila- ma n	Men uchu n yangi ma’lu mot	Men bilga n ma’lu motni inkor qildi	Meni o’ylanti rib qo’ydi (tushun madim)

	V	q	-	?
1. A(x;u)- nuqta	V			
2. A(x)- to'g'ri chiziqda, A(x;u) -tekislikdagi, A(x;u;z)- fazodagi nuqta				?
3. z- A nuqtaning aplikatasi		q		
4. xq0- to'g'ri chiziqda nuqtani, tekislikda ordinata o'qini, fazoda (uOz) tekislikni ifodalaydi			-	

BILAMAN. BILISHNI XOHLAYMAN. BILIB OLDIM METODI

Bu metod lektsiya darslar uchun qulay. O'qituvchi mavzu bo'yicha asosiy tushunchalar va iboralar ro'yxatini kodoskopga o'xshash biror texnik vosita yordamida talaba-o'quvchilarga taqdim etadi. Talaba-o'quvchilar o'zlari biladigan va bilmaydigan tushunchalar va iboralar bilan namunadagi jadvalni to'ldiradilar:

Bilaman	**Bilishni xohlayman**	**Bilib oldim**

Ro'yxatga kirmagan, biroq dars jarayonida yangidan paydo bo'lgan talaba uchun notanish tushuncha va iboralar ham jadvalning ikkinchi ustuniga qo'shimcha ravishda qayd etilib boriladi.

Talaba-o'quvchining asosiy diqqat e'tibori jadvalning ikkinchi ustunidagi bilimlarni egallashga qaratiladi. Talaba-o'quvchi darsni diqqat bilan tinglab jadvalning ikkinchi ustunidagi tushuncha va iboralarni bilib va yozib oladi hamda o'zlashtirgan savol to'g'risidagi uchinchi ustunga «q» belgi qo'yadi, boshqalari bo'sh turadi. Agar dars jarayonida ikkinchi ustundagi ayrim tushuncha va iboralar o'rganilmasdan qolib ketsa, ular o'qituvchidan so'rab yoki mustaqil ravishda o'rganib olinadi.

Bu usul talaba-o'quvchida bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha o'z-o'zini nazorat qilish, darsdayoq tegishli ma'lumotlarni egallab olishga intilish, axborot resurslari ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

ZIG-ZAK METODI

Zigzak siniq chiziq, ilonizi, egri-bugri ma'nolarini anglatadi.

Ta'limda zigzak metodining mohiyati bir guruh tomonidan o'rganib bo'lingan o'quv materialining, hali uni o'rganmagan boshqa guruhga taqdim etilishidan iborat.

«Zig-zak» usulining bir munchaafzalliklari bor. Xususan, ushbu usulni qo'llash orqali talabalar jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini hosil qiladi va mavzuni o'zlashtirishga ketadigan vaqt tejalib, qisqa vaqtda katta materialning o'zlashtirishiga erishiladi. Ushbu usulning ketma-ketligi quyidagichaamalgaoshiriladi:

-talabalar odatdagidek, bir qancha guruhlarga bo'linadi;

- har bir guruhga mavzu bo’yicha bitta savol tarqatiladi (savollar guruhdagi har bir ishtirokchiga bittadan berilishi lozim);

-guruh a’zolari shu tarqatilgan savolni belgilangan vaqtda o’rganib oladilar;

-har bir guruhgaetakchi saylanadi va ular tarqatilgan matnni o’rganishda, ularning mohiyatini teran tushunishda shu guruhdaetakchilik qiladi;

-liderning fikri guruh a’zolari tomonidan to’ldirilishi, qo’shimchalar va o’zgartirishlar kiritilishi mumkin;

-matnlar guruhda to’liq o’rganilib bo’lganidan keyin ular guruhlararoalmashtiriladilar;

-endi ushbu guruhlarda yangi savollar o’rganiladi;

-bu savollar ham o’rganilib bo’lingach, ular yanaalmashtiriladi;

-guruhlarda barcha savollar o’rganilgancha ushbu jarayonlar takrorlanadi;

-bir-birining bilimini baholash va o’zlashtirilganlik darajasini aniqlash uchun guruhlar bir-biriga ketma-ket ravishda savol berib boriladi;

-savol qaysi guruhga tashlangan bo’lsa, birinchi shu guruh a’zolari javob berishlari mumkin, boshqa guruh a’zolari qo’shimcha qilib borishga haqli.

Ushbu usulning «Aqliy hujum» usuliga nisbatan farqi, bu erda talabalarning bilimlari baholanadi.

Mazkur usulni o’rganish uchun talabalar 3 guruhga yoki 6 guruhga bo’linadilar. CHunki mavzu 3 ta savolga bo’lingan.

DAVRA SUHBATLARI METODI

Davra suhbatida ma’ruzachi o’qituvchi bosh tashkilotchi bo’lib qoladi. Davra suhbatlari ko’pincha talaba-o’quvchilarga tanish yoki yaqin mavzularda o’tkaziladi. Davra suhbati mavzulari, rejalari, savollari talaba-o’quvchilargaavvaldan bir necha kun oldin tarqatiladi.

Talaba-o’quvchilar uchun mustaqil tayyorgarlik ko’rishga, ularni bir-birlari bilan avvaldan o’zaro fikr almashishga, kutubxona, internetdan ayrim ma’lumotlarni to’plash, qayta ishlash, kichik matn tuzish imkoniyati yaratiladi. Davra suhbatining afzalligi shundaki, har bir talaba-o’quvchi individual tayyorgarlik ko’radi. Har ikki tomon davrani o’tkazishga tayyorgarlik bilan keladi. Suhbatni o’qituvchi, goho lider talaba-o’quvchi olib borishi mumkin.

Davra suhbatlari oldindan dasturlangan dars jadvali asosidaolib borilishi mumkin.

Davra suhbatining yana bir afzalligi shundaki, har bir talaba-o’quvchi o’z bilimini, og’zaki nutqini, shaxsiy fikrini emin-erkin namoyish etishiga muhit yaratiladi. Talaba-o’quvchi va o’qituvchining shaxsiy ma’suliyati oshadi, ham o’qish, ham o’rgatish yonma-yon davom etadi. Materialni o’qish, o’rganish, o’zaro fikr almashishga, o’zlashtirishga motiv oshadi. Bilimni olish, uning o’zlashtirilishi kafolatlanadi.

DAVRALAR METODI

Talabalar davra qurib o’tirib taklif etilgan savolni ketma-ket emas, balki bilganlar galma-gal izohlab berishadi. Bunda har bir talaba o’z fikrini bayon qilib, muhokamaga foydali ulush qo’shish imkoniyatiga ega bo’ladi, chunki barcha qatnashchilarning fikrlarini bilish muhim.

So’zga chiquvchilarning gaplariga munosabat bildirish hech kimga, jumladan o’qituvchiga ham ruxsat etilmaydi. Oxirida hammaga ularning ishtirok etganliklari uchun tashakkur bildiriladi va fikrlar umumlashtiriladi. Davra metodidan darsning boshi vaoxirida foydalanish qulay.

MOJARO METODI

Bu metod amaliy mashg’ulotlar uchun qulay. Odatdan tashqari, hattoki favquloddagi vaziyatlarda qilinadigan hatti-harakatlarni talabalarga o’rgatish maqsadida bu metoddan foydalaniladi. Masalan, tug’ayotgan sigirning buzog’i teskari keldi, ыorak to’xtash arafasida nima chora ko’rish kerak va hokazo. Bunday muammolarni hal qilish yo’llarini o’rganishda mojaro metodidan foydalanilsa, talaba-o’quvchilarning fikrlari faollashib qisqa vaqt ichida to’g’ri qaror qabul qilish, ishni to’la, tez va chaqqon bajarish sifatlari shakllanadi.

MUNOZARA METODI

Disput- bu ikki yoki ko’proq kishilarning keskin chegaralangan qoidalar doirasidaog’zaki olib boriladigan bahsi, munozarasi, masala talashuvidir. Disput mavzusi tayyorgarlik ko’rish uchun o’tkazishdan oldin talaba-o’quvchilarga ma’lum qilinadi.

Talaba-o’quvchilarga bilim berishga mo’ljallangan disputda kamida bitta rais va ikki guruhning har biridan bir nafardan so’zlovchi qatnashadi. Disputni ochuvchi birinchi talaba qo’yilgan taklifni ma’qullab chiqsa, ikkinchisi unga qarshi chiqadi, ya’ni opponent bo’ladi.

So’zlovchilarga 10 minutdan, har ikki guruhdan ikkitadan ortiq bo’lmagan qo’shimcha qilishga chiqadigan talabalarning har biriga 5 minutdan vaqt beriladi. ikki marta so’zga chiqishga ruxsat etilmaydi. So’zga chiquvchilarning barchasi raisga murojaat etishadi va uning qarori qat’iy bo’lib, disputning mavzudan chetga chiqib ketmasligini nazorat qiladi.

MUNOZARALAR O’TKAZISH TEXNOLOGIYASI

Munozaralarni tashkil etish va o’tkazish tashkilotchidan juda jiddiy tayyorgarlikni, ijodiy muhit yaratishni talab etadi. O’qituvchi ilgaridan munozaraning mavzusini, uni o’tkazish rejasini, vaqtlarini talaba-o’quvchilar bilan o’zaro kelishib oladi.

Talaba-o’quvchilarga o’quv yili boshlanishida munozara mavzulari rejasi e’lon qilinib, ulargaetkaziladi. Ularning tayyorgarlik ko’rishlari uchun vaqt beriladi. Munozara muhokamasiga ma’muriyat, mahalla faollari, mashhur mutaxassislar taklif etiladi. Munozaraning boshlovchisi tayinlanadi. Boshlovchi juda keng qamrovli bilimga ega bo’lishi kerak.

Munozara davrida vujudga keladigan muammoli masalalar, ayniqsa, chigal fikrlar bo’yicha ularni chuqur tahlil qilish qobiliyatiga ega ekspertlar taklif etiladi. Munozarani olib borganda uning ishtirokchilarini qiziqtirib, qovushtirib, boshqarib, zarur yo’llanmalar berib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan munozara jarayonida to’g’ri xulosalar chiqarish juda katta ma’suliyat talab etadi.

Munozaralar mavzuga qiziqish bildirgan guruhlarni qo’shib, aksincha hollarda esa, ularni guruhlarga bo’lib, zarur bo’lgan ayrim xollarda katta zallarda, kattaauditoriyalardaolib boriladi. Munozaralar demokratik, oshkoralik, tenglik, samimiylik, hamkorlik ham ijodkorlik, bir-birini qo’llash ruhiyatidaolib borilishini ta’minlash yaxshi natijalar beradi. Munozara erkin fikr ыoritishni, o’z shaxsiy pozitsiyasida turishga o’rgatadi. Eng muhimi, talaba-o’quvchini

mustaqil mutolaaga, fikr almashuv orqali uzluksiz o’z bilim va malakasini oshirishgaolib keladi.

MUNOZARA LEKTSIYA METODI

O’qituvchi lektsiya o’qiydi, auditoriyaning savollariga javob beradi va o’z navbatida talaba-o’quvchilarga savollar bilan hujum qiladi. Bunday lektsiyalarda talaba-o’quvchilarning faolligi anchaюqori bo’ladi. Talaba-o’quvchilar soni 20 tadan ortiq bo’lmaganda munozarali lektsiya metodi an’anaviy lektsiyalarga qaragandaafzal bo’ladi, chunki bunday holda o’qitishning kichik guruhlarda qo’llaniladigan metodlarini tatbiq etishga keng imkoniyatlar tug’iladi.

VENN DIAGRAMMASI TEXNOLOGIYASI

Bu metoddan o’rganilgan, bir-biriga bog’liq mavzularni tahlil qilish, solishtirish, taqqoslash va mustahkamlashda foydalanish yaxshi samara beradi. Undan foydalanish bosqichlari:

-talaba-o’quvchilar ikki guruhga bo’linadi;

-plakatga chizilgan diagramma doskagaosib qo’yiladi;

-har bir to’g’ri fikrga qo’yiladigan ball oldindan kelishib olinadi;

-qo’yilgan topshiriq bo’yicha guruhlarning har qanday to’g’ri yoki noto’g’ri fikrlari bir talaba-o’quvchi tomonidan ikki xil rangdagi flamasterda diagrammaning tegishli joylariga yozib boriladi;

-kichik guruh ichidan biror talaba-o’quvchi sheriklarining ismi-shariflari to’g’risiga ular aytgan fikrlarni qayd qilib boradi;

-fikr bildirishlar nihoyasigaetgach o’qituvchi va talaba-o’quvchilar hamkorligida to’g’ri va noto’g’ri javoblar aniqlanadi;

-to’g’ri javobga uch ball qo’yiladigan bo’lsa, har bir noto’g’ri fikr uchun guruhning umumiy balidan uch ball olib tashlanadi;

-eng ko’p ball to’plagan guruh g’olib hisoblanib ular rag’batlantiriladi;


-bu jarayonda kichik guruhda qayd etilgan javoblarning noto’g’rilari o’chirib chiqiladi va natijalar e’tiborgaolingan holda talaba-o’quvchilarga tabaqalashtirilgan ball yoki baho qo’yiladi.

So’z turkumlariga kiruvchi ot bilan sifatning umumiy va farqli tomonlarini aniqlashga doir quyidagi diagrammani misol tariqasida keltirish mumkin

Xuddi shuningdek ot, sifat, fe’lni taqqoslash talab etilsa doiralar soni uchta bo’ladi va



hokazo




TARMOQLAR metodi (klaster)

TARMOQLAR METODI (KLASTER)


Fikrlarning tarmoqlanishi bu pedagogik strategiya bo’lib u talaba-o’quvchilarni biror–bir mavzuni chuqur o’rganishlariga yordam berib talaba-o’quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravshan ketma–ketlik bilan uzviy bog’lagan holda tarmoqlashlariga o’rgatadi.

Bu metod biron mavzuni chuqur o’rganishdan avval talaba-o’quvchilarning fikrlash qobiliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. SHuningdek, o’tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o’zlashtirish, umumlashtirish hamda talaba-o’quvchilarning shu mavzu bo’yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.



«Kvadrat uch xad» mavzusi bo'yicha interfaol dars namunasi

1. Kvadrat uch xad klasteri (shodasi)ni tuzish:



2. O'z nomi bilan ataladi:







1). ax^2qbxqc kvadrat uchxad;

2). $ax^2qbxqcqo$ to'la kvadrat tenglama;

3). $ax^2qbxqc>o$, $ax^2qbxqc<o$ kvadrat tengsizliklar;

4). yq ax^2qbxqc funktsiya yoki parabola.

3. Quyidagi jadvaldan foydalanib uchining koordinatalari «yashiringan» parabolani topishga doir blits-o'yin tashkil etish.

	D>0	***Dq0***	***D<0***
a>0			
a<0			

TESTLAR

O’zbek tili fanidan test savollari

1. Olimlarning hisob-kitobiga ko'ra nechta til mavjud?
A)200 ta B) 3000 ta C) 3000 dan ortiq D) 230 ta
2.O’zbek tilida nechta harf mavjud?
A.32 B.29 C.28 D.33
3. Yozuvda darak gap oxirida qaysi tinish belgi qo’yiladi?
A.So’roq B. nuqta C. Undov D. ikki nuqta
4. O’zbek tilida nechta kelishik bor
A. 7 B.8 C. 6 D.5
5.Никто не мог понять откуда у него берутся силы. Berilgan gapni o’zbekcha tarjimasini toping.
A.Bu ishni barcha tushundi B. Hech kim bilmaydi unda qayerdan kelgan bu kuch.C. kuch hech kimda berilmagan D. To’g’ri javob yo’q.
6. *Yaxshi so'z - jon ozig'i, yomon so'z ...* Maqolning davomini aniqlang.A) bosh qozig'i B) umr qozig'i C) bosh ofati D) til qozig'i
7. Til - ... *kaliti.* Maqolda tushirilgan so'zni aniqlang.A)muomala B) inson C) dil D) aql
8. *Temir qo 'rg 'on ichida qizil toychoq o 'ynaydi.* Topishmoqning javobini aniqlang.A) til B) olov C) cho'g' D) anor
9. Qachondan boshlab ta'lim-tarbiya ishlari,majlislar, ish qog'ozlari asosan o'zbek tilidayuritiladigan bo’ldi?A) 1991-yil 31-avgust B) 1991-yil 1-sentabr C) 1989-yil 21-oktabr D) 1994-yil 21-fevral
10. Qachon o'zbek tiliga davlat tili maqomiberildi?A) 1991-yil 31-avgust B) 1991- yil 1-sentabr C) 1989-yil 21-oktabr D) 1994-yil 21- fevral
11. Bo... Nuqtalar o'rniga qaysi undoshni qo'yib bo’lmaydi?A)b,p B)f,x C)q,g' D)j,l
12. *Be...* Qaysi undoshni nuqtalar o'rniga qo'yib bo'lmaydi?A) r, sh B) k, z C) 1, t D) j, n
13. *...ol* Nuqtalar o'rniga qaysi undoshni qo'yib bo'lmaydi?A) ng, g' B) f, p C) sh, s D) r, g
14. Qaysi so'zda *h* tovushi tushirilgan? . 1)...ukm; 2) ...ozirjavob; 3)ta...t; 4)sa...na; 5).. ayol; 6) ...arkim; 7) ...ech qachon. A)3,5 B)2,4,6,7 C) 1,3,5 D)1,2,4,6,7
15. *...archa* Nuqtalar o'rniga qaysi undoshni qo'yib bo'lmaydi?A)d B)f C)b D)p
16. Qaysi so'zda *g* undoshi mavjud?A) menga, ingliz B) ong, tong, bong C) keldingiz, alanga, dengiz D) A.B.C
17. ...il Nuqtalar o'rniga qaysi undoshni qo'yib bo'lmaydi?A) b B)d C)k D)t
18. *…ur* Nuqtalar o'rniga qo'yib bo'lmaydigan undoshni aniqlang.A)d B)f C)t D)s
19 Gaplarning qay birida *mard* so'zi tushirilgan? A) …. bir o'lar, nomard-ming. B) Og’zi kuygan …. muzni ham puflab ichadi. C) ... shamoli esdi. D)Sakkizinchi... – onalarning bayrami.
20 *E...* Nuqtalar o'rniga qaysi undoshni qo'yib bo'lmaydi?A)s B)k C)g D)j
21. ...ard Nuqtalar o'rniga qo'yib bo'lmaydigan undoshni aniqlang.A)m B)d C)j D)g
22. *Mar...* Nuqtalar o'rniga qaysi undoshni qo'yib bo'lmaydi? A)h B)d C)t D)s
23. Qaysi gap tarkibida imlosi xato so'z mavjud? A) Obod va ozod Vatan bizniki. B) Daraxtni yer ko'kartiradi, odamni - el. C) Kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo'l. D) Sayoq yursang, tayoq yeysan.
24. Qaysi gap tarkibida imlosi xato so'z mavjud? A) Do'ssiz boshim - tussiz oshim. B) Sog’lom tanda sog' aql. C) Qayiqqa ayiq chiqdimi, qayiq qirg'oqqa chiqdimi? D)Turg’un turib tarozida turp tortdi.
25. Qaysi so'zda *h* tovushi tushirilgan? l)...ushyor; 2)sa...iy, 3)ma...sulot; 4)...ulosa; 5) ...arakat; 6) ...urmatli.A) 1,2,3,4,5,6 B)2,4C) 1,3,5,6 D)1,2,3,4,6
26.Qaysi so'zda *x* tovushi tushirilgan? l)...ushyor; 2)sa...iy; 3)ma...sulot; 4)...ulosa; 5) ...arakat; 6) ...urmatli;A) 1,2,3,4, 5, 6 B) 2,4 C) 1,3,5, 6 D) 1,2, 3,4,6
27 *...esh* Qaysi undoshni nuqtalar o'rniga qo'yib bo’lmaydi?A)b,p B)m,t C)k.x D)j,l

28Qaysi so'zda *x* tovushi tushirilgan?I)...ukm; 2)...ozirjavob; 3)ta...t; 4)sa...na, 5) ...ayol;
29..arkim; 7) ...ech qachon. A) 3, 5 B) 2, 4, 6, 7 C) 1,3,5 D)1,2,4,6,7
30. Nuqtalar o'rniga qaysi undoshni qo'yib bo'lmaydi? ...*alak*A)p B)f C)h D)r
31....aqir Nuqtalar o'rniga qaysi undoshni qo'yib bo'lmaydi?A)f B)p C)r D)t
32. *So...* Qaysi undoshni nuqtalar o'rniga qo'yib bo'lmaydi?A)sh B)f C)p D)ch
33. Tu… Nuqtalar o'rniga qo'yib bo'lmaydigan undoshni aniqlang.A) z B) p C) f D) j
34. *To '...on* Nuqtalar o'rniga qaysi undoshni qo'yib bo'lmaydi?A)f B)j C) p D)z
35. Qayidagiso'znitarjimaqiling. Нигде больше не встретите таких добрых людей
A. hamma joyda bunday odamlarni topish mumkin. B. Hech qayerdan bunday bilimdon odamlarni uchratish mumkin emas.C. bunday odamlar hamma joyda uchraydi.D. yaxshi odamlar barcha joylarda uchraydi.
36. *...ala* Qaysi undoshni nuqtalar o'rniga qo'yib bo'lmaydi?A) l B) d C) t D) ch
37. Nuqtalar o'rniga kerakli unlilarni qo'yib yozing.
Bug…ngi ishni …rtaga q…yma.A. t, d. B. u,e,o' C. l ,d D. barchasi
38. Mar… nuqtalar o'rniga mos keladigan undoshni qo'ying A. D. B.g C. B. D. j
39. *O...* Qaysi undoshni nuqtalar o'rniga qo'yib bo'lmaydi?A) d B)q C) t D) s
40. Gaplarning qay birida *mart* so'zi tushirilgan?A) ... bir o'lar, nomard-ming. B) Og'zi kuygan ...ni ham puflab ichadi.C) ... shamoli esdi D)Sakkizinchi... – onamlarning bayrami.
41. *Qatiq* so'zi tushirilgan gapni aniqlang. A)... bir o'lar, nomard-ming. B)Og'zi kuygan ...ni ham puflab ichadi. C) ... shamoli esdi. D)Sakkizinchi... – onamlarning bayrami.
42. Gaplarning qay birida martso'zi tushirilgan?A)... bir o'lar, nomard-ming. B) Og'zi kuygan ...ni ham puflab ichadi. C) ... shamoli esdi. D)Sakkizinchi... – onamlarning bayrami.
43. *Onangni ...ingda tutsang, singlingni ..da tut.* Mazkur gapda tushirilgan so'zni aniqlang. A) bosh, yelka B) kaft, kift C)bel, quloch D) bosh, qo'l
44. ... *soat sakkiz yarimda boshlanadi.* Mazkur gapda tushirilgan so'zni aniqlang. A)dars B)saboq C) darz D)tegib
45. *Oynaga ... ketdi.* Gapda tushirilgan so'zni aniqlang.A)dars B) siniq C) darz D)tosh
46. *B...rmoq* Nuqtalar o'rniga to'g'ri kelmaydigan harfni aniqlang.A) a B)o C)u D)o'
47.*Yo...* Nuqtalar o'rniga qaysi harf to'g'ri kelmaydi? A)g' B)j C)d D)t
48. *Od...m* Qaysi harf nuqtalar o'rniga to'g'ri kelmaydi?A)u B)a C)i D)A, B, C
49. *X...los* Nuqtalar o'miga to'g'ri kelmaydigan harfni aniqlang.A)o B)a C)o' D)A, B
50. *Su...* Harflardan nuqtalar o'rniga to'g'ri kelmaydiganini aniqlang.A)z B)ng C)d D)t
51. So'zlarning bir-biriga bog'lanishi, gap va uning turlarini o'rgatadigan tilshunoslikning bo'limi.A) morfologiya B) sintaksis C) leksikologiya D) punktuatsiya
52.Ты получил только что мое письмо? Quyida berilgan gapni o'zbek tiliga tarjima qiling.
A. Sen hozirgina keldingmi? B.Sen bugun xat oldingmi? S. sen hozirgina mening xatimni oldingmi? D. Barcha javoblar to'g'ri
53. Bamaslahat,obodonlashtirish,gavjum,ko'ngilsizlik kabi so'zlarning tarjimasini toping.
A.сообша, благоустраивать, многолюдный
B.Спешит, правонарущение, соблюдать
S.Не требует, произойти
D.Дружный, вместе, хотеть
54. Olmosh nechta turga bo'linadi
A. 6 turga bo'linadi S. 7 turga bo'linadi
B. 8 turga bo'linadi D. 10 turga bo'linadi.

55. Ayyor,balli, bitirmoq, mazali,ozgina,to’satdan,puxta.Quyidagi sinonim so’zlarni davom ettiring.

